Хулоса. Шунга қарамай, адиб ижодининг ҳамма жиҳатлари ҳар томонлама ўрганилган дея олмаймиз. Унинг адабиётшунослик ва танқидчилик фаолияти борасида бу фикрни айтиш мумкин. Чунки С.Айний адабиётшунос сифатида нафақат Навоий ижодини, балки, Абу Али ибн Сино, Саъдий Шерозий, Бедил, Фирдавсий, Рудакий, Муқимий каби шоирлар ижодини ўрганиб салмоқли тадқиқотлар яратди. Ўзбек адабиётшунослигида Айнийнинг бу тадқиқотлари ҳақида йирик, монографик йўсиндаги тадқиқотлар яратиш айнийшунослик олдидаги долзарб вазифалардандир. Булардан ташқари Айнийнинг илмий-танқидий меросида мақолалар, мактублар, тақризлар ҳам ўрин олганки, уларни ҳам ўрганиш олдимизда турган муҳим вазифалардан. С.Айний ижоди тожик адабиёти, адабиётшунослиги билан бир қаторда ўзбек адабиёти, адабиётшунослиги ва танқидчилигини ривожлантиришда алоҳида аҳамият касб этади. Шунинг учун унинг ижодини, илмий-танқидий меросини мустақиллик мафкураси нуқтаи назаридан тадқиқ этиш, ўрганишда биз бухороликлар айниқса, масъуллигимизни унутмаслигимиз керак. Буюк устод Айний руҳи олдида бунга бурчлимиз.

АДАБИЁТЛАР:

1. Айний замондошлари хотирасида. – Т., 1978. – 278 б.
2. Алиев С. Бухорода битилган байтлар. – Т., 1996. – 115 б.
3. Аҳмедова Ш. Мактубот ва адабий танкид. – Т.: Фан, 2005. – 138 б.
4. Аҳмедова Ш. Бухоро осмонидаги икки юлдуз: Садриддин Айний ва Фитрат//Айний ворислари, 2023. – №3-4. – Б.17-23.
5. Аҳмедова Ш.Маърифатпарвар жадид танкидчилари. – Германия: Globe Edit, 2023. – 142 б.
6. Воҳидов Р., Маҳмудов М. Устод Айний сабоқлари. – Т., 2004. – 314 б.
7. Назаров Б., Расулов А., Аҳмедова Ш., Қаҳрамонов Қ. Ўзбек адабий танкиди тарихи. Дарслик. – Т., 2012. – 429 б.
8. Nematovna, Akhmedova Shoirra, Kadyrova Nasima Saidburkhonovna, Kurbanova Oltinoy Bekmurodovna. Methodology and skills problems.// The journal of contemporary issues in business and government 27.5 (2021): 778-784.
9. Nematovna Akhmedova Shoirra. Genre of literary portrait in the works of alisher Navai.// Scientific reports of bukhara state university/Научный вестник” БухГУ: 127-132.
10. Сафаров О.,Сафарова Ҳ. Навоийга талпинган юрак. – Бухоро: 2002. – 78 б.
11. Ғаниева С. Наср ва бадиият. Китобда: Навоий ва ижод сабоқлари. – Т.: Фан, 1981. – 223 б.

*Бегимов Ўктам Ҳайтбаевич,
Урганч давлат университети
тадқиқотчиси
(Ўзбекистон)
E-mail: luktambegimov@gmail.com*

САДРИДДИН АЙНИЙ ИЖОДИ ЙИРИК МУНАҚҚИД ТАЛҚИНИДА

Аннотация. Академик М.Қўшжонов А.Қодирий, Ойбек, А.Қахҳор каби ижодкорлар ҳақида кўплаб тадқиқотлар яратди. Бу ижодкорлар орасида ўзбек-тожик адабиёти, умуммаънавияти учун бекиёс ҳисса қўшган Садриддин Айний ҳам бор, албатта. Академик Матёқуб Қўшжонов бу ижодкорнинг ўзбек-тожик адабиёти учун қўшган улушини ўзининг “Айний бадииятининг эволюцияси” номли китобида фахр билан тилга олади. Қайд этиш жоизки, китобда Айний “ўзбек адабиётини бошлаб берган санъаткор”, “катта прозамизни бошлаб берган устоз ёзувчилардан” сифатида эътироф қилинади ҳамда Абдулла Қодирий, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийлар билан бир авлод вакили сифатида улуғланади. Мазкур мақолада йирик мунаққид, академик Матёқуб Қўшжоновнинг Садриддин Айний ижодига хос кузатишлари, таҳлил ва талқинлари ҳақида сўз юритилади. Айний бадииятининг эволюцияси ҳақидаги илмий кузатишларининг ўзига хос жиҳатлари ёритилган.

Калит сўзлар: Айний, бадиий ижод, танқидчи, ижодкор, тарих, талқин ва таҳлил.

Аннотация. Академик М.Кошжанов создал множество исследований о таких творческих людях, как А.Кодири, Ойбек, А.Каххор. Среди них, конечно же, Садриддин Айни, внесший огромный вклад в узбекско-таджикскую литературу, общую духовность. Академик Матякуб Кошжанов с гордостью отмечает вклад этого художника в узбекско-таджикскую литературу. Стоит отметить, что в книге Айний признан “художником, положившим начало узбекской литературе”, “наставником, положившим начало нашей великой прозе”, а также представителем одного поколения с Абдуллой Кадири и Хамзой Хакимзода Ниязи. В данной статье рассказывается о наблюдениях, анализе и интерпретациях великого критика, академика Матякуба Кошджанова над творчеством Садриддина Айни. Освещены специфические аспекты его научных наблюдений об эволюции искусства Айни.

Ключевые слова: Айни, художественное творчество, критик, творец, история, интерпретация и анализ.

Abstract. Academician M. Koshzhanov has created many studies about such creative people as A. Kodiri, Oybek, A. Kahhar. Among them, of course, is Sadridin Aini, the second great contribution to Uzbek-Tajik literature and general spirituality. Academician Matyakub Koshchanov is proud to note the contribution of this figure to Uzbek-tajik literature. It is worth noting that in the book Ayniy is named “the artist who completed the beginning of Uzbek literature”, “the boss who completed the beginning of our great prose”, as well as a representative of the same worship with Abdullah Kadiri and Hamza Hakimzoda Niyazi. This article talks about the observations, analysis and interpretations of the great critic, academician Matyakub Koshdzhanov on the work of Sadridin Aini. Specific aspects of his scientific observations about the evolution of Ayni art are highlighted.

Keywords: Ayni, artistic creativity, critic, creator, history, interpretation and analysis.

Кириш. Кўнгил... Уни ўнинчи сайёра дегим келади. У коинот қадар чексиз, осмон қадар бепоён, уммон қадар сирли. Ўз юрагини тўхтатиб, бир зум кўнгил кенгликларида яшашга журъат топа олган инсон “адабиёт уй дафтари”га муҳрланади. Ана шундай ўнинчи сайёрани вужудида кўтара олган ижод кишиларидан, “бир нафасда ҳам баҳорни..., ҳам хазонни кўр”ган қаҳрамонлар яратиб, мазлум учун малҳам, золим учун бир дард бўлган, ўзбек-тожик халқлари дўстлигини адабиёт кўприги билан боғлаган ижодкорлардан бири Садриддин Айнийдир. Бу улкан ижодкор ҳақида тадқиқот яратган Матёқуб Қўшжонов (1918-2005) ўз замонасининг етук мунаққиди сифатида ўз танлаган объекти – ижодкорга турли хил муносабат билдиради. Яъни айрим ижодкорларга ўз назарий-фалсафий қарашларини исботлаш учун фикр, иқтибос олиш билан

этибор қаратса, айримларини махсус мақола ёки китоб ёзиш билан эътироф этади. Хусусан, Абдулла Қодирий, Ойбек, Абдулла Қаҳҳор, Ҳамза каби ижодкорларга махсус китоб, рисола ёзиб, адабиётшунослик тақомилига ўз илмий-ижодий концепсияси билан ҳисса қўшган улкан назариётчи, адабиётшунос сифатида танилди. Юқорида номлари зикр қилинган ижодкорлар орасида ўзбек-тожик адабиёти, умуммаданияти, умуммаънавияти учун беқиёс ҳисса қўшган Садриддин Айний ҳам бор, албатта. Академик Матёқуб Қўшжонов бу ижодкорнинг ўзбек-тожик адабиёти учун қўшган улушини ўзининг “Айний бадииятининг эволюцияси” номли китобида фахр билан тилга олади. Қайд этиш жоизки, китобда Айний “ўзбек адабиётини бошлаб берган санъаткор”, “катта прозамизни бошлаб берган устоз ёзувчилардан” сифатида эътироф қилинади ҳамда Абдулла Қодирий, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийлар билан бир авлод вакили сифатида улуғланади.

Асосий қисм. Адабиёт тарихи моҳиятидан ёндашилганда тарих яратган бир даврнинг ушбу учала шахси ҳам, аввало, ўз ижодини салафлари қатори анъанавий услубда бошлади. “Бу уч сиймо ижоди, асосан, ўзбек классик адабиётига хос анъанавий йўналишда – эски ижтимоий тузумни қоралаш, маърифатпарварлик ғояларини ташвиқот қилиш йўсинида бўлди. Адабиётимизда анъанавий услуб, хусусан, шакл соҳасида узоқ сақланди” [10, 7]. XIX аср охири XX аср бошларида туғилиб, адабиёт тарихида “XX аср ўзбек адабиёти” деб номланган адабиёт босқичини шакллантиришда муносиб улуш қўшганлар орасида, албатта, Садриддин Айний ҳам “йўқлама қилинишга” лойик. Анъанани новаторлик билан бойитган ушбу давр кишилари томонидан яратилган XX аср ўзбек адабиёти кўп асрлик миллий адабиётнинг манتيкий давоми, айни вақтда бир қатор ўзига хос белгиларга эга бўлган алоҳида босқичи ҳамдир. Мана шу ўзига хосликни эса юқоридаги каби ижодкорларнинг ижодий янгиликлари, услуб, мавзу, оҳанг, жанрдаги ўзгаришлар белгилаб бериши табиий. Матёқуб Қўшжоновнинг Айнийга “ўзбек адабиётини бошлаб берган санъаткор”, “катта прозамизни бошлаб берган устоз ёзувчилардан” сифатида қарашининг ижодидоғи ана шу ўзига хосликдан келиб чиққан хулосадир.

Мунаққид Садриддин Айний ҳақида фикр билдирар экан, унинг педагог, журналист, шоир ва носир сифатидаги фаолиятини босқичма-босқич тасвирлашга ҳаракат қилади. Яъни адибнинг педагог ва журналист сифатида ҳаётининг ҳақиқатни англаши шоир ва носир сифатидаги бадиий ҳақиқат томон йўл очиб берганлигини кўришимиз мумкин. Масаланинг бу томони Матёқуб Қўшжоновнинг ижодкор муваффақиятини белгилайдиган омилларидан бири сифатида қараладиган характер яратиш маҳоратига алоҳида урғу беришига ўхшаб кетади. Масалан, Ойбекнинг “Қутлуғ қон” романи бош қаҳрамони Йўлчи образидоғи тадрижийликни, динамикани кўрсатиб берганидек, Айний ижодидоғи ўсиш суръатини тафтиш қилади. Шунинг учун ҳам китоб “Айний бадииятининг эволюцияси” деб номланган, назаримда. Кўпчилик ижодкорлар каби Айний ҳам ижодини шеър ёзиш билан бошлаган бўлса, носир сифатида фаолиятини давом қилдирди ва китобхон назарида кўпроқ шу ном билан қолди. Шу жиҳатларига этибор қаратган олим унинг шеърининг асарларини Ҳамза ижоди билан солиштириб кўради ва оҳанг, шакл, мавзу ва мазмундаги ўхшашликларни таъкидлаб ўтади.

Муҳокама ва натижалар. “20-йиллар ўзбек адабиётининг асосий ютуғи етук реалистик ҳикоя, қисса, роман, драма намуналари ва янги шеърининг шаклларнинг пайдо бўлиши билан ҳам белгиланади... 20-йилларнинг нисбатан каммаҳсул жанри қиссачилик бўлди. Шунга қарамай, Садриддин Айнийнинг “Бухоро жаллодлари” ва “Қулбобо” асарлари умуман бу давр ўзбек насри, хусусан қиссачилиги шаклланишида муҳим аҳамиятга эга бўлди” [10, 38]. Адабиётшунос Айнийнинг носир сифатида яратган биринчи йирик асари “Бухоро жаллодлари”ни Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романи билан бир фонда таҳлил қилади ва қуйидагича қарорга келади: “Абдулла Қодирий “Ўткан кунлар”да инсон руҳий оламининг “етти қават осмонига” чиқариб, ўша баландликдан туриб сизни ҳаёт сирлари билан таништираётгани бўлади ва шу йўл билан ўз муддаосига эришади. Садриддин Айний эса бизни ҳамма юрадиган оддий сўқмоқлардан, ҳаётнинг реал ўнқир-чўнқир йўлларида етаклайди, ҳаётнинг узоқдан кўриш мушкул бўлган нуқталари билан таништиради ва шу йўл билан ўз муддаосига эришади” [10, 20].

Кўринадигани, ҳамма нарса қиёс қилинганда ойдинлашади, деган қоида бу ерда ҳам мезон вазифасини ўтамоқда.

Умуман олганда, М.Қўшжонов Садриддин Айний ижодий фаолиятини комплекс ўрганишга ҳаракат қилади. Ижодкор билан боғлиқ ҳаётини ва ижодий лавҳаларни унинг фарзандлари Холида Айний ҳамда Камол Айнийлар, қолаверса, Айний фаолияти билан шуғулланган тожик, ўзбек, рус олимларининг маълумотларига таянган ҳолда изоҳлайди. Шу билан бирга, ўз услуби, тадқиқ қилиш маҳоратини намоён қилиб, масалага Матёкуб Қўшжонов сифатида ёндашади. Асосан прозаик асарларни тадқиқ қилган мунаққид китобда Айний ижодининг ибтидоси – шеърятга қисқа тўхталади, аммо унинг “Бухоро жаллодлари”(1920), “Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар” (1920-21), “Одина”(1924-25), “Дохунда”(1930), “Қуллар” (1928) каби насрий асарларини моҳиятан кенгроқ очиб беришга ҳаракат қилади. Уларни ўзаро ҳамда бошқа адабий-бадиий асарлар билан қиёслаган ҳолда ўрганади. “Унинг қирқ йиллик умри Бухоро амирлигининг даҳшатли зулмати ва жаҳолати муҳитида ўтди. У амир-амалдорларнинг, дин-шариат пешволарининг йиртқишларча жабр-ситамини, зулм-зўравонлигини, меҳнаткаш халқ оммасининг қулларча мудҳиш ҳаёти ва алам-изтиробларини, жаҳолатнинг маърифатга қарши ваҳшиёна ҳамласи ва илм-фан, санъат-адабиёт аҳллариининг фожиасини кўрди” [10, 5]. Унинг бу кўрган-кечирганлари аста-секин қоғоз саҳифаларида муҳрлана бошлади. Ва тарихнинг бу нуқтасини гоҳ деталлаштириб, гоҳ умумийлик тамойилига амал қилиб бадиий асар сифатида китобхонлар оммасига тақдим этди. Умуман олганда, унинг ҳар бир асаридан тарихийлик уфуриб туради. Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, “адибнинг ижод эволюциясига назар ташласак, ҳар бир асарда тарихий воқеалар кўлами кенгая борганлигини кузатиш мумкин. “Бухоро жаллодлари”да тарихнинг асосан битта эпизоди – Колесов ҳаракати натижасида Бухорода рўй берган қон-қирғинли фожа акс этади. “Одина”да воқеа Бухоро қишлоқларидан бирида бошланиб, Андижон ва Тошкент ҳаёти, у ерларда рўй бераётган инқилобий уйғонишга тегишли воқеалар кўламини қамраб олади. “Дохунда”да ҳам воқеа амирлик даврида Кўҳистон қишлоғи одамларининг кундалик ҳаётдан бошланади, кейин Бухорода рўй берган инқилобий эпизодлар, совет даврида Тожикистонда янги ҳаёт қуриш масалаларига тегишли воқеалар акс эттирилади” [10, 59]. 20-йиллар ўзбек адабий танқидчилигига муносиб улуш қўшган Вадуд Маҳмуд ҳақида фикр юритганда профессор Баходир Каримов қуйидагиларни ёзади: “Унинг асарларидан ... тарихга чексиз ҳурмат-эҳтиром нафаси келади. У бир мақоласида даврининг маънавий кемтиклари хусусида тўхталиб, ҳалигача Туркистоннинг тарихини ўрганишга жиддий киришилмаганини айтади, афсус чекади. Ақалли Бухоро тарихини ёритган Бартольд ёки Вамбери ёхуд Садриддин Айний асари бўлса ҳам, босиб чиқариш лозимлигини тақлиф этади, улар Туркистоннинг мукамал тарихи бўла олмаса-да, материал сифатида аҳамияти борлигини таъкидлайди” [8, 88].

Матёкуб Қўшжонов адибнинг “Қуллар” романи ҳақида мулоҳаза юритар экан, назариётчи олим сифатида унинг сюжети, композициясига алоҳида диққат қаратади: “Қуллар” романи ғоясининг композицион жиҳатдан шаклланиши Ўрта Осиё адабий жараёнида тамоман янгилик эди. Шу хил оригинал композицияда асар яратишнинг ўзи жасорат эди. Гап шундаки, бунгача ўзбек, тожик, қозоқ адабиётларида яратилган асарлар, одатда, бир-икки қаҳрамоннинг саргузаштлари, ҳаёт йўлларида иборат бўлиб қолар, бошқа образлар эса чироқ атрофида айланган парвоналар сингари ўша бир-икки образ билан кифояланиб, ўралашиб қолинар эди. “Қуллар”да бу хилдаги марказий образни кўрмаймиз. Унинг марказида икки-уч авлодга мансуб қуллар образи, уларнинг мураккаб тақдири ва ҳаёти тарихи туради. Бу хилдаги композицион тузилишнинг ўзига хос қийинчилиги бор” [10, 63]. Аслида, М.Қўшжонов мазкур асарнинг бошқа асарлардан композицион қурилишидаги тафовутини кўрсатиб, унинг жанрий ўзига хослигини таъкидламоқчи.

Юқоридаги фикрни давом қилдиришдан олдин “Қуллар” романининг яратилиш даврига диққат қилсак: 20-йилларнинг иккинчи ярми – 30-йилларнинг бошида яратилган, 1930-йиллар бошларида Ўзбекистон Республикасининг яхши асарлар учун белгиланган мукофотига лойиқ кўрилган. Демак, бу даврда ўзбек адабиётида чинакам роман жанри талабларига жавоб берадиган “Ўткан кунлар”, “Меҳробдан чаён” каби романлар бор эди. Бироқ уларнинг композицион қурилиши “Қуллар”никидан фарқ қиларди. Маълумки, роман жанрининг мавзу ва тузилиш жиҳатдан ўзига хос турлари мавжуд. Юқоридаги роман композициясига хос фикрлардан англаймизки, С.Айнийнинг “Қуллар” романи роман-эпопея жанрига мансуб бўлиб, у ўзбек адабиёти тарихида бу жанрнинг дастлабки намунаси ҳисобланади. Демак, шундай хулоса қилишга

ҳақлимиз: ҳар қандай эпопея бу – роман, ҳар қандай роман эса эпопея эмас. Яъни, воқеалар марказида бир-икки асосий қаҳрамон эмас, балки бутун бошли халқ ёки унинг бирор бўғини турадиган, ҳажм эмас, унда кўтарилган қанчалик кўп ва катта воқеа-ҳодисаларнинг қамраб олинishi муҳим бўлган роман-эпопея ҳисобланади.

Айний, аввало, иккала миллатнинг ҳам жонкуяр фарзанди. У ҳар икки тилда бирдек маҳорат билан ижод қилди. Айрим асарларини ўзбекча ёзган бўлса (“Бухоро жаллодлари”, “Қуллар”), айрим асарларини тожикча (“Одина”, “Дохунда”) ёзди. Лекин бу асарлар ҳар икки миллат бадиий-эстетик тафаккурида юксак маънавий хазина сифатида эътироф қилинади. Нега шундай? Боиски, Айнийнинг бу икки халқ олдида қилган хизматларидан яна бири унинг таржимачилик фаолиятидир. Ўзбекча ёзган асарини тожикчага, тожикча ёзган асарини ўзбекчага айнан унинг ўзи ўғирди. Натижада у ижодкорнинг ижодий концепциясини тушуниб-тушунмай қилган мутаржим эмас, балки адиб-мутаржим, ижодкор-мутаржим позициясида турди. Яъни ижодкор ва таржимон бирлиги юзага келди. Ҳеч иккиланмай айтишимиз мумкинки, Садриддин Айнийнинг мазкур асарлари ҳар икки қардош халқларнинг маънавият бўстонида ўз миллий руҳиятини сақлаган ҳолда татимли ифोरини таратиб турибди. Ёки “Судхўрнинг ўлими”ни таҳлил қилар экан, М.Қўшжонов ўзига хос фикр юритганини адабиётшунос олима Ш.Ахмедова ҳам шундай таъкидлайди: “Адабиётшунос олим М.Қўшжонов ҳам 80-йилларда Қори Ишқамбани Гобсек билан чоғиштиради. У қиёси деталлардан бошлайди [5,50]: “Ишқамба” сўзи, Садриддин Айнийнинг ўз изоҳига қараганда, “хайвонларнинг қорни” маъносини билдиради. Бошқача айтганда, бу сўз, “ютиш, ейиш, ичиш, ҳазм қилиш” маъноларини англатади. “Гобсек” сўзи эса Бальзак изоҳига кўра “живоглот” яъни “тириклай ютадиган” деган маънони билдиради. Халқ жонли тилида ютишни “ютанғи”, “ютоққан” деб ҳам ишлатишади. Ҳар икки асарда ҳам бадиий ғояни ифодаладиган образлар моҳиятини очиб беришга хизмат қиладиган номлар танланган” [10, 83]. Кўрамизки, М.Қўшжонов бадиий матн сирларини очар экан, ҳар бир сўзнинг маъноларигча диққатни қаратади.

Хулоса. “Ижодкорлик – асл маънони ўқий олиш ва бошқаларга етказа билиш қобилияти деганидир. Асл маъно – эзгулик шохсупасининг сўнгги поғонасидир. Бу хил қобилият инсон вужудига руҳ билан бирга киради ва ҳамиша яхлитликка, бутунликка, ўзагига, аслига қараб интилади, одамдан ҳам шуни талаб қилади. Айнан шунинг учун ҳам ижодкорлик – илоҳиётга дахлдорликдир” [9, 8] Мана шу илоҳий неъмат билан сийланган С. Айний англаган асл маъно ҳали узоқ йиллар давомида маънавий дунёмизни безаб туради. Ўзбек-тожик халқларининг адабий алоқаларини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Зеро, ижодкорликдан ҳам асл муддао шудир.

М.Қўшжоновнинг С.Айнийга бағишланган асарини ўқир эканмиз, унинг улкан адиб ижоди ва шахсига бўлган самимий ҳурмати, симпатияси ёрқин намоён бўлиб туради. Бу эса шу йўналишдаги танқидий асарларнинг энг бош ва асосий талабларидан биридир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Айний. Асарлар. 8-жилд. Тўла асарлар тўплами. – Т., 1978. – 210 б.
2. Ахмедова Ш. Хотираларда устод Садриддин Айний қиёфаси// Садриддин Айний ва ўзбек насри тараққиёти// Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Бухоро, 2018. –Б. 16-20.
3. Ахмедова Ш. Адабий танқид жанрлари ривожига С.Айнийнинг ўрни// Конференция байналмилалии илми-амалии онлайн тахти унвони. Масъалаҳои мубрами филологияи ўзбек тоҷик. – Хужанд, 2020. – С.78-84.
4. Ахмедова Ш. Бухоро осмонидаги икки юлдуз: Садриддин Айний ва Фитрат//Айний ворислари, 2023. – № 3-4. – Б. 34-39.
5. Ахмедова Ш. Маърифатпарвар жаҳид мунаққидлари. – Германия. Glebe Edit, 2023. –140 б.
6. Бегимкулов Ў.Ойбекни англаган олим// Илм сарчашмалари, 2019. – № 1. – Б. 78-82.
7. Бегимкулов Ў. Матқуб Қўшжонов Озод Шарафиддинов талқинида.//Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2020. – № 3. – Б. 92-98.
8. Каримов Б. Вадуд Маҳмуд. –Т., 2000. – 123 б.
9. Эшонкул Н. Ижод фалсафаси (“Мен”дан менгача – 2). –Т.: Академнашр, 2018. – 416 б.

FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

*Каримов Обитжон Якубжанович,
Наманган давлат университети доценти,
филология фанлари номзоди
(Ўзбекистон)
Email: k_obitjon@mail.ru*

НУРБОЙ ЖАББОРОВ – ОГАХИЙ АСАРЛАРИ ТАДҚИҚОТЧИСИ

Аннотация. Муҳаммад Ризо Огаҳий ўзбек мумтоз адабиётининг кўзга кўринган вакили. Унинг серқирра фаолияти ҳамиша адабиётшуносликнинг диққат марказида турибти. Айниқса, шоир ижодига қизиқиш ва уни кенг қамровда тадқиқ этиш ҳаракати истиқлол йилларида жадаллашди. Бу жиҳатдан нуктадон адабиётшунос, матншунос Нурбой Жабборовнинг хизматлари беқиёс. Матншунос олим томонидан Огаҳийнинг “Зубдату-т-таворих” тарихий асари тўлиқ ҳолда илмий-изоҳли нашри тайёрланган. Мақолада Огаҳийнинг мазкур асари юзасидан олиб борилган тадқиқотлари матншунослик нуқтаи назаридан, ундаги лирик жанрлар эса адабиётшунослик аспектида ёритилган.

Калит сўзлар: адабиётшунос, матншунос, доктор, профессор, журналист, монография, адабий танқид, образ, назм, наср, роман, қисса, адабий-бадий тафаккур, Ўзбекистон Фанлар академияси, Қўлзмалар институти, фольклор. маданий мерос.

Аннотация. Муҳаммад Риза Огаҳи – выдающийся представитель узбекской классической литературы. Его многогранная деятельность всегда была в центре внимания литературоведения. Интерес к творчеству поэта и движение за его более широкое изучение усилились в годы независимости. В этом отношении неопределимы заслуги выдающегося литературоведа и текстолога Нурбоя Джаббарова. Ученый-текстолог подготовил полное, научное и пояснительное издание исторического труда Огаҳи «Зубдату-т-таворих». В статье рассматриваются исследования, проведенные над этим произведением Огаҳи с точки зрения текстологии, а также лирические жанры в нем с точки зрения литературоведения.

Ключевые слова: литературовед, текстолог, доктор, профессор, журналист, монография, литературная критика, образ, поэзия, проза, роман, повесть, литературно-художественное мышление, Академия Наук Республики Узбекистан, Институт рукописей, фольклор.

Abstract. Muhammad Riza Ogahi is a prominent representative of Uzbek classical literature. His multifaceted activity has always been in the center of attention of literary studies. Especially, during the independence years interest in the poet's work was risen in a wide range. In this regard, the services of the outstanding literary critic and textual scholar Nurboy Jabborov are invaluable. The textual scholar prepared a complete scientific and explanatory edition of Ogahi's historical work "Zubdatu-t-tavorikh". The article discusses Ogahi's research on this work from the point of view of textual studies, and the lyrical genres in it from the aspect of literary studies.

Keywords: literator, textologue, doctor, professor, journalist, monography, literary criticism, symbol, poetry, fiction, novel, literary and fiction idea, Academy of sciences, institute of manuscripts, folklore.

Қириш. Миллий адабиётимиз ўзининг шонли тарихига, бой меросига, муносиб анъаналарига эга. Бугунги фараҳбахш кунларда ўзбек адабиёти ўзининг кадрини топди ва топиб бормоқда. Ҳаётимизни сўз санъати дея эъзозланадиган адабиётсиз тасаввур эта олмаймиз. Ўтмишда мумтоз адабиётимизнинг пок номларига қора бўёқлар чапланган атоқли намоёндалари асарлари халқимиз кўлига етказиб берилди. Бунда халқимиз учун хизмат қилган шоир ва ёзувчиларнинг ўрни беқиёсдир. Шуни ҳам аниқ айтиб ўтиш керакки, шоир ва ёзувчига баҳо берадиган, уларнинг асарларини таҳлил қиладиган соҳа вакиллари ҳам борки, биз уларни адабиётшунос олимлар, танқидчилик илмининг билимдонлари дея хурматлаймиз, эъзозлаймиз. Замонамизнинг серқирра ижодкорлари, соҳамизнинг машҳур олимлари адабиётшунослик илмини изчил ўрганишмоқда, қатор тадқиқот ишларини олиб боришмоқда. Атоқли адабиётшунос олим,

мумтоз ва замонавий адабиёт, матншунослик ва адабий манбашунослик, адабий танқид соҳаларининг билимдони, фаол журналист ва публицист, филология фанлари доктори, профессор Нурбой Жабборовнинг илмий-ижодий фаолияти шу жиҳатдан алоҳида эътирофга сазовор.

Кейинги йилларда Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг шахсий ташаббуси ва алоҳида эътибори туфайли мумтоз ва замонавий адабиётимизни халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб этиш борасида салмоқли ютуқлар қўлга киритилмоқда. Натижада адабий жараёнда, адабиётшуносликда сезиларли ўзгаришлар рўй берди. Адабиётшунослигимизнинг ўрганилмай қолиб келаётган кўплаб соҳалари бўйича илмий изланишлар амалга оширилиб, ўнлаб монографиялар нашр этилди. Бизга тўла етиб келмаган асарлар матни, уларни нашрга тайёрлаш ишлари йўлга қўйилди ва бунга ўз соҳасининг билимдони бўлган матншунос олимлар жалб қилинди. Бунинг натижаси ўлароқ кўплаб унут бўлган асарлар, уларнинг муаллифлари ҳақидаги нодир маълумотлар адабиёт мухлисларига етиб келмоқда. Бу эзгу ишлар ҳозир ҳам давом эттирилмоқда.

“Зубдату-т-таворих” – нодир манба. Бу манбанинг нашр этилиши ўзбек матншунослигининг муҳим ютуғи сифатида баҳоланишга лойиқ. Негаки, асар нашри катта меҳнат ва заҳмат маҳсулидир. Бу бир неча жиҳатларда кўзга ташланади. Айниқса, матн араб имлосидан кирилл ёзувига бехато табдил қилинганлиги унинг илмий қимматини оширади. Мумтоз адабиётимиз намуналарининг кўплаб нашрларига эгамиз. Афсуски, уларнинг аксариятида хатоларни санаб адоғига етиш қийин. “Бехато табдил қилинган” жумласи бор-йўғи уч сўздан таркиб топган ва уни осонгина талаффуз этиш мумкин. Лекин бу сўзлар замирида юк бениҳоя оғир.

Асосий қисм. Муҳаммад Ризо Огаҳий адабий мероси бўйича кўплаб тадқиқотлар яратилган. Серқирра олим Нурбой Жабборов “Зубдату-т-таворих” асарининг тўлиқ илмий-изоҳли нашрини амалга оширди. Мазкур асарга оид салмоқли тадқиқот яратишга эришди. Бундан ташқари, Огаҳий лирикаси ва таржима асарлари юзасидан ҳам диққатга сазовор илмий изланишлар олиб борди. Адабиётшуноснинг Огаҳий лирикаси бўйича эълон қилган мақолаларида шоир шеърятининг ўрганилмаган қирралари тадқиқ қилинди. Ижодкорнинг ҳамд, муножот ва наътлари биринчи марта Нурбой Жабборов томонидан таҳлил этилди. Ҳазал, маснавий, қасида, таърих жанрларидаги назмий асарлари ҳақидаги олимнинг мақолалари ҳам кўпчилиққа манзур бўлган. “Шарқ юлдузи” журнали орқали ўқувчилар ҳукмига ҳавола этилган “Илм андоғ ганжи нофиъдур...”, “Тафаккур” журналида эълон қилинган “Огаҳийнинг огоҳлик сирини”, шунингдек, “Фасоҳатда нодир аллома” (“Халқ сўзи”), “Мулку миллатга эмин ўлса агар огоҳлар...” (“Фидокор”) каби мақолалар шулар жумласидандир.

“Зубдату-т-таворих” асари нашрига сўзбоши сифатида ёзилган мақолада, таъкидлаш мумкинки, бутун бошли диссертациянинг илмий юки бор. Мақолада асарнинг ўзбек ва хориж олимлари томонидан ўрганилиши, дунё фондларида сақланаётган қўлёзмалари, асарнинг ёзилиш тарихи, сюжети, унинг нафақат тарихий, балки адабий жиҳатдан ҳам нодир манбалардан эканлиги масалалари чуқур таҳлил этилган.

Олимнинг ёзишича: *“Асарда кўплаб назм намуналари ҳам келтирилган. “Зубдату-т-таворих”даги шеърини жанрларни қуйидагича тасниф этиши мумкин: қасидалар (6 та), маснавийлар (70 та), газаллар (4 та), рубоийлар (7 та), қитъалар (10 та), таърихлар (4 та), фардлар (6 та). Бундан ташқари, “назм” сарлавҳасида 16 та шеър берилган. Фардлар эса “Байт” сарлавҳаси билан китобат этилган. “Зубдату-т-таворих”даги шеърлар жами 1176 байт (2352 мисра)ни ташкил этади”* [1, 16].

Гарчи тарихий мавзуда битилган бўлса-да, асар бадиий-тарихий наср намунаси эканлиги, ижодкор фикрнинг таъсир кучини ошириш мақсадида назмдан маҳорат билан фойдалангани, муаллифнинг қасида ва таърих яратишдаги маҳорати матншунос Нурбой Жабборов томонидан илмий-назарий жиҳатдан пухта ва теран тадқиқ қилинган. Ўқувчи буни яққолроқ ҳис этиши учун олимнинг қасидалар таҳлилига оид фикрларини тўлиқ келтирамиз: *“Асарда қасида жанрига оид 6 та шеър берилган бўлиб, уларнинг ҳажми 227 байт (454 мисра)ни ташкил этади. “Қасиданинг ақалли йиғирма етти бўлур ё андин ўксукрак ва аксари муайян эрмас, – деб ёзади машҳур Шайх Аҳмад Тарозий. – Ҳар неча қофия даст берса айтурлар ва ҳар не мақсуд бўлса баёнга келтурурлар”* [2,32].

Шайх Тарозий қасида жанрига хос тўрт хусусиятни алоҳида таъкидлаб кўрсатади. Биринчиси – хусни матлаъ, яъни қасиданинг бошланиши маъно жиҳатидан мутлақо қусурсиз латиф сўзлардан ташкил топган бўлиши керак. Иккинчиси – мамдуҳ (мақталгувчи)нинг адлу инсофи таърифланиши зарур. Учинчи – мамдуҳнинг шижоати, тўртинчи – саховати мақталиши лозим. “Ва бу тўрт хислатдин ортуқ ҳар нечаким сифат қилур, ихтиёр шоирғадур” [3, 252].

Муҳокама ва натижалар. “Зубдату-т-таворих”даги барча қасидалар ушбу жанрнинг туркий шеърят назарийёчиси зикр этган талабларига тўлиқ жавоб беради. Масалан, асардаги биринчи қасиданинг ибтидоси “Фунуну-л-балоға”да айтилганидек, хусни матлаъ санъатининг бетакрор намунаси саналади:

Шаҳеким, остони ила топмиши авжи истеъло –

Ки, гар дун ястониб туфроқиға бир ҳовуши адно [3, 183].

“Хусни матлаъ”ни “хусни ибтидо” деб атаган Атоуллоҳ Хусайнийнинг ёзишича: “Ул андоғдурким, калом бошинда нозиклигу равонликта ва аларнинг зидди бўлмиши қаттиқлигу матонатта бир-бирига яқин бўлган хушу латиф лафзлардин покиза, ёқимлиг, мустаҳкам ибора тузарларким, маъно адосинда мутлақан қусур бўлмағай ва тузук зеҳн андин мақсудға бот ўта олғай, лафзу маъно орасинда муносабат риоя қилғайлар, яхши маънони энгил алфоз била ё аксинча адо қилмағайлар, дағи байтнинг икки мисраи ё насрнинг икки бўлағи орасинда муносабат риоя қилғайларким, латофату балогатта бир-бирига яқин бўлғай, бири аълою иккинчиси адно бўлмағай, маънонинг соғлом бўлмағайга савъ қилғайларким, келишмаган, қарама-қарши, ярамас, урфқа хилоф ва ҳоказо нималардин соғлам бўлғай...” [3, 250].

Шайх Аҳмад Тарозий таъкидлаган иккинчи хусусият – мамдуҳнинг адлу инсофи васф этилган мисралар ҳам Огаҳий қасидасида мавжуд. Жумладан, шоир бундай ёзади:

Инод аҳлиға қаҳр, афтодаларға лутф кўргузса,

Фалак бўлғай замингиру замин бўлғай фалакфарсо.

Тутуб овозаи адлики етти афлок айвонин,

Малак таслимгўю ҳам дуоғўйдур ҳазрати Исо (387^{аб})

Учинчиси – мазкур қасидада мамдуҳнинг шижоати ҳам теран маъно ва бетакрор бадиият билан таърифланган:

Анинг зоти ҳумоюнани килки котиби қудрат

Ёзиб соҳибқиронлиг дафтари унвонида тугро.

Зиҳи соҳибқиронеким, қирон хасм аҳлиға солиб,

Сипоҳи қаҳри етқурди залолат мулкиға яғмо (387^б)

Тўртинчи – қасидада хоннинг саховати ҳам фасоҳат ва балогат билан васф этилади. Қасиданинг қуйидаги мисралари ҳам бу фикрни тасдиқлайди:

Халойиқ нақди эҳсонидин олди комин андоқким

Гадои бенаво аҳли ганоға қилди истиғно.

Атову бахшишининг хонидин маҳзуз ўлуб доим,

Дуои давлатиға очди тил ҳам пиру ҳам барно 387^б).

Қасида матлаъи назарий қоидаларга мувофиқ келади. Хоннинг мазкур тўрт фазилатини тавсифлаш баробарида, Огаҳий мамдуҳнинг илму фазилат бобида камолга эришганини, “ҳар фан ичра даврон аро мумтозу мустасно” қуйидагича таърифлайди:

Камоли борча илму фазл аро ул ерга етмишдур –

Ки, ҳар фан ичрадур даврон аро мумтозу мустасно. [3, 178].

Раҳимқулихоннинг Хива тахтига келиши тасодифий эмаслиги, унинг ажодлари “хоразмшоҳлик нигинин ангушти иқтидорларида тутуб келган”и ҳам қасидада алоҳида зикр этилган: “На танҳо даҳр фавқида ҳасаб бирла насабда ҳам, Саросар хону хокондур анга ажод ила обо”.

Асарда муаллифнинг сажъ санъатидан фойдаланиш маҳоратига доир илмий таҳлиллар ҳам олимнинг мумтоз шеър назариясини пухта билиши ва тадқиқот жараёнида моҳирона қўллай олишидан далолат беради. Қуйида олимнинг бу ҳақдаги қарашларини келтирамиз: “Огаҳийнинг насрда сажъ қўллаш маҳорати қуйидаги биргина мисол таҳлилида ҳам яққол кўринади: “*Зиёфат лавозимининг интиҳоси ва аклу шурб маросимининг инқизосидин сўнг ҳазрати хони мағфур ва ҳазрати зилдуллоҳий савлати тамом ва умаройи соҳибэҳтиром била отланиб, отчопар*

тамошосига чиқдилар ва қир устида девнажод ва сарсарниҳод отларни ёриштируб, рустамқувват ва филҳайбат паҳлавонларни кураш тутдуруб, оти утган сайисларни ва ҳарифин йиқитгон паҳлавонларни байроқ ва жалду учун хазинаи эҳсондин нуқуди фаровон инъом қилиб, дунёдин мустағний этдилар” [4, 125]. Ушбу иқтибосда етти сажъланувчи қисм мавжуд.

Огаҳий насрида сажънинг юқорида баён этилган барча шаклий сифатларини кўриш билан бирга, сажъланувчиларнинг ўзига хос жойлашув ўрнини ҳам кузатиш мумкин. Юқоридаги жумлада *лавозими* фосиласидан олдинги қарина бир сўздан иборат бўлса, унга сажъланувчи *маросими* фосиласидан олдин тўрт сўз қўлланган. Баъзи сажъдошлар орасида эса қарина мавжуд эмас” [3, 252].

Хулоса. Юқорида таҳлилга тортилган тадқиқотлар адабиёт илмида ўз сўзи ва ўрни бўлган филология фанлар доктори, профессор, “Дўстлик” ордени соҳиби Нурбой Жабборовнинг истиқлол даври адабий ҳаёти ривожига катта ҳисса қўшганлигини билдиради. Қолаверса, адабиётшунос фаолиятининг ушбу қирраси огаҳийшуносликнинг кемтик нуқталарини тўлдиришга хизмат қилади. Дарҳақиқат, серқирра ва сермахсул олимнинг илмий лабораторияси бугунги кунда етишиб келаётган ёш олимлар учун ўзига хос ибрат, мактаб вазифасини ўтайди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. (Таржимон: академик Алибек Рустамий). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 291 б.
2. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Т.: Ҳазина, 1996. – 126 б.
3. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Н.Жабборов). – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 178 б.
4. Огаҳий – тарихнавис. /Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон (Мақолалар тўплами). – Т.: Халқ мероси, 1999. – 224 б.
5. Muhammad Rizo Ogahiy. Mulku millatga emin o'lsa agar ogohlari (Нашрга тайёрловчи Н.Жабборов). – Т., 2022. – 141 б.
6. Жабборов Н. Ўзбек бадиий-тарихий насрининг сара намунаси. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 125 б.
7. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т., 2021. – 257 б.
8. Каримов О. Абдулла Орипов шеърлятида метафорик образлар. – Т.: Фан, 2014. – 138 б.

*Karamova Shoxida Luftillayevna,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
(O'zbekiston)*

E-mail: shoxidakaramova@gmail.com

O'ZBEK MODERN SHE'RIYATIDA ISTIORANING VAZIFALARI

Annotatsiya. Modernizm asarlari murakkab, metaforik va ularni tushunish hamisha oson emas. Bu asarlar o'quvchidan tasavvurini zo'riqtirishni talab qiladi, murakkabligi va serqatlamligi bois ham juda xilma-xil talqinlarga imkon beradi. Ularni yagona qoidalar maxrajiga birlashtirish qiyin. Modernchilarda shartlilikning kuchli, originallik ularida ko'proq shaklda, metaforiklikda, ifodada namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada mana shu jahatlarni tahlilga tortishga harakat qilingan. Tahlillar uchun R.Parfi, Aziz Said, Faxriyor, A.Qutbiddin, Go'zal Begim she'rlari tanlangan.

Kalit so'zlar: modern, metafora, originallik, hayotiy tafsil, istiora, hissiy "tafakkur", mushohada, irratsional ong, abstrakt, noreal ifoda.

Аннотация. Произведения модернизма сложны, метафоричны и не всегда понятны. Эти произведения требуют от читателя расширения своего воображения и из-за своей сложности и богатства допускают самые разные интерпретации. Их сложно объединить в единый знаменатель правил. Модернистам свойственна сильная условность, оригинальность проявляется в их форме, метафоре и выразительности. В данной статье делается попытка проанализировать эти аспекты. Для анализа были выбраны стихи Р. Парфи, Азиза Саида, Фахриёра, А. Кутбиддина, Гузал Бегим

Ключевые слова: современный, метафора, оригинальность, деталь жизни, метафора, эмоциональное "мышление", наблюдение, иррациональное сознание, абстрактное, нереальное выражение

Abstract. The works of modernism are complex, metaphorical and not always easy to understand. These works require the reader to stretch his imagination, and due to their complexity and richness, they allow for very different interpretations. It is difficult to combine them into a single denominator of rules. Modernists have strong conventionality, originality is manifested in their form, metaphor, and expression. This article tries to analyze these aspects. Poems of R. Parfi, Aziz Said, Fakhriyor, A. Qutbiddin, Gozal Begim were selected for analysis

Keywords: modern, metaphor, originality, life detail, metaphor, emotional "thinking", observation, irrational consciousness, abstract, unrealistic expression

Kirish. Modern she'rda hayotiy tafsillarni qo'llash aruz va barmoqdagidan ko'ra birmuncha osonroq bo'lib tuyuladi. Chunki modernchi muallif she'rning har talabida o'zini erkin sezgani (xususan, mantiqning shart emasligi, vazn, qofiya, banddagi erkinlik), o'quvchi bilan dialogda turmagani (ya'ni, yozganlarining o'quvchiga ham tushunarli bo'lishi, she'rni anglashda o'quvchiga hamkor bo'lish majburiyatidan o'zini ozod qilgani), "ong oqimi"ning har bir epizodini hech bir istiholasiz so'zga ko'chirish mumkinligi unga shunday imkon beradi.

Asosiy qism. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, modern she'rda metafora o'quvchiga ancha tushunarli, kuchli mantiqiylikka asoslangan va o'zaro bog'lanishli matn ichidagi alohida so'z yoki jumla emas. Modern she'r butun holda, yaxlitligicha istioraviydir. Professor U.Hamdani ta'bir bilan aytganda, "modernistik san'atni tushunish assotsiatsiya tilini tushunish bilan ancha mukammallashadi" [1, 134] Modernchi shoir olamning o'zini metaforik idrok etadi, olamning metaforik manzarasini yaratadi.

Rauf Parfining "Sunbula" sonetlar turkumidan:

To'kilish oldida gulim. Ehtimol

Senga boqib ko'nglim uyi buzildi.

Xomush tortib, junjikib qo'ydi shamol,

Bir uzim uzumning yuzlari so'ldi.

Sovuq osmon yuzida izg'ir ko'zim,

Xotiramning tasbehlari tizildi.
 Qayg'udaman, qonga qorishgan so'zim,
 Tasbehimning chayir ipi uzildi.
 Qandaydir bu nido, hazin va karaxt?!
 Nechun ketmas qora qarg'alar nari?
 Qarang, ingillagan itlarga qarang.
 Sirli entikadi yalang'och daraxt,
 Bari unutilish istandi, bari...
 Sunbularning simlari keskir, tarang [3, 22].

Bu matnda ko'nglim uyi, xotiramning tasbehlari, tasbehimning chayir ipi, sunbularning simlari singari ochiq istioralar; gulim, qarg'alar, uzum, shamol, qon, itlar, yalang'och daraxt singari tafsillarning; to'kilish, junjikib, yuzlari so'ldi, tizildi, entikadi kabi fe'llarning har biri va sarlavhadagi sunbularning o'zi ham o'z ma'nosidan tashqari istioraviy ma'noga ega. Ammo bu o'quvchiga masalan,

Sunbuli zulfi agar oshuftadur, ayb etmakim,
 Gul yuzida yotqon ikki nozanin bemori bor, – [6]

satrlaridagi “gul yuz ustida yotgan ikki nozanin bemor” (ikki ko'z) singari shoyon tushunarli emas. Rauf Parfi chizgan manzarasi tufayli xilma-xil hislar, xotiralar, tasavvurlar to'fonday yopirilib keladi. Sunbula manzarasi fonida lirik qahramon xotiralar bosimi ostida qolgan. Bu xotiralar yoqimsiz, ko'ngilni buzadigan xotiralar. To'kilish, ko'ngil uyining buzilishi, xomush tortgan-junjikkan shamol, uzumning yuzlari so'lishi, sovuq osmon, izg'imoq, qayg'uli ekanlik, so'zlarning qonga qorishgani, tasbehning chayir ipining uzilishi, nido, hazin va karaxt, nari ketmaydigan qora qarg'alar, ingillagan itlar, yalang'och daraxt, unutilish istagi, keskir va tarang simlar – bularning har biri noxush hissiyot-xotiralardan ishora beradi. 2-sonetdagi “sevgilim”, “bilmasman, naqadar sevaman seni” kabi ifodalardan noxush xotiralarning sevgi-muhabbat bilan bog'liqligini sezish mumkin. “Shamollar marsiyasi” ochiq istiorasi esa gap ado bo'lgan sevgi haqida borayotganidan darak beradi. Shoir faqat ishoralar, istioralar tili bilan so'zlaydi; tasvirlanayotgan voqeliklar mavhumiyatga yo'g'rilgan – bu esa o'quvchi idrokiga ham kenglik beradi, o'quvchi xayoliy dunyoning cheksiz kengligida deysinmay sayr etishi mumkin bo'ladi.

O'zbek modern she'riyatida metaforaviylik hamisha hayotiy tafsillar bilan qorishiq, uyg'un holda keladi. Yuqoridagi she'rda ham gulning so'lishi, shamolning junjikishi (aslida, sunbularning sovuq shamoli tufayli odam junjikyapti), sovuq osmonga parishon tikilish, qora qarg'alarning shundoq yonginangda qag'illab yurishi, ingillayotgan itlar, yalang'och daraxtning sirli entikishi (shamolda chayqalishi, ovoz chiqarishi) – bu hayotiy tafsillarning bari ko'chma ma'noga ega, poetik kechinma ayni shu ko'chma ma'no orqali ifoda etilyapti.

Ayrim modern she'rlarni tafsillar she'ri ham deyish mumkin. Masalan, Aziz Saidning “Bu xato yo'lni...”, “Gilamdo'z shabboda mezonni savab”, “Oqshom cho'kar...”, “Oyning zarrin nurlaridan...” kabi; Faxriyorning “Elegiyalar” turkumidagi 1-she'rni, “O'zbekning kuzi”, “Sunbula” kabi; .Ro'zimuhammadning “Qarg'algan”, “Insonning sarguzashtlari”, “Afsungar” kabi she'rlarini shu jumlagi kiritish mumkin. Bu she'rlarda hayot tafsillari xuddi hikoyadagi kabi keng o'rin egallaydi. Ammo bu tafsillar ko'pincha to'g'ri bo'lmay, “o'zgartirilgan”, xayoliy xarakterga ham ega bo'ladi.

Oyning zarrin nurlaridan
 Suv to'qirkan baliqqa libos
 Daraxtlarning barmoqlaridan
 To'kilarkan bir hovuch gilos
 Uxlab yotar bahodir qirda
 Chumchuqlarning tomoqlaridan
 Toshlar sasi uchsa qo'shiqday
 Tuning ko'zi – yongan gulxanni
 Tebratarkan shamol beshikday
 Tush ko'radi bahodir qizni

Tebranishib sarxush maysalar
 Kuylasharkan shabnam qo'shig'in

Gullar nafis yaproqlariga
 Chizar ekan kuygan oshig'in
 Quchib olar bahodir qizni
 Qaldirg'ochlar qanotin silkib
 Un separkan qorinlariga
 Yelinlari iyigan bulut
 Sut berarkan qulunlariga
 Qaytib kelar bahodir qirdan [4,10].

Bu she'r boshdan oyoq tafsillardan tuzilgan. Shoir bahodirning muhabbatini xayoliy bir manzarada chizib ko'rsatadi.

Modern she'rlarda, umuman, har qanday she'riyatining eng faol (bu xususan, o'zbek mumtoz she'riyatida yuksak pardaga chiqqan) ko'chimlaridan biri bo'lgan ochiq istioralar nihoyatda quyuq. Olamning kalidi, fano vodiysi, ko'nglim uyi, xotiramning tasbehlari, shamollar marsiyasi, kechaning qop-qora tani, osmonning qalbi, falakning ko'zlari, ruhimning asrluk muzlari (Rauf Parfi), qahrining shomlari, yurak oftobasi, g'am arig'lari, hayrat qimiz, taxayyul tuni, baxt qushi (A.Qutbiddin), ko'zimning toshi, umid kosasi, oy tarog'i, ruh qanoti (Aziz Said) kabi ochiq istioralarning har biri, bir tarafdan ijodkorning olamni individual-ijodiy idrok etishidan dalolat beradi. Ikkinchi tarafdan esa olamni individual idrok etishning ochiq istioraning mumtoz adabiyotdagi yoki, umuman, she'riyatdagi "o'z ma'no+ko'chma ma'no" (yoki shuning teskarisi "ko'chma ma'no+o'z ma'no") modelida ro'yobga chiqishi an'ana ta'siri kuchliligini ko'rsatadi. Bu ta'sir hatto modernchilar ichida she'riyatning azaliy qoliplarini ko'proq sindirgan Faxriyorda ham yetarli darajada: hasrat oyati, ko'ngil dashtlari, umid malhami, qismat qaychisi, yurak qadami.

Ochiq istioralar an'anasi, xususan, Go'zal Begim ijodida yangi bosqichga ko'tarildi. Ochiq istioralarni shoira uslubining "tashrif qog'ozi" deyish mumkin hatto. Ovoz xiyoboni, qushlar qiroati, nigoh kengligi, shafaq ummoni, oltin jimlik, tuyg'ular qa'ri, samo saroyi, ko'zyosh javhari, tun ko'rfazi, irodaning kipriklari, umidimning to'fonlari, qalamimning yuragi, gulning irodasi, yuragimning oqargan sochi kabi birikmalar Go'zal Begimning moddiy va nomoddiy dunyoni hamisha uyg'un tasavvur etishidan dalolat beradi. Go'zal Begim o'zbek she'riyatida ochiq istioralarning yangi faslini boshlab berdi, deyish mumkin. Shoira paradoksal tushunchalardan ham ochiq istioralar yasayveradi.

O'zbek modern she'riyatida metforalarning yana bir turi – fe'l-metaforalar juda faol. Bunda jonlantirish yoki boshqa xil ko'chim yo'li bilan muayyan harakat shu harakatga xoslanmagan narsa-predmetga ko'chiriladi. O'xshatish shoirning tasavvurida sodir bo'ladi-yu, faqat harakat ko'chiriladi. "Moziyga urilib sinar ovozim", – deydi Rauf Parfi. Shoir avval tasavvurida o'z ovozin billurmi, shishagami o'xshash mo'rt, nozik bir narsaga o'xshatadi-da, o'xshatishni matn ortida qoldirib, "ovozim sindi", – deydi. "Vahshiy dunyo, qonxo'r dunyo quturdi" deganda esa dunyoni avval itmi yo boshqa bir vahshiy hayvonga mengzaydi. "Sochlaring iloni tanimni yoqar" deganda esa sochlilar avvaliga qop-qora tutun sachratib yonayotgan gulxanday tasavvur etilgan.

Faxriyordan:

Vaqt yemirar hayratlarimni (Vaqt zangga yoxud kimyoviy moddaga o'xshatilgan).

Ko'nglim mening yirtilgan edi (ko'ngil qog'oz yoki matoday tasavvur etilgan).

Davomiylik muallaqligi // kesib o'tar hayajoningni, // qarab o'tirmaydi aqlingga, // aqlsizligingga qaramas, // jonni kesar, kesar qoningni (davomiylik muallaqligi kesuvchi-kir buyum kabi) va hokazo.

Fe'l-metaforalarning boshqa modernchi shoirlar ijodida ham faol ekani ko'riladi.

Muhokama va natijalar. Modern she'rning eng muhim xususiyati – unda reallikning mavhumiyat shaklida, tartibning kaos shaklida voqelanishini adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov A.Qutbiddin she'riyati misolida obrazli qilib shunday ifodalagan edi: "... taqdir yo'li, karvon yo'lidagi koyish, ozorlar, quvonch-nadomatlar haqidagi she'rini "Hofiz emasman ishqda Abduvaliman go'yo", – deb yakunlaydi. Necha asrlar oradan o'tsa hamki, hamon Hofiz karvonlari o'tgan yo'llardan borayotganligini, o'sha tarixiy karvonlarga ergashayotganligini shunday ifodalaydi. She'r oxiriga birdan go'yo degan so'zni qo'yadi: Hayot bor, karvon bor, ishq bor. Ammo bari misli go'yo. Abduvalining o'zi ham Hofiz yoki uning sehrsoz bayti kabi hali tarixiy reallikka aylanmagan, U tamomila go'yo holatida. Abduvalining mana shu "Bor" deb atalgan she'riy kitobi ham boshdan oxirigacha shu sirli GO'YO ustiga

qurilganday taassurot qoldiradi. Hamma narsalar shu GO‘YO maqomida. Go‘yo – bu mubhamlik, mavhumlik timsoli. Zero, shoirning falsafasida borliq– bu go‘yolikdir. Go‘yolik falsafasini Abduvali ancha chuqur ishlagan, bu uning original falsafasi: sermashmasha, savdoyi olamning qurilish bisotiga bir qarash. Kitobning sarlavhasidagi so‘zlarni biz: “Abduvali Qutbiddin bor” deb o‘qiymiz. Bu tugallangan poetik jumla. Shaxs o‘zining dunyoda borligini tasdiqlayapti” [6].

O‘zbek modern she‘riyatining yana bir muhim xususiyatini alohida ta‘kidlash lozim. Jahon modernizmi o‘z nigohini insonning botiniga qaratgan bo‘lsa, o‘zbek modern she‘riyatida (jumladan, nasrida ham) o‘zgacharoq holat kuzatiladi: bizdagi modernistlar asarlarida botin tasviridan ko‘ra ijtimoiy, binobarin, ijtimoiy-tanqidiy ruh kuchli. Jahon modernizmi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijodkorlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko‘ra turli oqimlarga birlashishi, san‘at va adabiyot vakillarining quturgan imperializmga qarshi, irqchilik, sinfiylik, oligarxiyaga qarshi, jahon urushiga qarshi kuchli noroziligi o‘laroq maydonga chiqdi. Ular ijtimoiy-siyosiy muhitdagi g‘ayriinsoniy voqeliklarning mohiyatini uning inson ruhiyatiga ta‘sirini yoritish orqali ochmoqqa bel bog‘ladilar. Buni tadqiqotchi S.Quronov ham alohida ta‘kidlagan edi: “Modernistlar olamni mantiqqa tayanmagan, hissiy “tafakkur” asosidagina to‘laonli tushunish mumkin, deb hisoblaydilar. Ular bunda mantiqiy-tahliliy mushohadaga qarshi turib, irratsional ongni yetakchi sanaydilar. Shuning uchun modernistlar an‘anaviy metodlarni inkor etib, abstrakt, noreal ifoda shakllarida ijod eta boshlaydi. Bu yo‘nalish vakillari ijtimoiylikdan chekinib, o‘z shuuri tomon yuzlanadi. “Ya‘ni bu o‘rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o‘z-o‘zini ifodalashi ustuvor ahamiyat kasb etadi” [5, 201].

O‘zbek modern she‘riyati asos e‘tibori bilan ijodkorlarning siyosiy-ijtimoiy muhitga munosabatining in‘ikosi emas, u ko‘proq jahon modernizmi ta‘sirida tug‘ilib keldi. Ammo o‘z salafllari ta‘sirida ijtimoiy mazmunga urg‘u berdi. Akademik Naim Karimov ta‘biri bilan aytganda, “O‘zbek modern she‘riyati Yevropa xalqlarining modern she‘riyatidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: Agar Yevropa xalqlari she‘riyatidagi modernizm o‘qtin-o‘qtin absurd adabiyot unsurlari bilan uyg‘unlashib tursa, o‘zbek modern she‘riyati birinchidan, xalq hayotidan bu qadar olislashishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. Ikkinchidan, o‘zbek modern she‘riyati zamirida muayyan kayfiyatni, ma‘noni, poetik maqsadni ifodalash istagi yotadi. Uchinchidan, ayrim modern shoirlar hatto o‘z she‘rlarida realistik adabiyot unsurlaridan ham ma‘lum darajada foydalanmoqdalar. Faxriyor, Tursun Ali, Farida Afro‘z, Xosiyat Rustamovaning shu yo‘nalishdagi she‘rlari o‘zbek modern she‘riyatining eng yaxshi namunalari hisoblanadi” [2].

Xulosa. Modern she‘riyatda ijtimoiy mazmun ham, albatta, istioralar, ko‘chimlar, ishoralar, hayotiy tafsillar orqali ifoda etildi. Modern she‘rda metafora o‘quvchiga ancha tushunarli, kuchli mantiqiylikka asoslangan va o‘zaro bog‘lanishli matn ichidagi alohida so‘z yoki jumla emas. Modern she‘r butun holda, yaxlitligicha istioraviydir. Modernchi shoir olamning o‘zini metaforik idrok etadi, olamning metaforik manzarasini yaratadi. O‘zbek modern she‘riyatida metaforaviylik hamisha hayotiy tafsillar bilan qorishiq, uyg‘un holda keladi.

Milliy adabiyotimizda modernizm, postmodernizm belgilari mavjud. Milliy adabiyotimiz ham o‘z ruhini yangilanmoq istadi va modernizmga yuz burdi. Modernizm belgilari, aslida, XX asr boshlaridayoq ko‘ringan. Modernizmning bosh belgilaridan biri bo‘lgan insonning ichki dunyosiga chuqur kirish, avvalo, o‘tgan asrning 60-70-yillari she‘riyatida ham uchraydi. Ammo u izlanishlar to‘lig‘icha jahon modernizmi ruhini bermaydi. Chunki “ong oqimi”, vaqtni “o‘ynatish”, nihoyatda erkin shakl, kanonlardan voz kechish kabi hodisalar bu she‘rlarga to‘la xos emas. O‘zbek she‘riyatida modernizmni XX asr o‘rtalarida chin ma‘nosi bilan Rauf Parfi boshlab bergan bo‘lsa, keyinchalik Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Bahrom Ro‘zimuhammad, Faxriyor, Go‘zal Begim, Shermurod Subhon kabi shoirlar ijodida yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi.

ADABIYOTLAR:

1. Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji (Umarali Normatov va Ulug‘bek Hamdam suhbat) // Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007. – 134 b.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida // <https://jahonadabiyoti.uz>.
3. Рауф Парфи. Сабр дарахти. – Т.: Ёзувчи, 1986. – 192 б .
4. Саид А. Дили қани Бедилнинг? – Т.: Ёзувчи, 1996. – 118 б.

5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Академнашр, 2010. – 202 б.
6. Ғафуров И. Тафаккур шакллари // <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/abduvali-qutbiddin-sherlar-ibrohim-gafurov-tafakkur-shakllari.html>.
7. http://library.navoiy-uni.uz/files/navoiy_gazallariga_sharhlar_lotin_ziyouz_com.pdf

*Karaxodjaeva Maxpuza Xamidullaevna,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi
(O'zbekiston)
E-mail: maxfuza. Karaxodzhaeva. 60@bk.ru*

BADIIY ADABIYOTLARDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR OBRAZI TALQINI

Annotatsiya. Movarounnahrda bundan olti asr oldin jahonga tanilib, tarix sahifasidan abadul-abadga joy olgan Sohibqiron Amir Temurning olamshumul g'alabalari, qudratli davlati va ular yaratgan obidalar, bu shaxsning insoniy fazilatlarini haqida qator epik asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Binobarin, Amir Temur haqida o'tgan yillar davomida xorijiy tillarda 500 dan ziyod, Sharq tillarida 900 ga yaqin kitoblar yozilgan, ko'pdan-ko'p suvratlari ishlangan. Amir Temur nomi mustaqillik tufayli yana o'z munosib o'rniga ega bo'ldi. Maqolada shu nuqtayi nazardan akademik Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur" tarixiy romani, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Sohibqiron" she'riy dramasi va O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimkul Qodirovning "Ona lochin vidosi" nomli tarixiy romanlari tahlil qa talqin etilgan.

Kalit so'zlar: Yaqin Sharq, qudratli davlat, sohibqiron, sarkarda, olamshumul, xorijiy tillar, tarixiy roman, obodonchilik, xalqparvar, adolatli, bunyodkorlik, vatanparvarlik, ilm-ma'rifat.

Мақолаи панҷум ва охири бахши сеюм, ки мақолаи охири китоб низ мебошад, “Пажӯҳиши арзишманд дар шинохти шеър, андеша ва мактаби суҳанвари Камоли Хучандӣ” ном дорад. Дар ин мақола фаъолияти камолшиноси ҷавон Баҳроми Раҳматзод дар шаш зовия, аз ҷумла шинохти номаи рӯзгори Камоли Хучандӣ бар мабнои сарчашмаҳо, пажӯҳишҳои дар андешаву афкор ва сабки суҳанвари ӯ, таъсирпазирии Камоли Хучандӣ аз шоирони гузашта, мактаби суҳанвари Камол ва шеваҳои истиқболи шоирони қуруни вусто аз ашъори суҳанвар, баҳси марбут ба шуруҳи қуҳан, масъалаи матншиносӣ ва интиқоби ашъори Камоли Хучандӣ мавриди баррасӣ қарор гирифтааст. Баҳроми Раҳматзод пас аз ҷустуҷӯи пурдомана дар бораи шеър ва андешаҳои Камоли Хучандӣ китоби “Бист мақола”-ро ба нашр расонидааст, ки бисёр масъалаҳоро дар ин асар доир ба шинохти шеъри Камоли Хучандӣ бозтоб бахшидааст. Ин китоб бори дигар нишон дод, ки нафаре, ки ба сарчашмаҳои адабӣ ирфонӣ ва таърихӣ алоқамандии зич дорад, метавонад ба масъалаҳои ҳалношуда ва ноошноӣ мероси як суҳанвар рӯшанӣ андозад ва баъзан ба ҳарфҳои маҳаққиқони қаблӣ як ҳарфи тоза ва як андешаи навро илова кунад ва онро бо ин роҳ тақмил бахшад. Як хусусияти барҷастаи Баҳроми Раҳматзод дар робита ба ашъори Камоли Хучандӣ дар он зоҳир мешавад, ки ӯ яке аз таҳия ва тасҳеҳқунандагони матни илмӣ-интиқодии девони ашъори Камоли Хучандӣ мебошад, ки дар радифи камолшиносони баркамол қорҳои муҳимтароро ба сомон расонида истодааст ва дар оянда низ чунин ибтикороти ӯ домана пайдо хоҳанд кард.

Хулоса. Дар маҷмӯъ, Нуралӣ Нурзод дар таҳқиқ, баррасӣ, баҳогузори ва шарҳу тафсири ашъори Камоли Хучандӣ ва арзёбии фаъолиятҳои камолшиносони тоҷик хидмати арзандаеро анҷом додааст. Ҳар як мақолаи ин китоб як пажӯҳиши амиқ ва як дидгоҳи мукаммали муҳаққиқона мебошад. Муҳаққиқ дар баробари ин ки ба таҳқиқи шеъри Камоли Хучандӣ машғул гардидааст, ҳамчунин бо шарҳ додани чанд ғазали Камол намунаҳои беҳтарини шарҳи ашъори суҳанварро рӯи қор овардааст.

*Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich,
PhD, dotsent
Qarshi davlat universiteti doktoranti
(O'zbekiston)
E-mail: odiljon.avaznazarov@gmail.com*

ALISHER NAVOIY IJODIDA HAZRATI ALIDAN KINOYA TIMSOLLAR

Annotatsiya. Islom olamining ulug' siymolaridan biri xalifa Ali musulmon Sharqi adabiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Uning hikmatlariga o'nlab fors va turk ijodkorlari ruboiy shaklida tarjima-sharhlar yozishgan va bu adabiy an'anaga aylangan. Bundan tashqari, hazrati Ali shaxsi hamda u bilan aloqador voqealar rivoyat, afsona, hikoyatlarga mavzu bo'lgan. Shu tarzda badiiy adabiyotda Ali timsoli shakllangan. Maqolada Navoiy asarlarida bu ulug' siymo ta'sirini yorituvchi asosiy jihatlar tasniflanib, to'rt yo'nalishda tadqiq qilindi. Bu masala mutafakkirning lirik, epik va liro-epik asarlari asosida o'rganildi. Natijada Navoiy ijodida yigirmadan ortiq obrazlar istiora yo'li bilan hazrat Ali karramallohu vajhahuga (Alloh uning yuzini ulug' etsin) ishorat qilishi, zulfiqor, duldul, uzuk kabi timsollar esa yuqoridagi obrazlar bilan assotsiativ munosabatga kirishishi mumkinligi yoritilgan. Shuningdek, Navoiy asarlari nashrlari bilan bog'liq ba'zi muammolarga aniqlik kiritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, hikmat, ruboiy, Ali r.a., tasavvuf, valoyat, qutbiyati kubro, talqin.

Аннотация. Один из выдающихся деятелей исламского мира, Халиф Али, оказал значительное влияние на литературу мусульманского Востока. Его мудрые изречения вдохновили десятки персидских и тюркских авторов на создание переводов и комментариев в форме рубаи, что превратилось в литературную традицию. Кроме того, личность Хазрата Али и связанные с ним события стали темами легенд, мифов и рассказов, способствуя формированию его образа в художественной литературе. В статье классифицированы и исследованы основные аспекты влияния этой выдающейся личности в произведениях Алишера Навои, проанализированные в четырёх направлениях. Этот вопрос изучен на основе лирических, эпических и лиро-эпических произведений мыслителя. В результате анализа выявлено, что более двадцати образов в творчестве Навои метафорически указывают на Хазрата Али (Да возвеличит Аллах его лик!), а такие символы, как Зулфикар (меч Али), Дульдудль (его конь) и кольцо, вступают в ассоциативную связь с упомянутыми образами. Кроме того, были уточнены некоторые вопросы, связанные с изданием произведений Навои.

Ключевые слова: художественный образ, мудрость, рубаи, Али (Да будет доволен им Аллах!), суфизм, святость, Кутбияти Кубро, интерпретация.

Abstract. One of the prominent figures of the Islamic world, Caliph Ali, had a profound influence on the literature of the Muslim East. His wisdom inspired dozens of Persian and Turkic authors to compose translations and interpretations in the form of quatrains, which developed into a lasting literary tradition. Furthermore, the personality of Hazrat Ali and the events associated with him became the subject of legends, myths, and stories, shaping his representation in artistic literature. This article classifies and examines the key aspects of the influence of this eminent figure in Navoi's works, analyzed in four main directions. The study is based on the thinker's lyrical, epic, and lyric-epic compositions. As a result, it was identified that over twenty metaphors in Navoi's creative works symbolically refer to Hazrat Ali (may Allah honor his face), while symbols such as Zulfiqar (Ali's sword), Duldul (his steed), and the ring are found to have associative connections with these metaphors. Additionally, certain issues related to the publication of Navoi's works were clarified.

Keywords: artistic image, wisdom, quatrain, Ali (may Allah be pleased with him), Sufism, sainthood, Qutbiyyat-i Kubra, interpretation.

Kirish. "Xulaf o-rashidin" (to'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar)dan biri – hazrati Ali badiiy adabiyotda ajoyib sarkarda va jasur shaxs sifatida ta'rif qilinadi. Uning musulmon Sharqi adabiyotiga sezilarli ta'siri bor. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida hazrat Ali islomiy falsafa, tasavvuf, adabiyot va

axloqiy qadriyatlar ramzi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Mutafakkir asarlarida bu ulug‘ siymo ta‘sirini yorituvchi asosiy jihatlarni shunday tasniflash mumkin:

1. Tasavvuf va valoyatga munosabat;
2. Hazrat Alining ilmiy va diniy mavqeyi;
3. Hikmat va axloqiy qoidalar ta‘siri;
4. Ali siymosi orqali ideal qahramon yaratish.

Bizningcha, ana shu jihatlarni sinchkovlik bilan tadqiq qilinsa, Navoiy ijodida Ali (k.v.)ga ishora qiluvchi badiiy obrazlar va aloqador ramzlar o‘rtaga chiqadi.

Asosiy qism. Quyida ana shu masalalarga birma-bir to‘xtalamiz.

Ilk jihat. Hazrati Alining valoyati hamda avliyolik sifatleri xususida Navoiyning lirik, epik va liro-epik asarlarida ma‘lumotlar mavjud. Jumladan, “Nazmu-l-javohir” muqaddimasidagi ruboiyning har bir misrasida xalifalardan biriga ishorat qilinarkan, Ali (k.v.)ning valoyatiga urg‘u beriladi:

Avvalg‘ini fazl durrig‘a ummon bil,
Soniysini adl gavharig‘a kon bil,
Solisni hayo gulbunig‘a bo‘ston bil,
Robi‘ni valoyat badanig‘a jon bil [4, 31].

Navoiy ruboiyda hazrati Alini valoyat badanining joni, ya‘ni markazi sifatida ta‘rif qilgach, o‘z fikrini shunday rivojlantiradi: “rub‘i maskun chahor devori aning panjayi valoyati bila barqaror durur” [4, 32]. Bizningcha, bu ta‘riflar Ali (k.v.)ning qutbiyati kubro martabasida ekaniga ishoradir. Qutbiyati kubro tasavvufda hazrat Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarligining botini bo‘lgan qutbu-l-aqtob martabasini anglatadi. “Bu maqom faqat Rasulullohning komil vorislariga berilur. Xotami valoyat faqat xotami nubuvvatning botini uzra bo‘lur” [9, 170]. Sa‘d ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhudan rivoyat qilingan quyidagi hadis hazrat Ali (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) shubhasiz komil vorislari ekaniga dalolat qiladi:

“Rasululloh (s.a.v.) Tabuk urushida Ali ibn Abu Tolibni o‘z o‘rinlariga qoldirdilar. Bas, u:

“Ey Allohning Rasuli, meni ayollar va bolalar ichida qoldirasizmi?!” dedi.

“Horun Musoning o‘rnida bo‘lganidek sen mening o‘rnimda bo‘lishga rozi bo‘lmaysanmi?! Faqat mendan keyin nabiy yo‘q, xolos”, – dedilar”.

“Nazmu-l-javohir” muqaddimasidagi boshqa bir ruboiyda ham bu zot valoyat ahlining shohi, yo‘l ko‘rsatuvchi rohbhar, karam daryosi, asadulloh – Allohning sheri sifatida vashf qilinadilar:

Daryoyi karam kimgaki ogohdurur,
Bildikki, valoyat ahlig‘a shohdurur,
Gumrohlarg‘a barandayi rohdurur,
Bu beshada ya‘ni Asadullohdurur [4, 40].

“Lisonu-t-tayr”ning 12-bobida g‘azot janglarining biri hikoyat qilinadi. Unda shoh, ya‘ni hazrati Ali dushmandan o‘q yeganliklari va o‘qning uchi suyakka botib sahobalar uni chiqarishning imkonini topa olishmay payg‘ambarga (a.s.) arz qilganliklari hikoya qilinadi. Hidoyat maxzanining ko‘rsatmalari bilan o‘qni u zot namozga kirganlarida sug‘urib olishadi. Namozda hazrati Ali istig‘roq holatida bo‘lib, bu ishdan bexabar qoladilar:

Oncha istig‘roqdindur bahravar,
Kim ul ishtin bo‘lg‘usidur bexabar [3, 25].

Namozdan chiqqach, ushbu ishdan xabar topgan Haydari karror (qayta-qayta hamla qiluvchi sher) shukr aylab, bu holni nabiy alayhissalomning ehsoni sifatida baholaydilar. Shu o‘rinda Ali (k.v.)ning valiylikdan ham yuqoriroq martabaga ko‘tarilganliklarini anglash mumkin. Chunki istig‘roq so‘fiylikda Allohdan boshqa hamma narsa bilan aloqani uzib vajd va holga taslim bo‘lishdir va u “valoyat martabasidan keyingi hol” sifatida baholanadi [9, 89]. Umuman, ushbu dostonida hazrat Ali haqiqat maqomidagi timsol sifatida gavdalantiriladi.

Ali (r.a.) tasavvufga doir ba‘zi masalalar yuzasidan ham fikrlar bildirganlar. Xususan, “Mahbubu-l-qulub”ning “Rizo zikrida” deb nomlangan 9-bobidagi hikoyat “Valoyat daryosining gavhari va hidoyat sipehrining axtari asadullohu-l-g‘olib, amiru-l-mo‘minin Ali ibni Abu Tolib (r.a. va k.v.) rizo maqomi ta‘rifida va solikning roziliqqa muttasif bo‘lg‘oni tavsifida varaq yuziga maorifnigor xoma urubtur va bu nav’ daqiq nuqta surubdurkim...” – deb boshlanadi [3, 496].

Ikkinchi jihat. Navoiy asarlarida hazrat Ali islom tarixidagi ilmiy va diniy yetakchi sifatida e'tirof etiladi. Muallif uni buyuk bilim sohibi, islom falsafasi va shar'iy hukmlarning bilimdoni sifatida ko'rsatadi. Bu Navoiyning tasavvufiy she'riyati va axloqiy mavzudagi asarlarida yaqqol seziladi. Xususan, "Nazmu-l-javohir"dagi mana bu ruboiyda Ali (r.a.) ilmlar daryosi, karam-saxovat burjining quyoshi sifatida zikr qilinadi:

Daryoyi ulum-u mehri burji karam ul,
Olam tanining joni-yu jononi ham ul,
Sultoni rusul birla qadam barqadam ul,
Farzand-u rafiq-u kuyov-u ibn-amm ul [4, 32].

"Lisonu-t-tayr"dagi mana bu misralar hazrat Alining janob payg'ambar alayhissalomga naqadar yaqin ekanliklarini ko'rsatadi:

Ittihodida nubuvvat sham'ining
So'zi bu kim sen meningsen, men sening.
"Lahmaka lahmi" ham oning shonida,
"Damaka dami" ham istehsonida [3, 24].

Ushbu dostonidagi yana bir ta'rif e'tiborli. Ushbu baytda eshik timsoli hazrat Alidan kinoyadir. Bu ta'rif keltirilgan bayt nashrlarda shu vaqtga qadar yanglish yozib kelinayotgani uchun dostonning ilmiy-tanqidiy matnidagi [7, 16] to'g'ri shaklini keltiramiz:

علم شهري انبياغه انتها
وصفى دا آيتيب على بابها

Ya'ni:

Ilm shahri anbiyog'a intiho,
Vasfida aytib Aliyun bobuho.

Bayt To'pqopi saroy kutubxonasiidagi mashhur qo'lyozmalardan biri – "Kulliyoti Navoiy"da ham ayni shaklda yozilgan [13, 21^b].

Mazkur bayt 20 tomlik Mukammal asarlar to'plamida ham [5, 24] (Ilm shahri anbiyog'a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobuho), 10 jildli To'la asarlar to'plamida ham [3, 24] (Ilm sharhi anbiyog'a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobuho), boshqa nashrlarda ham [8, 25] (Ilm sharhi anbiyog'a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobuho) yanglish yozilgan. Natijada nasriy bayonni tayyorlashda ham, ma'noni anglashda ham chalkashlik yuzaga kelgan. Jumladan, nashrlarda mana bu tarzda yanglish nasriy bayon beriladi: "Ilm sharhi va nabilikda yetukligi uchun uning vasfida Ali bobuho deyishgan" [8, 292].

To'g'ri nasriy bayonni shunday berish mumkin: "Ilm shahri bo'lmish so'nggi nabi uning vasfida "Aliyun bobuho" deb aytganlar". Bayt iqtibos san'atiga qurilgan bo'lib, "Men ilm shahridirman, Ali esa uning eshigidir" ma'nosidagi hadisga ishora qiladi:

أنا مدينة العلم وعلي بابها

Anaa madiynatu-l-ilmi va Aliyyun babuho.

Navoiy ushbu hadisni "Nazmu-l-javohir"ning muqaddimasida ham zikr qilib o'tadi.

"Tarixi anbiyo va hukamo"da ham hazrati Ali karomatgo'y avliyo timsolida zikr qilinadilar: "Yuvsha' (a.s.) duosi bila Tengri taolo kunni mag'rib soridin qoytorib, falakda oncha tavaqquf berdikim, qavm dushman ishidin forig' bo'lub, o'z ibodatlarig'a mashg'ul bo'ldilar. Va gunashni Yuvsha' (a.s.)din boshqa Tengri taolo Sulaymon (a.s.) bila amiru-l-mo'minin Ali (k.v.) mo'jiza va karomatidin mag'ribdin mashriq sori harakat berdi" [2, 571].

"Risolayi tiyr andoxtan" asarida kelgan quyidagi lavhada esa Ali (k.v.) bir vaqtning o'zida ham Alloh, ham Jabroyil (a.s.), ham Rasululloh (a.s.), ham tirikligidayoq Jannat bashorati berilgan sahobalardan biri Sa'di Vaqqosga xizmat qilish baxtiga muyassar bo'lganini tushunish mumkin:

"Amiru-l-mo'minin Ali (k.v.) goho o'q keltirur erdi, bosh va oyog'larni yolang qilib, durud aytur erdi. Bir kun Sa'di Vaqqos o'q otar erdikim, Jabroyil (a.s.) keldi va hazrati Payg'ambar (a.s.) Sa'di Vaqqos birla turub erdilar, Payg'ambar (a.s.) aydilar: – Ey Sa'di Vaqqos, mening uchun bir o'q otqil. Va Jabroyil (a.s.) aydi: – Yo Rasululloh, Sa'di Vaqqosg'a aytg'il mening uchun ham bir o'q otsun. Chun Vaqqos bu ikki o'qni otmoqdin so'ng Payg'ambar (a.s.) aydi: Bir o'q Xudoyi taoloning nomi uchun otqil. Sa'di Vaqqos yana bir o'q otti. Andin so'ng sahobalar borib, nishonagohdin o'qlarni kelturdilar. Ammo ul o'qkim, Xudoyi subhonahu taolo oti uchun otib erdilar, topmadilar. Jabroyil (a.s.) kelib aydi: – yo

Muhammad, Xudoyi taolo aydikim, ul o'qni topmasunlar, aning uchunkim, ul behishtda Sa'di Vaqqosqa yer olib anda turdi" [6, 295].

"Hayratu-l-abror"ning 10-bobida Alining (r.a.) dindagi xizmatlaridan yana biri tilga olinadi:

Na'lini gar toji sharaf qildi Arsh,
Qildi Ali na'lig'a egnini farsh [1, 35].

Bu baytning mohiyati "Lisonu-t-tayr"ning 11-bobida yanada ochiqanib, Alining (r.a.) egni Makka toqidan Hubal buti tushirilayotganda hazrat Payg'ambarning (s.a.v.) oyog'iga zina bo'lgani ta'kidlanadi:

Makka toqidin tushurmakta Hubal,
Egni hazratning oyog'ig'a muhal [3, 24].

"Majolisu-n-nafois"da Mavloni Muin Voiz bilan bog'liq qiziq voqea keltiriladi: "Bir qatla hazrat amiru-l-mo'minin Alining iymoni taqlidiy ekanur deganga, ul hazratning ruhida g'arib siyosat va shikanjalar ko'rdi. Hamonoki tavba qildikim, qutuldi" [3, 378].

Uchinchi jihat. Navoiy "Mezonu-l-avzon"da Ali (k.v.)ning she'rlari ko'p, balki devoni bor ekanini zikr qiladi [4, 534]. Husayn Boyqaro "Risola"siga javoban 1485-yilda yozilgan hamda muqaddima, 268 ruboiy va bir xotima ruboiydan iborat "Nazmu-l-javohir" asari esa hazrati Alining "Nasru-l-laoliy" (Nasriy gavharlar) tarkibidagi hikmatlari she'riy tarjimasidan iborat. Asar muqaddimasida hazrati Ali hikmatlari haqida "Har nasriy marvaridkim, fikrat g'avvosi soflik qandilini boshiga, tartib rishtasini qo'liga tutub, hamd-u sano ummonidan hosil qilgay", – deyiladi.

Navoiy "Nasru-l-laoliy"dagi hikmatlarni hazrati Alining valoyat daryosidan chiqqan qiymatbaho la'llar va karomati ummonidan hosil bo'lgan qimmatbaho injular sifatida ta'riflaydi. Asar muqaddimasining boshqa bir o'rnida g'avvos timsoli hazrat Aliga ishora qiladi: "Ul valoyat daryosining g'avvosi har laolikim, durfishon xomasidin nasr qilibdurur va ul hidoyat lujjasining shinosi har durrekim gavharrez iligidin sohibdurur..." [4, 40].

"Nazmu-l-javohir" muqaddimasida Navoiy so'zni ta'rif qilib, uni uch martabada tasnif qiladi. Ikkinchi martabaga valiylarning so'zini qo'yar ekan shunday deydi: "Mundin so'ngra hidoyat gulistonining bulbuli hushilhoni va valoyat shakaristonining to'tiyi shirin zaboni, karomat sarpanjasi bila balog'at Xaybari eshikin ochqon va karam zo'rdasti bila karomat bahri laolisin zamona ahli boshig'a sochqon... mashoyix va avliyo so'zi bo'la olur" [4, 33]. Bu ta'rifda bulbul, to'ti kabi timsollar hazrat Aliga ishorat qiladi.

"Mahbubu-l-qulub"ning "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida" deb nomlangan 16-faslida muallif hazrat Alini shoirlar qavmining peshvosi sifatida zikr qiladi: "bu aziz qavmning peshvo va muqtadosi va bu sharif xaylning sardaftar va sarxayli valoyat bahrining gavhari va karomat avjining munir axtari amiru-l-mo'minin Ali (r.a. va k.v.)durkim, nazm devonlari mavjuddur va anda asror va nukta noma'dud" [3, 464].

"Badoye'u-l-vasat"ning beshinchi hamda qirq yettinchi qit'alarida ham amiru-l-mo'minin hikmatlari she'riy yo'l bilan tarjima-sharh qilinadi.

To'rtinchi jihat. Navoiyning liro-epik asarlarida hazrat Ali timsoli ideal qahramon sifatida shakllantiriladi. Bu siymo jasorat, hikmat, rahm-shafqat va ma'naviy kuchni o'zida mujassam qiladi. Xususan, "Lisonu-t-tayr"ning XI-XII boblari hazrati Aliga bag'ishlanadi. XI bobda bu zot amiru-l-mo'minin, ilm daryosi, valoyat gavhari, olam ahlida ajoyib ko'rinishli, nabiylar sardoriga farzand, odamlar ichra tengsiz, din xizmatkori, payg'ambar (a.s.) uchun jon fido qilishga tayyor, zoti olam vasflari bilan ziynatlangan, taqvo ahliga imomu-l-muttaqin, ilm shahrining eshigi, taqdir o'rmonining sherlarni titroqqa soluvchi haybatli sheri, kofirlarga munosib javob beruvchi, pahlavonlik na'rasini uruvchi, nabi farzandiga payvand kabi sifatlar bilan vasf qilinadi. Bu epitelar talmeh, iqtibos, tashbeh badiiy san'atlari bilan uyg'unlikda kelib, hazrati Ali timsolini kitobxon ko'z o'ngida yaqqol gavdalandiradi.

"Farhod va Shirin"ning 10-bobida Husayn Boyqaro g'azot maydonidagi qahramonliklari uchun Haydari karrorga tashbeh qilinadi:

G'azo maydoni ichra Haydar oyin,
Rivoji shar' aro payg'ambar oyin [1, 346].

Haydar sher ma'nosini anglatib, Payg'ambar alayhissalomning kuyovi Alining (r.a.) laqabidir. Badiiy adabiyotda sher timsolining hazrat Aliga ishora qilishi quyidagi rivoyat bilan bog'liq: "Naql

qilinishicha, payg‘ambar Me‘rojga ko‘tarilib, Oллоh dargohiga yaqinlashganlarida bir bahaybat sher yo‘llarini to‘sadi. Sarvari koinot shunda qo‘llaridagi uzukni olib sherning og‘ziga irg‘itganlari hamon u yo‘ldan chetlashadi. Me‘rojdandan qaytib Hazrati Ali bilan ko‘rishgach, qarasalarki, o‘sha uzuk uning barmog‘ida turibdi. Bundan hayratlangan rasululloh: “Ey Ali, Oллоhning sheri sensan...”, deyдилar. Shu shu Ali Oллоhning sheri ekaniga ko‘pchilik hech shubhalanmaydi. Chunki u hayotda ham sheryurakligini qayta-qayta namoyish etadi” [12, 4].

Muhokama va natijalar. Hazrat Ali aloqador ramzlar ham Navoiy asarlarida ko‘p uchraydi va bu timsollar Ali siymosidagi ideal qahramonga ishora qiladi. Quyida shulardan ba‘zilarini ko‘rib o‘tamiz:

Alining (k.v.) uzugi. “Nasoyimu-l-muhabbat”da Imom Shofe‘iy (r.a.) haqidagi mana bu lavhada hazrati Alining uzugi valiylarning ilmi ramzi sifatida qo‘llaniladi: “Shofe‘iy debdurki, Rasul (s.a.v.) voqea (ya‘ni, tush)da muborak og‘zi suyini mening og‘zimg‘a soldi, andoqki, og‘zimg‘a va ernimg‘a va tiling‘a yetishti. Va dedi: borki Tengri sanga barakot bersun va ham ul soat amiru-l-mo‘minin Ali (k.v.) uzugin chiqorib, mening barmog‘img‘a soldi, to nabi-y-u valiylarning ilmi manga siroyat qildi” [4, 106].

Zulfiqor. Zulfiqor – hazrat Alining ikki damli, g‘oyat keskir afsonaviy qilichi. Rivoyatlarga ko‘ra, hazrat Muhammad (a.s.) jangda o‘lja olgan bu afsonaviy qilich keyinchalik xalifalarga o‘tgan. Zulfiqor sehrli kuchga ega bo‘lgan qurol sifatida tasvirlanadi.

“Nasoyimu-l-muhabbat”da keltirilgan Orif Ayyorning (r.t.) ushbu so‘zlaridan zulfiqorning kuch-qudrat timsoli ekanini anglash mumkin: “Derlarki Ali Murtazo (r.a.) Xaybar eshikin qo‘ng‘aribdur. Agar Tengrining yorlig‘i va Mustafo (s.a.v.)ning mushohadasi va Zulfiqor menda bo‘lsa, Qof tog‘in qo‘ng‘armasam, manga tovon bo‘lg‘ay. Shayxu-l-islom debdurki, bu – Ali (r.a.)g‘a nuqs emasdurki, tanuqluqdur, ul mazkur bo‘lg‘ay uch nimaga [4, 253].

“Farhod va Shirin” dostonining 22-bobida Farhod ajdaho g‘ori ichida topgan xazinasidagi bir qilichni zulfiqorga o‘xshatadi:

Bular ustida tig‘i obdori,
Kelib burronlig‘ ichra zulfiqori [1, 436].

Farhod zulfiqorni beliga bog‘lab keyingi bobda Ahraman devini shu qilich yordamida halok qiladi. Dev tasavvuf adabiyotida nafs ammora, sarkashlik va takabburlik, zulm va sitam, xudobexabarlik ma‘nolarida keladi [9, 49]. Demak, bu o‘rinda zulfiqor nafs devi va shaytoni lainni mag‘lub qiluvchi kuch-qudrat, shijoat, shiddat ramzidir.

“G‘aroyibu-s-sig‘ar”ning 276-g‘azalida kelgan mana bu baytda valiylarning nafsni halok qiluvchi nutqi Ali (k.v.)ning kufrga qarshi ko‘tarilgan keskir zulfiqoriga tashbeh qilinadi:

Haloki nafs valiy nutqi bilki, rishtayi kufr
Kesar ishiga Ali zulfiqoridur miqroz.

Zulfiqor ba‘zan qalamga ishora qiladi. Jumladan, “Nazmu-l-javohir” muqaddimasida Ali (k.v.)ning qalami ikki tilda hikmat so‘zlagani uchun ikki tig‘li zulfiqorga, tezkorlikda esa uchqur duldulga qiyoslanadi: “... ikki zabonaliq kilki zulfiqoridin nishona va ul kilki zabonalari sur‘atda duldulidek ravona...” [4, 33].

Duldul. Hazrat Alining oti bo‘lib, kuch va jasorat, so‘z va fikr quvvatining uchqurligi ramzi sifatida keladi. “Lisonu-t-tayr”ning 11-bobida duldulning yurish tezligi chaqmoqqa tashbeh qilinadi:

Duldulining po‘yasi andoqki barq,
Zulfiqoridin aduv qon ichra g‘arq [3, 24].

Xulosa. Demak, hazrat Ali siymosi ta‘sirini yorituvchi asosiy jihatlar tadqiq qilinganda Navoiy asarlarida daryo, g‘avvos, gavhar, yulduz, quyosh, eshik, qal‘a devori, sher, shoh, amir, do‘st, shoir, hakim, jon, jonon, bulbul, to‘ti, soqiy, Haq yo‘lchisi, pir, valiy, qutb kabi yigirmadan ortiq obrazlar istiora yo‘li bilan hazrati Ali (k.v.)ga ishorat qilishi mumkin. Zulfiqor, duldul, uzuk kabi timsollar esa yuqoridagi obrazlar bilan assotsiativ munosabatga kirishadi va badiiy asarda hazrat Ali portretini ulug‘vor qiyofada aks ettirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. VI jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 812 b.

2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. VIII jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 704 b.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. IX jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 768 b.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. X jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 684 b.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. XII том. – Т.: Фан, 1996. – 357 б.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. XVI том. – Т.: Фан, 2000. – 329 б.
7. Alisher Navoiy. Lisonu-t-tayr. Ilmiy-tanqidiy matn. – T.: Fan, 1965. – 230 b.
 ۱۹۶۵ عیشیر نوابی، لسان الطیر. علمی تنقیدی متن. «فن» نشریاتی تاشکینت
8. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr: (Nasriy bayoni bilan); Mas’ul muharrir, so‘zboshi muallifi, izoh va lug‘atlar tuzuvchisi Vahob Rahmonov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. – 472 b.
9. Avaznazarov O. Navoiy timsollari so‘zligi. – T.: Spectrum Media Group, 2024. – 288 b.
10. Avaznazarov O. Alisher Navoiy dostonlarida yo‘l obrazi geografiyasi / O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari, 2024. – № 3. – 76–82 b.
11. Avaznazarov O. Alisher Navoiy dostonlarida yo‘l obrazi / Til va adabiyot.uz., 2024. – № 20. – 29–31 b.
12. Иброҳим Ҳаққул. Тахминда чалғиш бўлур // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2009. – № 43. – В. 6.
13. Lisonu-t-tayr. Kulliyoti Navoiy. Qo‘lyozma. To‘pqopi saroy kutubxonasi. Revan fondi, Inv. – №.808. – В.21^b.

To‘rayeva Umriniso Raxmatovna,

BuxDU dotsenti

(O‘zbekiston)

E-mail: Niso.2019@mail.ru

O‘ktamova Kumushoy Oltinovna,

BuxDU 1-kurs magistranti

(O‘zbekiston)

E-mail: kumusholtinovna96@gmail.com

BUXORO ADABIY MUHITIDA QORI RAHMATULLOH VOZEH IJODINING O‘RNI

Annotatsiya. Qori Rahmatulloh Vozehning hayoti va ijodi haqida XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi manbalarda turlicha ma’lumotlar mavjud. Xususan, o‘zining zamondoshlari: Hoji Abdulazim Shariy, Mirsiddiqxon Hashmat, Hoji Ne’matullohi Muhtaram, Sadri Ziyolar o‘z tazkiralarda Vozeh hayoti va ijodiga nazar tashlaydilar. Tojik olimi Tursunboy Ne’matzoda tadqiqotlarida aytilishicha, yuqorida zikr etilgan tazkirachilar ichidan Hoji Abdulazim Shariyning “Tazkirai Shariy” tazkirasida Qori Rahmatulloh Vozeh haqida batafsilroq ma’lumot berilgan.

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Buxoro madaniy hayotida o‘zining sermahsul ijodi bilan iz qoldirgan tarixchi, shoir va ma’rifatparvar olim Qori Rahmatulloh Vozeh hayoti va ijodi, shuningdek, tazkiranavislik mahorati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, madaniy muhit, tabobat, tarjimon, ma’rifatparvar olim, tazkira, tazkiranavislik, “Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul as’hab”, qo‘lyozmalar fondi, ilmiy tadqiqotlar.

Аннотация. В источниках конца XIX начала XX веков имеются различные сведения о жизни и деятельности Кори Рахматуллы Воze. В частности, на жизнь и творчество Воze в своих рецензиях смотрят его современники: Хаджи Абдулазим Шари, Мирсиддик Хан Хашмат, Хаджи Неъматуллахи Мухтарам, Садри Зиялар. По исследованиям таджикского учёного Турсунбоия Немацы, среди вышеупомянутых тазкир тазкирай Хаджи Абдулазима Шари “Тазкирай Шарий” содержит более подробную информацию о Кори Рахматулле Воze.

В данной статье рассказывается о жизни и деятельности историка, поэта и учёного-просветителя Кори Рахматуллы Воze, оставившего след в культурной жизни Бухары во второй половине XIX - начале XX века.

Ключевые слова: Бухара, культурная среда. медицина, переводчик, просветитель, тазкира, тазкиранавислик “Тухфат-ул ахбоб фи тазкират-уль асхоб”, рукописный фонд, научные исследования.

Abstract. The sources of the late 19th and early 20th centuries contain various information about the life and work of Qori Rahmatulla Vose. In particular, his contemporaries, Haji Abdulazim Shari, Mirsiddik Khan Hashmat, Haji Nematullahi Mukhtaram, Sadri Ziyalar, look at the life and work of Vose in their reviews. According to the research of the Tajik scientist Tursunboy Nematsi, among the above-mentioned tazkir tazkiray of Haji Abdulazim Shari, “Tazkiray Shariy” contains more detailed information about Qori Rahmatulla Vose.

This article talks about the life and work of the historian, poet and enlightened scientist Qori Rahmatullah Vozeh, who left a mark on the cultural life of Bukhara in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century.

Keywords: Bukhara, cultural environment. medicine, translator, enlightened scientist, tazkira. tazkiranavislik “Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul as’hab”, manuscript fund, scientific research.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Buxoro madaniy hayotida o‘z sermahsul ijodi bilan iz qoldirgan Qori Rahmatulloh Vozeh 1817-1895-yillarda Buxoroda yashab ijob qilgan tarixchi, shoir, olim va ma’rifatparvarlardan biri edi. Qori Rahmatulloh Vozehning hayoti va ijodini o‘rganish yangi asrning 60-yillarida boshlangan bo‘lishiga qaramay, tan olish kerakki, ushbu ijodkorning tarjimaiy holi haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Uning “Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul as’hab”

(“Sevguvchilar tuhfası bo‘lmish do‘stlar tazkirası”) nomli tazkirası haqida hamda umuman Qori Rahmatulloh Vozehning hayoti va ijodi to‘g‘risida o‘zbek va tojik olimlaridan A.Mutallibov, P.Qayyumov, T.Ne‘matzoda, R.Hodzoda turk olimi Murat Akyuzlar samarali ilmiy tadqiqotlar yaratganlar.

Asosiy qism. Qori Rahmatulloh Vozehning hayoti va ijodi haqida XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi manbalarda turlicha ma‘lumotlar mavjud. Xususan, o‘zining zamondoshlari: Hoji Abdulazim Shariy, Mirsiddiqxon Hashmat, Hoji Ne‘matullohi Muhtaram, Sadri Ziyolar o‘z tazkiralarda Vozeh hayoti va ijodiga nazar tashlaydilar. Tojik olimi Tursunboy Ne‘matzoda tadqiqotlarida aytilishicha, yuqorida zikr etilgan tazkirachilar ichidan Hoji Abdulazim Shariyning “Tazkirai Shariy” tazkirasida Qori Rahmatulloh Vozeh haqida batafsilroq ma‘lumot berilgan. “Tazkirai Shariy” Hoji Abdulazim Shariyning birgina tugallanmagan nusxasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib hozirda O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondida 3396 inventar raqami ostida saqlanadi. Hoji Abdulazim Shariy Qori Rahmatulloh Vozeh ahvoli va ijodini tadqiq qilar ekan, uning ilmiy salohiyati va yuksak saviyasiga e‘tibor qaratib tabiblik mahoratiga alohida urg‘u berib o‘tadi:

“Qori Rahmatulloh Vozeh tabobat sohasida nazariy bilimlarga ega bo‘lib qolmasdan, tashxislari bilan ko‘pchilikka amaliy yordam berdi, ko‘pgina muolajalari sababli bir qancha kishilar undan shifo topdi, shuningdek, mohir notiq sifatida ham nom qozongan bo‘lib, fors va arab tillarida ijod qildi va ko‘proq shu tillarda obro‘ ko‘rsatdi”.

Muhokama va natijalar. Hoji Abdulazim Shariyning ma‘lumotlariga ko‘ra, Vozeh 1817-(hijriy 1233) yilda o‘sha paytdagi Buxoro amirligining poytaxti Buxoro shahrida tug‘ilgan. Otasining ismi Muhammad Ashur bo‘lgan. Vozehning bolalik va yoshlik yillari shu shaharda o‘tgan. Boshlang‘ich ta‘limni dastlab otasi Muhammad Ashur qo‘l ostida, qarindoshlari va do‘stlari bilan birga tamomlagan. So‘ngra madrasaga o‘qishga kiradi va madrasa ta‘limini 1844-(hijriy 1261) yilda 26 yoshida uni tamomlaydi. U tarix, tibbiyot, matematika, astronomiya, mantiq, diniy ilmlar va tasviriy san‘at bo‘yicha yaxshi ma‘lumotga ega edi. Arab, fors va turk tillari va adabiyotini a‘lo darajada o‘rgangan, ta‘limni tugatgandan so‘ng har uchala tilda ham she‘rlar yozib, shuhrat qozongan. Bundan tashqari usmonli turk tilini va chig‘atoy turkchasini ham o‘rgangan. U yoshligida Qur‘onni yod olgan va shu bois Qori laqabi bilan ko‘pchilikka mashhur bo‘lgan. Shunday qilib, u ko‘p manbalarda odatda Qori Rahmatulloh Vozeh yoki Qori Rahmatulloh Buxoriy nomlari bilan tilga olinadi. 1854-yilda u Buxoro xonligi saroyiga kirib, turli rasmiy lavozimlarda ishlagan. Ammo Buxoro xoni atrofidagi odamlarning unga nisbatan hasadlari tufayli u saroyni tark etib, umrining qolgan qismini madrasalarda dars berishga bag‘ishlaydi. Qori Rahmatulloh Vozeh 1895-(hijriy 1311) yili 78 yoshida Buxoroda vafot etadi. Turli ma‘lumotlarga ko‘ra, Qori Rahmatulloh Vozeh uch mingdan ortiq hadisni yod olgan. Umrining so‘nggi yillarida ziyorat uchun Hijozga (hozirgi Saudiya Arabistoni) borib, 1887-yilda (1305-yilda) Buxoroga qaytib keladi. Bu safardan qaytgach, u o‘z faoliyatini davom ettiradi. Adabiy faoliyat bilan shug‘ullangan va ziyorat safari haqida “Savonih-ul-masolik va Feraseh-ul mamolik” (“Yo‘llarning qulayliklari va mamlakatning masofalari”) nomli asar yozadi. Qori Rahmatulloh Vozeh 1895-(hijriy 1311) yili Buxoroda 78 yoshida vafot etdi.

Vozeh fors-tojik, turk va arab tillarida ijod qilib qolmasdan, tarjimonlik bilan ham shug‘ullangan. U Hotamiy Shayx Bahoiyning “Dar ahvoli ustziflob” asarini turk tilidan fors-tojik tiliga va Muhammad ibn Zakariyo Roziyning “Bar‘us-so‘a” degan tibbiyotga oid risolasini arabchadan fors-tojik tiliga tarjima ham qilgan. Vozehning fors tilida yozilgan “Aqoid-un niso” (“Ayollar uchun qoidalar”) asarida jamiyatda ayollarning o‘rni va ularning e‘tiqodlari xususida ma‘lumotlar keltirilgan. Asar muqaddima va 16 ta bobdan iborat bo‘lib, unda diniy ibodat amallari, oila qurish va nikohlanish tartib qoidalari, chimildiq bilan bog‘liq urf-odatlar, ayollarning ona bo‘lishi va bola parvarishi, ayollar gigiyenasi, madaniy hordik chiqarishi va musiqa asboblari, er-xotin munosabatlari, pazandachilik mahorati, mehmon kutib olish marosimi kabi masalalar o‘z aksini topgan. Ayollarning diniy, axloqiy, tibbiy va ma‘naviy tarbiyasi bilan bog‘liq bu masalalar o‘z davri uchun muhim ahamiyatga ega edi. Asarda Buxoroda ayollar amal qiladigan rasm-rusumlarga ta‘rif berilganda turli xil urf-odatlar, ular bilan bog‘liq diniy va boshqa rasm-rusumlar mohiyati ochib berilgan hamda bid‘at va xurofotlar jiddiy tanqid ostiga olingan. 1880-yilda yozilgan.

“Aqoid-un niso” asarida Qori Rahmatulloh Vozezh Yoshi ulug‘ insonlar har bir kishi umri davomida uch narsaga shoshilishi va uch narsaga shoshilmasligi kerak ekanligini aytib o‘tganligini ta’kidlaydi:

Shoshilish kerak bo‘lgan amallar:

1. Ibodatga shoshilish kerak;
2. Ilm olishga shoshilish kerak;
3. Qiz bolani turmushga berishga shoshilish kerak.

Shoshilmaslik kerak bo‘lgan amallar:

1. So‘z aytishga shoshilmaslik kerak;
2. Taomlanishga shoshilmaslik kerak;
3. O‘gil bolani uylantirishga shoshilmaslik kerak;

Asarda jamiyatdagi ba’zi bir illatlar insonlarning kundalik yumushiga aylanib ketganligini ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, Vozezh oiladagi yoshi ulug‘ ayollarni hurmat qilish kerakligiga e’tibor qaratgan. Shu mazmundagi uning quyidagi fikri diqqatga sazovordir: “Bilginki, har qaysi ayolning yoshi katta bo‘lib, unga keksalik yetishgan bo‘lsa, uning gapiyu ishi mo‘tabar sanaladi. Qaysi ayol agar ularning aytganiga xilof qilsa, hayotda topadiganlardan yo‘qotadiganlari ko‘p bo‘ladi. Chunki hayot davomida ortirilgan tajriba albatta o‘z so‘zini aytib, ularning nasihatlarini saboqdir. Agar bu nasihatlariga amal qilinmasa ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yish va bu xatolar gunohlarga olib kelishi mumkin. Ma’rifatparvarning bu g‘oyalari yosh avlodda kattalarga hurmatda bo‘lish va qaynona-kelin o‘rtasidagi munosabatlarni tartib solishda yordam beradi.

“Koni lazzat va xoni ne’mat” (Lazzat manbai va ne’mat dasturxon) nomli asarida Buxoro amirligi hududida keng tarqalgan 227 ta taom turlari, xususan, O‘rta Osiyo, Eron, hind va arab taomlari ta’rifi, ular ba’zilarining tayyorlanish usullari, taomlarning foydali xususiyatlari o‘z aksini topgan. Ular orasida milliy taomlardan palov (osh), holva, murabbo va non turlariga alohid urg‘u berilgan. Taomlar alifbo tartibida tizimlashtirilgan.

Qori Rahmatulloh Vozezhning bizgacha jami o‘n uchta asari yetib kelgan bo‘lib, bular quyidagilar:

1. “Tuhfat-ul ahbob fi tazkirat-ul as’hab” (“Sevguvchilar tuhfasini bo‘lmish do‘stlar tazkirasini”)
2. “Aqoid-un niso” (“Ayollar uchun qoidalar”)
3. “Koni lazzat va xoni ne’mat” (“Lazzat manbai va ne’mat dasturxon”)
4. “Savonih ul-masolik va farosix ul-mamolik” (“Yo‘llarning qulayliklari va mamlakatning masofalari”)
5. “G‘aroyib-ul xabar fi ajoyibis safar” (“Ajoyib safardagi g‘aroyib xabarlar”)
6. “Shaqoiq-ud daqiq”
7. “Devoni forsiy, arabiy va turkiy”
8. “Majmuai Firha”
9. “Masnaviy dar haqiqat”
10. “Tarjimayi forsiy Risolai “Bar-us-so‘a” i Muhammad ibn Zakariyo dar tib”
11. “Tarjimayi turkiy, Risolai hotami Shayx Bahoyi dar ahvoli usturlub”
12. “Tuhfai amoniya” tibbiyotga oid
13. “Arois-ul-abkor va navodir-l-afkor” forsiy va arabiy she’rlar

Qori Rahmatulloh Vozezhning “Tuhfat-ul ahbob fi tazkirat-ul as’hab” (“Sevguvchilar tuhfasini bo‘lmish do‘stlar tazkirasini”) nomli tazkirasini o‘sha davrdagi eng nufuzli asar bo‘lgan biografik asar bo‘lib, XIX asr O‘rta Osiyo adabiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotini yoritib beradi. Qori Rahmatulloh Vozezh XIX asrda o‘n uchta kitob yozgan va eng muhim asari “Tuhfat-ul ahbob fi tazkirat-ul as’hab” edi. XIX asr o‘rtalaridan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda “Tuhfat-ul ahbob fi tazkirat-ul as’hab” Buxoro xonligida yozilgan yetti she’riy antologiyalar ichida eng muhim asarlardan biri bo‘lgan. Biografik shaklda yozilgan asar keyingi barcha antologik asarlar va undan keyin yozilgan adabiyot tarixi kitoblari uchun muhim manba bo‘lib kelgan. Xususan, Sadri Ziyo “Shuaro-i mutaaxxirin” (Hozirgi davr shoirlari) nomli tazkirasini Vozezhning “Tuhfat-ul ahbob fi tazkirat-ul as’hab” tazkirasini asosida yaratilgan bo‘lib Sadri Ziyo tazkirasini shunchaki ko‘chirmay, undagi ma’lumotlarni to‘ldirib aniqlashtiradi va ilovalar kiritadi.

Ilovalarda Ahmad Donish va XIX asrning ikkinchi yarmida Vozehdan keyin yashagan shoirlar haqida ma'lumotlar beriladi.

“Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul as'hob” asarini 1945-yilda Toshkentda A.Mutallibov fors-tojik tilidan rus tiliga tarjima qilganlar. 1956-yili bu tazkirani O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, adabiyotshunos olim Po'latjon domla Qayyumov Qo'qon shahrida fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilganlar, ammo bu tarjimada biroz qisqartirishlar qilingan.

“Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul as'hob” tazkirasida ijodkorlar haqida berilgan ma'lumotlarni mazmun jihatidan quydagi tarkibiy qismlarga bo'lishimiz mumkin;

1. Shoirlarning tug'ilgan joylari va yashash joylari haqida;
2. Ayrim shoirlarning yashagan joylarining geografik o'rni haqida;
3. Shoirlarning ijtimoiy faoliyatlari, kasb-korlari haqida;
4. Shoirlarning shaxsiy hayotiga oid voqealar haqida;
5. Muallif tomonida ijodkorlar ijodiga shaxsiy munosabatlar;
6. Shoirlarning o'zaro adabiy aloqalari haqida;
7. Shoirlarning insoniy fazilatlarini haqida;
8. Shoirlarning asarlari haqida, shuningdek, davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqidagi

ma'lumotlar.

“Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul as'hob”ning aniqlangan 15 ta nusxasi, dunyodagi turli qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Bularidan 10 tasi O'zbekistonda, 2 tasi Sant-Peterburgda, 3 tasi Tojikistondagi qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qori Rahmatulloh Vozehning hayoti va ijodi to'liq o'rganilmagan. Tojiklar ushbu ijodkorni o'zlarining shoirlari deb sanashadi, biroq Vozeh Buxoro farzandi bo'lib, O'zbekistonlik ijodkordir. Bugungi kun yoshlariga Vozeh ijodini tanishtirish esa, biz kabi tadqiqotchilarning bosh maqsadidir.

ADABIYOTLAR:

1. Qori Rahmatulloh Vozeh. “Tuhfatul ahhob fi tazkiratil as'hob” // Qo'lyozma, O'zR FA SHI fondi. Inv. No 2336/1. –145 v. Yana qarang: Xadi-Zade R. Istochniki k izucheniyeu tadjikskey literatury vtoroy poloviny XIX veka. – Stalinabad, 1956.

2. Абдуллаева С. Н. Шейх Наджмиддин Кубро – герой нации //Иновации в педагогике и психологии, 2022. – Т. 5. – No. 2.

3. Akyuz Murat, Qarirahmatullah Vozeh and His Antology Namedtohfe-Tul Ahabab Fi Tadhkira-tul As'hab, 2015.

4. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti. Inv. No1304.

5. Qori Rahmatulloh Vozeh. “Tuhfatul ahhob fi tazkiratil as'hob”//Qo'lyozma, Ibn Sino kutubxonasi fondi. Inv. No400/

6.https://www.researchgate.net/publication/348336772_TA_29_Qari_Rahmatullah_Vazeh_and_his_book

7. Qori Rahmatulloh Vozeh. “Tuhfatul ahhob fi tazkiratil as'hob” ‘‘Buxoro‘‘nashriyoti 2001.

*Norova Nasiba Baxtiyorovna,
BuxDU o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi dotsenti, (PhD)
(O'zbekiston)*

*E-mail: nasiba.norovag@mail.ru
Xudoyberdiyeva Mahliyo Ilhomjonovna,
BuxDU Filologiya fakulteti
4-kurs talabasi
(O'zbekiston)
E-mail: mahliyo.xudoyberdiyevag@mail.ru*

GO'ZAL BEGIM IJODIGA BIR NAZAR

Annotatsiya. Hozirgi adabiy jarayon qizg'in, boy ijodiy muhitni boshdan kechiriyapti. Ham nasriy, ham nazmiy izlanishlar bugungi kitobxonning diqqat markazida. Badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar istiqloq davri she'riyatida ham o'z ta'sirini o'tkazotganligi seziladi, albatta. Ushbu maqolada o'zining betakror she'rlari bilan o'zbek she'riyatida munosib hissa qo'shib kelayotgan, iste'dodli shoir, tarjimon Go'zal Begim ijodiga nazar tashlaymiz. She'rlarining o'ziga xos jihatlari, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati, sarlavha tanlashi, so'z qo'llash kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Hozirgi adabiy jarayon, she'riyat, modern adabiyoti, sarlavha, badiiy tasvir, mahorat, uslub.

Аннотация. Современный литературный процесс переживает напряженный, насыщенный творческий процесс. И прозаические, и поэтические исследования находятся в центре внимания сегодняшнего читателя. Изменения в художественном мышлении оказали влияние на поэзию периода независимости. В этой статье мы даём оценку творчеству талантливой поэтессы и переводчицы Гузал Бегим, внесшей своими поэтическими произведениями достойный вклад в узбекскую поэзию. Изучены своеобразие его стихов, мастерство использования средств художественного изображения, выбора названий, словоупотребления.

Ключевые слова: современный литературный процесс, поэзия, современная литература, название, художественный образ, мастерство, стиль.

Abstract. The current literary process is experiencing an intense, rich creative process. Both prose and poetic research are in the focus of today's reader. Changes in artistic thinking have had an impact on the poetry of the independence period. In this article, we pay tribute to the work of the talented poetess and translator Gozal Begim, who has been making a worthy contribution to Uzbek poetry with her poetic works. The specific aspects of his poems, the skill of using artistic image tools, the choice of titles, and the use of words have been studied.

Keywords: Current literary process, poetry, modern literature, title, artistic image, skill, style.

Kirish. Istiqloq davri she'riyati inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini badiiy tasvirlashga intilib, buning uddasidan chiqib kelmoqda. Ayniqsa, bu borada faol ijod qilgan va qilayotgan ayol shoiralarning hissasi katta bo'ldi. Zulfiya Isroilova, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Gulchehra Jo'rayeva, Qutlibeka Rahimboyeva, Enaxon Siddiqova, Farida Afruz, Ibodat Rajabova, Zulfiya Mo'minova, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo, Nodira Afoqova, Dilorom Ergasheva, Laylo Sharipova, Hosiyat Rustamova, Guljamol Asqarova, Go'zal Begim kabi katta va o'rta avlod vakillari izidan, Nargiza Odinayeva, Go'zal Ro'ziyeva, Nurxon Elmirzayeva, Mehrinoz Abbosova, Kumush O'sarova, Gulurux Xudoyorova, Madina Norchayeva, Tillaniso, Baxtiniso Mahmudova, Malika Tavfiq, Iroda Umarova kabi yangi iste'dodlarning yetishib chiqayotganligi quvonarli hol, albatta. Mustaqillik yillarida ayniqsa, adabiyot maydonida ularning faolligi yanada oshdi. Nafaqat intim lirikaning, balki ijtimoiy lirikaning ham o'ziga xos unsurlari, ayollarga xos nafosat bilan she'riyatimiz sahifalarida jarang sochdi. Bugun ularning ijodi tadqiqot obyektiga aylanayapti. Nigora Xaytaliyevaning "Hozirgi o'zbek lirikasining poetik xususiyatlari (90-yillar ayollar she'riyati misolida)", G.Umurovaning "Zulfiya badiiy olami va poetik maktabi", Nigoraxon Saloxiddinovaning "Hozirgi o'zbek ayol ijodkorlar she'riyatida poetik obraz va

uslub masalasi (Zulfiya Mo‘minova, Zebo Mirzo, Halima Ahmedova, Farida Afro‘z she‘rlari misolida)”, Maftuna Xalovanning “Hozirgi o‘zbek ayollar she‘riyatida qalb tasviri va talqini (H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, Z.Mirzo ijodi misolida)” kabi bir qator tadqiqotlar fikrimizni dalillaydi.

Asosiy qism. “Bugungi o‘zbek she‘riyati kechagi she‘riyat emas, balki o‘zining ko‘pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko‘ra yangilangan poeziyadir”, – deb yozadi adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam. Ayniqsa, modernizm oqimi bu boradagi yangilanishlarda o‘ziga xos yangi hodisa bo‘lganligini ta‘kidlaydi. “Hozirgi o‘zbek she‘riyati ifoda usuliga ko‘ra taxminan quyidagicha ko‘rinishga ega: an‘anaviy; xalqona (folklor an‘analari doxil); modern; aruz; sinkretik. Ammo ta‘kidlash joizki, dunyoni estetik-badiiy talqini bobida, asosan ikkita kuchning musobaqasini kuzatish mumkin: bu – an‘anaviy va modern oqimlari o‘rtasidagi bellashuv. (Bunday musobaqa hamisha bo‘lgan, aslida, va u yaqin tariximizda, masalan, “an‘ana va novatorlik” deb atalgan). Nima bo‘lganda ham, keyingi 20-25 yil mobaynida jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlar zamonaviy o‘zbek she‘riyati qiyofasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgani bor gap. Tashqaridan “keltirilgan” oqimlarning ta‘siri esa allaqachon umrini yashab bo‘ldi. Zotan, hayot – barcha yangilanishlar manbai, sarchashmasi [8, 4]!

Chindan ham, hozirgi adabiy jarayon shakliy, janriy, uslubiy, g‘oyaviy jihatidan yangilanib borayapti. Hayotimizda kechayotgan azim o‘zgarishlar tufayli nafaqat she‘riyat, balki butun boshli adabiyotimiz mafkuraga xizmat qilishdan qutilib, o‘zining azaliy o‘zaniga tushib bormoqda. Boshqacha aytganda, shoir ko‘ngilni she‘rga solishga kirishdi. Mustaqillik davri she‘riyati haqida fikr yuritganda o‘z davrini o‘tab bo‘lgan g‘oyalardan, mavzulardan ko‘ra, inson ko‘ngil kechinmalari, hissiyotlari, orzulari va dardini kuylash boshlandi. Halima Xudoyberdiyevaning

Onaginam!

Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol,

Qayon boqsang, shaylanishlar va sozlashlar tor.

Olcha gulin ko‘zlaringga surtasan behol:

“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”, –

Satrlarini o‘qib, mustaqillik shukronasi, xalqning orzu niyatlari bilan bog‘langanligini ko‘rish mumkin. Shoiraning lirik qahramoni ko‘nglidagi ilohiy, intizomiy tuyg‘u bilan atrofda kechayotgan voqelikka munosabati mahorat bilan tasvirlanadi.

“Bularning hammasi yaxshi. Faqat kutilmaganda masalaning boshqa bir qirrasini yuz ko‘rsatdi. Shoir haddan tashqari o‘z olami bilan band bo‘lib, atrofni, jamiyatni bir qadar “unutdi”. Shoir uchun o‘z subyektiv olamigina birlamchi haqiqatga aylandi. Bu esa she‘riyat maydonining torayishiga olib kelgan jiddiy sabablardan biri. Boshqa yoqdan esa shaklga qattiq mehr bog‘lagan shoir adabiyotni o‘yinga aylantirish payiga tushdi. “Haqiqiy adabiyot, chinakam she‘r bu yuksak san‘atdir”, degan shoir ostida ijod qiluvchilar soni bir muncha ortdi. Bunday tutim ham ma‘lum ma‘noda she‘riyatning ziyoli-ijodkorlar, bo‘lajak filolog-talabalar, mutaxassislar va muayyan qiziquvchilar doirasida ko‘proq o‘qilishiga olib kelmoqda. Tursun Ali, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro‘zimuhammad, Faxriyor, Aziz Said, Go‘zal Begim kabi o‘zbek shoirlari (dunyoqarashlari, iste‘dodlari va uslublaridagi jiddiy farqlarga qaramay) qaysidir ma‘noda shu umumiy yo‘nalishning ko‘zga ko‘ringan vakillaridir” [8, 5].

To‘g‘ri, yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, qaysidir shoirlar ijodida an‘anaviy yo‘nalish saqlanib qolgan bo‘lsa, qaysidir birida shakliy o‘zgarishlar yoki sinkretik yo‘nalish tanladi. Go‘zal Begim ijodini kuzata turib G‘arb va Sharq an‘analarini muvofiqiyatli sintez qilgan modern yo‘nalish tanlanganligini guvohi bo‘lamiz.

Qalb va tafakkurini charxlaydigan, inson ruhiyatining eng nozik ko‘z ilg‘amas jihatlarini tasvirlaydigan, she‘rlarida hech kim ilgari surmagan g‘oyalarni, haqiqatlarni, o‘zining maslagiga aylantirgan, to‘siqlardan chekinmay yurishga undaydigan, shu bilan birga sodda, samimiy tuyg‘ularni qalamga oladigan bugungi adabiy jarayonning eng ko‘zga ko‘ringan, adabiyotshunoslarimiz ta‘biri bilan aytganda, modernistik yo‘nalishda ijod qilayotgan shoirlarimizdan biri Go‘zal Begimdir. Shoiraning “Sukunat jarangi”, “Uchayotgan yaproq soyasi”, “Shabada qirg‘og‘i”, “Yoki” nomli she‘riy kitoblari chop etilgan. Hamda “O‘zbek modern she‘riyati”, “Yoshlar kitobi”, “Anor” (Moskva, 2008) kabi to‘plamlarida she‘rlari e‘lon qilingan. Go‘zal Begimning ijod namunalari rus, ingliz va qozoq tillariga tarjima qilingan.

Shoiraning sarlavhasidanoq o'quvchilarni o'ziga tortadigan "Aylanishga taklif qiladi shamol", "Yuragingga uzoq yo'l bosib keldim", "Bunchalar uzundir qoshim orasi", "Uchib kelayotir janubdan so'zlar", "Tomirga atirgul chizadi qonim", "Men bahorni kutdim", "Singan fikr chizgilari" "Ko'z yosh-la uchadi osmonda qushlar"... kabi bir qancha she'rlari qalbimizga eng hayajonli onlarni olib kiradi.

Go'zal Begimning dastlabki "Sukunat jarangi" kitobi haqida shoir Bahrom Ro'zmuhammad shunday yozadi: "An'anaviy she'riyatga ko'nikkan nazm muxlisi uchun milliy adabiyotimiz ichida rang talashayotgan modern she'riyati g'ayritabiiy tuyilishi aniq. Biroq hozirgi zamon G'arb she'riyatidan boxabar she'rxon bu borada hech taajjublanmaydi. Sababi shundaki, biz yangi sanayotgan to'lqinlar allaqachon G'arbda eshik, boshqa oqimlar orasida bilinmaydigan darajaga yetgan. Xo'sh, modern she'riyatining yangiligi nimada o'zi? Bu yangilik modern she'riyatining faqatgina inson shuuriga tayanishi bilan izohlanadi. Modern she'r o'quvchi ongiga muayyan ma'no tashimaydi, uning kayfiyatiga turli taraflardan ta'sir o'tkazadi, xolos. Demak, modern she'riyati qonun-qoidalari "Shoir nima demoqchi", "G'alati-ku bu?" qabilidagi savollarga o'rin qoldirmaydi, zotan, modernizmning mohiyatida o'sha "g'alatilik" bor. Yosh shoira Go'zal Begim she'rlari ana shu jihatdan o'zini oqlaydi. Shoira ruh kengliklariga o'zicha sayr qiladi, nimalarnidir izlaydi, topmoqchi bo'ladi" [3, 4].

Yuraginggacha
juda uzoq yo'l bosib keldim.
pastlab uchgan uchoq qanoti
orzularga tegib o'tgani kabi

Go'zal Begim "Dordagi ayol yuragi" maqolasida Halima Xudoyberdiyevaning muhabbat mavzusidagi she'rlari boshqalarnikidan farq qilishni yozadi. Ya'ni lirik qahramoni ichki qiyofasi jim iztirob chekishning, jim yuksalishning sadolarini yuragimizda akslantiradi, deydi. Holbuki, bunday o'xshash jihatlar Go'zal Begim ijodida ham ko'zga tashlanadi.

men esa tegmay o'tib ketdim
chap qobirg'ang ostidagi asotirlarga [12]

"Muhabbat – inson mavjudlik muammosining yechimidir", – deydi nemis faylasufi Erix From. Azaliy mavzu yangi ma'no va mohiyat bilan boyitilgan. Inson qalbiga kirish, muhabbatni qozonish juda uzoq va mashaqqatli yo'l. Orzularga tegib o'tgan uchoq qanotida, bor-yo'g'idan, orzulardan, umidlardan nainki kechib, ayol kishi odamning chap qovurg'asidan yaralgan degan asotirlarga e'tibor qaratmay yuraginggacha uzoq yo'l bosib keldim, deydi. Shu misralar orqali "Qisasi Rabg'uziy" asarining "Odam alayhissalom" qissasidagi Momo Havoning yaratilish voqeasiga ishora qilinadi [13, 6].

"... Men bayramlar kutdim, taqvim ko'rmagan",
Bir boqishdek top-toza g'urur" [2, 12].

Ijodkorning diniy, tasavvufiy qarashlari ham o'zgacha. She'rning nomlanishidan shu mavzuda bo'lsa kerak degan she'rxon, mazmundagi, tag matndagi fikrdan uyg'oq tortadi. Botiniy ma'no reallashadi. "Men bahorni kutdim" she'rda taqvimda uchramaydigan bayramning o'zi yo'qligi kabi mulohazalar bildirib, chin e'tiqod, maslak, iymon, vijdon bayrami taqvimda yo'qligi haqida so'z yuritadi. Bu bayram haqiqiy musulmon odamlar nishonlaydigan Hayit bayrami ekanligi qalamga olinadi. "Toza g'urur" istiorasi esa misraning ta'sirchanligini oshirgan.

Men hayitlar kutdim, ilhaq, intizor,
Bosh qo'yib Qadrning ilklariga.
Bir kun qaytajakman yorug' olamga
Osilib bahorning kipriklariga.
Men hayitlar kutdim.

Shoira asosiy urg'uni she'rning yakuniy satri xulosasida ifodalaydi. Go'zal Begim ijodida xalq og'zaki ijodining ham kuchli ta'siri borligi seziladi. Uning "Tilsim" she'rida:

Menga sirli ko'zgungni ber, enajon,
Tarog'ing-la sochimni o'r, enajon,
Ko'ngil esa mo'jiza der, enajon,
Bag'ringni in'om et, Tilsim [3, 5].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da tilsim arabcha “tumor, sirli, maxfiy yozuv, sir” ma’nolarini beradi [11, 245]. Xalq ohangiga xos qofiyalanish, syujet, motiv va obrazlardan foydalanib, mo‘jizalarning borligiga ishonadigan qiz tilidan yozilgan. Butun olam (asosan, ko‘ngil nazarda tutilmoqda N.N) sirlaridan voqif bo‘lmoq uchun nahangning yutishiga ham tayyor. Keyingi satrlarda,

Dev og‘a, yelkangga ola qol meni,
Parilarga hamroh qila qol meni,
Kaftingda sirli gul qila qol meni,
Bag‘ringni in‘om et, Tilsim.

She’rda shoironing dev, pari kabi mifologik obrazlarga ham murojaat etganligi kuzatiladi.

Shoir Shavkat Rahmon she’riyatida keng kuzatilgan va boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan o‘ziga xos bir xususiyati bor. Aksar she’rlarida har bir bandning birinchi misradagi satrlardan tashqari kichik harflar orqali ifodalash yoki so‘zlarni ketma-ket satr sifatida kichik harf orqali ishlatish. Bandlarni alohida-alohida emas, yaxlit umumiy tarzda shakllantirish. Go‘zal Begim ijodida ham bunday ko‘rinish ko‘p bor kuzatiladi.

Men
ming so‘zli boyman
qarab turar menga
ming qo‘yli boylar
xarid qilmoq uchun Dard xazinamni
daraxt o‘stiraman so‘zlardan
yulduzlarni yasantiraman
guldor mixlar sug‘uraman osmon toqidan
oy oynasi qamashtirar dilimni
derazamning pardasi uchib ketyapti
kun ortiga o‘tib boryapti gullar
ming yamoq ko‘nglimdan
uchib-uchib chiqar
ming qanot so‘zlar... [t.me/guzalbegim_blog]

Ming qo‘yi bor odam boy emas, balki ming so‘zi bor odam boy ekan. Bu boylik dardni aritadi, ming tilim bo‘lgan ko‘ngliga darmon bo‘ladi, qalb oynalaridan g‘uborlarni yo‘qotadi, daraxtlarga quvvat beradi, xullas ma’naviy boylik insonni har ishga qodirligini ifodalaydi. O‘zligini topishga yordam beradi.

Modern adabiyotda odamning ichki olami birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Asardagi barcha narsa: ramzlar, voqealar tasviri, so‘zlar, musiqiylik faqat odam ruhiyatini ochishga qaratilishi kerak degan qarash bu yo‘nalish vakillari tayanadigan bosh tamoyildir. Ijodkorning shaxsiy kechinmalarga tayanib, uni o‘ta shaxsiy yo‘sinda ifoda etgani uchun ham modern she’riyat ommaviy bo‘la olmaydi, buni u hech qachon da’vo ham qilmaydi. Modern adabiyotning qahramonlari voqea jarayonida emas, mushohada, kechinma asnosida ko‘rsatiladi. Xuddi shu jihatdan ham modern she’riyat namunalarining ommalashishiga yo‘l qo‘ymaydi”, – yozadi tadqiqotchi M. Yo‘ldosheva [14, 1].

Darhaqiqat, badiiy tasvir teranlashuvi va inson ruhiyati qatlamlarini zotikroq idrok etish malakasi oddiylikni hazm qilolmaydi. Zotan, tajriba va an‘ana sintezi mohiyat chuqurlashuviga keng yo‘l ochadi.

O‘ylaringa oq tushdi
Tunlar g‘ichirlab tinmas
Xayolim – pechakgul
Chirmashar oyog‘ingga
Shudringlarning labida
Lablarimning og‘ringan izi [1,38].

XX asrning oxiri hamda mustaqillik davri o‘zbek she’riyati yangicha tamoyillar asosida boyib bordi. Jahon va mumtoz adabiyot an‘analari ta’sirida yangi poetik shakllar kirib kela boshladi. Ushbu badiiy shakllar ijodkorlarning shakliy-uslubiy izlanishlari natijasida yuzaga keldi. Binobarin, adabiyotshunos N.Rahimjonov ta’kidlaganiday: “An’anaviy janrlardan tashqari, ya’ni mavzu problemalariga ko‘ra tasniflanuvchi ijtimoiy-siyosiy, peyzaj, ishq-muhabbat lirikasi yo‘nalishida sonet, ikkilik, fard, uchlik xokku, tanka, oktava, beshlik, oltilik, sakkizlik singari poetik janr va shakllarda ham

e'tiborli izlanishlar jarayoni kechmoqda" [6, 66]. O'zbek she'riyatida ham ana shu she'riy shakllar (birlik, ikkilik, uchlik... kabi)ga murojaat ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunos N.Jabborov esa shu davr she'riyatiga xos xususiyatlar haqida to'xtalib, ularni quyidagicha tasnif qiladi: 1) zamonaviy mavzularni ko'hna aruzda ifodalashga intilish; 2) she'riyatda xalqona ohanglarga ehtiyojning ortishi; 3) poetik shakldagi yangilanish; 4) poetik obrazdagi yangilanish [4, 304]. Haqiqatdan ham, shoir an'anaviy shaklda yozadimi, badiiy shaklni o'zgartirib birlik, ikkilik, uchlik singari she'riy shakllar asosida fikrni ommaga yetkazmoqchimi, yuzaga chiqayotgan mazmunga alohida e'tibor qaratmog'i lozim. Shakl va mazmun birlashsagina mukammallik ortadi. Ijodkor qanday she'riy shakllardan foydalanmasin, mavzu, g'oyaning originalligi ahamiyatli hisoblanadi. Iste'dodli ijodkor Go'zal Begim ijodidagi ikkiliklar shu jihatdan e'tiborga loyiq.

Go'zal Begim ijodida keng uchraydigan she'riy shakllardagi o'zgarishlar misralarida aks etadi. Go'zal Begim o'zaro qofiyalanmaydigan ikki misra she'rlarni sachratqilar deb nomladi. Bu she'riy shakl ixcham "oq she'r" dir, ya'ni barmoq vazniga xos bo'g'inlar tengligi, turoqlar bor, lekin qofiyadosh so'zlar qo'llanmaydi. "Modern she'riyat ko'rinishlariga o'xshab tinish belgi ishlatilmaydi, chunki tinish belgi xayolning sarhadsiz maydoniga to'siq bo'ladi deb hisoblashadi. Sachratqida ruhiyatning oniy holati qalamga olinadi. Qofiyalanishi a-b tarzida. E'tibor beradigan bo'lsak, qolgan "ikkilik"lardan farqli ravishda Go'zal Begimning "sachratqi"larida qofiya yo'q. Chunki bu she'rlarda ruhiyatning oniy holati tasvirlangan" [5, 15].

O'tayotib daraxt tagidan (4+5)

Osmon haqda o'yladim birpas (4+5)

Bu she'rning asosida "Nega daraxt osmonga talpinib o'sadi?" degan falsafiy savol yotibdi.

Bir pas oy haqida xayolga toldim

Xayol qutisini sindirib shunda

Xayolning sarhadsiz maydoniga to'siq bo'lmasligi uchun bu she'rida tinish belgilarini ham ishlatmaydi. Bunda lirik qahramon oy haqida o'ylash uchun xayol qutisini sindiradi. Chunki faqat oyni o'ylash uchun qolgan xayollarni – xayol qutisini sindirish lozim, xuddi nafsni sindirgan kabi. E'tibor beradigan bo'lsak, qolgan "ikkilik"lardan farqli ravishda Go'zal Begimning "sachratqi"larida qofiya yo'q. Chunki bu she'rlarda ruhiyatning oniy holati tasvirlangan [5, 17].

Birlik, ikkilik, uchlik ... kabi she'riy shakllar bir nechta o'zbek shoirlari ijodida uchraydi, ammo ushbu she'rlar alohida kitob holida nashr qilinmagan. Bunday ijod namunalari she'riyatimizning shaklan va mazmunan yanada taraqqiy etishini ta'minlaydi, albatta.

Xulosa. She'riyatda yangicha tamoyillar, badiiy-estetik ifodalarning kirib kelishi inson tafakkur tarzining rivoji uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, ayollar she'riyatiga xos bo'lgan yana bir jihat – eng nozik tuyg'ularni ham kuchli pafos, ehtiros, topqirlik bilan ifodalashda ko'rinadi. Go'zal Begim she'riyatidagi badiiy mahorat esa, tagmatnda falsafiylik, mushohada qilishga chorlovchi fikrning yashirin tarzda berilishi, folklorizmlardan foydalanish, asosan, modernistik yo'nalishning ustuvorligi kabi xususiyatlarda ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Allamberganov A. Go'zal begim ijodida ong va tuyg'u yaxlitlashuvi. <http://parvoz.blogspot.com/2014/06/gozal-begim-ijodida-ong-va-tuygu.html>
2. Go'zal Begim. Dordagi ayol. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/gozal-begim-isingiz.html>
3. Go'zal Begim. Sukunat jarangi. Bahrom Ro'zmuhammad. So'z ifori. –T.: Yozuvchi nashriyoti, 1998. – 128 b.
4. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2015. – 304 б.
5. Mirvaliyev Q.O'zbek she'riyatida shakliy izlanishlar va individuallik. <https://www.researchgate.net/publication/367021199>
6. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърятти. – Т.: Фан, 2007. – 120 б.
7. Raxmanova N. Istiqlol davri o'zbek she'riyatidagi yangi lirik janrlar. <https://orcid.org/0009-0002-9793-3415>

8. Ulug‘bek Hamdam. Erkin badiiy tafakkur va bugungi o‘zbek she‘riyati. // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, 2013. – №48.
9. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияти: Илмий мақолалар. – Т.: Adib, 2012. – 274 б.
10. Йўлчиев Қ. Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик. –Т.: Фан, 2016. – 150 б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. – Т.: ЎзМЭ нашриёти, 2008. – 470 б.
12. t.me/guzalbegim_blog
13. <https://n.ziyouz.com/>
14. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/25-adabiyotshunoslik?download=7524:muhayyo-yo-ldosheva-yangilanishlar-manguligi>

*Nizomov Farxod Muso o'g'li,
Navoiy davlat universiteti
tayanch doktoranti
(O'zbekiston)
E-mail: farkhodnizomov22@gmail.com*

YOZUVCHI MAHORATI: XARAKTER VA KONTRAST

Annotatsiya. Zamonaviy o'zbek qissachiligi dunyo adabiyoti nasri bilan hamnafas tarzda istiqloq yozuvchilari qalamida individual holda taraqqiy etib bormoqda. Ayniqsa, yozuvchining xarakter yaratish jarayonida kontrast usulidan foydalanishi o'ziga xos individual – ijodkor uslubiga aylanib bormoqda. Bu xususiyat istiqloq davri o'zbek nasrining atoqli vakili Abduqayum Yo'ldosh nasrida ko'zga tashlanadi. Yoshlarning aviatsiya tizimiga, uchuvchilik kasbi qiziqishlariga doir “Osmon og'ushi” qissasi, shu mavzudagi jahon adabiyotining namunalari komparativistik yaqinligini qayd etish o'rinli. Maqolada ushbu asarda xarakter yaratishdagi ijodiy yondashuvlarga oid tahlillar keltirilgan. Bu masalada kontrast, konflikt, diniy-ma'rifiy motiv, realistik romantizmga xos o'rinlarga mulohazalar bildirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: kontrast, xarakter, motiv, galyutsinatsiya, okkultizm, uslub, janr, xarakter psixologiyasi, tipologiya, ekzistensializm, realistik romantizm.

Аннотация. Современные узбекские рассказы развиваются индивидуально в соответствии с прозой мировой литературы, написанной писателями периода независимости. В частности, использование писателем метода контраста в процессе создания персонажей становится своеобразным индивидуальным творческим стилем. Эта особенность проявляется в прозе Абдукаюма Юлдаша, известного представителя узбекской прозы периода независимости. Следует отметить, сравнительную близость рассказа “Осмон огуши” к интересу молодежи к авиационной сфере и профессии пилота соответствующими примерами мировой литературы по данной теме. В статье анализируются творческие подходы к созданию персонажей в этом произведении. В этом плане предпринята попытка прокомментировать контрастность, конфликтность, религиозно-просветительский мотив, места, характерные для реалистического романтизма.

Ключевые слова: контраст, характер, мотив, галлюцинация, оккультизм, стиль, жанр, психология характера, типология, экзистенциализм, реалистический романтизм.

Abstract. Modern Uzbek short stories are developing individually in line with the prose of world literature, written by independent writers. In particular, the writer's use of the contrast method in the process of character creation is becoming a unique individual creative style. This feature is evident in the prose of Abduqayum Yoldosh, a famous representative of Uzbek prose of the independence period. It is appropriate to note the comparative closeness of the story “Osman Oghushi” about young people's interest in the aviation system and the profession of pilot, to examples of world literature on this topic. The article analyzes the creative approaches to character creation in this work. In this issue, an attempt was made to comment on contrast, conflict, religious-educational motive, places typical of realistic romanticism.

Keywords: contrast, character, motive, hallucination, occultism, style, genre, psychology of character, typology, existentialism, realistic romanticism.

Kirish. Zamonaviy o'zbek qissachiligi dunyo adabiyoti nasri bilan hamnafas tarzda istiqloq yozuvchilari qalamida turli yo'sin va ifoda shakllari bilan bir-birini takror-lamagan, individual holda taraqqiy etib bormoqda. Ayniqsa, yozuvchining xarakter yaratish jarayonida kontrast usulidan foydalanishi o'ziga xos individual – ijodkor uslubiga aylanib bormoqda. Xususan, bu borada Abduqayum Yo'ldoshevnin “Osmon og'ushi” qissasi alohida o'rin tutadi. Qissaning asosiy qahramonlari xakteri bir-biriga qarama-qarshi – kontrast usulida yaratilganki, real insonlar in'ikosi o'laroq dunyoga kelgan bu personajlar ruhiyati, tabiati, psixologiyasi, kechinmalari hayot haqiqati mezonlari bilan uyg'unlashib ketgan. Qissa voqealar rivoji Mavlono Rumiynin “Axir “ashyo” qiymati ziddi bilan ayon bo'ladi. Ziddi

bo'Imagan narsani ta'rif etmoqlik imkonsizdir" [13], degan mashhur hikmatiga mos keladi. Mulohazalar avvalida xarakter, kontrast tushunchalarini oydinlashtirib olish joiz. "Xarakter – (yun. character-iz, belgi, farqlovchi xususiyat) – badiiy xarakter; muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi. Badiiy xarakter o'zida obyektiv va subyektiv jihatlarni birlashtiradi. Inson hayotining ijtimoiy-psixologik realligi (bu o'rinda Xarakterning real asosi, ya'ni uning hayotiy kuzatishlar yoki muayyan prototip asosida yaratilgani nazarda tutiladi) badiiy xarakterning obyektiv tomoni bo'lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilishi va g'oyaviy-hissiy baholanishi subyektiv tomonidir" [5, 352].

Kontrast esa "(fr. kontraste – keskin qarama-qarshi qo'yish) – badiiy adabiyot va san'atning boshqa turlarida tasvirlanayotgan narsa-hodisalarni bir-biriga keskin qarshi qo'yishga asoslangan badiiy usul. Kontrast tasvirlanayotgan narsani bo'rttirib, qabartirib ko'rsatish imkonini beradi, badiiy usul sifatida qadimdan qo'llanib keladi. Kontrast badiiy asarning barcha sathlarida (til, syujet, xarakter va sharoit, kompozitsiya) namoyon bo'lishi, unda zidlash oshkora yoki pinhona amalga oshirilishi mumkin" [5;279].

Asosiy qism. Mazkur qissa milliy xalq hayotida kamdan-kam uchraydigan yoshlarning aviatsiya tizimiga, uchuvchilik kasbiga qiziqishlari masalasiga oid badiiy talqini bilan bog'liq asar. Bu mavzuda jahon adabiyotida fransuz Antuan Sent de-Ekzyuperining "Tungi parvoz", "Harbiy uchuvchi", "Kichkina shahzoda", Amerika adiblari Ayzek Azimovning "Koinot oqimlari", "Fazodagi mojaro", Rey Bredberining "Marsga hujum", rus ijodkori Anatoliy Kaprovning "Cheksiz kemalar" singari mashhur asarlari yaratilgan. "Osmon og'ushi" qissasi milliy nasrimizda yuqorida qayd etilgan asarlarga hamohang tarzda yozilgan. Muallif bir suhbatida asarning bosh qahramoni real hayotdan olingan bo'lib, zamonamiz qahramoni deyishlikka arziyishini ta'kidlaydi [11].

Adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov: "Badiiy adabiyot jonli odamlar xarakterini yaratishi bilan muhim, zarurdir. Har bir zamon, millat adabiyoti insonni qanday nuqtayi nazardan tasvirlashi bilan bir-biridan farq qiladi. Eng qisqa she'rlarda ham xarakterning nozik bir nuqtasi aks etganidek, epik asarlarda inson ruhiyati, maqsadlari butunligicha tasvirlanadi" [2, 27], degan mulohazalaridan ayonki, nasriy asarda tiynat – xarakter bo'rtib aks etadi.

Yozuvchi qissaning bosh qahramoni – yetakchi obrazi Erali nomining mazmuniga ham ramziy ma'no bag'ishlagan. Erali – nomning tagmatnida: "Er" – er yigit, mard yigit, demak, hamma yumush, barcha mashaqqatda unga teng kela oladigan navqiron g'ayratli yigit ma'nosiga ega; "Ali" – musulmon olamining ilohiy qudratli siymolaridan biri, to'rtinchi sahoba Hazrat Ali ibn Abu Tolib nomiga taassub qilib tanlangan nom qismi; demak, yozuvchi ilohiy mujdaga tayanib va umid qilib, Hazrat Ali kabi pirga tayangan o'zbek o'g'lonining ham har qanday murakkab-mashaqqatli maqsadga ham erisha olishi mumkinligi kabi falsafiy-g'oyaviy maqsadni ko'zlaganligini anglab olish mumkin. "Ali" nomini tanlagan oilalar ma'naviyatida beixtiyor Hazrat Ali qudratini niyat qilish ruhi mavjud. Bu jihatning yana bir ahamiyati unda diniy-ma'rifiy motivning mavjudligidir.

Muhokama va natijalar. Uchuvchilik kasbining egasi bo'lish harakatlari qishloq bolalari muhitida beixtiyor kichik harakat-o'yinlar jarayonidan boshlanganligi qissa syujet tizimida muhim o'rin egallagan. Yozuvchi shunday harakat-faoliyat jarayonida bosh qahramon va obraz-personajlar hayot yo'llarini tasvirlagan. Erali nomida ramziy-majoziylik mohiyati o'z mujassamini topgan. Balandlikdan traktor balonlariga joylashib olib pastlikka dumalash bilan boshlangan voqelik qizg'in tus oladi.

"Sobir bir qo'lini yuqoriga ko'tarib, jo'shib-shodon buyruq beradi: Diqqat! Ko'zni yumish yo'q. Bir, ikki, uch, yetti... Ketdi!". Balonlar kuch bilan quyiga yumalatib yuborilgach, bolalar baqir-chaqir bilan ularning ortidan chopishadi. Olloh ko'ngliga va niyatiga o'zi havas-maqsad bag'ishlagani kabi, qishloq bolalari chiniqish mashqining turli ko'rinishlarini qo'llashdan charchamaydilar. Atrofidagi tengdoshlari yetakchi xarakter (Erali)ning timsolini mukammallashtirish vazifasini ado etayotganliklari e'tiborni tortadi.

"Yo'lidagi do'ngchalarga, toshlarga urilib, sakrayotgan balonlarning tezligi tobora oshib borardi. Ularning ichida g'ujanak bo'lib ketayotgan, ko'z oldilarida yer-u osmon shiddat bilan aylanayotgan Usmon bilan Eraliga havas qilib bo'lmasdi" Nihoyat ballonlar yalanglikka tushib kelgach, tezligi pasayadi, chayqalib maysalar ustiga qulaydi. Ularning ichidan Usmon bilan Erali gandraklab chiqib

kelishadi. Biroq hali sinov tugamagan edi. Sobir arqonni yana yerga tashlaydi: “- Yetti qadam. To‘g‘ri o‘tgan yutadi. Boshladik!” [6, 124].

Bunday bolalarcha xatti-harakatlar insoniy xarakter shakllanishining pillapoyalari kabi ahamiyat kasb etgan. Yozuvchi asarga uchuvchilik kasbiga intilish mazmunini tashiydigan adabiy detallarni: Ajinako‘prik, samolyot, osmon, ot, ba‘zi xalq o‘yinlarini olib kirgan. Shulardan biri xarakterning shakllanish tizimini boyitadigan qishloq chekkasidagi jarlik – soy ustiga allazamon qurilgan va ancha eskirib qolgan Ajinako‘prik deb atalgan ko‘prik detali sanaladi. Darvoqe, Ajinako‘prik tarixini yozuvchi shu maqsadda syujet tizimiga olib kirgan. Bundan yarim asr avval jarlik ustiga qurilgan yog‘och-taxtalardan iborat omonat ko‘prik uzun vaqt xalq xizmatini qilganligi, bugun besh-olti chaqirim pastga zamonaviy temir-beton ko‘prik qurilgach ehtiyoj yo‘qolgani bayon etiladi. Shundan so‘ng u xarobaga aylangan. “Tubsiz jar ustida lopillab qolgan, taxta-yog‘ochlarini o‘t-o‘simlik bosgan, shamol esgan mahallari ojizona g‘iyqillab qo‘yadigan ko‘prik kattalarga bolalarni qo‘rqitish vositasi bo‘lib qoldi: “U tomonga borma, ajinalar bor... Ajina yig‘lab chaqiradi-da, keyin seni aldab olib ketib qoladi...” va hokazo. Alal-oqibat unut bo‘lgan ko‘prik shu vahimali gap-so‘zlarga mutanosib tarzda “Ajinako‘prik” deb atala boshlanadi” [6, 124].

Qissa personajlari orasida yetakchi obraz Eralini ko‘ra olmaydigan, befarq, beparvo xarakterli personaj-obrazlar faoliyati hayotiy voqelik fonida tasvirlangan. Usmon, Sobir kabi tabiiy ichiqora, qizg‘anchiq tengdoshlari unga pand berish, uni bir baloga yo‘liqtirish payida bo‘ladi. Endi uni Ajinako‘prik ustidan o‘tish musoba-qasiga chorlash ham ularning qora niyatining ro‘yobi uchun amalga oshiriladi.

Yozuvchi hali bolaligidayoq qarama-qarshiliklarga duch kelgan Erali timsolining xarakter sifatida shakllanish jarayonlarini hayotiy voqelik ko‘lamida, chuqur psixologik tadqiqot, kontrast poetikasi yordamida talqin qilish yo‘lidan borgan. Hayot ziddiyatlardan iborat, shu jihatdan, asarda Erali, Tursunali obrazlari ezgulik, yaxshilik, Usmon, Sobir yovuzlik, yomonlik timsoli ham bo‘lib keladi. Bu xususiyatlar ularning o‘zaro muloqotlaridan ham seziladi.

“Usmon birinchi qadamini qo‘ygan palladayoq ko‘prik vahimali lopillab ketadi. U ehtiyotkorlik bilan yurishda davom etarkan, ortiga o‘g‘irilib Eraliga masxaraomuz qaraydi: – Marhamat, o‘rtoq!” yoki musobaqa davomida Sobirning Usmonning g‘alabasini (yana g‘irromlik bilan!) tantanali e‘lon qilishi va ko‘prikda o‘tirib qolgan Eraliga: “ – Yo yordamlashvoraylikmi, jo‘ra?” [6, 127-128] deyishida o‘tkir kinoya, zaharli tabassum mavjud. Uning maktab o‘quvchilarining nutqida yuz berishi esa yanada ta‘sirchanlikni oshiradi.

Oyoqlari qaltirab qolgan Erali beixtiyor o‘tirib qoladi. Eralini vahm bosib, qo‘rqib qolganligini payqagan Usmon ayni vaqtda unga yanada qattiq zarba berish kabi qora niyatini amalga oshirgani chog‘lanadi. Gap shundaki, Erali yaxshi ko‘rib yurgan suluv qiz Nafisaga boyvachcha oila vakili bo‘lgan Usmon ham xaridor edi. U qanday qilib bo‘lsa-da, Nafisani Eralidan sovitib, o‘ziga qarashga majbur qilishiga ishonardi. Usmon shu topda, ko‘prikning narigi chetiga borib qaytayotib, o‘rtada o‘tirib qolgan Erali to‘g‘risida to‘xtab, o‘zining asl qora niyatini – alamzada iddaosini bayon qiladi:

“ – Agar yana bir marta Nafisaning oldida ko‘rsam, o‘liging shu yerda qoladi! – Shu tahdiddan keyin u jilmayib, qo‘lini uzatdi, baland ovozda so‘radi: – Yordamlashvoraymi, o‘rtoq? Erali qo‘lini cho‘zgan mahal Usmonning keskin harakati bois ko‘prik yana lopilladi. Usmon darhol qo‘lini tortib olib, atrofga alangladi va e‘lon qildi: – Yog‘ochlar chirib ketibdi. Ikki kishini ko‘tarolmaydi-yov” [6; 127-128], deya o‘zini ko‘prikdan chetga oladi. Erali esa qoladi.

Yozuvchi Usmon personaj-xarakteridagi obraz esa-da, uning o‘ta munofiq, yovuz qiyofasini, ikki yuzli mal‘un bola ekanligini kuchli psixologik fonda tasvirlay olgan. Shu ma‘noda, Usmon qissa arxitektonikasida, syujet tizimida mal‘unlik xarakteriga ega obraz-timsoliga ega qahramon sanaladi.

Asarda muhabbat mavzusi ham qalamga olinadi, bu jihatdan u muallifning “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Shoirning muhabbati”, “Ishq savdolari va gadolari” qissalariga yaqin mazmunni ifoda etadi. Bu uch qissaning tasvir-talqini, hikoya qiluvchi-rivoyatchi usullari, bir qaraganda, qadimgi sharqona sevgi yoki jangnoma qissalari, hatto A.Navoiyning Shayx Sanon (“Lison ut-tayr”) yoki Farhod-Shirin, Layli-Majnun, Bahrom-Dilorom ishq-muhabbati tasvirlariga o‘xshab ketgandek tuyuladi. Qissalarning obraz-xarakterlar talqini, badiiy san‘atlardan, arxitektonikasi, psixologik tahlillardan unumli foydalanish borasida esa dunyo nasrining yangicha tamoyillariga mos ravishda ekanligi bilan e‘tiborli. Ularda Odam

Ato, Momo Havodan boshlangan insoniyatning azaliy va abadiy muammosi, hayot o'zagi va javhari bo'lmish ishq-muhabbat mavzusida yaratilgan. Ushbu lirik ohangdagi romantik-patetik usullarda yozilgan qissalar muallifi jahon adabiyotining mazkur mavzudagi mumtoz namunalari bilan yaqindan tanishligi ahamiyatlidir.

“Osmon og‘ushi” qissasi g‘oyaviy-badiiy ko‘lamida, uning kompozitsiyasida qo‘llangan ramziylik poetikasi tizimida Ajinako‘prik bilan bog‘liq ramziy talqin alohida o‘rin egallaydi. Ajinako‘prik syujeti, uning tarixiy mazmuni yovuzlik, odamkushlikning ramziy-patetik vositasi kabi mohiyatga ega.

Asar syujeti arxitektonikasidan o‘rin olgan Ajinako‘prik detali Erali va uning oila muhiti bilan bog‘liq qissa g‘oyaviy tizimida alohida rol o‘ynaydi. Erali Ajinako‘prik o‘rtasida Usmondek zo‘ravon o‘rtog‘i qutqusi bilan o‘tirib qolar ekan, u go‘dak vaqti otasi bilan otda shu ko‘prikdan o‘tishdagi fojiali tarixni eslab ketadi. Yozuvchi retrospektiv usul orqali bolakay Erali hayotida sodir bo‘lgan sirli-g‘alati hodisani tasvirlaydi. Tog‘ ko‘chkisidan qochib kelayotgan ot Ajinako‘prikdan o‘tishga majburlanadi. “Otasi G‘ani aka Qashqani bosh-ko‘zi aralash ayovsiz qamchilayveradi: “ – Chu! Chu deyman!”, – deya qichqiradi. Bu zarbalarga chiday olmagan ot o‘zini Ajinako‘prikka otadi-yu, lopillayotgan osmon ko‘prikdan toyib-surinib o‘tayotib, narigi qirg‘oqqaa atay degan mahal munkib ketadi. Haliyam G‘ani aka Qashqadan uchib ketguday bo‘lgan Eralini jon-jahdi bilan ushlab qoladi. Ot gavdasining bir qismi pastga, tubsiz jarga qarab osiladi. – Ota!” – deya zorlanadi bolakay. – Hozir, bolam, hozir! Qo‘rqma! Faqat sen qo‘rqma!...” – tinchlantiradi ota.

– G‘ani aka Qashqaning gavdasi tobora jar tomon siljib borayotganligini ko‘rib-sezib turardi. Shu bois ota jon alpozda Eralining bilagidan changallab, uloqni raqibidan tortib olganday o‘rnidan yulqib oladi-da, unni qirg‘oqqa qarab otadi” [6; 129-130]. Erali omon qoladi, ammo ota bevaqt vafot etadi.

Ajinako‘prik hodisasi talqinida mo‘jizaviy realizm uslubiga tayanilgan. Naridan-beri qilib, zo‘r-bazo‘r yashaydigan mehnatkash va odmi oilada bunday ko‘rgulikning sodir bo‘lishi – yaratgan sinovi ekanligini his qilish mumkin. Uchuvchilik kabi murakkab kasbni egallashga muttasil uringan Erali xarakterining toblanishi bilan bog‘liq bunday mikrosyujetlar qissa poetikasining muhim xususiyati kabi e‘tiborni tortadi. Asar poetikasi tarkibida qahramon ruhiy olamini tabiat hodisalarining fonida yoki parallel usulda ochish mahorati ham qo‘llanganligi e‘tiborlidir. Masalan: “Nogoh chaqmoq chaqadi va Erali dahshat ichida ko‘zlari olayib quyiga shiddat bilan uchib borayotgan, ammo hamon zo‘r berib o‘g‘lini xavfdan qutqarishga urinib baqirayotgan otasini xayolan aniq-tiniq ko‘radi. Uning “Ota-a-a!...” deb bolalarcha qichqirgani xayoliga keladi. Hamon osmon ko‘prik o‘rtasida qalt-qalt titragancha cho‘kkalab o‘tirgan, baayni qandaydir afsun izmida tubsiz jordan ko‘z uzolmayotgan Eralining quloqlari tagida “Ota-a-a!...” degan sado yangraydi. Hatto, mana shu sadoda ham o‘smir jarlikning tubsiz qa‘riga, padari huzuriga chorlovchi makkorona ohanglar bordek edi. Bu istak, bu xohish asta-sekinlik bilan uning butun qalbini, ongini o‘rgimchak to‘ridek egallab kela boshlagan sayin o‘zini quyiga otmoq, hammasidan bira yo‘la qutulmoq, hammasiga bira yo‘la qo‘l siltab ketmoq, hammasidan bira yo‘la mosuvo bo‘lmoq va ayni paytda barisiga birdaniga erishmoqlikdek g‘ayritabiiy, ehtimolki, qalbining qay bir olis puchmog‘ida ong ostida g‘imirlab qolgan, qo‘rquv-vahimaga asoslangan ahd serhosil zaminga tushgan urug‘dek nish urib, barg chiqaradi, oniy soniyalarda o‘zida hosil ham bera boshlaydi” [6; 130-131]. Asar voqeligi, syujet tizimida bu kabi bir qadar mo‘jizaviy realizm usulida talqin etilgan manzaralar anchamuncha o‘rin egallaydi. Bulardan bosh muddao –xarakterining hayotiy mashaqqatlar, dushman va hasadgo‘y kuchlar qutqusidan turfa to‘siqlar ichra toblanish bosqichlarini badiiy tadqiq qilish bilan bog‘liq.

Professor Uzoq Jo‘raqulov o‘zining nazariy masalalarning teran tahlilidan iborat “Hududsiz jilva” risolasida yozgani kabi, “ekzistensializm ta‘limotiga ko‘ra, “o‘z holiga tashlab qo‘yilgan”, “yaratilgan-u unutilgan”, ya‘ni mutlaq “ozod” inson o‘zining mavjudligini individum funksiyasi (borligi – ekstensiyasi) orqali belgilashi lozim. Har qanday tashqi ta‘sir (e‘tiqodiy, ma‘naviy-axloqiy, ijtimoiy normalar) inson-ekzistensiya tomonidan so‘zsiz inkor etiladi” [5, 5]. “Osmon og‘ushi” qissasi” yetakchi obrazi Erali tiynati shu nazariy qonuniyat asosida yaratilganligini his etamiz. Eralining o‘zini jarlikka otib, yaxshisi bu yovuz dunyodan xalos bo‘lishi haqidagi xayoli (ishlarining o‘ngidan kelmasligi, sevgan qizining o‘z xasmiga turmushga chiqishi, o‘qishdagi mashaqqatlar sabab) uni anchagacha tark etmaydi.

Bu manfur istak bo'lib ko'rinar, ammo uning makriga, jilosiga dosh bermoqlikning o'zi bo'ladi? Bunday kezlarda xavotirga to'la tanish ovoz eshitilganday bo'ladi: "Qo'rqma! Faqat sen qo'rqma!.." Ha, bu G'ani chavandozning ovozi edi. Ovoz tobora kuchayardi. "Faqat sen qo'rqma!" Bu tiriklikka chorlov edi" [6, 131]. Otaning donishmand xotirasi o'g'ilga nomatlub niyatdan kechish imkonini beradi. Bu ham diniy-ma'rifiylik, ya'ni ota so'zining muqaddasligidir. Yaxshi ko'rgan qizi Nafisa bilan orzusidagi samolyotga minish, samolyot uchuvchisi bo'lish haqidagi orzulari bilan o'rtoqlashish Eraliga har nechuk tasalli berardi. Ularning bu maroqli his-tuyg'ular, orzular borasida bahslashib, suhbatlar qurish asarning lirik-romantik mohiyatini belgilagan. Buning uchun yozuvchi ularning qishloq muhitini tanlaydi. Qissada maktab o'quvchilarining pokiza (xayrli yakunlanmagan) muhabbati go'zal tasvirlangan. Bu o'rinda ham kontrastning yorqin ifodalari yuz beradi.

Bir safar Usmon Ajinako'prikka borib, uchuvchilik mashqini bajarayotganida uni jarga itarib yubormoqchi bo'lib ham qora niyatiga yetolmaydi. Erali o'sha tobda osmonda uchib o'tayotgan yakka samolyotni ko'rib, uning quvonchidan kuch olib vaziyatdan chiqib ketadi. Tushkunlikka tushgan paytlarda chavandoz otasi bilan halok bo'lgan otini ham eslaydi. O'shanda ot jarlikka qulamaslik uchun ko'p harakat qilgan edi. Samolyot, ot detallari bolaga ruh, hayotga muhabbat bag'ishlaydi. Professor Y.Solijonov: "Detal syujetni harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Xarakterning o'ziga xosligi ham, qahramonning ichki olami ham, tashqi qiyofasi ham, voqealar rivoji ham, fikrning tiniqligi ham, syujetning taranglik kasb etishi ham – barchasi ana shu detallar orqali amalga oshadi hamda ta'sirchan va ishonarli chiqadi. Buni yaxshi tushunadigan har qanday san'atkor asarida voqealarni detallashtirib bayon qilishga alohida e'tibor beradi" [4, 207] mulohazalari detal mazmunini ochiqlyaydi. Darhaqiqat, mana shu jihat Abduqayum Yo'ldoshning hikoya va qissalarida badiiy ifodasini topgan. Muallif har bir detalga alohida mantiq va shakl boyitilishi tarzida yondashadi.

Asarda otaning "Qo'rqma! Faqat sen qo'rqma!..", "Faqat sen qo'rqma!.." jumlasini shu tarzda yetti marotaba qo'llanadi. Bu nutqiy detaldir. Hammasi Erali uchun ziddiyatli paytlarda ishlatilgan. Xalq orasida "otamning piri qo'llasin", "otamning duosi qo'llasin" degan muqaddas tushunchalarga mos yetti qaytariq otaning o'g'ilga daldasi, duosi, oq yo'lining ramziy tajassumidir.

"Osmon og'ushi"da qahramonlararo konflikt ham qabariq aks etgan. Eralining xarakter tadrijida bu jihatda guvoh bo'lamiz. Dastlab, maktab yillari Sobir, Usmon kabi ko'rolmas "do'stlar" bilan o'rtadagi ziddiyat, ikkinchidan, aviatsiya bilim yurtida bir necha kursdoshlari bilan o'zaro raqobatlar, imtihonlardan yiqilish, qoniqarli baholar bilan zo'rg'a o'tish, domlaldan gap eshitishdagi mashaqqatlar, nihoyat, endi hammasi yaxshi bo'ladi, deya harbiy uchuvchilik bo'limiga ishga o'tgan yigitning ishxonada doim Eraliga xezlanib gapiradigan Tohir, uni umuman ko'rolmaydigan Nodir kabi obrazlar bilan raqobat qilishga majbur bo'ladi. Ular bilan bir necha bor mushtlashadi. Yoki oila tirikchiligining bor bisoti – sigirining go'shtga topshirilishi sabab Farmon fermer bilan bo'lgan janjallar, bug'doy o'rog'i, paxta terimi davridagi mashaqqatlar, yolg'iz ona – Oygul xola va opasi – Gulzodaning Eralini o'qitish uchun chekkan zahmatlari asarda yuksak psixologik tasvir bilan ifodalangan. Bu jihat badiiylikning muhim xususiyatlaridan biridir. Adabiyotshunos H.Umurov ta'kidlaganidek, "Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir" [10, 49].

Qissada oilaning osh-qatig'iga yarab turgan sigirdan ayrilishi va bunga Eralining aybdor sanalishi ta'sirli bayon etilgan. Xabarni eshitib, onaning qo'lidan paqir tushib, o'tirib qolishi, Gulzodaning telbavor ahvolda "Molga qaramagansan! O'ynab yurgansan! Cho'milgansan!" deya urishib ketishi shunday tasvirlanadi. "Oygul xola izillab yig'lab kelib qizning qo'lga yopishdi, uni mahkam quchoqlab oldi: – Qo'y! O'ldirib qo'yasan ukangni! Gulzoda jununvash qiyofada faryod chekdi: O'ldiraman! U avval boshlab bizni o'ldirdi (ya'ni tirikchilik manbaidan ayirdi, ta'kid – F.N.). Endi uni o'ldiraman! Gulzoda shu holida onasining quchog'idan chiqdi va bo'sh paqirni daranglatib ukasining duch kelgan joyiga ura ketdi. Erali chidab turolmadi – ho'ngrab yig'lagancha tiz cho'kib, bosh egdi: – Uring! O'ldiring meni, opa! Men aybdorman! Men... men... faqat men... uring meni, opa... uring... o'ldiring...". Tuyqus Gulzoda paqirni otib yuborgancha, bo'zlab yig'layotgan ukasini mahkam quchib oldi. Opaning ko'zlaridan ham shashqator yosh oqardi. Bolalarining boshida karaxt ahvolda turib qolgan Oygul xola, ojizona ma'rayotgan buzoqcha bu manzaraga yanada alam, umidsizlik va chorasizlik bag'ishlayotgandek edi" [6, 140-141]. Parcha yuqorida keltirilgan ilmiy mulohazaga mos keladi. Qolaversa, shu voqelik ustoz

adib A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ho‘kizi yo‘qolgan Qobil boboning oilasini, uni ovvora qilgan mingboshi esa Farmon fermer timsoliga, “Bemor”dagi faqir oila tasviriga uyg‘unlikni sezishimiz mumkin. Opaning jon kuydirishi esa bu ro‘zg‘orning turmushida uning ham ona kabi muhim roli borligidan dalolat bersa, Erali iqrori yosh bo‘lsa-da xatosini tan oladigan mard yigit obrazini yuzaga chiqaradi.

Qissada qishloq muhiti, hamma joyda bir xilda to‘kin hayotning mavjud emasligi, tirikchilik mashaqqatlari ham matnosti mazmunidan anglanadi. Bir necha o‘rinda keltirilgan “Hayot davom etardi. Yashash kerak edi” jumlasiga asosdir.

Bu qissaga hamohang ruh L.Bo‘rixonning matbuotda ko‘p bahs etilgan “Olish qo‘rg‘on fuqarosi” qissasida mavjud [1, 3-67]. Asar favqulodda voqealarga boyligi, badiiy xronotopning mukammalligi, ramziylik va adabiy detallarning sezilmazligi, xalq og‘zaki ijodi tasviriga moyilligi va muallif ifoda uslubi jihatidan o‘ziga xos asar. Unda o‘z qishlog‘iga ko‘ngil qo‘ygan No‘mon ismli bolaning ko‘ngil qo‘rg‘onidagi kontrastlar, o‘smir yigit psixologiyasi, o‘rtoqlaridan kulgiga qolsa ham, ertangi kunga ishonchini yo‘qotmagan mard, to‘g‘riso‘z bola obrazi gavdalanadi. O‘z qalbining, tug‘ilgan go‘shasining, o‘qigan kitob-u dostonlarining ta‘sirida yuradigan, ulardek qahramonliklar bajarishga intilgan bola xarakteri aks etgan. Uning otasi – Qulmurod bobo siymosida shoshqaloq, behafsala, qiziqqon, ayni paytda qat‘iyatli, hayotga rost boqadigan odam timsoli gavdalanadi. Muallif qissada ota-bola obrazini savqi tabiiylik bilan, jo‘n usulda puxta tasvirlaydi. Voqelik folklorning ertak va dostonlariga o‘xshab ketadi. Bosh qahramon bir necha marotaba uchuvchi bo‘lish haqida xayollar suradi. Bu qissa mazmunini boyitgan.

Shu tarzda “Osmon ogushi”da olis qishloqdagi bir o‘zbek xonadonining hayot tarzi asarda mahorat bilan aks etgan. Qissada Eralining, hali maktab o‘quvchisining sohir xayollarida samolyotlar, uchuvchilik tasavvurlari qayta-qayta jonlanishi, yigitchaning bu olamga jiddiy mulohazalar bilan yondashishi chuqur psixologik tasvirlar fonida ko‘rsatilgan. Mana, masalan, go‘dak xayoliy-fikri meditatsiyasining mazmunan ifodasi: “Baribir bu “temir qanot”larning boshqacha mehriyosi bor-da. Ularni kuzatmaslik, ulardan hayratlanmaslik mumkin emas. Hayotda bitta ignani suvga tashlasang, cho‘kadi-ketadi. Bu yerda esa tonna-tonna temir hech zo‘riqmasdan, ukpar misoli havoga ko‘tariladi, bulutlar bag‘rida sayr etadi. Mo‘jiza emasmi bu? Inson aql-zakovati cho‘pchakni haqiqatga aylantirishining isboti emasmi bu?.. Shularni boshqarayotgan odamlarning ham armoni bormikan?..” [6, 138].

Parchada kattalar-da, ba‘zan shu soha egalari ham anglab olmaydigan jihatlar, ya‘ni fazoda ma‘lum kuchlar borligi – okkultizmning tipik holati, shuningdek, psixologik pafos yuzaga chiqadi. Bu bola xarakteri shakllanganligining tasdig‘idir.

Tadqiqotchi R.Zaripova maqolalaridan birida: “Abduqayum Yo‘ldoshev asarlaridagi qahramonlar timsolida o‘zligida bo‘lgan xatoliklarni yengishga harakat qilayotgan shaxslarni ko‘rishimiz mumkin” [12], degan mulohazasi No‘mon uchun mos keladi. Qissada shuncha qiyinchilik va mashaqqatlarga qaramay, muntazam harakati, egallagan chuqur bilimi, kasbga sadoqati hamda harbiy operatsiya paytida ko‘rsatgan ulkan jasorati sabab leytenant Erali G‘aniyev hukumat farmoniga ko‘ra “Jasorat” medali bilan taqdirlanadi. Bu voqelik kitobxonda havas va ibrat paydo qiladi.

Xulosa. Mohiyatan ulkan fransuz adibi Antuan Sent de-Ekzyuperining samolyot jinnisi sifatidagi fojiali, ammo qahramonona taqdirini eslatuvchi Erali obrazi asos bo‘lgan “Osmon og‘ushi” qissasi istiqloq davri o‘zbek nasrining yaxshi yutuqlaridan biri sanaladi. Asarda bir insonning ibratli hayot yo‘li, xalq turmushining rost ko‘zgusi, halol mehnati sabab yurtda e‘zoz topgan kishilar hayoti yorqin aks etgan. Zamon muammolari ichidagi zamonamiz qahramonining xarakteri badiiy talqin etilgan. Qissa mazmunida jahon adabiyotidagi mashhur asarlarga hamohanglik seziladi.

ADABIYOTLAR:

1. Бўрихон Л. Тун қаъридаги шуъла. Олис кўрғон фуқароси. Қисса ва ҳикоялар. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 256 б.
2. Расулов А. Адабий характер/ Бадийлик – безавол янгилик. Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Т.: Шарқ, 2007. – 336 б.

3. Жўракулов У. Худудсиз жилва (илмий-адабий мақолалар). – Т.: Фан, 2006. – 216 б.
4. Солижонов Й. Деталлар тилга кирганда. Китобда: Ўзбек адабий танқиди. – Т.: Турон-икбол, 2011. – 304 б.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – 376 б.
6. Йўлдошев А. Осмон оғуши. Қиссалар ва ҳикоялар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Т., 2018. – 294 б.
7. Йўлдошев А. Ишқ афсунлари//Сунбуланинг илк шанбаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 320 б.
8. Юлдошев А. Ишқ афсунлари//Шоирнинг мухаббати. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 320 б.
9. Йўлдошев А. Ишқ афсунлари. // Ишқ садолари ва гадолари. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 320 б.
10. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 б.
11. Kamgar zobit, olim ayol, millat tarbiyachisi, bezovta odam – bugungi o‘zbek yozuvchilari kimlarni zamon qahramoni deb bilmoqda? <https://oyina.uz/uz/article/770>
12. Zaripova R. Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida xarakter va ruhiyat ifodasi. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/3111/2764/2735>
13. Mavlono Rumi hikmatlari. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mavlono-jaloliddin-rumi-hikmatlari>

*Alimova Dilrabo Bahodirovna,
Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti o'qituvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: dilrabo.alimova90@gmail.com*

ANTIK VA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTIDA ODA JANRINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Jahon adabiyotida oda janri adabiy ijodning muhim va an'anaviy shakllaridan biri bo'lib, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi antik va Uyg'onish davrlariga borib taqaladi. Mazkur janr jahon adabiyotida o'zining aniq shakli va mazmuni bilan ajralib turadi. Oda janrida, asosan, insonning his-tuyg'ulari va hayotiy tajribalari badiiy talqin qilinadi. Mazkur maqolada antik va uyg'onish davri G'arb adabiyotida shakllangan oda janrining tarixi, shakllanish jarayoni hamda taraqqiyot bosqichlari xususida fikr yuritilgan. Shu davrlarda yaratilgan odalarning o'ziga xos xususiyatlari Pindar, Goratsiy, Petrarx, Shiley, Vistan Hyug Oden kabi ijodkorlarning ijodi misolida tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: oda, janr, madh, xor qo'shiq, musiqa, madh, sevgi-muhabbat, do'stlik.

Аннотация. В мировой литературе жанр “оды” является одним из важнейших и традиционных видов литературного творчества, его возникновение и развитие относится к эпохе античности и Возрождения. Этот жанр выделяется в мировой литературе своей специфической формой и содержанием. Жанр “ода” в основном занимается художественной интерпретацией человеческих эмоций и жизненного опыта. В статье рассматриваются история, становление и этапы развития фольклорного жанра в западной литературе античного периода и Эпохи Ренессанса. Специфика ода, созданных в эти периоды, анализируется на примере произведений таких авторов, как Пиндар, Гораций, Петрарка, Шиле, Вистен Хью Оден.

Ключевые слова: ода, жанр, восхваление, хвала, хор, музыка, любовь, дружба.

Abstract. In world literature, the ode genre is one of the important and traditional forms of literary creativity, and its emergence and development dates back to the antiquity and Renaissance periods. This genre is distinguished in world literature by its specific form and content. In the ode genre, human feelings and life experiences are mainly artistically interpreted. This article discusses the history, process of formation and stages of development of the ode genre formed in Western literature of the antiquity and Renaissance. The specific features of the odes created during these periods are analyzed using the examples of the works of such authors as Pindar, Horace, Petrarch, Schiele, Wystan Hugh Auden.

Keywords: ode, genre, praise, extol, chorus, music, tribute, love, friendship.

Kirish. Oda – inson sha'ni, zamon, makon yoki voqealikni ulug'lash, madh qilish maqsadida yuzga kelgan adabiy janrdir. Oda adabiyot tarixida lirik she'riyatning muhim turi sifatida asrlar mobaynida takomillashib kelgan. Mazkur janr antik davr adabiyotida shakllangan. Oda dastlab yunon va lotin shoirlari tomonidan yaratilgan. Jumladan, Pindar va Goratsiy kabi ijodkor oda janrida ijod qilgan va mazkur janrning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar [1, 23; 8, 45].

Odaning vujudga kelish tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Oda yunoncha “ōdē”, “aedein” – “qo'shiq aytish”, “xor bo'lib kuylash” so'zidan kelib chiqqan. Oda, odatda, raqs bilan birga kuylanadigan xor qo'shiqni anglatgan [2, 365]. Turli siyosiy tadbirlarda ham odalardan jamoa bilan ijro etiladigan rasmiy va tantanavor kuy sifatida foydalanilgan. Masalan, qadimgi jangchilar va ularning qahramonliklarini nishonlash uchun tadbirlarda jamoaviy kuylangan.

Ta'kidlash kerakki, antik davr odalarining ilk ko'rinishlari diniy marosimlarda jo'rlikda kuylangan qo'shiq sifatida yuzga kelgan. Shu bois odalar diniy va epik mavzularda bo'lib, xudolar va qahramonlar haqida madhiyalardan iborat bo'lgan.

Asosiy qism. Odaning shakllanishi ham o'ziga xos tarixiy o'tmishiga ega. Chunki mazkur janrga munosabat va murojaat turli ijtimoiy – siyosiy muhitda turlicha bo'lgan. Demak, oda janrining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari quyidagicha:

Antik davr. Oda janri aynan shu davrda yunon adabiyotida vujudga keladi. **Pindar** – 518-438-yillar orasida yashagan yunon shoiri. U odaning xor bilan ijoro qilinadigan shaklini joriy qilgan. Ammo

unga qadar *Alkeus va Sappho* kabi monodiyalar (yakkaxon ijroli odalar) yozgan ikki yunon shoirlari ham shu janrda shuhrat qozonishgan. Ular ham Pindar zamonida yashab ijod qilishgan va omma tomonidan ularning ham odalari kuylangan. Biroq adabiyot tarixida Pindar odalari o'zining orginalligi bilan ajralib turgan. Chunki uning odalari strukturaviy tuzilishi hamda mavzusi jihatdan ancha mukammal bo'lgan. Bu esa Pindar odalarining mashhurligini ta'minlagan. Uning odalarini mavzuiga ko'ra 4 turga bo'lish mumkin:

- A) *Olimpiya odalari*. Olimpiya o'yinlarida g'alaba qozongan sportchilar madhi;
- B) *Pifiya odalari*. Delfidagi Pifiya o'yinlari g'oliblariga bag'ishlangan odalar;
- V) *Nemeya odalari*. Nemeya o'yinlarida g'alaba qozongan sportchilarga bag'ishlangan odalar;
- G) *Istmiya odalari*. Korinf yaqinidagi Istmiya o'yinlari g'oliblariga atalgan odalar.

Pindarning jami 45 ta odasi saqlanib qolgan. Bu odalar keyingi davrda yaratilgan odalar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Pindar odalari xor tomonidan kuylangan va musiqiy asboblarni hamohangligida ommaga taqdim etilgan. Pindar odalarining aksar qismi o'yinlarda g'olib bo'lgan sportchilarni madh etish uchun yozilgan bo'lib, ular o'zining tantaviy va epik uslubi bilan ajralib turgan [2, 110].

Muhokama va natijalar. Pindarning *Birinchi Olimpia Odasi* Gireon va Sirakus ismli ikki poygachining miloddan avvalgi 476-yildagi Olimpiya o'yinlarida erishgan yutuqlariga tabrik sifatida yozilgan:

Ἄριστον μὲν ὕδωρ: ἀργυρέας δὲ κεδνὸν ἐν
νυκτὶ λαμπρὸν αἶθρων ἀλίου κάλλιστον
πυρὸς αἰθόμενον πλοῦτος ἐράται χρυσοῦ
ἀνέρος. ἃ δὲ πότνια

Μοῖσα μείζονα σκόπει φάος ἀελίου, τὰς ἐν
Ὀλυμπία νίκας στεφάνων τε, ὅθεν
ἄβροχίτων αἶνος καὶ τὸ κατ' ἄκρον ἄγνὸν
ἔδος ἱερᾶν εὐκαμάτων ἐπαινέων ἐξέπλετο
τῶν μελέων: κοῦρος εὐτυχεστάτος.

Suvdir a'lo: oltin esa tunda porlab boyligidan g'ururlanadi. Ey qalbim, Atletik o'yinlar haqida kuylashni istasang uzoqqa boqma, qara, otashli quyosh kunduz porlayotgan yulduzga tomon charaqlayapti, va bu yulduz osmonda quyoshnikidanda otashli nur turatyapti. Olimpiya o'yinlari – ulardanda buyukroq o'yin yo'q! U eng odilu donolarni chorlab, Cronusning o'g'li (Siracus) va ulug'vor muqaddas Geironni sharaflamoqda.

Oradan asrlar o'tib, buyuk Rim shoiri *Goratsiy* odalarning shaklini sezilarli darajada o'zgartirdi. U Pindarning odalaridan ilhomlangan bo'lsa-da, oda shaklini qisqaroq va mazmun jihatidan ham tushunarliroq yozishga urindi. Uning odalari Pindarning murakkab strukturali odalariga qaraganda soddaroq edi. Goratsiyning odalari katta jamoat bayramlarida deyarli ijro etilmas edi. Chunki u o'z odalarida shaxsiy kechinmalarga ko'proq e'tibor qaratdi. Goratsiyning odalarida sevgi-muhabbat, do'stlik kabi mavzular ham kuylangan. Xususan, hayotdan zavqlanib yashash, berilgan ne'matlarni ulug'lash va qadrlash, inson o'zligini anglash singari mavzular uning odalarida etakchilik qilgan. Uning uslubida nafosat yaqqol ko'zga tashlanib turgan. Bunday uslub Pindarning rasmiy va shon-sharafni tasvirlovchi odalaridan farq qiladi. Goratsiyning o'zlikni anglashga qaratilgan falsafiy g'oyalari, inson ichki kechinmalari va muhabbat tasviri oda janrining mavzu ko'lamini kengaytirdi (4, 307).

Bundan tashqari, Goratsiy odalari rasmiylik va marosimiylik xususiyatlaridan ma'lum darajada uzoqlashdi. Chunki uning odalari qo'shiq qilib kuylash uchun emas, balki she'r sifatida o'qish uchun yozilgan edi. Goratsiyning odalari Rim shoirlari Katullus, Juvenal, Ovid va boshqa o'z davrining mashhur shoirlarini ilhomlantirgan va ular ham o'z odalarini shu uslubda yaratganlar. Biroq ularning odalari mavzu jihatidan yanada kengaygan, yor vasfi, erkinlik, davr tasviri kabi ko'plab mavzularni o'zida qamrab olingan.

Ta'kidlash kerakki, Goratsning odalari o'z davrining mahsuli. Shuning uchun ularda davrning muammolarini, jumladan, siyosat, urush, tinchlik, fuqarolik burchi va insoniy munosabatlardagi me'yorlarga amal qilishi kabi mavzular ham etakchilik qilgan. Goratsiy an'anaviy mavzulardan foydalangan holda siyosiy muammolar tasviriga ham urg'u berganligiga guvohi bo'lamiz. Jumladan,

“*Oda 1.37*”ni oladigan bo‘lsak, unda Markus Vipsanius va Kleopatra VII o‘rtasidagi Aktium jangida (mil. av. 31-yil 2-sentabr) Kleopatra ustidan qozonilgan g‘alaba madhiga bag‘ishlangan:

Vix una sospes navis ab ignibus,

Mentemque lymphatam

Mareotioredegit in veros timores

Caesar ab Italia volantem

Alangalardan faqat bitta kema omon qoldi,

Marriott sharobdan aqlini yo‘qotgan Sezar (Oktavian)

qo‘rquvdan chekindi, Italiyadan qochib ketgan (Kleopatra)

Sezar tomonidan ta‘qib qilindi.

remis adurgens, accipiter velut

mollis columbas aut leporem citus

venator in campis nivalis

Haemoniae, daret ut catenis [11]

Qayiqchlarni yurgizib, xuddi qirg‘iy kuchsiz kaptarni yoki mergan ovchi qorli Fessaliya tekisliklari orasidan quyonni tutgandek, zanjirband etdi...

Bu oda an‘anaviy g‘alabani sharaflash odalariga juda o‘xshaydi. Ammo unda asosiy urg‘u jangda sodir bo‘lgan xatarli jang tasviriga va Kleopatraning Rim uchun qanday xavflar keltirishi mumkinligi bilan bog‘liq siyosiy masalalarga ham e‘tibor qaratilgan. Kleopatra o‘zini o‘ldirishi Rim mavqeini nechog‘lik oshirgani, dushman tarafining qo‘rquvi bejizga emasligini, uning xalqi va harbiy kuchlari nimalarga qodirligini birgina odasi orqali mohirona tasvirlab bera olgan.

Shuningdek, “*Ode 3.2*” odasida Goratsiy “*Dulce et decorum est pro patria mori*” ya‘ni “Vatan uchun o‘lish shirin va sharaflidir” degan mashhur iborani keltiradi. Ushbu odada ham siyosiy mazmunga ega bo‘lib, unda fuqarolik burchi, vatanparvarlik va askarlarning qahramonligi ulug‘lanadi. Shu yo‘sinda u o‘z odalaridan vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni mustahkamlash uchun foydalangan.

Uyg‘onish davri: Uyg‘onish davriga kelib qadimgi Yunon va Rim madaniyati Yevropa adabiyotiga katta ta‘sir ko‘rsata boshladi. Bu esa odalarning yangicha uslubda shakllanishiga olib keldi. Bu davrning mashhur shoiri hisoblangan **Petrarx** (1304-1374) asarlari antik davr madaniyatini targ‘ib qilishda muhim o‘ringa ega. Petrarx antik odalarning uslubi va mavzularini kengaytirdi. Garchand u Goratsiy kabi odalar yozishda usta bo‘lmasa-da, biroq u odalarning shakllariga o‘zgartirishlar kiritdi. U yunon va lotin tilidagi qo‘lyozmalarni qayta tiklashga harakat qildi, buning natijasida esa antik adabiyot haqidagi bilimlar yanada boyidi [3, 22]. Shu bilan birga bu harakatlar orqali Petrarx italyan adabiy tilining rivojiga katta hissa qo‘shdi va “Gumanizm otasi” degan e‘tirofni oldi [2, 45], [9, 68]. Petrarxning mashhur asari “*Canzoniere*” (**Kuylar kitobi**) 366 she‘rdan tashkil topgan bo‘lib, unda, asosan, sonetlar joy olgan, lekin she‘rlarining tuzilishi va strukturasi odalarni takrorlaydi. Ularda ham odalar singari hayot, muhabbat, go‘zallik singari mavzular yetakchilik qilgan. Uning asarlari Uyg‘onish davrining ko‘plab odanavislarini ilhomlantirdi. Petrarx she‘rlarida ishlatilgan klassik uslub Pier de Ronsard va Garsilaso de la Vega singari Pindar va Goratsiy yo‘nalishida ijod qilgan shoirlarga ijodiy maktab bo‘lib xizmat qilgan [6, 140].

Yangi davr: XIX asrda va undan keyingi davrda odalar yanada yangicha shakllarda rivojlandi. Odalar to‘rtliklar ko‘rinishida, muayyan qoidalarga rioya qilinmagan holda yozila boshlandi. Bu davrga kelib yozuvchilar qadimgi Yunon va Rim she‘riyatidan olingan an‘anaviy odanavislikni davom ettirishlari bilan birga odalarda ijtimoiy mavzularni badiiy talqin eta boshladilar. Odalarda mustaqillik, yurt farovonligi va erkinlik kabi o‘lmas mavzular etakchilik qila boshladi. XIX asr adabiyotida oda janrining taraqqiyoti Kits, Shileylarning nomi bilan bog‘liq. Ular o‘z odalarida falsafiy va estetik mavzularni ifoda etib, odanavislikda shuhrat topdilar.

XX asr odalarida an‘anaviy metrik strukturani erkin vaznlarni bilan almashtirish holati kuzatiladi. Zamonaviy shoirlardan britaniyalik **Vistan Hyug Oden** (1907-1903) turli mavzularda odalar yozadi. Uning “*Ode to the Medieval Poets*” (**O‘rta asr shoirlariga oda**) odasida shoir o‘rta asr shoirlariga bo‘lgan hurmatini ifodalaydi va ularning qiyin sharoitlarda ham yuksak asarlar yozib qoldirganliklarini maqtaydi va ulug‘laydi. Odenning mazkur odasida marhum shoirlarni ulug‘lash ohangi ustivor bo‘lganligini sababli bu she‘r marsiyaga ham o‘xshab ketadi. Ammo undagi madh, ko‘tarinki ruh oda xususiyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. **Vistan Hyug Odenning “Ode to Terminus” “Terminusga oda”** sida Terminus, ya‘ni Rim Xudolaridan biriga murojaat qilingan. Shoir bunga ramziy ma‘no yuklaydi.

Olamni idrok etishda Xudoni inkor etishi mumkin emasligini, hammasi buyuk yaratguvchi tomonidan boshqarilishini odada badiiy ifodalab beradi:

*In this world our colossal immodesty
has plundered and poisoned it is possible
You still might save us, who by now have
learned this: that scientists, to be lucky,*

*must remind us to take all they say as a
tall story, that abhorred in the Heavens are self-
proclaimed poets who, to wow an audience, utter
some resonant lie. [10]*

Bizning kamtarligimiz yo‘qolgan, zaharlangan bu olamda ehtimol hali ham sen bizni asrab qolishingning imkoni bordir.

Abstract. The article explores the collapse of a regime in which many had placed their faith and trust, as depicted in the work Tushda kechgan umrlar (Lives Spent in Dreams). It examines how the lives of those who dedicated their entire existence to serving this regime turned out to be based on an illusion. The study delves into the inner experiences of the characters in the work, the impact of war on the consciousness and psyche of the youth, as well as the writer's artistic mastery in character creation.

Keywords: war, colonialism, repression, catastrophe, ruin of life, Savr Revolution, Afghanistan, civil war, tyrannical regime, humanitarian values.

Kirish. Urush mavzusi adabiyotdagi abadiy mavzulardan biridir. Urush – mislsiz ofat, inson jismi va qalb jarohatidir. U qanchadan-qancha insonlar umrining zavoli, orzu-umidlaridan ayirgan falokatdir. Urush mavzisi – xalq og'zaki ijodi, o'zbek va jahon adabiyotining yetakchi mavzularidan biri bo'lib, butun bir xalq, butun bir millatning unga qarshi kurashi xoh u badiiy asarda bo'lsin, xoh u zamon va makonda bo'lsin hali hanuzgacha yakuniga yetgani yo'q. Urush natijasida inson qalbi, ongida ro'y berayotgan evrilish va o'zgarishlarning sir-sinoatlarini, sabab-oqibatlarini, jamiyat ravnaqi va zamondosh kamolotidagi o'rnini ijod ahli badiiy adabiyot olamiga o'z mahorat kuchi bilan ortiqcha bo'yoqlarsiz bor-boricha olib kirdi. Binobarin, bu falokatni yoritishda yozuvchi mahoratini umumbashariy mezonlar va milliy qadriyatlar asosida badiiy ijodiyotning ichki qonuniyatlariga asoslanib o'rganish, tadqiq etish lozimligi bugungi adabiyotshunoslik oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'yadi.

Asosiy qism. 1979-yilda qo'shni Afg'onistonda “Savr inqilobi” deb nomlangan davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Buning natijasida fuqarolar urushi avj oldi. Sobiq SSSR hukumati Afg'onistonda bo'lib o'tayotgan ushbu fuqarolar urushiga aralashib, internatsionalizm niqobi ostida bu davlatga hujum uyushtiradi. Bu harbiy harakatlarga ko'plab o'zbek yigitlari ham safarbar qilindi. Afg'on urushi ko'plab insonlarning hayotini izdan chiqardi. Bu jarayonlar badiiy adabiyotimizda o'z aksini topdi. Bu borada O'tkir Hoshimov qalamiga mansub asarlar alohida ajralib turadi. Yozuvchining “Nega, nega-a-?!” hikoyasi va “Tushda kechgan umrlar” romanida behuda qurbon bo'lgan insonlarning fojiali taqdiri bayon etiladi. Undan tashqari, Abdurashid Normurodovning “Qonli yo'rgaklar” romani, “Ko'kdagi umr” asari, G'afur Po'latovning “Xerirud faryodi” harbiy – dala qissasida ham afg'on urushi fojialari tasvirlanadi. Ushbu asarlarga xos umumiy xususiyat fojiviy ruhning ustunligidadir. Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarning ko'pchiligida, vatanparvarlik, qahramonlik g'oyalari ustun tursa, afg'on urushi mavzusida yozilgan barcha asarlarda tragik pafos yetakchi o'rinda turadi. Chunki bu urush mohiyati

jihaddan ikkinchi jahon urushidan farq qiladi. Ikkinchi jahon urushi ham katta fojia va kulfatlarga sabab bo'lgan, lekin unda qatnashgan o'zbek sovet jangchilari Vatan himoyasi yo'lida jang qilganlar. Shu tufayli ham ikkinchi jahon urushi haqidagi asarlarda qahramonlik ruhi yetakchilik qiladi. Afg'on urushi esa yurt ozodligi uchun emas, Sovet hukumatining siyosiy rejalarini uchun xizmat qildi. Afg'on urushi mavzusidagi asarlarda fojia ruhi yetakchi xususiyat kasb etgan.

“Tushda kechgan umrlar” asari bosh qahramon – Rustamning oxirgi kundaligidan boshlanadi va Qurbonoy xolaning har kungi tashvishlariga ulanib ketadi. Aynan, Rustamning murdasini Qurbonoy xola va Komissar ko'rib qolishadi. Roman kulminatsiya bilan boshlanadi. So'ng yozuvchi chekinish usulini qo'llab bosh qahramon Rustamning o'limi va u bilan bog'liq tafsilotlarni yoritishga kirishadi. Voqealar kuz tasviri bilan boshlanadi: “Kuz o'lim tushagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Shuncha urinishlar zoye ketganini tushunib olamga ma'yus boqadi. Yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi. Oq zulmat orasida qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi [1, 7] Kuzning ol'im to'shagida yotgan bemorga o'xshatilishi, xazonlarning ingrash, yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman qoplashi, qarg'alarning bexosiyat fig'oni asarda qandaydir noxush vaziyatlar bo'lishiga ishora qiladi... Ushbu parchada peyzaj tasviridan foydalanilgan. Bunda peyzaj go'zal manzarani emas, aksincha g'amgin holatni ifodalaydi. Natijada asarning fojiali ruhda yozilganligi ilk tasvirlardan sezila boshlaydi. “Kuz”, “xazon”, “kafan”, “zulmat”, “qarg'alar” kabi so'zlar noxush manzarani tasvirlab, qahramonning ruhiy holatini ifodalaydi. Ushbu tasvirlar davom etib, endi tabiat vositasida bosh qahramonning fojiali taqdiriga ishora qiladi: “... Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq ko'z yosh to'kadi. Sim-sim yomg'ir yogadi: to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi...”. Bu yerda “to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiat aslida ramziy xususiyat kasb etib, Rustam va boshqa qahramonlarning fojiali taqdirini ifodalaydi.

Asar bosh qahramonlaridan biri Rustam o'qishni to'xtatib armiyaga ketadi. Armiyadan esa urush bo'layotgan Afg'onistonga jo'natiladi. U Vatani va xalqi uchun emas, sovet hukumatining bosqinchilikdan iborat siyosiy manfaati uchun jang qildi. Temur, Xayriddin, Sasha, Viktor kabi o'ziga o'xshash yosh yigitlarning Afg'oniston hududida bekordan-bekorga o'lib ketishlariga, afg'onlarning urushdan katta azob ko'rayotganlariga guvoh bo'ladi. Rustam garchi urushdan tirik qaytgan bo'lsa-da, uning salbiy asoratlaridan qutula olmadi. Urush uning dunyoqarashiga ham, ruhiyatiga ham, salomatligiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi. O'zi sevgan kursdosh qizi Shahnozaga uylangan bo'lsa ham, ikkisining ortasida muhabbat bo'lsa-da, urushda orttirgan jarohati sabab baxtli bo'la olishmaydi. Rustamning o'ta jizzaki, asabiy bo'lib qolishi, adolatsizlikka duch kelganda o'zini bosolmasligi, jahli chiqqanda vahshiylashib ketishi kabi psixologik holat tasvirlari ham urushning salbiy ta'sirini anglatadi. Sobiq jangchining urushdan uyga qaytgandan keyin ham ketma-ket adolatsizliklar, nohaqliklarga guvoh bo'lishi, turmush o'rtog'i Shaxnozaning baxtsizligiga o'zini aybdor his etish singari omillar oxir-oqibat Rustamning fojiali o'limiga sabab bo'ladi.

“Tushda kechgan umrlar” romanida nafaqat urush, balki mustamlakachilik va qatag'on siyosati realistik tarzda tasvirlangan. Ambartsuman boshliq bir guruh sovet organi xodimlari “o'zbek ishi” masalasidagi katta jinoiy ishni qo'zg'ab, arzimagan ayblar va tuhmatlar bilan ko'plab odamlarni qamab yoki ottirib yuborishadi. Ular qatorida Rustamning otasi-deputat Shomatov ham bor edi. Butun umrini mamlakat va xalq manfaati uchun sarflagan, shu yo'lda bir umr astoydil xizmat qilgan Shomatov o'n yil muddatga shimoliy Qozog'istondagi lagerlardan biriga surgun qilinadi. Shomatovni aybdor qilish uchun qo'llangan usul har qanday zulm va adolatsizliklarning eng yuqori cho'qqisi sifatida talqin etiladi. Shomatov obrazidagi “yo'qotilgan avlod” qahramonlariga xos behuda umrni anglab yetish” xususiyati uning Rustamga yozgan ikkinchi maktubi orqali yorqin aks etgan. Maktubda quyidagi jumlar keltirilgan: “Yoshim oltmishdan o'tib ko'p narsalarni endi-endi tushunyapman, xom sut emgan banda!.. O'ylab qaragam, o'tgan umrim – umr emas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u, tush ko'rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko'rib. O'sha birov qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Uyg'onishga esa qo'rqqanman... Mana endi uyg'onib, yonverimga qaragam, menga o'xshashlar ko'p ekan...” [1, 252]. Ushbu jumlar orqali o'z umrini qayta sarhisob qilgan insonning xulosasi ifodalangan. Yozuvchi qahramon tilidan butun bir avlodning fojiasini iqror ko'rinishida aks ettiradi. Bu yerda “uyqu dori” –

kommunistik g'oyalarning, "tush" – shu g'oyalar ichida o'tgan umrning ramzi bo'lib kelgan. "Tushda kechgan umrlar" asarida Rustam obrazi orqali afg'on urushi ishtirokchilarining, Shomansur Shomatov obrazi orqali qatag'on qurbonlarining taqdiri aks ettirilgan bo'lsa, komissar Soat G'aniyev obrazi va uning o'tmish tafsilotlari orqali muallif Sobiq Ittifoq hukumatining bir necha bosqichda olib borgan qatag'on siyosatini tasvirlaydi. Komissar soat G'aniyev har bir kitobxon qalbida nafrat uyg'otadi. U otasining izidan borib, sovet komissari bo'lib yetishadi. Qishloqdoshi Husanni nohaq otib tashlagan, sinfdosh do'sti To'laganni vatan xoiniga chiqarib jazolanishiga sabab bo'lgan, Fotimani nomusiga tekkan va nomusga chiday olmay o'zini osib yuborishga sababchi bo'lgan bu odam keksayganda ham pushaymon bo'lmaydi... U o'tgan umridan afsuslanmaydi, dunyoqarashini o'zgartirmaydi. Keksayib qolgan bo'lsa-da, yomonlikni istaydi. U o'sha davr zulm saltanatining timsoli, o'ta xavfli manqurt.

Adabiyotshunos olim Abdug'ofur Rasulov romanda Soat G'aniyev obrazining qo'llanishi haqida quyidagicha fikr bildiradi: "O'tkir Hoshimov bir vaqtlar ko'klarga ko'tarilgan komissar-hukumat va partiyaning suyangan tog'ini salbiy tip sifatida talqin etdi. Komissar xarakterida sho'ro tuzumi tarbiyalagan barcha xususiyatlar aks etgan..." [2, 133]. Komissarning ruhiy holatini ifodalovchi ichki nutq tasvirlarida bu obrazning xarakter xususiyati aniq ko'rinadi. Soat G'aniyevning barcha narsadan gumonsirash, hammaga dushman sifatida qarash kabi munosabatlarida "chekistcha tarbiya"ning salbiy oqibatlari bayon etiladi. Shu xususiyatlariga ko'ra komissar G'aniyev umumlashma obraz hisoblanadi. Rustam va uning otasi deputat Shomatovlar o'zlariga nisbatan qilingan adolatsizlikdan so'ng ko'zlari ochilib, umrlari yolg'on aqidalarga aldanish bilan o'tganini, boy berilgan yolg'on taqdir asosiga qurilgan hayotlarini kech bo'lsa ham anglab yetadilar. Shu sababli ularning umrini "tushda kechgan umr" deb baholash o'rinli. Bu obrazlar atrofdagi jarayonlar haqida fikr yuritadilar, ularning ongidagi jarayonlar asl haqiqatni anglab yetish yo'lida tadrijiy rivojlanib boradi. Soat G'aniyev obrazida esa bunday holat uchramaydi. Biroq Komissar Soat G'aniyev o'tgan umridan afsuslanmaydi, o'z dunyoqarashini o'zgartirmaydi. Biroq uning taqdiriga e'tibor qaratisa, komissarning ham umri "yolg'on taqdir" asosida o'tganligi aniqlanadi. U minglab odamlarning qarg'ish va nafratiga muhtalo bo'ldi. O'z farzandlari, Mauzer va Mels, undan yuz o'girishdi. Shu sababli Soat G'aniyevning ham umrini "tushda kechgan umrlar" qatoriga kiritish mumkin. Soat G'aniyevdan jabr ko'rgan Fotimanning qizi Qurbonoy xola ham o'z hayotini nima uchun sarflayotganini bilmaydi. O't pufagiga tosh to'planib qolgan, buning natijasida sog'ligi yomonlashib ishga yaramay qolgan bo'lishiga qaramay, har kungi kundalik yumushlarini qo'ymaydigan, doktorlar man etishsa ham o'z bilganidan qolmay kundalik tashvishlari bilan band bo'ladigan bu ayolning umri ham xuddi tushdagidek mazmunsiz va behalovat kechdi. Shu tariqa, Qurbonoy xola obrazida ham boshqa qahramonlar singari "behuda umr" xususiyati mavjud. "Tushda kechgan umrlar" romanida muhabbat tasviri mavjud. Ammo Rustam va Shahnoza o'rtasidagi bu muhabbat fojia bilan yakunlanadi.

Muhokama va natijalar. Romanda XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo'lgan qariyb oltmish yillik davrning ma'lum bosqichlari tasvirlanadi. Bu jarayonda komissar Soat G'aniyev obrazi asosiy o'rin tutadi. Komissarning bolaligi, undagi ilk shafqatsizlik va yovuzlik belgilarining paydo bo'lishi SSSR qurilgan dastlabki davrlarga to'g'ri keladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida "SMERSH"chilar safida, urushdan keyin esa NKVD organida qilgan ishlari XX asrning 40-50-yillari voqealarini qamrab oladi. Asarning Rustam bilan bog'liq jarayonlari: afg'on urushi, "o'zbek ishi" voqealari esa 80-yillarni aks ettiradi. "Tushda kechgan umrlar" romanida nafaqat urush va uning oqibatlari, balki butun mustamlakachilik zulmi va qatag'on siyosatining insonlar hayotiga salbiy ta'siri badiiy ifodasini topgan... Asarda yozuvchi simvolizm, psixologik tasvir, ichki nutq kabi elementlardan ham unumli foydalangan... "Tushda kechgan umrlar" romanida urushning insoniylikdan yiroq bo'lgan qiyofasi askar obrazining holati vositasida ruhiy ochib berilgan o'rinlar yetarlicha topiladi: "...Avtomat qo'limga yopishib qolganga o'xshar, hech nimani o'ylamay, nuqul otgim kelardi. Emaklab borarkanman, yon tarafimda kimdir gapirgandek tuyuldi. Beixtiyor burilib qaradim. – Mama! Mama! Dimog'imga kalla kuydirganda chiqadigan isga o'xshagan hid urildi. Qarasam, Sashaning sochlari yonib, jizg'anak bo'lib ketibdi. Kombinezoni kuyib, badaniga yopishib qolgan, yuzlari qorayib ketgan... – Mama... – dedi alahsirab... Tinimsiz o'q uzganicha, chakalakzorga yugurdim..." [1, 133]. Sashaning fojiali o'limi tasvirlangan yuqoridagi parchani o'qigan kitobxon uning ahvoliga achinish bilan birga urushning dahshatli manzarasini ko'z o'ngiga keltiradi. Yoki o'sha voqeaning davomi bo'lgan navbatdagi parchaga e'tibor

qarataylik: "...Guvillagan ovozdan o'zimga keldim. BMPda ketayotganimni g'ira-shira angladim. Yo'q, avval dimog'imga achchiq hid urildi. Ko'zimni ochsam, shundoq Sashaning boshiga yuzimni qo'yib yotibman. Chamamda, Sasha o'lgan, boshi muzdek, undan hamon noxush kuyindi hidi kelardi. Qon aralash kuyindi hidi... Kimdir qornimga qo'lini tashlab olgan... Belim qattiq ogrir edi, suv ichgim kelardi. Jahl bilan siltab tashlagan edim, o'sha – kimningdir qo'li shilq etib uzildida, xuddi o'tin kabi do'p etib yonimga tushdi... Yana hushimdan ketib qoldim [1, 119]. "Ushbu parcha yanada ayanchliroq holatni tasvirlab, bu jarayonni ko'z oldiga keltirgan kitobxon o'zini Rustamning o'rnida tasavvur qilib ko'radi. Natijada urushning qanchalik kulfat manbayi ekanligini anglab yeta boshlaydi. Ammo, bu faqatgina bir insonning boshdan o'tkazganlari, xolos. Urush davomida shunga o'xshash holatga minglab askarlar tushganligi inobatga olinsa, tasvirning fojiaiylik ko'lami yanada oshadi. Bu o'rinda Sasha obrazi urushda bevaqt halok bo'lgan yoshlarning umumlashma obrazi bo'lsa, Rustam jang maydonida turli azob-uqubatlarni ko'rib, psixologik jihatdan izdan chiqayotgan askarlarning tipik vakilidir. Yuqoridagi parchalarda tasvirlangan holatlar frontdagi askarlarning ruhiyatiga ham salbiy ta'sir o'tkazadi. Ularning shafqatsiz va vahshiyona qiyofaga kirishlariga sabab bo'ladi. Bu esa insoniy fazilatlarining yo'qolib borishi va ma'naviy qashshoqlikka olib boradi.

Front voqeligi askar qalbida turli buzg'unchi va vahshiy hissiyotlarni keltirib chiqarishini yozuvchi ta'kidlaydi. Quyidagi parchada bu jarayon aniq ko'rinadi: "...Pastak devor ortida sallali bosh ko'zga tashlandi. Yelkasidagi granatamyotini devorga tirab to'g'riladi. Vujudimda ajal sharpasi bir lahza aylangandek bo'ldi. Qizig'i shundaki, men negadir umuman qo'rqmadim. Nimagaligini tushuntirib berolmayman. Ajal qarshingda tursa-yu, qo'rqmasang! Shunisi esimdaki, xotirjam buyurdim. Uchta snaryaddan o't och! Odamning talqon kabi mayda-mayda bo'lib ketganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Tutun tarqalgach, qarasam, devor ham, boyagi salla kiygan jangari ham yo'q..." [1, 123]. Ushbu parchada dushmandan o'ch olish o'tida yonayotgan, bu yo'lda ko'ziga hech narsa ko'rinmayotgan jangchining psixologik holati mahorat bilan bayon etilgan. Shu parchaning davomi bo'lgan quyidagi epizodlarda esa bu jarayon yanada aniqroq ko'zga tashlanadi: "...Ro'parada turgan qubbasimon kulba ichidan avtomatning tarillagani eshitildi. O'qlar tank zirxiga urilib chiyillaganicha sakrab ketayotganini his etib turar, ammo lyukni yopishni xayolimga keltirmasdim. – O't och! Qubbasimon kulba xotinlarning upadonidek oppoq kukunga aylandi. Men esa aqldan ozib qolganga o'xshardim. – Viktor! Bos! Bos! – derdim nuqul hayqirib. Tank quturganicha o'kirib, shiddat bilan olg'a bosar, pulemyotidan tinimsiz o't ochganicha duch kelgan narsani yakson qilib borar, qubbasimon tomli kulbalar, turli xil daraxtlar, uzum toklari, uyoqdan buyoqqa bezovta yugurayotgan sigir, qanotlarini patirlatib, jonsarak qaqag'layotgan tovuqlar ko'zga chalinib qoldi. – Bos! Bos! – derdim avtomatdan tinimsiz o'q uzib" [1,123]. Ko'rinadiki, O'tkir Hoshimov qahramon tilidan aniq voqelik vositasida inson dilida uyg'ongan vayronkor hissiyotni tasvirlaydi.

"Tushda kechgan umrlar" romanida Xayriddin obrazi alohida o'ringa ega bo'lib, u bevaqt qurbon bo'lgan yosh askarlarning turli toifalariga xos xususiyatlarini o'zida birlashtiradi. Xususan, asarda Xayriddin tilidan urushga quyidagicha ta'rif beriladi: "...Urush teskari haqiqat degani ekan. Odam bo'lging kelsa, shafqatsiz bo'l. O'lging kelmasa, o'ldir..." [1,108] Urushning adolat va haqiqat tamoyillariga mutlaqo to'g'ri kelmasligi ushbu jumalalarda qahramonning xulosasi ifodalangan. Bu orqali muallifning ham urush haqidagi o'z qarashlari badiiy ifodasini topgan. Shuningdek, Xayriddinning o'limi tasviri ham o'ziga xos holatda tasvirlangan. Muallif ushbu qahramonni jang paytida odatiy tarzda o'q tegishi yoki snaryad portlashidan halok bo'lishini tasvirlamaydi. Aksincha, Xayriddinning o'limi jarayoniga ramziy ma'no yashiradi. Ya'ni Xayriddin o'z tug'ilgan kunida dushman tomonida jang qilayotgan o'zbek jangarisi tomonidan o'ldiriladi. Tug'ilgan kunidagi o'lim qahramon taqdirining fojiaiylik ko'laminani yanada kuchaytiradi. Undan tashqari, hayotdan hech narsa topishga ulgurmay yosh qurbon bo'lganligini ta'kidlamochi bo'ladi. Xayriddinning o'z millatdoshi tomonidan o'ldirilishi esa nafaqat urushning g'ayriinsoniy mohiyatini, bir millat vakillarini ikki dushman qutbga bo'lib yuborgan mustabid tuzumning halokatli ta'sirini anglatadi.

Xulosa. Yozuvchi urush mavzusini individual tarzda turli badiiy tasviriy usuldan va vositalardan foydalangan holda namoyish etadi. Tarixiy kechmishni kichik va ixcham jumlar bilan keng va chuqur badiiy ko'rsata olish urush mavzusidagi romanlarga xos xususiyat bo'lib, ulardagi epiklikni ta'minlaydi. "Tushda kechgan umrlar" asarida qahramonlarning taqdiri fojiali kechadi. Asardagi obrazlarning ichki

kechinmalari, psixologik holati vositasida urushning yoshlar ongi va ruhiyatiga ta'siri aks ettirilgan. Romanda yozuvchi afg'on urushi va qatag'on siyosatining oqibatlarini tipik obrazlar vositasida aks ettiradi, davrning turli xil muammo va illatlariga xolis baho beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. – T.: Nurli dunyo, 2024. – 288 b.
2. Sharafiddinov O. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999. – 310 b.
3. Normatov U. Nasrimiz ufqlari. – T.: Adabiyot va san'at, 1974. – 220 b.
4. Achilova E. O'tkir Hoshimov asarlarida badiiy psixologizm muammosi. //Xalq ta'limi, 2021. – № 5. – B. 42-45.

Normuratova Nigora Rustam qizi,
BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti
(O'zbekiston)
E-mail: nigoraaaab@gmail.com

USLUBNI TADQIQ QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda keng qo'llaniluvchi ijodkor uslubi atamasining mazmun-mohiyati va uning nazariy asoslari ochib berilgan. G'arb adabiyotshunoslari bilan birga Sharq mumtoz poetikasiga katta hissa qo'shgan olimlarning ijodkor uslubi va individualligi haqida bildirgan qimmatli fikrlari maqoladan o'rin olgan. Badiiy nutqning o'ziga xosligi va uning tayanch tamoyillarini antik davrlardan beri adabiyotshunos olimlar o'rganib, asarlari orqali tatbiq etib kelmoqdalar. Bunda asosiy manba sifatida biz "Poetika" asarini ko'rishimiz mumkin. Unda ijodkor uslubi va badiiy tiliga alohida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: Ijodkor uslubi, "Poetika", "She'r san'ati", "Majolis un-nafois", ijodiy metod, ijodkor individualligi.

Аннотация. В данной статье раскрывается значение термина творческий стиль, который широко используется в литературоведении, и его теоретические основы. В статье включены ценные мнения о творческом стиле и индивидуальности ученых, внесших большой вклад в восточную классическую поэтику наряду с западными литературоведами. Ученые-литературоведы с древнейших времен изучают своеобразие художественной речи и ее основные принципы и применяют их в своих произведениях. Основным источником для этого мы можем видеть труд "Поэтика". Особый акцент сделан на стиле художника и художественном языке.

Ключевые слова: творческий стиль, "Поэтика", "Поэзия искусство", "Мажолис унафоис".

Abstract. This article reveals the meaning of the term creative style, which is widely used in literary studies, and its theoretical foundations. Valuable opinions about creative style and individuality of scientists who made a great contribution to Eastern classical poetics along with Western literary critics are included in the article. Literary scholars have been studying the uniqueness of artistic speech and its basic principles since ancient times and applying them through their works. We can see the work "Poetics" as the main source for this. Special emphasis is placed on the artist's style and artistic language.

Keywords: Creative style, "Poetics", "Poetry art", "Majolis un nafois", creative method, creative individuality.

Kirish. Ma'lumki, har bir ijodkor voqelikni so'zlar yordamida obrazli aks ettiradi. Badiiy adabiyotning ham asosiy quroli so'z hisoblanadi. Adabiyotning fan sifatida rivojlanishida badiiy nutq asosiy o'rinni egallaydi. Ijodkorlarning uslubi badiiy so'z yordamida shakllanadi. Bunda so'zlashuv tili badiiy asarlar uchun asosiy omil bo'lsa-da, so'zning obrazli namoyon bo'lishida ijodkorning badiiy fantaziyasi va mehnatining o'rni katta. Uslub masalasi esa antik davrlardan beri dolzarb masala sifatida har bir adabiyotshunosning diqqat-markazida bo'lib kelgan.

Asosiy qism. Ijodiy uslub ijodkorning dunyoqarashiga bog'liq bo'lgan tushuncha. "Uslub" arabcha so'z bo'lib, "shakl", "tartib" kabi ma'nolarni anglatadi. Hayotiy hodisalarni ijodkor dunyoqarashi orqali badiiy aks ettirish uslub hisoblanadi. Ushbu atama ilk bor Aristotelning "Poetika" asarida "nutq" sifatida qo'llangan. Qomusiy olim asarning "So'z tanlash" bobida shoirlarning individual uslubini Kleofant, Sfenel, Yevklid, Esxil kabilar ijodi bilan ochib beradi. "Tuban bo'lmagan, tushunarli nutq qimmatli nutqdir. Eng tushunarlisi hamma ishlatadigan so'zlardan tuzilgan nutqdir. Ammo bunday nutq tuban bo'ladi. Masalan, Kleofant va Sfenel poeziyasi shunday. Munosib va ko'p ishlatilmagan ifoda kutilmagan, g'alati so'zlardan foydalanish orqali kelib chiqadi. Men ko'p qo'llanadigan hamma so'zlardan boshqasini; noyob so'zlar, metafora, cho'zilgan va boshqa so'zlarni g'alati deb atayman" [1, 44].

Olim ikki ijodkorning nutq uslubini tahlil qilgan ekan, ularning ijodiy uslublarini xalq tiliga yaqin ekanligini ta'kidlab o'tadi. Aristotel bunday nutqni "tushunarli nutq" iborasi sifatida nomlab ketadi.

Aslida, kitobda keltirilgan “nutq” soʻzini “ijodkor uslubi” yoki “ijodkorning individual uslubi” kabi iboralar bilan ham almashirsak boʻladi. Adabiyotshunos fikrlarini davom ettirarkan, Yevklid ijodida sodir boʻlgan tovush oʻyinlari orqali oʻz individulligini namoyon etadigan misralarni keltirib oʻtadi:

“E-epixarni men Ma-arafon yoʻlida koʻrdim...

U-uning popuk guli me-enga yoqmaydi...” [1, 45]

Yevklid maxsus bogʻinlar orqali oʻz yoʻnalishini topgan. “Har holda bunday ifoda usulidan bemeʼyor foydalanish kulguli, zero hamma vaqt ifodaning turlarida meʼyor boʻlishi lozim” [1, 46]. Adabiyot paydo boʻlibdiki, shoir, yozuvchi va dramaturglarning uslublari adabiyotshunos olim uchun ham, oddiy xalq uchun ham birdek ahamiyatli edi. Ular ijodkorlarning uslubiga qarab tanib olishgan. Shuning uchun ham bekorga uslubni “ijodkorning dastxati” deyishmaydi.

Yana bir oʻrinda olim ijodkorlarni qanday vositalar yordamida oʻz individulligini shakllantirishini yozib ketgan. “Baʼzi kishilar mahorat, baʼzilar malaka sababli, yana baʼzilar tugʻma isteʼdodlari tufayli boʻyoqlar va shakllar yordamida koʻp narsalarning tasvirini – oʻxshashini yaratadilar. Hozirgina eslab oʻtilgan sanʼatlarning hammasida ham alohida yoʻritm, yoʻ soʻz va yoxud garmoniya yordamida koʻp narsalarning tasvirini – oʻxshashini yaratadilar” [1, 8].

Badiiy nutq oʻxshatish asosida vujudga keladi. Maʼlum shoir yoki boʻlmasa ijodkorning uslubi esa aynan qanday usullar yordamida voqeani oʻqirmanga yetqazishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida Arastuning ritm, soʻz yoki garmoniya orqali obrazli tasvirlash mumkin degan fikrini keltirdik. Bundan tashqari, biz maʼlum soʻzlar yordamida, takrorlar yordamida, urgʻuning oʻrni orqali ham ijodkorlar oʻz uslublarini shakllantirganlarini koʻrganmiz. Togʻay Murodning takror soʻzlardan koʻp foydalanishi, Qahhor hikoyalaridagi qisqalik, loʻndalik orqali biz ikki ijodkorning qanday oʻz dastxatlarini yaratganlarini koʻrishimiz mumkin.

Sharqda “Muallimi soniy” nomi bilan mashhur boʻlgan al-Forobiy ham Arastuning fikrlarini qoʻllab, unga doir risola yozgan. Bu risolani “Shoirlar sanʼati qonunlari haqida” deb nomlagan. Yoki boʻlmasa “Sheʼr sanʼati”. Ushbu risolada ham Forobiy Aristotelning fikrlarini davom ettirarkan, oʻxshashlik haqida maʼlumotlar berib boradi.: “Mana shu aks-oʻxshashliklarning baʼzilari eng mukammal boʻladi, boshqalari nuqsonli boʻladi. Ularning mukammalligini yo nuqsonli ekanini aniqlash shoirlar va turli-tuman til va sheʼriyatni oʻrganayotgan maʼrifat ahlining fikr doirasiga kiradi” [2, 80].

Olim obrazli tasvirlashni aks ettirish deb nomlaydi. Yaʼni qaysidir ijodkor tasvirda mukammallikka erishadi, qaysidir esa nuqson bilan tasvirlaydi. Har bir shoir oʻz asarida oʻzining dastxatini, uslubini koʻrsatib aks ettiradi. Olim aynan ana shu obrazli tasvirlashni nazarda tutmoqda.

Muhokama va natijalar. Demak, uslub tushunchasini fanga ilk bor Arastu olib kirgan. Forobiy unga sharhlar yozib, ijodkorning uslubi haqidagi fikrlarini yanada boyitgan. Sharq mumtoz adabiyotida ham ijodkor uslubi masalasi muhim oʻrin tutgan. Buni biz Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari orqali bilib olamiz. Unda buyuk adabiyotshunos olim shoirlarning tarjimai holini keltirarkan, ijodkorning ijodiy merosi, uning oʻziga xos, boshqalardan ajralib turadigan xarakterlarini yozib ketadi. Bu asar Temuriylar davrida yaratilgan asarlar ichida eng ahamiyatli hisoblanadi. Quyidagi misollar orqali biz Navoiyning uslubshunos olim sifatida ijodkorlar faoliyatiga haqqoniy baho berganini koʻrishimiz mumkin. Masalan: “Va Sultoni sohibqironkim, ul hazratning nukot va maorifining daqoyiqi alfozini va haqoyiqi maoniysini hech donishvarlardin yaxshiroq bilmadi va hech ahli tabʼ alarning ushri ashirini fahm qilmadikim, majlisda nazm tariyqida hamroz erdilar va nasr uslubida puktapardoz. Ul hazrat ruhoniyatidin alargʻa fayzi begʻoyat va imdodi benihoyat yetsun va bu faqir hamkim, bu hazratning bandai dargohi va ul hazratnng xoki rohimen mahrum boʻlmusun” [5, 56].

Ushbu qimmatli fikrlar Pahlavon Kotib haqida boʻlib, bu fikrlardan biz uning nasrda nuktapardoz ekanligini koʻrishimiz mumkin. Bu oʻrinda Navoiy Pahlavon Kotibning uslubida ramz va ishoralardan koʻp foydalanishini taʼkidlab oʻtmoqda. Yoki boʻlmasa yana bir oʻrinda: “Mashxadning sodoti, balki nuqabosidindur. Ahl va muloyim kishidur. Mazox va mutoyiba mizojigʻa gʻolibdur. Shoʻxludqin faylasufvash va ulvi nasabdin tazvir va buzurg manishlikda beixtiyor tushubtur. Chun Sayyidning humoyun basharalarida sufrat gʻolibdur, Sayyid shirgʻa ham derlar. Baʼzi maymungʻa ham tashbih qilurlar. Faqir xud bu navʼ gustoxliqlar qila olmasmen, ammo Mirning markabin ul itga oʻxshatibmenkim, anga bir maymunni mindururlar. Agarchi Mirgʻa noxush kelur, ammo hazl bila oʻtkarur. Bu matlaʼ aningdurkim:

Dame az dasti duni vo narastam,
Biyo, soqiyki, yakdam mayparastam” [5, 45].

Sayyid G‘iyosiddin haqida aytilgan fikrlar yozuvchi ijodiy laboratoriyasi bilan ham bog‘liq. Chunki uslub va ijodkor laboratoriyasi bular chambarchas tushunchalar. Ularni bir-biridan ayro tasavvur eta olmaymiz. Agar qaysidir ijodkor sho‘x tabiatli inson bo‘lsa, komik asarlar dunyoga keladi. Sayyid G‘iyosiddinning ijodiyoti ham hazilomuz falsafadan tashkil topgan. Bu o‘rinda ham olim Sayyid G‘iyosiddinning xarakterini berib, so‘ngra uning ijodiy misolini o‘quvchiga taqdim etmoqda.

Umuman, ijodiy uslub va individuallik haqida so‘z borganda biz, eng avvalo, ijodkorning ijodiy laboratoriyasiga murojaat qilishimiz kerak. Nega deganda, yozuvchini boshqa yozuvchilardan ajratib turadigan narsasi uning dunyoqarashi hisoblanadi. Voqelik shoir, yozuvchining dunyoqarashidan o‘tgandan so‘ng, badiiy uslub yoki bo‘lmasa ijodkorning ijodiy uslubi yoki uning adabiyotdagi shaxsiy dastxati dunyoga keladi. Biz asarni qo‘lga olarkanmiz, uning muallifini ko‘rmasdan turib taxmin qilishimiz mumkin. Masalan, Cho‘lpon she‘riyati, Qodiriy uslubi, Hamza she‘rlari, Tog‘ay Murod romanlari...

Yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlar kitoblarining muallifi yozilmagan bo‘lmasa-da, biz o‘qib ularning uslubi ekanligini aniqlab olamiz. Mumtoz adabiyotimizda uslubni tahlil qilgan olimlar yetarlicha. Fikrlarimizni Fitratning “Adabiyot qoidalari” asari bilan davom ettiramiz.

“Fitrat uslubni haqiqiy ijodkor darajasini belgilab beruvchi asosiy unsurlardan bir sifatida qabul qiladi” [4,17].

Hamidulla Boltaboyev bu nazariy asarni tahlil qilarkan, Fitratning asar uslubiga bo‘lgan e‘tiborini nechog‘lik kuchli ekanini ta‘kidlab o‘tadi. Fitrat yozuvchilar dastlab oddiy uslubda yozadi, keyinchalik ularning uslubi sayqal topadi, deydi. Aynan asarni o‘qishga majbur qiladigan, undaydigan narsa uning uslubidir. U shu o‘rinda “Layli va Majnun” asarini yod etadi. Bu dostonidagi voqealar tizimi o‘xshash, lekin undagi uslub qirralari turli-tuman. Va ushbu risolaning bir o‘rnida u Navoiy uslubidan Fuzuliy uslubini ustun qo‘rganini ta‘kidlaydi: “Fuzuliyning ko‘rgach, Navoiyning “Layli-Majnun”ini tokchaga qo‘yub, Fuzuliyning o‘qishga majbur kabi bo‘ladir. Mana bu uslubning ishidir” [4,19].

Uslub haqida fikrlarini davom ettirarkan, Fitrat mumtoz shoirlar bilan yangi shoirlar uslubini taqqoslaydi. U Cho‘lpon va Navoiy ijodida ishq mavzulari turli xil rang sochishini aytib o‘tadi. U bundan tashqari yuqorida tahlil ostiga olingan “Majolis un-nafois” asarida keltirilgan “turkona uslub”da ijod qiladigan shoirlarning uslubini o‘rgangan. Fitrat Navoiyshunos olim sifatida uning uslubga doir fikrlarini o‘rgangan.

“Olimning “Eng eski turk adabiyoti namunalari”, “O‘zbek adabiyoti namunalari” asarlarida ham bu mavzuda yetarlicha fikr yuritilgan. Asarda har bir davr o‘ziga xos usul bilan bayon qilinadi. Xususan, olim chig‘atoy adabiyotining uslubi “kayf-safo, ishq, go‘zallik, may, gul, bulbul” kabi tasvir vositalarning aks etishida namoyon bo‘ladi, deb yozadi. Demakki, bu davrning adabiyoti “kishini allalaydigan shaklda” go‘zal ifodalar bilan bezatilgani uchun ham o‘ziga xos uslubga ega. Olim har davr adabiyotining asosiy xususiyatini uslub bilan bog‘liq holda quyidagicha belgilaydi:

- a) qabilachilik adabiyotining asosiy uslubi qabilaviy hayotni tasvir qilganlikda ko‘rinadi;
- b) feodallik adabiyoti esa bir hokim, feodal shaxsning madhiga, ta‘rifiga, ular atrofidagi voqealarga bag‘ishlangan adabiyot ekanligini e‘tirof etadi;
- v) savdo sarmoyasi davri adabiyoti xususida to‘xtalganda, uning o‘ziga xos xususiyatini “haqiqiy san‘at” ekanligida deb belgilaydi” [4, 31].

Olim uslubni davr bilan chambarchas bog‘laydi. Fitrat ularni turlarga bo‘lib, adabiyot uchun, adabiy jarayonlar uchun muhit va davrni asosiy omil deb belgilaydi.

Adabiyotshunos olim Yassaviy va Mashrab she‘riyatini “xalqchil uslub” deb ta‘riflaydi. Bu ijodkorlar sodda, ravon til bilan xalq ko‘nglidan joy olgan ijodkorlar sanaladi. Olimning bu fikrlariga o‘xshash fikrlari Arastuning “Poetika” asarida ham mavjud. Ya‘ni ijodkor qanchalik xalqqa yaqin bo‘lsa, shuncha xalqning ko‘nglidan joy egallaydi.

Xulosa. Fikrlarimizni xulosalaydigan bo‘lsak, uslub bu ijodkorning ijodiy faoliyati davomida voqelikni aks ettiruvchi usullari majmuasini ifodalaydi. Ijodkorlar o‘z uslublarini shakllantirishda turli vositalardan foydalanadilar. Bu tushuncha kecha yoki bugun paydo bo‘lmay, asrlar davomida sayqallandi,

tajribalarda tadrijiylik kasb etdi. Adabiyotshunos olimlar uslub masalasiga chuqur yondashib, o'z fikr va mulohazalarini bildirib kelmoqdalar.

ADABIYOTLAR:

1. Аристотель. Поетика. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 б.
2. Абу Наср Форобий. Шеър санъати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 80 б.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, ўн учинчи том. Мажолис ун-нафоис. – Т.: Фан, 1997. – 300 б.
4. Фитрат. Адабиёт қоидалари. –Т.: Маънавият, 2006. –18 б.
5. Намраева О. Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari. –Т.: Bookmany print, 2023. – 31 б.
6. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т.: Фан, 1959. – 198 б.
7. Ўроқова Н. Сўнгги йиллар ўзбек дostonчилигида иждокор услуби ва индивидуаллиги (И. Отамурод ва У. Қўчқор дostonлари асосида). Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. – Қарши, 2019. – 146 б.

*Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
(O'zbekiston)
E-mail: d.j.xamroyeva@buxdu.uz*

ABDULLA SHER IJODIDA BUXORO OBRAZI

Annotatsiya. Abdulla Sher ijodi turli obrazlar silsilasiga ega. Uning tabiat bilan bog'liq she'rlari yoki muhabbat mavzusidagi ijodi fikrimizni dalillaydi. Ayniqsa, Buxoro obrazi shoir she'riyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning Buxoro bilan bog'liq she'rlari tarixiy fakt va dalillarga asoslangan. Biror ishora, gap yoki detal shunchaki keltirilmaydi, balki Buxoro haqidagi fikrlarimizni yangilashda yordam beradi. Shoir tomonidan Buxoro tarixi puxta o'rganilgan va shu asosida she'rlar yaratilgan. Abdulla Sherning Buxoro haqidagi aksar she'rlari tarixiy mavzudadir. Shoir o'z she'rlarida bir necha bor ushbu tabarruk joyga murojaat qiladi. Ushbu maqolada bu muborak zamin haqidagi ta'sirchan va takrorlanmas she'rlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: lirika, obraz, Buxoro, talmeh, takrir, tarix, doston, turkum.

Аннотация. Творчество Абдуллы Шера представляет собой ряд различных образов. Наше мнение подтверждают его стихи о природе или произведения на тему любви. Образ Бухары особенно важен в поэзии поэта. Его стихи, связанные с Бухарой, основаны на исторических фактах и свидетельствах. Намёк, утверждение или деталь не просто цитируются, а помогают актуализировать наши мысли о Бухаре. Поэт внимательно изучал историю Бухары и писал на эту тему стихи. Большинство стихов Абдуллы Шера о Бухаре посвящены исторической тематике. Поэт несколько раз упоминает это благословенный и священный город в своих стихах. В данной статье идёт речь о впечатляющих и уникальных стихах об этой благословенной земле.

Ключевые слова: лирика, образ, Бухара, талмех, тақрир, история, эпос, серия.

Abstract. Abdulla Sher's work has a series of different images. His poems about nature or his works on the theme of love prove our opinion. The image of Bukhara is especially important in the poet's poetry. His poems related to Bukhara are based on historical facts and evidence. A hint, a statement or a detail is not just cited, but helps to update our thoughts about Bukhara. The poet carefully studied the history of Bukhara and wrote poems based on it. Most of Abdulla Sher's poems about Bukhara are on historical topics. The poet refers to this blessed place several times in his poems. In this article, we will talk about impressive and unique poems about this blessed land.

Keywords: lyrics, image, Bukhara, talmeh, takrir, history, epic, series.

Kirish. Abdulla Sher ijodining obrazlar olami juda keng. Uning bir she'rida uchragan obraz yoki ramz boshqa she'rlarida turlicha poetik ma'noda namoyon bo'ladi. U ma'noni misralarga shunday singdiradiki, insonni tafakkur qilishga, o'ylashga va she'rdan zavq olishga undaydi. Shoirning she'rlarini kuzatar ekanmiz, atrofimizda yashayotgan insonlarni, sodir bo'layotgan voqealarni ko'rgandek bo'lamiz. Abdulla Sher she'rlarida obrazlar orqali hayot lavhalarini chiziladi. She'rlarni o'qish jarayonida "tabiat, muhabbat, ijtimoiy hayot, olam va odam" tushunchalari bilan bog'liq obrazlar yaratilganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, shoir ijodiy merosida Buxoro obrazi alohida ahamiyatga molik. Uning Buxoro haqidagi she'rlarini mutolaa qilgan she'rxon shoirmi bu tabarruk zaminga bog'lab turgan qandaydir rishta borligini sezishi qiyin emas. Albatta, bu Vatanga bo'lgan muhabbatning bir ko'rinishidir. Shoir Buxoroni "iftixorim, faxrim" deb ataydi. Bunda Buxoroni ba'zi manbalarda Foxira nomi bilan ham atalishiga ishora bor.

Asosiy qism. Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov "Buxoro kuychisi" nomli maqolasida shunday yozadi: "Sadridin Salim o'nga yaqin she'riy to'plam nashr ettirgan bo'sa, deyarli har bir kitobida Buxoro haqida she'r-u qasida bor"[3,6]. Bugungi kunga qadar Buxoro vasfi bir qancha ijodkorlar tomonidan kuylangan. Muhammad Yusufning "Ko'hna quduq", Sadridin Salim Buxoriy, Samandar Vohidov, Toshpo'lat Ahmad, Baxshulla Rajab va Buxoroning boshqa ko'plab zabardast ijodkorlari ijodida Buxoro obrazi keng yoritilgan. Ammo Abdulla Sherning ushbu mavzudagi she'rlarini kuzatar ekanmiz, shoir tomonidan Buxoro tarixi puxta o'rganilgani, keltirilgan har bir detal yoki ishora ortida

tarixiy fakt turganiga guvoh bo‘lamiz. Uning aksar she‘rlarida Buxoro tarixi aks ettiriladi va tarixiy fakt asosida isbotlanadi. Turli qochirimlar, so‘z o‘yinlari, bir so‘zni ikki ma‘noda qo‘llash shoir mahoratidan darak beradi. Shoir “Qadimgi kuy” kitobiga Buxoro tarixi bilan bog‘liq she‘rlarini jamlab, “Buxoro manzumi” nomi ostida nashr ettiradi. Ammo ancha yillardan so‘ng tartib bergan “Tanlangan asarlar”da ushbu she‘rlarni sayqallab, ularga qo‘shimcha qo‘shib “Karvon qo‘ng‘irog‘i” dostoni nomi ostida birlashtiradi. Buxoro qadim-qadimdan shoir-u shuaro, fozil-u fuzaroni ulg‘aytirgan, unga komillikning baxt va baxtsizlik o‘rtasidagi iqbolini bergan zamin. Abdulla Sher she‘rlari orqali kitobxonni Buxoro bo‘ylab kezdirdi, tarixning sirli ko‘chalariga olib kiradi.

Muhokama va natijalar. Lirik asarlarning mazmunini kitobxonga yetkazish uchun shoirdan kam so‘z qo‘llab, ularning jonli obrazini yaratish vazifasi talab etiladi.

Bulutlarni yenggan quyoshdek,
Nimtalangan xayollar aro
Goho beshik, goh yashim toshdek
Qalqib chiqdi yaxlit Buxoro [1, 67].

Anglashiladiki, shoir Buxoroni quyoshga mengzaydi. Tabarruk zaminning quyoshga qiyos etilishi ham bejiz emas. Chunki Buxoro jahon tamadduniga hissa qo‘shgan daholarni ulg‘aytirgan muborak joy, go‘yoki beshik. “Hayqirib yashardi qo‘l yetmas quyosh”, “Seni quyosh atab sig‘inardim men”, “Nogoh ona dedim sezmay o‘zim ham”, “Shaxmat taxtasiga o‘xshar Buxoro”, “Yaratmasa edi seni bu dunyo Tafakkur yig‘lardi beshiksizman deb” kabi o‘xshatmalar ushbu she‘rlar qimmatini yana bir karra oshiradi.

Ma‘lumki, so‘z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiyning asarlarini anglash uchun Qur‘oni Karimdan xabardor bo‘lishimiz kerak. Abdulla Sherning ham Buxoro haqidagi she‘rlaridagi tub mohiyatga yetib borish uchun tarixni, xususan, Buxoro tarixini bilish maqsadga muvofiqdir. Chunki shoir she‘rlari shunchaki Buxoro sha‘niga maqtov emas, uning boshidan kechgan turli suronli va sinovli kunlar haqida hikoya qiladi.

Shoirning “Shaxmat taxtasiga o‘xshar Buxoro” nomli she‘rini kuzatar ekanmiz, shoirning zakosiga qoyil qolamiz. Chunki tarixiy voqealar tarixiy ketma-ketlikda berib boriladi, ya‘ni qadimdan bugungi kunga qadar kelinadi. She‘rning dastlabki bandi Iskandarning Buxoro bilan bog‘liq voqealariga bag‘ishlangan bo‘lsa, ikkinchi badda undagi arablar bosqiniga ishora bor. Shuningdek, “Ilk masjid qo‘ynida xos joynamozga, Qutayba bosh qo‘yib bir qo‘rquv aro” [1, 69] misralarida Movarounnahrda birinchi masjid aynan Buxoroda qurilgani, Qutayba ibn Muslim tomonidan aholi islomga da‘vat etilib, namoz o‘qishga kelgan fuqarolarga ikki tilla tanga tarqatilgani nazarda tutiladi.

Haqiqatdan ham, ushbu turkum she‘rlar zamon ketma-ketligida beriladi. Buxoroga mo‘g‘ullar bosqini va uning shafqatsizligini ko‘rsatish uchun shoir quyidagicha o‘xshatishlarga murojaat qiladi: “Va lekin fuqaro mag‘rur Torobda G‘alvirning o‘rniga savat to‘qidi”, “Torobiy qonini shimgan g‘ishtlarni Ko‘zimga surtdim-u so‘zga aylandim” [1, 70]. Ushbu satrlar orqali u Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloniga ishora qiladi. Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar qo‘shini O‘rta Osiyoni bosib olgach, mahalliy xalqqa zulm o‘tkaza boshlaydi. Davom etayotgan mustamlaka siyosat, turli soliq va o‘lponlar, mo‘g‘ullar zulmi oddiy xalq yuragida ularga nisbatan norozilik holatini keltirib chiqaradi va 1238-yilda hozirgi Jondor hududiga to‘g‘ri keluvchi Torob qishlog‘ida g‘alvir to‘quvchi Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq harakati yuzaga keladi. Ushbu qo‘zg‘olon kuch bilan shafqatsizlarcha bostirilgan bo‘lsa-da, mo‘g‘ullar endi ushbu hudud aholisi bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lib, ayrim soliqlarni qisqartirishadi.

Abdulla Sher ijodida bu kabi ta‘sirchan she‘rlar talaygina. Uning “Qum... Sahro...” deb boshlanuvchi she‘ri ham juda zalvorli. She‘rda Buxoro qutqaruvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, buyuklikning eng yuksak qatorida ta‘riflanadi. Dastlab mudragan sahroda horigan karvon tasviri beriladi. Bu peyzaj orqali shoir manzarani o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalanitiradi. Tuyalar shunday horg‘inki, hatto qo‘ng‘iroq tovushidan cho‘chib ketishadi. Abdulla Sher asarlarini ham Abdulla Qahhor asarlariga o‘xshatish mumkin. Chunki Abdulla Qahhor hikoyalaridan biror so‘z olib tashlansa, uning o‘rni sezilib qolgandek, Abdulla Sher she‘rlaridan ham shoir qo‘llagan so‘zlarni o‘zgartirish mushkul. Chunki u biror detalni shunchaki keltirmaydi, balki o‘sha muhitni chizish uchun yorqin qalam sifatida qo‘llaydi.

Chashmayi Ayyubga yetadi karvon,
Ne baxtki, omonlik bu charxi kajda.

Taqdirdan minnatdor tashna olomon
Chashmaga lab bosib qiladi sajda.
Sajdaki, na tangri, na xon, na ruhga, –
Buxoro atalgan buyuk tarixga [1, 66].

Ushbu bandda shoir Chashmayi Ayyub nomini keltirish orqali talmeh san'atiga murojaat qiladi. Ushbu san'at Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan bo'lib, ma'naviy san'at deya ta'riflanadi. Ushbu san'atdan mumtoz adabiyotda ham, bugungi zamonaviy she'riyatda ham keng foydalanishadi. Bundan tashqari, na...na inkor yuklamasini she'rga olib kirish orqali takrir san'ati vujudga kelgan. Takrir takrorga asoslangan san'at hisoblanib, lafziy san'at sifatida "Funun ul-balog'a"da keltirilgan.

Buxorodagi ushbu chashma haqida xalq orasida turli afsonalar mavjud. Ba'zi manbalarda Ayyub payg'ambar Buxoroning shu suvsiz joyidan o'tib ketayotganda hassasini yerga suqqani va shu joydan zilol suv chiqqani haqida xabar beradi. Keyinroq Sohibqiron Amir Temur hukmronligi vaqtida ushbu chashma ustiga maqbara quriladi. Yuqoridagi parchada aynan shu chashma nazarda tutiladi. Band juda yuqori xulosaga ega. Ya'ni insonlarning chashmaga engashib suv ichish jarayoni sajdaga egilishga o'xshatiladi. E'tiborlisi, bu sajda na tangriga, na biror xonga yo ruhga emas, balki Buxorodek buyuk tarixgadir.

Shoir Buxoroning jin ko'chalarini aylanadi. Shu orqali Buxoro bilan yolg'iz so'zlashishni xohlaydi. Jim turgan qadimiy binolar sassizligidan suronlarni sezgandek bo'ladi:

Har yangi avlodga oynning o'rog'i
Ajdod savolidek zor ko'chalarda,
To qilich baldog'i, kamon sadog'i
Qolguncha jang borgan tor ko'chalarda [1, 70].

Ushbu she'rda tashbehning go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin. Shoir metafora orqali ma'no ko'chishini mahorat ila bera olgan. Yangi chiqqan oy – hilol avlodlarga ajdodlar savolidek tikiladi. Barcha hodisaga guvoh bo'lgan hilol avlodlardan madad so'ragandek tikiladi. Buxoro uchun bo'lgan qonli janglarni kuzatgan tor ko'chalar, faqat qilichlarning baldog'i, kamonlarning sadog'i qolguncha janglar sodir bo'lganini ko'rgan obidalar orqali ushbu muborak zaminning nechog'li qadimiy va janglardan omon chiqqanini ko'rishimiz mumkin.

"Adabiy obrazlarda narsa yoki hodisalarning nusxasi emas, balki ularni badiiy ravishda tadqiq etishning natijalari mujassamlashgan bo'ladi" [4, 42]. Abdulla Sher Buxoro tarixi va uning go'zalligini ko'rsatishni bosh maqsad qildi. Uning nafaqat bu she'rlari, balki balladalarida ham Buxoro bilan bog'liq o'rinlar borligi quvonarli hol. "Buxoroning o'jamol qizi..." [2, 55] deb boshlanuvchi balladasi fikrimizning yaqqol dalilidir. Abdulla Sher she'rlarini boriday emas, balki lirik qahramonga ko'ringanday aks ettiradi. Buxoro obrazini gavdalantirish orqali ham u o'zini asl fidoiy farzand ekanligini isbotlaydi. O'z she'rlarida tarixga bot-bot murojaat qiladi. Vatanga muhabbat shunchaki tilda emas, qalbning tub-tubida bo'lishi kerakligini uqtiradi.

Abdulla Sher tarixning achchiq haqiqatlarini ham ochib tashlaydi. Taxt uchun bo'lgan janglar, mansab uchun haqiqatni bosib o'tgan qozi-yu raislar tufayli Buxoro oddiy xalq bo'lib azob chekkanini eslatadi. Abdulla Sher ijodining o'ziga xosligi shundaki, u biror voqeaga o'zining shaxsiy fikrini keltirmaydi. Yoki bu yaxshi bu yomon deya oq va qoraga ajratmaydi. Faqatgina fikrlarini dalillab, bu muhokamani kitobxonga qoldiradi.

Buxoro haqidagi she'rlariga shoir shunday yakun yasaydi:

Amudek ayqirgan shavkat-u shoning
Goho chap, gohida o'ng qirg'og'isan.
Tarix deb atalgan buyuk karvonning
Abadiy jarangdor qo'ng'irog'isan [2,133].

Bu satrlar orqali shoir Buxoroni bir karra yuksaltiradi, ya'ni Buxoro butun tarixni o'z izidan ergashtiruvchidir. Haqiqatdan ham, bu sharif shahar necha ming yillik tarixga ega. U hamisha tarix karvonining qo'ng'irog'i bo'lib qoladi.

Xulosa. Umuman olganda, Abdulla Sherning she'rlarida Buxoro obrazi juda betakror ko'rsatiladi. Obrazlilik she'riyatning eng muhim shartidir. Obrazsiz she'r ruhsiz tanaga o'xshab qoladi. Shoir

aytmoqchi bo'lgan fikr obraz orqali namoyon bo'lmas ekan, uning oddiy xabardan hech qanday farqi qolmaydi. Abdulla Sher ham Buxoro obrazini ijodidagi eng yorqin obrazlar qatoriga qo'shadi. Uning Buxoro haqidagi she'rlarini tahlil qilish barobarida quyidagilarga guvoh bo'ldik:

- Abdulla Sher tomonidan Buxoro tarixi puxta o'rganilgan;
- ushbu hudud bilan bog'liq voqealar eng qadimgi davrlardan boshlab yoritilgan;
- Buxoro bilan bog'liq she'rlarining aksar qismi tarixiy mavzuda yozilgan;
- Buxoroda hukmronlik qilgan shaxslarning ezgu yoki adolatsiz siyosati birdek ko'rsatilgan;
- ushbu zamin bilan bog'liq eng mayda detallar ham she'rga mohirona joylashtirilgan.

Shoirning Buxoro haqidagi she'rlarini tahlil qilish chog'ida xalqimiz orasida keng tarqalgan: “Samarqand sayqali ro'yi zamin ast, Buxoro quvvati Islomi din xast”, – satrlarining naqadar haqiqat ekanligiga guvoh bo'ldik.

Biz ushbu maqolada shoirning Buxoro bilan bog'liq bir-ikkita she'ri ustida fikr yuritdik. Bunday she'rlar shoir ijodida talaygina. Ona zaminimiz sha'niga bunday latif satrlarni atagan Abdulla Sher she'rlari she'riyatimizda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchining Vatanimizning ushbu sharif hududiga nisbatan mehrini bir karra oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдулла Шер. Қадимги куй. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987. – 158 б.
2. Абдулла Шер. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2021. – 680 б.
3. Komilov N. Buxoro kuychisi // Kitobda: Sadriddin Salim Buxoriy. Hikmatdir dunyo. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011. – 176 b.
4. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Шарқ, 2008. – 366 б.

*Shoyimova Gulshod Shoyim qizi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: gulshoda199409@gmail.com*

“QISASI RABG‘UZIY” DA DEHQONCHILIKKA MUNOSABAT

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida dehqon obrazi va unga munosabat chuqur tahlilga tortilgan. Dehqon kishilik jamiyatidagi noyob ijtimoiy toifa sifatida hamisha e’zozlangan. “Qisasi Rabg‘uziy” muallifi dehqon va dehqonchilik Xudodot kasb, Xudodot soha ekanligini “Qissayi Nuh Nabiy alayhissalom” da chuqur badiiy asoslagan. Maqolada mana shunday misollar orqali mavzu mohiyati teran yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qisasi Rabg‘uziy, dehqon, Nuh alayhissalom qissasi, Hazrati Doniyol alayhissalom qissasi, Lut alayhissalom qissasi, baraka, saxiylik

Аннотация. В данной статье подробно анализируется образ земледельца и его отношение к нему в произведении Насируддина Бурхануддина Рабгузи “Кисаси Рабгузи”. Крестьянин всегда почитался как уникальная социальная категория в человеческом обществе. В “Кисаси Нух Наби алайхи салам” автор “Кисаси Рабгузи” глубоко художественно обосновал тот факт, что земледелие и земледелие – это профессия Бога и Божье поле. В статье суть темы глубоко представлена на подобных примерах.

Ключевые слова: “Кисаси Рабгузи”, земледелец, история Ноя, история Хазрата Даниила, история Лута, благословение, щедрость.

Abstract. In this article, the image of a farmer and his attitude towards him in the work of Nasiruddin Burhanuddin Rabguzi “Qisasi Rabguzi” are analyzed in depth. The peasant has always been honored as a unique social category in the human society. The author of “Kisasi Rabguzi” deeply artistically substantiated the fact that farming and farming are God's profession and God's field in “Kissai Nuh Nabi alayhissalam”. In the article, the essence of the topic is deeply explained through such examples.

Keywords: The story of Rabguzi, the farmer, the story of Noah, the story of Hazrat Daniel, the story of Lut, blessing, generosity

Kirish. “Qisasi Rabg‘uziy” muallifi dehqon va dehqonchilik Xudodot kasb, Xudodot soha ekanligini “Qissayi Nuh Nabiy alayhissalom” da chuqur badiiy asoslagan.

“Nuh Nabiy alayhissalom” qissasidan o‘qiyimiz: “Bir kesak yerdin uch yuz yuk bug‘doy chiqar erdi, yuz botmon bug‘doy bir yillik oziq bo‘lur edi” [10, 40].

“Qisasi Rabg‘uziy” muallifining shahodatiga ko‘ra, bug‘doydan bunday darajadagi yuqori hosildorlik hech vaqtda, hech bir Payg‘ambar zamonida bo‘lmagan. Nuh alayhissalom Mashriqdan Mag‘ribga qadar Payg‘ambar bo‘lgan. Uning davrida xalq shu darajada ko‘payib ketganki, sharqdan g‘arbgacha cho‘zilgan masofada bir qarich yer ham xaloyiqdan xoli bo‘lmagan. Hosildor, unumdor zaminda bir qarich yer ham bo‘sh qoldirilmay ekin ekilgan. Xalq shu darajada ko‘payganki, hatto ekin ekishga bo‘sh joy qolmay, dehqon tog‘- Toshlariga tuproq tashib chiqarib, uning ustiga urug‘ sepgan: “Yer yuzinda oshliq, tarig‘u yer qolmadi. Yilqi qorag‘a tufroq yuklab adiz tog‘lar boshing‘a sohib, oshliq teruyur erdilar” [10, 40].

Asosiy qism. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning bunday talqinlarida badiiy adabiyot spetsifikasiga xos ramziy-tamsiliy tasvir yetakchilik qiladi. Tamsiliy tasvir negizida xalq, qanchalik ko‘payib yer yuzini qoplamasin, Haq subhanahu va taolo dehqonning hosiliga baraka berib, toshning ustida ekin undirib bo‘lsa-da, har bir bandasining rizqini beradi, degan teran ma‘no bor. “Qissasi Rabg‘uziy” muallifi haq. Dehqonchilik – xudodot kasb. Alloh undirma, dehqon hosiliga baraka bermasa, minglab, millionlab, milliardlab xalqqa non berishi narida tursin, dehqonning o‘zi ham mehnat qila-qila quruq qo‘l bilan qoladi”. Darhaqiqat: “Sizlar ekayotgan ziroatlaringizni ko‘rdingizmi? (O‘ylab ko‘rdingizmi?) Uni sizlar undirurmiz yoki biz undururmizmi? Agar biz xohlasak uni (ofat yuborib), quruq cho‘p qilib qo‘ygan bo‘lur edik, sizlar esa ajablanib qolaverar edingiz” (“Voqea” surasi, 63-65-

oyatlar. Qarang: Abdulaziz Mansur, 2021. – B. 536) kabi Qur’oni karim oyatlari “Qissasi Rabg’uziy” muallifining talqinlarini ichdan nurlantirib turadi.

Muhokama va natijalar. Nuh nabiy alayhissalom qissasida zikr qilinishicha, xalq kufr va jaholatga ruju’ qo’yadi. Nuh alayhissalom qanchalik iymon va poklikka da’vat qilmasinlar, u kishining amri-ma’ruflari behuda ketadi. Sanab adog’iga yetish mumkin bo’lmagan osmondan tayoq tashlasa, insonning boshidan boshqa joyga tushishi mumkin bo’lmagan ma’mur, ekin-tekini behad serhosil bo’lgan zaminda fisq-fujur, faxsh ishlar bilan shug’ullanish avjiga chiqadi. Oqibatda avvalgi farovonlikdan, obodlikdan, to’qchilikdan asar ham qolmaydi. Odamlarning yemaklari zaqqum ichmaklari zaharga aylanadi. “Qisasi Rabg’uziy” mohiyatidan kelib chiqadigan qat’iy xulosa shuki, chorvadorning ham, dehqonning ham hosiliga barakani Alloh beradi. Mazkur g’oya “Sulaymon ibn Dovud alayhissalom qissasining” “Sulaymon qarinchqa bilan so’zlashgani” sarlavhasi ostidagi faslida ixcham yoritilgan: “Alqissa, mo’rcha o’zi pishirib, lashkarlarga ulashdi, go’shtga to’yumagan lashkar qolmadi. Yana buyurdiki, bir donadan arpa olib chiqdilar, xirmon-xirmon arpa bo’ldi” [10, 64-65].

“Lut alayhissalom qissasi”da talqin qilinishicha, chiroyli xulq, oqibat, andisha, shijoat, xushxo’ylik va poklik barqaror bo’lgan yurtda Yaratguvchi dehqonning hosiliga baraka beradi. Odamlar agar halollikni tark etib, zalolat botqog’iga botsalar, nobakorlikni odat qilsalar, fahsh ishlardan hazar qilmay qo’ysalar, “Voqea” surasining 65-oyati karimasida ta’kidlangani kabi Parvardigor ofat yuborib, farovonlikka, mo’l-ko’l hosilga barham beradi: “Qissai Lut an-nabiy alayhissalom” dan o’qiymiz: “Qamug’ olamda oncha ne’mat bor ersa yolg’uz Mu’tafiqotda oncha ne’mat erdi. Yil sayu ne’matlar yetilsa Sahradin, Chinu Mochindin, Batxo, Qalxar, Darland, Xirzon viloyatindin qamug’ xaloyiq o’z bog’laring’a borurtek anda kelur erdilar. Turluk ne’matlar yig’ib qish bo’lsa evlaringa yonar erdilar. Bir yil mavlo taolo sovuq izdi, ne’mat bo’lmadi” [10, 87].

“Qissasi Rabg’uziy” muallifi talqinicha, Lut Payg’ambar davrida Mu’tafiqot zaminiga haq subhanahu va taolo o’z nuruni shunday saxovat bilan to’kkanki, agar butun olamda qancha meva-cheva bo’lsa, bir Mu’tafiqot daraxtlarida shuncha ko’p shirin-sharbat hosil yetilgan. Nafaqat yerli xalq, xorijiy davlatlardan ham odamlar kelib, o’z bog’laridan tergandek terib, hatto qishda yeyishlari uchun quritib ham olib ketganlar. Alloh taolo qattiq sovuq yuboradi. Daraxtlarning gulini sovuq olib, meva bo’lmaydi. Nosiruddin Burhonuddin Rabg’uziy xuddi shu g’oyani “Qissasi Rabg’uziy” tarkibiga kirgan boshqa qissalarda ham o’ziga xos uslubda badiiy talqin qilgan. Payg’ambarlar sarguzashtining badiiy ifodasiga bag’ishlangan katta-yu kichik qissalarda turlicha sayqal va hayotiy lavhalarda o’quvchi e’tiboriga havola etgan. Ibratli lavhalar vositasida dehqonchilik xudodot kasb ekanligini, iymon-u poklik bor joyda Parvardigor dehqonning hosiliga baraka, xalqning dasturxoniga to’kin-sochinlik bag’ishlashini qissa voqealari va hikoyalar mag’ziga singdirgan.

Xuddi shunday talqinlar Alisher Navoiy ijodida ham ko’p kuzatiladi. Ulug’ mutafakkir talqinicha, yo’qlik dunyosida pinhon bo’lgan bog’ning mavjudlik libosini kiyishi, yuz minglab sarv daraxtlari, sunbul, nargis, suman, binafsha kabi gullarning bog’ sahnida ko’karib, tun-u kun xushbo’y hid taratib, go’zal manzaralarni yuzaga keltirishi Alloh qudratidandir:

Zohir etdi adam shabistoni,
Yuz ming ozodsarvi bo’stoni...
Sabza atrofida nasim-u bahor,
Suman-u sunbul ochdi laylu nahor [8, 12].

Masalaga shu jihatdan qaraganda shartli tasvir cho’g’i biroz baland bo’lsa-da, “Hazrati Doniyol alayhissalom qissasi” alohida qiziqish uyg’otadi. Muso alayhissalom vafotidan keyin Bani Isroil Payg’ambarsiz, ma’naviy rahamosiz qolib, qiynaladi. Yomg’ir yo’q, oqar suv tanqis. Keyinchalik bir quduq qazib, suv chiqaradilar. Suv serob bo’ladi. Daraxtlar ekishadi. Odamlar suvni qaysi tomonga boshlasa, suv o’sha tomonga qarab oqqan. Alloning xohish-irodasi bilan o’rim mavsumida shamol kelib, bug’doyning donini ajratib, har kimning rizqini uyiga eltib qo’ygan. Hosil mo’l, dehqonchilik bemashaqqat bo’lgan Bani Isroilda yuz yil xuddi shunday hayot davom etadi. Keyinchalik odamlar haqning emas, shaytonning ko’rsatmasi bilan yura boshlaydilar. Fisq-u fasod bilan shug’ullanib, mayxo’rlikka ruju’ qo’yadilar. Butga sajda qiladilar. Ularga nasihat qiladigan bir oqil-u dono kishi topilmaydi. Doniyol alayhissalom kelib, iymonga targ’ib qiladilar, qabul qilmaydilar. Alloh taolo bir katta ilon yuborib, noshukur qavmning hammasini halok qiladi.

“Qissasi Rabg‘uziy”da o‘nlab Payg‘ambarlar sarguzashti qaysi tomonga yuz burmasin, dehqon va dehqonchilikka munosabat hamisha muallifning diqqat nazarida turgan. Ayni ta’kid 72 qissaning syujet oqimida harakat qiluvchi boshqa ijobiy va salbiy qahramonlarga ham daxldordir. Fir‘avn – “Muso alayhissalom qissasi”ning markaziy salbiy qahramoni. Qissada zikr qilinshicha, uning otasi o‘z ishining ko‘zini yaxshi biladigan donishmand savdogar bo‘lgan. O‘n besh yoshga yetganida otasi vafot etib, undan katta boylik qoladi. O‘g‘il qisqa fursatda o‘sha boylikning hammasini sovurib, bir burda nonga zor, gado holatiga tushib qoladi. Gadolik qilishdan esa or qiladi. Qovun urug‘ini sotib olib, Misrga borib qovun ekadi. “Qissasi Rabg‘uziy” muallifining yozishicha, Fir‘avnga qadar Misrda qovun ekilmagan. Fir‘avnning o‘zga bir yurtdan kelib, Misrda yo‘q bo‘lgan dehqonchilik mahsulotini ekishi, dehqon bozoriga qovun mahsulotini olib kirishi, Misr podshosining e’tiborini tortadi. Shoh uni chaqirib, “Har necha qilsa, qarshilik qilinmasin”, – mazmunida yorliq yozib beradi. Qovun savdosidan kelgan pul Fir‘avnning mansab kursilariga pog‘onama-pog‘ona ko‘tarilishi uchun zamin vazifasini bajargan. Misrda ilk faoliyatni dehqonchilikdan boshlagan fir‘avn shu mamlakatning bosh hukmdoriga aylanadi.

Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy asarining badiiyatini ta’minlashda Payg‘ambarlar qissasi tarkibida keltirilgan hikoyat, rivoyat va latifalar muhim o‘rin tutadi. Ayrimlarning nomi qayd qilingan kichik nasriy janrlar qissa qahramonlarining ma’rifiy-ruhiy olamini ochishiga shaxsiy-axloqiy qiyofasi manzaralarini yoritishga xizmat qiladi. Maroq bilan o‘qiladi va o‘quvchini toliqishidan, zerikishidan saqlaydi. O‘shunday hikoyatlardan birida rivoyat qilinshicha, shikor paytida adashib qolgan och va tashna shoh Qubod tasodifan bir ziynatli, pokiza kampirning kapasiga borib qoladi. Kampir shohni mehmon qiladi. Kech kirib qolgani uchun podshoh shu yerda qoladi. Kampirning qizi kun qoraymasdan oldin mollarni sog‘adi. Sutning ko‘pligini ko‘rib, hayratda qolgan shoh ko‘nglidan kechiradi: “Bularga soliq solaman, va xazinani sutning puli bilan to‘ldiraman”. Qiz sahar turib, sog‘ganida sutning miqdori kamayib ketganligi ma’lum bo‘ladi. Kampir aytadi: “Podshohimiz zulm niyatini qilgani uchun sut oz bo‘ldi”.

Qubod so‘raydi: Qanday bildingiz? Kampir javob beradi: “Qachonki, podshoh zulm niyat qilsa, Alloh taolo barakani ko‘taradi. Qubod shu niyatni ko‘nglidan chiqarib, qizga buyurdi. Qiz sog‘di, har kungidek sut chiqdi” [12; 118] Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning kampir tilidan aytgan so‘zlari dehqonchilik mahsulotiga ham tegishli ekanligi hikoyat matnidan anglashilib turadi. Badiiy matnda qissa ichida hikoyatlarni ketma-ket keltirish “Qissasi Rabg‘uziy” uslubiga xos xususiyat. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy Payg‘ambarlar sarguzashtini badiiy talqin qilar ekan, ayrim o‘rinlardan bitta, ba’zida esa bir o‘rinda ikkitadan uchta-to‘rttagacha hikoyatlarni ketma-ket keltiradi. Ketma-ket keltirilgan ixcham, hayotiy lavhalar kitobxon e’toborini tez o‘ziga tortadi, ijodkorning g‘oyaviy maqsadini oson tushunishga olib keladi. Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraganda yuqorida “Sutning siri” talqiniga bag‘ishlangan hikoyatdan keyin keltirilgan mo‘jaz hikoyat alohida qiziqish uyg‘otadi.

Sahroda sayr qilib yurgan Balx shahzodasi shijoat va shavq bilan nihol o‘tqazayotgan cholga ko‘zi tushib qoladi. Qariya bilan shaxzoda orasida quyidagi mazmunda suhbat bo‘lib o‘tadi:

- Ey otaxon, bu ko‘chatlar mevaga kirguncha, siz bormisiz yo yo‘qmi?
- O‘zgalar ekib ketishdi, biz yedik. Biz ekamiz, o‘zga yeydi, nasib qilsa, biz ham yermiz.

Agar sizga yeyish nasib qilsa, xotanim taloq bo‘lsin [12, 118].

Oradan yillar o‘tib, shaxzodaning yo‘li yana shu tomonga tushib qoladi. Qariya shaxzodani mevalar bilan mehmon qiladi, ammo uni tanimaydi. Mehmon mezbenni ham meva yeyishiga taklif qiladi. Shunda bog‘bon chol bir necha yil oldin “bir shahzoda” bilan o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan muloqotni aytib berib shaxzodaning xotiniga taloq tushishini istamagani uchun meva yemasligini ma’lum qiladi. Shaxzoda cholning qat’iyati, diyonati, ishonchi qarshisida bosh egib, uni o‘ziga vazir qilib oladi, maslahatidan chiqmaslikka qaror beradi. Hajman ixcham hikoyat shaxs oddiy inson, shoh va jamiyat axloqiga daxldor bir necha muhim qarashlarni o‘zida mujassamlantirgan. Masalaning biz o‘rganayotgan mavzuga daxldor qirrasida dehqon chol va shahzoda dialogining ajratib ko‘rsatilgan qismida o‘z aksini topgan. Haqiqiy dehqon yerga urug‘ qadar yoki nihol o‘tqazar ekan, u hech qachon o‘zini va o‘z manfaatini ko‘zlamaydi. Birni yuz qilish tashvish-u taraddudlari, mushkilotlari, botin parishonliklarini ko‘nglidan kechirmaydi. Bordi-yu shunday qilmasa, dehqonchilikda baraka bo‘lmaydi. Urug‘ bir tekis, maromida unmaydi, ekilgan niholning uchtdan ikkitasi ko‘karmaydi. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy dehqon va dehqonchilikning bunday nozik, pinhoniy sirlarini teran his qilgan.

Dehqonchilik – ruhiyatni, ko‘ngilni bardam qiladigan insonga pokiza ruh bag‘ishlaydigan kasb. “Qisasi Rabg‘uziy” da Payg‘ambarlar ruhiy-axloqiy poklik, aqliy yetuklik va tabiyat ato etgan jismoniy qudratning barkamollikning tajassumi sifatida talqin qilingan. Zulayho mayliga ko‘nmaganligidan keyin Yusuf alayhissalomni yer chopishga yuboradi. Yusuf payg‘ambarga dehqonlar, ketmonni ushlaymay, biz o‘zimiz ishlaymiz, siz dam olib o‘tiring, deydilar. Ko‘nmaydilar, bir o‘zlari o‘n kishilik yerni ag‘darib chiqadilar [12, 118].

Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy qahramonlar ruhiy olamini ochishda yirik ijtimoiy-siyosiy axloqiy-ta’limiy, ma’rifiy-ma’naviy masalalar talqinida, umuman, g‘oyaviy-badiiy maqsadi bilan aloqador turli yo‘nalishlarda dehqonchilikka oid tamsil va timsollardan mohirona foydalangan. “Hazrati Luqmon” qissasida o‘qiymiz: “Hikoyatda kelmish bir kun xojasi Luqmonni bug‘doy ekkani izdi. Luqmon borib arpa ekti. Xojasi aydi: “Bug‘doy ek tedim, ne uchun arpa ekting?” Luqmon aydi: “Andag‘ bo‘lsa sen ham yomonliq ekib yaxshilig‘ umid etmagil” [11, 74]. Dehqon hayotiga oid qiziqarli va dolzarb lavha hayotga teran nazar solish, ixchamgina ifoda bilan katta haqiqatni aytish hech kimning xayoliga kelmagan ohorli xulosaga kelish uchun asos vazifasini bajargan.

“Qisasi Rabg‘uziy”da talqin qilingan dehqonchilik timsollarining har birida qalbi uyg‘oq kishilarni to‘lqinlantiradigan, yuksak axloqiy ibrat darajasiga ko‘tarilgan fazilatlar yetakchilik qiladi va shu fazilatlar bilan ular o‘quvchi qalbidan mustahkam joy olib, xotirasida muhrlanadi. Hazrati Odam bug‘doy daraxti mevasini yeganlaridan keyin yalong‘och bo‘lib qoladilar. Hamma narsa, hatto daraxtlar ham u kishidan qochadi. Uyatdan boshlarini ko‘tara olmaydilar, hijolat tortib qon yig‘laydilar. Jannatdagi har bir daraxt oldiga borib, yalinib-yolvorib, avratlarini yopish uchun barg so‘raydilar. Hech bir daraxt tang, nochor holatda qolgan Odamga barg bermaydi. Faqat anjir daraxtigina Hazrati Odamni noumid qoldirmaydi. Xijolatning og‘ir yukidan xalos qiladi. Avratlarini berkitishlari uchun barg beradi.

“Qisasi Rabg‘uziy” mundarijasiga hadislarning kuchli ta’siri bor. Rasululloh (SAV) hadislaridagi g‘oyalar o‘zining mantiqiy va hayotiyliigi bilan Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy e’tiborini tortadi, ilhom beradi. Badiiy qayta ishlanib, adibning obrazli fikrlash usuli vositasida umuminsoniy fikrlar tajassumini yuzaga keltiradi. Ezgu g‘oya, fikr, voqea, yoki lavhaning davomi yoki tasdig‘i sifati keltirilgan hadisdan ijtimoiy hayotga voqeiy munosabat aniq ko‘rinib turadi. “Hazrati odam va anjir daraxti” lavhasining badiiy talqiniga bag‘ishlangan matnning davomidan o‘qiymiz: “Xabarda andog‘ kelur, anjir yig‘ochi Odam va Havvoga besh yaburchoq berdi, ... Tong otmishdan kezin ul besh yaburchoq(barg)dan birini kiyik yedi, yipor (mushk) bo‘ldi, birin sigir yedi, anbar bo‘ldi, birin aru yedi, asal bo‘di, birin qurt yedi, ipak bo‘ldi, birin odam yerga tikdi, yung bo‘ldi. Qiyomatg‘a tegi o‘g‘lonlarina kafan bo‘ldi” [11, 26]. Hadis matnidan ayon bo‘ladiki, Alloh Rasulining (SAV) o‘y-xayolini orzu-ntilishlari negizini hamisha ezgulik, beg‘ubor poklik etgan. Inson va tabiat orasidagi uyg‘unlikni ko‘z, aql, qalb, ilohiy sezgi bilan chuqur his qilgan Rasuli Akram (SAV) Haq subhanahu va taolo birgina anjir yaproqlari tufayli bandalariga in‘om etgan ulkan mo‘jizani butun hayotiyliigi, siru sehr-u sadosi bilan aks ettirgan. Hazrati Odam Allohga bergan va’dasini unutib, yaratganning jazosiga mustahiq bo‘lgan bo‘lsa-da, har lahzada, har bir harakatida Parvardigorning nazarida turgan. Odam uchun avratpo‘sh vazifasini bajargan anjir yaproqlariga shunchalik mo‘jizaviy qudrat bergan o‘n sakkiz ming olam Shohi “Odamga yaburchoq bermishi uchun” anjir mevasini dehqon yetishtiradigan boshqa ekinlarining hosilidan afzal qilganligi haqida “Qisasi Rabg‘uziy” muallifi yozadi: “Qamug‘ yemish uch turluq turur, kimining tishi yinur, olma, amurt(nok) mengizlik, kimining ichi yinur, tishi yinmas yong‘oq, bodom mengizlik kimining toshima yinmas, ichima yenmas, qag‘un(qovun), xarbuz(tarvuz) mengizlik, Ammo anjirning toshi ham yinur, ichi ham yinur” [10, 26]. Hazrati Odamga qilgan yaxshiligi uchun Haq subhanahu taolo anjir daraxtiga, yaprog‘iga, mevasiga shuncha qurb, manzilat berishi bilan insonni o‘zi yaratgan barcha mavjudotdan aziz-u mukarramligini, o‘zining yerdagi xalifasi, ikki olamning gultoji ekanligini yana bir bor isbot etadi. Demak, Odam alayhissalom, zurriyotlari bu hayoti dunyoda yaratganning nazaridan chetda qolmasligiga to‘la ishongan holda yashamog‘i, har bir qadamini ayni haqiqat mohiyatidan kelib chiqqan holda bosmog‘i zarur.

“Qisasi Rabg‘uziy” ning hijriy 1323-yilda (1904) Samarqandda chop etilgan tabdil nusxasi Baxtiyor Abdishukurov tomonidan hozirgi o‘zbek tilimizga moslab, 2018-yilda nashr etildi. “Qisasi Rabg‘uziy” ning mazkur chopida Allohning “Ey anjir, nima uchun Odamga barg berding, degan xitobi, va unga anjir daraxtining javobi keltirilgan. Yana asarning eslatilgan tabdil nusxasidan o‘qiymiz”: “Bu

qilgan ishing uchun necha dardga da'vo qildim. Hamma mevadan xo'p bo'lg'il, lekin o'zingcha ish qilganing uchun seni shapatilab, keyin yesinlar.O'zga daraxtlarning mevasi gulli bo'lsin, sening mevang gulsiz bo'lsin" [12, 25]

Filologiya fanlari doktori E. Fozilovning yozishicha, "Qisasi Rabg'uziy" ning eng qadimiy qo'lyozma nusxasi XV asrda ko'chirilgan bo'lib, Britaniya muzeyida saqlanadi. Mazkur nusxaning faksimilesi K. Gronbek tomonidan 1948-yilda Kopengagenda chop etilgan.(Snoska. Q.R.1-J-B.7-8) matnshunos A. Yunusov va H.Dadaboyev asarning 1990-1991-yilgi chopi uchun shu nashrni asos qilib olganlar. Tadqiqotchilar uchun 30-35 yildan beri manba vazifasini bajarib kelayotgan ushbu asliyat nusxada yuqorida qayd qilingan tabdildagi ma'lumotlar uchramaydi. "Qisasi Rabg'uziy" matni tarixini har taraflama chuqur o'rganish, asarning qo'lyozma manbalari bilan tabdil nusxani qiyosiy tahlil etish, shundan keyingina "Qisasi Rabg'uziy" ning 2018-yilgi nashrida berilgan ma'lumotlarni poetik tahlil etish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz. Insonning hamisha, har lahzada, har bir harakatida har qanday holatida ham haqning nazaridan chetda qolmasligi "Qisasi Rabg'uziy" dagi 72 qissaning mag'zidan bosh qon tomiriday o'tadi. Tadqiqotimiz mohiyatida turgan mavzu bilan mustahkam aloqador bo'lganligi uchun "Qissai Yunus yalovoch alayhissalom" dan bir lavhani nazardan o'tkazamiz:"Mavlo taolo Yunusga qoboq- yig'ochini undurdi... Qoboq yig'oching'a singak oz qo'nar. Yunus taqi za'if bo'lmish erdi. Singak zahmat bermasun teb qoboq yig'ochin ko'kartti [11, 64] Yunus alayhissalom 40 kun baliqning qornida yotib, vujudlari zaiflashib qolgan edi. Quyoshning issig'iga bardosh bera olmas edilar. Shuning uchun ham Haq subhanahu va taolo u kishi uchun qovoq daraxtini undiradi. Boshqa ekinlarga nisbatan qovoq barglariga chivin va pashsha kamroq yaqinlashgan. Alloh taolo shundoq ham baliq qornida 40 kun yotib kuchsizlanib, kamquvvat bo'lib qolgan Payg'ambariga qon so'ruvchi mayda hasharotlar ozor yetkazmasin deb, qovoq daraxtini(ekinini)o'stirib, uning boshi ustiga soyabon qilib qo'yan. Bu izohni snoskada beramiz.

Yuqorida "Qissai Yunus yalovoch alayhissalom"dan keltirilgan iqtibos kitobning 2018-yilda chop etilgan tabdil variantida "Baliq ichida terilari zaiflashib, qizarib ketgan edi. Oftobning haroratiga chiday olmadilar. Alloh amri bilan bir qovoq o'sdi.Uning soyasida o'tirdilar. Allohning inoyati bilan bu kishiga chivin ham qo'nmas edi", tarzida hozirgi o'zbek tiliga moslashtirib ifodalangan. Hamda quyidagi hadis keltirilgan: "Rivoyat qilishlaricha, bir kuni Rasululloh sollalohu alayhi vasallam qovoqning soyasini ko'p ta'rif qilib o'tirgan edilar, sahobalar so'radilar: "Yo Rasululloh, qovoqning soyasini nega buncha yaxshi ko'rasiz?" "Chunki u aqlni ziyoda qilib, ko'zni ravshan etadi", deb javob berdilar Rasuli akram (SAV)" [12, 199]. Tabdilda asliyat ruhi yorqin aks etmaganidek, hadis-u sharif ifodasida ham uslubiy mavhumlik bor.

Xulosa. "Qissasi Rabg'uziy" muallifi dehqon ekib, parvarish qiladigan har bir ekinning ilohiy va tarixiy manbalarda zikr qilingan yaratilish tarixi, xususiyatlarining inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyatiga oid ma'lumotlarni imkon qadar e'tibordan soqit qoldirmagan. "Qissasi Rabg'uziy"dagi Payg'ambarlar hayoti, sarguzashtlari bilan bog'lab talqin qilingan dehqon va dehqonchilikka oid lavhalarini epizodlik tafsilotlar sifatida qarash va qabul qilish to'g'ri emas. Chunki har bir lavha zamirida dehqon va dehqonchilik tabiati, dehqon zahmati, fe'l-u atvori, sabr-u irodasi bilan bog'liq talqinlar yotadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли Фармони // www.lex.uz.

2. Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ безавол яшайди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ижодкорлар билан учрашувидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2019. – 9 февраль.

3. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Т.: Фан, 1990. – 172 б.

4. Хусайний, Атоуллоҳ. Бадойиъус-санойиъ. – Т.: Ф.Фафур номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.

5. Ислом энциклопедияси. – Т.: Шарқ, 2004. – 450 б.

6. Жирмунский В. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – М.: Наука, 1972. – 407 б.

7. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Т.: Камалак, 1991. – 302 б.

8. Навоий А. Сабъаи Сайёр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги матбаа бирлашмаси, 1991. – 542 б.
9. Қуръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. – 624 б.
10. Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – 236 б.
11. Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1991. – 273 б.
12. Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қиссаси Рабғузий. – Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – 264 б.

*Ismatova Mohigul To'yevna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: ismatovamoxigul@gmail.com*

CHO'LPON SHE'RIYATIDA QUYOSHNING RAMZIYLASHTIRILISHI

Annotatsiya. O'zbek adabiyotida qo'llangan ramziy obrazlardan biri quyoshdir. Quyosh ramziy obrazi mifologiya, folklor va yozma adabiyotda o'ziga xos badiiy talqin qilingan. Jadid she'riyatida mazkur obrazga yuklangan ma'no yanada kengayganligini ko'rishimiz mumkin. Cho'lpon o'zbek she'riyatida simvolist shoir sifatida alohida mavqega ega ijodkor. Uning she'rlarida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarning ramziylashtirilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mana shunday ramziy obrazlardan biri quyosh. Mazkur maqolada Cho'lpon she'riyatida "quyosh" ramzi orqali badiiy talqin qilingan ijtimoiy-siyosiy muammolarning ifodasi hamda shoir mahoratiga baho berilgan.

Kalit so'zlar: ramz, quyosh, oy, mifologiya, istiqloq, mustamlaka, Oktyabr, tong.

Аннотация. Одним из символических предметов, используемых в узбекской литературе, является – солнце. Символический образ "солнца" получил специфическое художественное толкование в мифологии, фольклоре и письменной литературе. В поэзии джадидов мы видим, что значение, приписываемое этому объекту, было еще более расширено. В узбекской поэзии Чулпан занимает особое положение как поэт-символист. Его поэзия символизирует социально-политические концепции, где одним из таких символических объектов представлено "солнце". В данной статье дается оценка выражения социально-политических проблем в поэзии Чульпана через символ "солнце" и рассмотрено художественное мастерство поэта.

Ключевые слова: символ, солнце, луна, мифология, независимость, колониализм, октябрь, утро.

Abstract. One of the symbolic objects used in Uzbek literature is the sun. The symbolic image of the sun has received a specific artistic interpretation in mythology, folklore, and written literature. In the poetry of the Jadids', we can understand that the meaning attributed to this object has been further expanded. Chulpan holds a special position as a symbolist poet in Uzbek poetry. His poetry symbolizes socio-political concepts. One of the most symbolic objects is the sun. This article evaluates the expression of socio-political issues in Chulpan's poetry through the symbol of "sun" and the poet's mastery.

Keywords: Symbol, sun, moon, mythology, independence, colonialism, october, morning.

Kirish. Osmon va samoviy jismlar dunyo adabiyotida eng ko'p ramziylashtirilgan obrazlar sanaladi. Turkiy xalqlarning koinot haqidagi tasavvurida osmon va osmon unsurlari muhim o'rin tutadi. Eng qadimgi mifologik qarashlardan tortib bugungi zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan davrlarni ko'zdan kechirsak, osmon va osmon jismlariga murojaat qilinmagan adabiyot ham, ijodkor ham topilmaydi.

Eng qadimiy qarashlarga ko'ra, osmon – Xudolar maskani. Osmon va samoviy jismlarga muqaddaslik baxsh etgan Xudolar samoviy jismlarda yashashiga ishonilgan. Samoviy jismlarning aylanishi, harakatlanuvchi bulutlar, bo'ronlar, chaqmoqlar, kamalaklar – bularning barchasi Xudoga atalgan jismlar deb qaralgan. Hatto osmon va unga tegishli unsurlarga kult darajasida qaralgan.

Osmon katta chodir bo'lib, uning ostida quyosh, oy va yulduzlardan iborat unsurlar mavjud. Turkiy xalqlar osmonni muqaddas deb bilishi va uni timsol qilish natijasida osmon bilan birga quyosh, oy, yulduz kabilar ham muqaddas sanalgan. Shuning uchun Xudoning makoni deb hisoblangan osmon bilan birga quyosh, oy va yulduzlar haqida ko'plab mifologik qarashlar va e'tiqodlar paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash kerakki, turkiylarning turli tarmoqlarida bu unsurlarning muqaddaslik darajasi har xil bo'lsa-da, odatda ular Xudoga yordam beruvchi mavjudotlar sifatida qaralgan.

Asosiy qism. Ma'lumki, insoniyatning ilk tasavvurlarida olam yaxshilik va yomonlik dunyosi sifatida tasavvur qilingan. Ular o'rtasidagi kurashda quyosh va oy zulmat bilan bog'liq bo'lgan yovuzlikka qarshi kurashda muhim himoyachi – homiy sifatida talqin qilingan. Bundan tashqari, turkiy xalqlarda har bir narsaning ruhi borligi haqidagi qarashlar ham bevosita samoviy unsurlar bilan bog'liq.

Masalan, joni chiqqan insonning ruhi osmonga yulduz bo‘lib porlashi haqidagi qarash ham koinot unsurlariga bo‘lgan e‘tiqod bilan bog‘liq. Shuning uchun osmonning muqaddasligi bilan birga osmon bilan bog‘liq deyarli barcha narsa, hodisa va vaziyatlar ham muqaddas hisoblanadi. Jumladan, *quyosh tutilishi, oy tutilishi, chaqmoq chaqishi* bilan bog‘liq ilk tasavvurlarda ularning ilohiylashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu munosabat bilan ayrim olimlar turklarning qadimgi dinini “Ko‘k turk” deb atashadi [8].

Turkiy xalqlar osmon va uning unsurlaridan kundalik hayotlarida osmonning muqaddasligi doirasida foydalanganlar. E‘tibor bersak, har kuni quyosh chiqishi va botishi, fasllarning ma‘lum vaqt oralig‘ida muntazam almashinishi orqali odamlar o‘zlarining kundalik hayotini belgilab olganlar. Hatto kelajaklarini ko‘rish uchun ham osmonga murojaat qilganlar.

Turkiy xalqlarida osmon – ko‘k ulug‘lilik ramzi sanalgan. Shuning uchun Xudoning osmonda ekanligini inobatga olinib, unga nisbatan “Ko‘k Tangri” ifodasi qo‘llangan. Ko‘k Tangri – Ulug‘ Tangri, demakdir. Osmonga nisbatan bu sifatlashning ishlatilishi uni ulug‘lash maqsadida bo‘lganligidan darak beradi. “Ko‘k Tangri” iborasidan kelib chiqib aytish mumkinki, osmonga yaratuvchi sifatida qaralgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Bundan tashqari, Xudoning qarorgohi hisoblangan osmon rangi ramziylashtirilgan. Osmon rangi turkiy xalqlarning moddiy va ma‘naviy olamida eng go‘zal va eng qadri rang hisoblangan. Turklar uchun olov muqaddasdir, olov manbai esa osmon (Köktürk)dir. Osmon nima bersa, uni yer qabul qilib, insonlarga rizq qilib berdi, deb qaralgan.

Turkiylarda koinot va osmon jismlari bilan bog‘liq ramziy tushunchalar islomdan keyingi davrda ham saqlanib qolgan. Ayniqsa, tasavuf ta‘limotiga ko‘ra, Quyosh – Alloh timsoli sifatida talqin qilingan. Bundan tashqari, islom dini asoschisi Muhammad (s.a.v)ning nurlari ham quyosh va osmondan tushadi, deb qaralgan. Umuman olganda, turkiylar osmon va uning unsurlaridan kundalik hayotlarida osmonning muqaddasligi doirasida foydalanadilar.

Osmo va osmon jismlari badiiy adabiyotda turli g‘oyaviy niyat uchun xizmat qilgan. Navoiyshunos olim H. Eshonqulovning “*Samovat – ishq mahzari*” nomli tadqiqotida ulug‘ shoir Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlarida qo‘llangan osmon jismlarining ramziy ma‘nolari o‘rganilgan. Olim “*Islomiy – ma‘rifiy adabiyot namoyandalari – mumtoz adiblarimiz asarlarida keltirilgan samoviy jismlar nomlarining timsol va ramzlik xususiyatlarini chuqur anglash ijodkorning badiiy mahorati hamda she‘rda ilgari surgan g‘oyasini teran tadqiq etish uchun nihoyatda muhimdir. Samoviy jismlar Alisher Navoiy she‘riyatida ko‘pincha yor va oshiq tushunchalari, sifatleri tarzida qo‘llanadi. Bo‘lar shoir nazmidagi faol badiiy obrazlar sanaladi*”, – deb ta‘kidlaydi [5,11].

O‘zbek mumtoz adabiyotida osmon jismlari o‘z ma‘nosidan tashqari, ramziy ma‘nolarda “ko‘p va xo‘p” qo‘llangan. Jumladan, quyosh – Alloh, ma‘shuqa; oy – ma‘shuqa, yulduz – go‘zallik ramzi sifatida qo‘llangan. Biroq osmon jismlari orqali ifodalangan ramziy ma‘nolar o‘zgarimas va turg‘un emas. Aytmoqchimizki, ramzlar orqali ifodalangan ma‘no vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishga uchrashi, tabiiy hol. Buning asosiy sababi inson tafakkurining o‘sishi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolar bilan bog‘liq. Shu bois ham osmon jismlari va ularga yuklangan ramziy ma‘nolar o‘zgarib borgan. Jumladan, jadid she‘riyatida ham quyosh, oy, yulduz kabi ramziy obrazlar faol qo‘llanilgan va har biriga o‘ziga xos ma‘no yuklangan.

Muhokama va natijalar. Turkiy xalqlar madaniyatida samoviy elementlar haqida gap ketganda, quyosh eng keng tarqalgan ramziy obrazdir. Quyosh – turkiy xalqlar adabiyotida yorug‘lik va ezgulik ramzi sifatida qo‘llangan. Yorug‘likning qorong‘ulik ustidan g‘alabasi quyosh ramzi bilan ifodalangan. Quyosh Xudoning nurini yerga, ya‘ni odamlarga olib kelgani uchun odamlar uchun uni muqaddas, himoyachi va qutqaruvchi sanaganlar. “*Quyosh – barcha xalqlarga ma‘lum bo‘lgan eng qadimgi kosmik ramz; hayot manbai, yorug‘likni bildiradi. Quyosh ramzlari bilan ustuvorlik, hayot yaratish, faollik, qahramonlik negizi, hamma narsani bilish kabi xususiyatlar bog‘lanadi*” [1, 32]. Quyosh jadid she‘riyatida ham ramziy-timsoliy obraz sifatida o‘ziga xos ma‘no tashigan. Mazkur obraz jadid shoirlaridan Cho‘lpon she‘riyatida ko‘p uchraydi.

Ta‘kidlash kerakki, shoir va yozuvchilar o‘zlari yashagan davrni o‘z asarlarida qayta yaratadilar. Buning uchun o‘zlari yashagan jamiyatni, ijtimoiy-siyosiy muhit, diniy hayot, tarixiy voqealar, davr

odamlari, makon va joylarini o'z kuzatishlari va badiiy tafakkurlari orqali ramzlar olamida badiiy talqin etadilar.

Cho'lpon ijodida quyosh ramziy obraz sifatida davrning og'riqli nuqtalarini, shoir qalbini o'rtagan millat, xalq taqdiri bilan bog'liq siyosiy muammolar talqini uchun bo'ysundirilgan. Cho'lpon mumtoz adabiyotning o'lmas an'alaridan, ohang va obrazlaridan mohirona foydalandi. Mumtoz she'riyatdagi yetakchi bo'lgan ishq mavzusining Cho'lpon lirikasida ma'no qirralari kengaydi. Buni shoirning mashhur "Qalandar ishq" she'rida ham ko'rishimiz mumkin. G'azal ma'tasida quyosh ramzi ijtimoiy muammolarning badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan.

Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,

Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku [2,17].

Mumtoz she'riyat ohanglari yaqqol sezilib turgan mazkur baytda bir qarashda intim tug'ular yetakchilik qilganday tuyuladi. Cho'lponing bu g'azaliga, ayniqsa, g'azal maqtasiga yirik adabiyotshunoslar munosabat bildirganlar va uni turli xil talqin qilganlar. Jumladan, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov yozadi: "*Bu baytda oshiq sevgan yorini quyoshga, o'zini esa yulduzga qiyos qilyapti, ammo oshiq yor vasliga erisha olmaydi, chunki quyosh chiqqanda yulduz bekinmog'i kerak.*" Olimning bu talqinida quyosh va yulduz ramziy obrazlari bilan bog'liq an'anaviy qarashlarga tayanilgan. Xuddi shu baytga munosabat adabiyotshunos olim D.Quronov tadqiqotlarida ham kuzatiladi. Olimning e'tiroficha "*... maqta'dagi shoir taxallusining asl ma'nosi ramziy ma'noga ishora qiladi, muhabbat osmonidagi yulduz quyosh chiqishi bilan so'nishga majbur bo'ldiki, bu bilan Oktyabr inqilobining mustaqillik uchun kurash payini qirqqaniga ishora qilinayotir*" [3, 36]. Ko'rinib turibdiki, bir bayt doirasida bildirigan fikrlar zohiriy va botiniy ma'nolarga ega.

Cho'lpon baytda quyosh va yulduz kabi osmon jismlarni ramziylashtirgan. Cho'lpon – tong yulduzi. Cho'lpon (Venera) – yorqinligi bo'yicha osmondagi uchinchi jism. Shoir baytda Cho'lpon so'zni ham yulduz nomi (kosmonim), ham taxallus ma'nosida qo'llagan. Quyoshning "bosh ko'tarishi" osmondagi yulduzning ko'rinmasligiga sabab bo'ladi. Baytda shoir mazkur tabiiy holatni tasvirga olib, o'zining ijtimoiy g'oyalarini badiiy talqin qilgan.

Turkiy xalqlar adabiyotida Quyosh hamisha ijobiy ma'nolarda qo'llangan ramziy obraz sanaladi. Biroq shoir maqta'da quyoshni erk va ozodlik ramzi bo'lgan Cho'lpon yulduzini "erga botishi"ga sababchi bo'lganligini ta'kidlaydi. Demak, baytda quyosh ramziga salbiylik bo'yog'ida berilgan. Quyosh – o'zbek xalqiga erkinlik berishni va'da qilgan Oktyabr inqilobining ramzi edi. Bu "quyosh" millatning boshiga "zulm"larini sochdi, xalqni erkidan, huquqidan mahrum qildi. Mustabidlik zanjirini millatning bo'yniga osdi.

Jadid adabiyotning yirik tadqiqotchisi Begali Qosimovning baytga doir mulohazalarida ham mazkur ramzlar ijtimoiylik nuqtayi nazaridan baholanganligini ko'rishimiz mumkin. "*Shubha yo'qki, "Cho'lpon" va "Quyosh"ning ma'nolari bu yerda juda keng. U osmon yoritqichlari va ishq-muhabbatdagi martabadan hokim va mahkum, hukmron va tobe singari ijtimoiy-siyosiy rutbalargacha daxddor*" [6, 446]. Cho'lpon birgina baytda osmon, quyosh, yulduz kabi tabiat unsurlarni ramziylashtirishga erishgan. Ko'rinib turibdiki, "Cho'lpon" va "Quyosh" ramzlari – osmon yoritqichlari – ishq-muhabbat – ijtimoiy-siyosiy muammolarni talqini uchun xizmat qilgan.

Adabiyotda quyosh obrazi ramziylashtirilgan ekan, uning *harakati, holatlari, ya'ni "chiqishi", "botishi", "qizarishi" "tutilishi"* kabilarga ham alohida e'tibor berilgan. Buni shoirning "Tortishuv tongi" she'rida ham ko'rishimiz mumkin.

Yenggan qo'shin boshlig'idek gerdayib

Botgan quyosh bulutlarning ostidan

Bosh ko'tarib chiqmoq uchun tirisha.

Shuning uchun beri yoqda irjayib

Kulishurlar.

Unga qarshi, qarshidan

Yig'lov, siqtov, tovush, g'avg'o, xarxasha [2,17].

Shoir she'rning dastlabki bandida osmondagi quyoshning botishi va uning bulutlar ostidagi "kurashi"ni ramzlashtirgan. Botgan quyoshning bulutlar ostidan "gerdayib" bosh ko'tarib chiqishiga intilishini *kurash va umid* ramzi sifatida anglash mumkin. Shoir quyosh ramzi orqali erk va ozodlikka

intilgan millat qiyofasini badiiy talqin qilgan. *“Botgan quyosh bulutlarning ostidan, Bosh ko‘tarib chiqmoq uchun tirishi”* shi Turkiston xalqlarning ozodlik yo‘lidagi harakatlariga ishora qiladi. Bu harakatlarga esa “irjayib” kulayotganlar ham bor. Irjaymoq – kulishning bir ko‘rinishi. Shoir o‘zi ramzlashtirmoqchi bo‘lgan g‘oyaning badiiy ifodasi uchun tanlagan har bir so‘z g‘oya uchun bo‘ysundirilgan. “Irjaymoq” salbiy konnotativ ma‘noga ega so‘z. Shoir birgani shu so‘z orqali millat taqdirining tragik holatini ko‘rsatib berishga erishgan. “Irjayib kulish”da tahrirlash, xo‘rlash, istehzo bor. Bandning oxirgi ikki misrasida “irjayib kulish”ga *“Yig‘lov, siqtov, tovush, g‘avg‘o, xarxasha”* qarshilantirilgan. Bu “oddiy yig‘i” emas, balki butun millatga tegishli “yig‘i”dir.

She‘rning keyingi bandida shoir tasvirni “ko‘pdan beri zindonda quyosh ko‘rmay zaxlab qolgan ko‘ngillar”ga ko‘chiradi. “Chiqar kunlar yetdi sizga” deya istiqloq tongiga bashorat qiladi.

Qayg‘uringiz:

Kishanlarni yasovchi

ustalar.

Boshqalarni tubanlar deb atovchi

xo‘jalar,

Sizning uchun yoz boshining qoridek

Eruv kunlar keladir,

Sizning uchun alvastining zoridek

yig‘lar kunlar keladir...

Diqqat qilsak, shoir ramzlarni qatorlashtirib keltiradi. *“Kishanlarni yasovchi “ustalar”, Boshqalarni “tubanlar” deb atovchi xo‘jalar”* – mustamlakachilar, “yangi tuzum”ning “yalovbardorlari”. Shoir ular uchun *“yoz boshining qoridek eruv kunlar kelishi”, “olbostining zoridek yig‘lar kunlar yetishi”* dan xabar beradi. Bu esa shoir qalbidagi, millatning orzusidagi istiqloqlan bo‘lgan umidga ishoradir.

Chiqadigan quyoshni siz behuda

Etak bilan to‘smoq uchun tirishmang,

Axmoq bo‘lib Azroilning oldida

Jon talashing, to o‘lguncha berishmang.

She‘rning yakunida shoir yana quyosh ramziga murojaat qiladi. “Chiqadigan quyosh” – istiqloq quyoshi, mustaqillik quyoshi. Shoir o‘zining obrazli fikrini tasdiqlash uchun *“Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi”* degan xalq maqolini o‘zgartirib keltiradi. Maqol tarkibidagi “oy” ni “quyosh” bilan o‘zgartirishida ham ma‘lum ma‘noda bo‘yoqdorlik bor. Aslida, oy quyoshdan nur oladi. Bundan tashqari, qadimdan quyoshga yorug‘lik va ezgulik ramzi sifatida qaralgan. Shoir shuning uchun bo‘lsa kerak, shoir maqol qo‘llangan so‘zni o‘zgartirgan.

Cho‘lpon quyoshni ramziylashtirar ekan, u bilan bog‘liq mifologiy qarashlardan ham o‘rinli foydalanadi. Quyosh va oyni tutilishi tabiiy hodisa. Biroq turkiy xalqlarda bu tabiiy hodisaga doir turli mifologik qarashlar paydo bo‘lgan.

Mifologik qarashlarda bu tabiiy hodisaga salbiy bo‘yoq berilgan. Quyosh yoki oyni tutilishi omadsizlik, o‘lim, ofatdan darak beradi, – deb qaralgan. Aytishlaricha, qadimgilar yozuv kuchlar quyosh va oyni o‘g‘irlab ketishgan, deb ishonganlar. Yozuv kuchlar zulmatni yaxshi ko‘rgan. Oy va quyosh nurli. Yovuz kuchlar esa zulmatni yaxshi ko‘rganliklari bois, yorug‘lik va tovushdan qochishgan. Shuning uchun ham ko‘p joylarda, Oy va Quyosh tutilishida odamlar shovqin ko‘tarib, yovuz kuchlarni qo‘rqitishga harakat qilishgan.

Shamanistlarning e‘tiqodiga ko‘ra, quyosh va oy tutilganda, shamanlar ularni yovuz ruhlardan qutqarish uchun baqirgan va nog‘ora chalishgan. Ular bu shovqinlar yovuz ruhlarni qo‘rqitishiga ishonishgan. Ko‘rinib turibdiki, odamlar oy va quyosh tutilishini omadsizlik deb hisoblaydilar va bunday tabiiy hodisalarning sodir bo‘lishidan qo‘rqishadi. Jadid she‘riyati *“quyoshning tutilishi”* hodisasi ham ramziylashtirilgan. Cho‘lponing “Oktyabr” (7 noyabr) nomli she‘ri fikrimizni tasdiqlaydi.

Ey, bukun, ey bu kun

Dunyolar sarsildi!

Fikrlar, xayollar,

Ro‘yolar sarsildi!

Ey, bukun, olovlar
Dunyoni yondirdi,
Insonlar och yerni
Qonlarga qondirdi!

Ey, bukun, ko'klarda
Quyoshlar tutildi.
Ey, bukun, shamollar,
Bo'ronlar qutirdi!... [2, 108]

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkistonni zabt etishi, mintaqadagi xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon, faqatgina ma'muriy nazorat bilan cheklanib qolmadi, balki mahalliy aholining huquqlari va erkinliklarini cheklash, ularni mustabidlik zanjiriga solishga sabab bo'ldi. Mustabidlikka qarshi kurash, Turkiston xalqlari orasida milliy harakatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Xalqlar adolat va huquqlarini talab qilish uchun kurashga chiqdi. Bu kurashda esa shoir-u yozuvchilar ham peshqadam bo'ldilar. Ular orasida Cho'lpon ham bor edi. Shoirning yuqorida parcha keltirilgan "Oktyabr" she'rining har bir bandida "shonli oktyabr"ning oqibatlari tadrijiy, tragik kayfiyatda ramziylashtirilgan. She'rning "Ey, bugun, ey bukun" tarzidagi murojaat bilan boshlanishida "o'sha kunga" nafrat hissi yaqqol sezilib turadi. Chunki bu shunday kunki, dunyolar, fikrlar, ro'yolar sarsilgan. Sasilgan – sarson bo'lgan. Sarson bo'lgan xalqning ahvoli hammaga ayon. Bu xalq, shoir aytganidek, "olovlar ichida".

Cho'lpon "Qalandar ishq" g'azalida Oktyabr inqilobini "muhabbat osmoni" – yurt ozodligi uchun kurash yo'lini yoritib turgan yulduzni yerga botirgan "quyosh" ramzi bilan bergan bo'lsa [4], mazkur she'rda "olov" Oktyabr inqilobining ramzi sifatida berilgan. Bu inqilob va'da qilingan ozodlikni emas, balki mustamlaka tamg'asini xalqqa tuhfa qildi. Shu bois, Cho'lpon "Oktyabr inqilobi" tushunchasini salbiy bo'yoqlarda, ramzlar orqali badiiy talqin qiladi.

Cho'lpon mumtoz adabiyot va uning namoyandalari ijodidan samarali oziqlanganni holda, mifologik qarashlar, xalq ijodidan ham unumli foydalandi. Tahlilga tortganimiz she'rning uchinchi bandida shoir "*tutilgan quyoshlar*" birikmasini keltiradi. "*Tutilgan quyosh*" – istiqloq ramzi. Shoir "tutilgan quyosh"ga paralel ravishda "qutirgan shamollar, bo'ronlar" tasvirini keltiriladi. Shamol va bo'ronlar mustamlakachilar va ularning zulmiga ishora. "Tutilgan quyosh" ramzi yuqorida ta'kilanganidek, xalqda shakllangan oy va quyoshning tutilishi bilan bog'liq xalqona qarashlar asosida shallantirilgan.

Cho'lponning "Oktyabr" she'ri uch qismdan iborat. Albatta, shoir bu bilan o'ziga xos maqsadni ko'zlagani ayon. She'rning birinchi qismi olti bandan iborat bo'lib, quyidagi misralar bilan yakunlanadi.

Ey, bukun, do'l kelib
Olamni yiqqan kun!
Ey, bukun, kurrimiz,
Mehvardan chiqqan kun!..

Shoir Oktyabr inqilobi ro'y bergan kunni "do'l kelib olamni yiqqan" kun tarzida tasvirilaydi. Bu "do'l" Yer kurrasini mehvaridan chiqargan. Mehvaridan chiqqan sayorada esa hayot bo'lmaydi. "Do'l" – Oktyabr inqilobning kelishi va uning jamiyatga olib kelgan salbiy o'zgarishlariga ishora. Uning qarshisida millat ojiz. Shoir bu "ojiz"likni "yiqish" so'zi orqali ifodalaydi. "Yiqish" zo'ravonlik, qurbonlik, zulm va haqsizlik demakdir.

She'rning ikkinchi qismida, lirik qahramoning kayfiyatida sokinlik, umidvorlik hislari seziladi. U do'stiga murojaat qilib,

Hech narsa bo'lmadi!
Na to'fon, na vulqon.
Yolg'iz, haq yo'llarda
Oqdi qon, oqdi qon...

deya, xalqning bukilmas irodasiga, erk, ozodlik yo‘lidagi harakatlariga ishora qiladi. Oktyabr inqilobini “qish” bilan qiyoslash orqali uning “qorong‘u” kelajagidan darak beradi. “Oktyabr onida Kuz ketgan. Qish yovuq” ...

Shoir she‘rning ikkinchi qismining yakunida yana “do‘l” bilan bog‘liq tasvirlarni keltiradi.

Shugina:
Do‘l kelib
Olamni yiqmadi,
Va yerning kurrasi
Mehvardan chiqmadi.

Shoir bu tasvirlar bilan xalqning erk va ozodlik haqidagi orzu-umidlarining so‘nmaganligini ta‘kidlaydi. Buni she‘rning ikki banddan iborat uchinchi qismidagi “*Do‘llarning olamni yiqishi – Hechdir! Kurraning mehvardan chiqishi – Hechdir!*” kabi iqrorida yanada yorqinroq ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa. Umuman, Cho‘lpon she‘riyatida “quyosh” – istiqlol, erk va ozodlik timsoli sifatida badiiy talqin qilingan. Shoir “quyosh” ramziylashtirar ekan, u bilan bog‘liq xalqda shakllangan mifologik qarashlarga, folklor, mumtoz adabiyot an‘analaridan unumli foydalanadi. She‘rning emotsional ta‘siri juda kuchli. Cho‘lponning ijodida realizm va simbolizmning mukammal birlashuvi shoir she‘rlarining asl mohiyatini tashkil etadi. U realistik tasvirlar orqali hayotning murakkabliklarini ko‘rsatsa, simbolik obrazlar bilan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarga munosabat bildiradi. Cho‘lpon she‘riyatidagi har bir poetik ramz shoirning lirik kechinmalari va orzu-armonlari bilan birga, aniq ijtimoiy-tarixiy voqelikni ham tasvirlaydi. Cho‘lpon she‘riyatida *istiqlol, erk, hurlik* kabi ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni aks ettiruvchi ko‘plab ramzlar ishlatilgan. Bu ramzlar shoirning o‘z davridagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni, xalqning azob-uqubatlarini va ozodlikka bo‘lgan intilishlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Mingboyeva D. Timsolar tilsimi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 204 b.
2. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. –T.: Adabiyot va san‘at, 1991. – 124 b.
3. Quronov D. Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 80 b.
4. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. . –T.: Sharq, 2004. – 360 b.
5. Eshonqulov H. Samovot – ishq mahzari. Istiqlol davri navoiyshunosligi. XXX jildlik. XXIII jild –T.: Tamaddun, 2021. –1033 b.
6. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik. – T.: Ma‘naviyat, 2007. – 368 b.
7. <https://acikerisim.sakarya.edu.tr/bitstream/handle>

*To'rayeva Mohinur Qo'zi qizi,
BuxDU tayanch doktoranti
(O'zbekiston)*

Email: turayevamohinur67@gmail.com

*Aminova Sevinch Aziz qizi,
BuxDU 2-bosqich talabasi
(O'zbekiston)*

Email: aminovasevinchbonu@gmail.com

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA TARIXGA MUNOSABAT VA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI

Annotatsiya. Zamonaviy o'zbek she'riyatida tarixga munosabat va tarixiy shaxslar talqini o'ziga xos yo'nalishni tashkil etadi. Bunday she'rlar yosh avlodni uzoq va yaqin tariximizni bilishga, undan saboq chiqarishga va ibrat olishga o'rgatadi. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ijodida tarixiy mavzudagi she'rlar muhim o'rin tutadi. Ular orasida tarixiy shaxslar namuna qilib ko'rsatilgan va xotira mazmunidagi she'rlar, afg'on urushi fojialari aks etgan "Nom" liro-publitsistik asari alohida ajralib turadi. Maqolada shoirning shu mazmundagi she'rlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy shaxs obrazi, tarixga munosabat, g'azal, qasida, ruboiy, marsiya, she'r, liro-publitsistik uslub, xotira mazmuni.

Аннотация. В современной узбекской поэзии отношение к истории и интерпретация исторических личностей составляют уникальное направление. Такие стихи учат молодое поколение знать нашу древнюю и новую историю, извлекать из нее уроки и черпать вдохновение. Стихи на исторические темы занимают важное место в творчестве народного поэта Узбекистана Сирожиддина Саййида. Среди них выделяется лирико-публицистическое произведение «Имя», включающее стихотворения с запоминающимся содержанием и размышлениями о трагедиях афганской войны, в которых в качестве примеров используются исторические личности. В данной статье проанализированы стихотворения поэта на эту тему.

Ключевые слова: образ исторической личности, исторический контекст, газель, ода, рубаи, поэма, лирико-публицистический стиль, содержание памяти.

Abstract. In modern Uzbek poetry, the attitude to history and the interpretation of historical figures form a unique direction. Such poems teach the younger generation to know our distant and recent history, to learn from it and to take inspiration. Historical poems play an important role in the work on the people's poet of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid. Among them, the lyrical-publicistic work "Name", which presents historical figures as examples and reflects the tragedy of the afghan war, stands out. The article analyzes the poet's poems of this content.

Keywords: the image of a historical person, a story of history, ghazal, ode, rubai, dirge, poem, literary-publicistic style, memory content.

Kirish. Sirojiddin Sayyid ijodi zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin sahifasini tashkil etadi. Uning mavzu va janr jihatdan rang-barang, mazmunga boy, pishiq she'rlari bunga dalil bo'lad oladi. Ayniqsa, S.Sayyidning tarixiy shaxslarga bag'ishlangan va tarixga munosabat aks etgan asarlar alohida badiiy tizimni tashkil etadi. Jumladan, "Ulug' bobong Navoiy", "To Navoiy bor", "Shoh Bobur", "Mir Alisher", "Navoiy", "Yassaviy devoni", "Oybek" kabi she'rlar, afg'on urushi fojialari tasvirlangan "Nom" liro-publitsistik asari fikrimizni tasdiqlaydi. Shoirning tarixiy shaxslar obrazlari badiiy gavdalantirgan, o'ziga xos chizgilar berilgan she'rlari uzoq va yaqin tariximizda munosib nom qoldirgan mashhur siymolar haqida bahs yuritadi. Bunday she'rlar Vatanimizning shonli o'tmishiga muhabbat va faxr tuyg'ulari bilan sug'orilgan.

Ma'lumki, o'tgan asrning 80-yillarida maqsadsiz afg'on urushi juda ko'plab o'zbek yigitlarining hayotiga zomin bo'ldi. Bu mavzu o'zbek adabiyotining deyarli barcha janrlarida o'z ifodasini topdi. O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanidagi Rustam hayoti ana shu voqeliklardan so'zlaydi. O.Hojiyevaning "Najot" dostonining bir qismi shu fojialar tasviriga bag'ishlangan. A.Oripov, M.Yusuf,

H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva she'rlarida "afg'on qirlarida lolalarga aylangan" zabardast o'zbek yigitlarining lirik timsoli yaratilgan. S.Sayyidning liro-publitsistik ruh bilan sug'orilgan "Nom" asari ham shu mavzu talqiniga bag'ishlanganligi bilan e'tiborni tortadi. Asar nasr va nazm uyg'unligida yaratilgan. Unda afg'on jangi qurboni, rassom Sirojiddin To'raxo'jayev xotirlanadi.

Shular asosida shoirning tarixiy mavzudagi asarlarini mazmunan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Tarixiy shaxslar ibrat qilib ko'rsatilgan she'rlar.

2. Xotira mazmunida bitilgan asarlar.

Asosiy qism. "Mir Alisher" she'ri g'azal kabi a-a, b-a, d-a, g-a shaklida qofiyalangan. Shoir ulug' Navoiyga bo'lgan muhabbatini o'tli satrlarda ifoda etadi:

Tiriklikning bongi Navoiy,
Buyuklikning rangi Navoiy.
Bir yorishdi zim-ziyo olam,
Turkiylarning tongi Navoiy,
Besh asrlik ro'yodir dunyo,
Besh asrlik o'ngi Navoiy [1, 121].

E'tibor berilsa, she'rning har bir misrasida Navoiyning buyukligi ochib berilgan. Navoiyga nisbatan ishlatilgan sifatlashlar nihoyatda ohorli. Binobarin, Navoiy tiriklikning, hayotning ovozidir. Navoiyning dunyoga kelganligi zim-ziyo olamning yorishganligidir. Agar tabiat, hayot tunu kunduzdan, tongu shomlardan iborat bo'lsa, Navoiy o'zbekning tongidir. Zero, tong yorug'lik ramzi, yangi hayotning boshlanishini ifoda etadi. Agar dunyo besh asrlik ro'yodan – yolg'ondan iborat bo'lsa, uni rostga, o'ngga aylantirgan kishi ham Navoiydir.

Shoirning Navoiyga qasidasi bu bilan intiho topmaydi. S.Sayyid uni ummonga, bepoyon Vatanga qiyos etadi.

"Shoh Bobur" she'ri g'azal ohanglarida bitilgan. Unda Boburning iztirobli lahzalari aks etgan:

Buncha ham oh tortdingiz, oh Bobur,
Muttahamlar dunyosida shoh Bobur...
Kecha uzun, manzil olis, yo'l uzoq.
Sizga faqat yolg'iz oy hamroh, Bobur
Nonko'r beklar, beoqibat mirzolar,
Kimlar sizga qazmadilar, choh Bobur [1, 15]

Ma'lumki, Bobur hayoti murakkab davrda, jang-u jadallarda kechgan.

Da'stlabki baytning birinchi misrasida "oh" so'zi ikki marta qo'llanilgan. Birinchisida – "oh tortdingiz" qo'shma fe'l tarkibida Boburning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchisida "oh" undov so'z sifatida kelgan va o'sha ruhiy holatning kuchliroq aks ettirilishini ta'min etgan. Keyingi baytda uzun kecha, olis yo'lda o'ying hamrohlik qilishi Boburning shoirligini ifoda etadi. Boburga sadoqat va xiyonat oralig'ida umr kechirgan. S.Sayyid uchinchi baytda ana voqelikka ishora qilib, nonko'r beklar, beoqibat mirzolarning Boburga bir umr choh qazganligini tasvirlaydi. She'rni o'qish davomida S.Sayyidning shoh va shoir Bobur ruhiyatidagi o'zgarishlarni teran ifoda etganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shu tarzda "shoirligi shohligidan ulug', shohligi ham she'riday ogoh" Zahiriddin Boburning lirik siymosini badiiy gavdalaniradi.

"Oybek" she'ri ham aynan shu uslubda yaratilgan. "Shoh Bobur" she'ridagi kabi ["Bobur" so'zi radif bo'lib kelgan] Oybek o'zi ham misralar osha radif vazifasini bajargan. Binobarin, radifning badiiy vazifasidan kelib chiqilsa, ushbu so'zga shoirning qanday mazmun yuklaganligi oydinlashadi.

O'zicha tushmagan osmondan Oybek,
Yaralmish mehr ila armondan Oybek [1, 17]

G'azal vazni va shaklida bitilgan bu satrlar matla'dir. Ushbu she'r aruzning hazaj bahrida yozilgan.

Agarchi davr uni tildan ayurdi,
Vale ayrilmadi iymondan Oybek [1, 17].

Ma'lumki, Oybek o'tgan asrning 50-yillarida qator qarama-qarshiliklarga duch kelgan. Natijada u xastalangan. Shoir aytganiday, davr uni tildan ayirgan. Lekin Oybek o'z e'tiqodida mustahkam turgan.

Hasad g'avg'osiyu minnat jafosi
Ne ko'rди ul buzug' davrondin Oybek [1, 17].

Oybek yashagan davr deyarli sobiq tuzumga to'g'ri keladi. Barcha davrlarda ham yorqin iste'dodlarga hasad ko'zi bilan qaralgan. Ko'klarga ko'tarilgan davrda Oybekka o'xshagan yuksak iqtidor sohiblarining hayoti bir teki, illiq kechmagan. Shu bois shoir "buzug' davron" Oybek boshiga ko'p ko'rguliklar solganligini qalamga oladi. She'r mahzun ruh bilan sug'orilgan. Shu bois u o'z o'quvchisi ko'z o'ngida iymoni, e'tiqodi butun, haqiqiy adib Oybekning shoir dunyosi chizgilari yanglig' taassurotlar uyg'otadi.

Yuqorida fikr yuritganimiz she'rlardan ma'lum bo'ladiki, shoir Navoiy, Bobur, Oybek singari yorqin siymolarning lirik obrazlarini yaratgan ekan, kitobxonga ularni har jihatdan hayotiy ibrat namunasi qilib ko'rsatadi.

Shoirning "Pahlavon Mahmud" she'ri adabiyotimiz sahifalarini bezab turgan Pahlavon Mahmud haqidadir.

Sening hasratlaring uzun,
 She'rlaring qisqa.
 Ne-ne gado ko'rding,
 He sulton ko'rding.
 Nuh ming yil yashadi –
 Ko'rdi bir to'fon.
 Sen
 Nuh bo'lmasang ham,
 ming to'fon ko'rding.
 Birovdan taxt qoldi,
 Birovdan – daraxt.
 Sendan meros qolmish baytlar –
 tug'yoning.
 ...Gar ko'ylak tiksalar armonlaringdan.
 Egni but bo'lardi yupun dunyoning [2, 55].

Ma'lumki, Pahlavon Mahmud adabiyotda ruboiy janrini rivojlantirgan. Shoir shunga ishora qilib, "sening hasratlaring uzun, she'rlaring qisqa" deydi. Ya'ni qisqa she'r – ruboiydir. U ana shu qisqa satrlarda hayot haqidagi qarashlarini falsafiy yo'sinda ifoda etgan. Shoir bunda Nuh to'foniga ishora etadi. Binobarin, Pahlavon Mahmud tabiiy to'fonga duch kelmagan esa-da, hayotning to'fonlariga uchradi. Demak, Nuh to'fonining she'rda talmeh qilib keltirilishi shoir qismatiga ishoradir. Qolaversa, uning nomini tarix, adabiyot sahifalariga muhrlagan narsa – tug'yonlarga to'la baytlaridir.

Rustam Musurmon o'rinli ta'kidlaganiday: "Shoirning "She'riyat", "Uzilgan torlar", "Botir Zokirovning Ra'nosi", "Marsiya" kabi she'rlarda Asqad Muxtor, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf singari marhum shoirlarimiz, Botir Zokirov, Oxunjon Madaliyev, Muhridin Xoliqov singari an'atkorlarimizning yorqin xotiralari eslanadi. Inson umrining omonatligi, odamni tirikligida qadrlash zarurligi uqtiriladi" [4]. Mazkur she'rlar chuqur dard, hazinlik, mung bilan sug'orilgan. Jumladan, "Marsiya" she'ri Muhammad Yusuf vafotiga bag'ishlangan. Unda ulkan mung yashirin. Chunki sevimli shoirning bevaqt o'limi ko'p qalblarni larzaga soldi. O'sha ayriliq daqiqalarida armonli satrlar qog'ozga tizildi. Sirojiddin Sayyid bitiklari ham ana shunday g'amangiz lahzalar mahsuli sifatida dunyoga keldi:

Bunchalar qalin
 Dunyoning po'sti.
 Bug'doyday xoksor
 Bir shoir o'sdi.
 Nogoh bir xabar
 Tongimni to'sdi.
 Titradi olam.
 Yig'ladi onam:
 Bolamning do'sti...
 Bolamning do'sti...

Muhammad Yusufda olloh yuqtirgan she'riy iste'dod bor edi. Ayni zamonda o'ta kamtar, samimiy inson sifatida ham xalqining, elining yuksak hurmatiga sazovor bo'lgan. Shu bois Sirojiddin

Sayyid uning kamtarinligini “bug‘doyday xoksor” birikmasi orqali ifoda etadi. Shoirning o‘limi haqidagi xabardan olam titradi, onam “bolamning do‘sti” deya yig‘ladi, deydi. Demak, M.Yusuf shoir sifatida katta-yu kichikka barobar, dildosh edi.

Kuylari qoldi
Tog‘u toshida
O‘ylari qoldi
Oy, quyoshida,
Buloq boshida,
Xirmon boshida,
O‘zbekning qora
Ko‘zu qoshida.
Bir shoir ketdi,
Bir shoir o‘tdi.
Bobur yoshida...
Bobur yoshida [1,107]

Ma’lumki, uning dilga yaqin ko‘plab she’rlari qo‘shiqqa solingan, mashhur hofizlar tiliga tushgan edi. Shoir shunga ishora qilib, M.Yusufdan kuylar qolganligini aytadi. Zahiriddin Bobur 47 yoshida olamdan o‘tgan. M.Yusuf xuddi shu yoshda dunyoni tark etdi. Demak, shoir M.Yusufning Bobur kabi ayni ijodining gullagan chog‘ida yorug‘ olamdan ketganligini ifoda etadi.

Ey bulbullarga
Kuy-g‘azal, Vatan.
Sen – abad Vatan,
Sen – azal Vatan.
Kim sendan yuldi,
Kim – o‘sal, Vatan.
Gul, asal Vatan.
Sen yuksal Vatan,
Sen yuksal Vatan.
O‘yladi bolang,
Kuyladi bolang,
Ey, go‘zal Vatan!
Ey, go‘zal Vatan! [1, 108]

Bunda bulbullar ikki ma’noda qo‘llanmoqda: 1. Haqiqiy bulbul 2. Shoirlar. M.Yusuf yonib kuylab o‘tgan mavzulardan biri bu Vatandır. U umr bo‘yi Vatan istiqbolini, ertangi kunini o‘ylab yashadi va uni ulug‘lovchi o‘tli satrlar bitdi. Shoir “o‘yladi bolang, kuyladi bolang” deganda aynan shu jihatlarni nazarda tutgan. Umuman olganda, she’rda M.Yusufning betakror inson va yetuk shoir sifatidagi fazilatlarini eslanadi.

O‘tgan asrning 80-yillarida yuz bergan maqsadsiz afg‘on urushi voqealari ko‘p yillar Sirojiddin Sayyidga tinchlik bermagan. Bu haqda shoir asar boshida yozadi: “Afg‘oniston qumlarida yiqilganida askarlar, Men ham yozuv stolimda so‘zsiz yaralanganman. “Saksoninchi yillar” dostonidan o‘rin olgan ushbu satrlar o‘shanda senzura tomonidan olib tashlandi. Jurnal terilayotganda to‘xtatib qo‘yildi. Satrlar o‘rnini to‘ldirish uchun shoshilinch ravishda rassomga surat buyurishdi. Mavzuga mos kelmasa-da doston qoq o‘rtasida didsizlarcha solingan gul rasmi bilan bosilib chiqdi. Men bu so‘zlarni nima uchun yozmoqdaman? Vaqt o‘tib olib tashlangan satrlarni tiklash mumkindir, lekin betayin qatag‘onda halok bo‘lgan o‘g‘lonlarni hayotga qaytarmoq, ularga jon ato etmoqning iloji yo‘q. Ularning o‘rnini hech qanday gul, hech qanday orden bilan to‘ldirib bo‘lmaydi... Salkam o‘n besh ming qurbon, mayib majruhlar soni o‘ttiz yetti mingga yaqin! Bu avlodga nom ham topilgan “Urush ko‘rmagan otalarning urush ko‘rgan bolalari”[3, 153]. E’tibor berilsa, shoir dastlab “Saksoninchi yillar” dostonida mazkur mavzuni yoritib bergan. Biroq yillar o‘tib, o‘sha dostonida aytilmay qolgan, ko‘pdan qalbida tugun bo‘lib yotgan afg‘on urushi voqealaridan tug‘ilgan ko‘ngil iztiroblari “Nom” deb atalmish yangi bir asarda o‘zini namoyon etdi. Asar liro-publitsistik ohangda bitilgan. Shoir nasrda ocherk uslubini qo‘llagan. Unda

o‘z qahramoni Sirojiddin To‘rayev [tengdoshi] haqidagi ma‘lumotlarni aniq keltiradi. Shu faktlar, achchiq xotiralardan tug‘ilgan tuyg‘u-kechinmalarini satrlar qatiga jo etgan.

Shoir Sirojiddin To‘rayev yaqinlari: ota-onasi, buvisi iztiroblarini qog‘ozga tushirgan. Bor-yo‘g‘i yigirma bahorni qarshilagan, rassom bo‘lmoq niyatida suratlar chizgan, bo‘yoqlari qurimay qolgan suratlarda aks-sado berib turgan, orzulari osmon qadar Sirojiddin “1984-yilning 14-yanvarga o‘tar kechasi xizmat burchini o‘tash vaqtida halok bo‘lgan... 1963-1984. Bu sanalar oralig‘ida kechgan muddatni umr deb atashga til bormaydi, bu muddat tug‘ilish bilan o‘limni ajratib turgan chiziqdan ham qisqa, go‘yoki umid gulbarglariga bir qatra shabnam indi-yu quyosh nurlariga yetishmayin yilt etdi ketdi” [3,153]. Shoirning umr haqidagi qarashlari falsafiylik bilan yo‘g‘rilgan. Sirojiddin To‘raxo‘jayevning xazonga aylangan umri shoir fikricha, “umid gulbarglarigaingan bir qatra shabnam, unga esa quyosh nuri yetishmadi”.

Uni o‘ldirganlar “dushmanlar” emas,
 Uni o‘ldirganlar bizning jaholat.
 Uni o‘ldirganlar elni zavolga
 Hamda mamlakatni chohga eltganlar [3, 154].

Shoirning hikoya qilishicha, u Sirojiddin To‘rayev xonadoniga keksa jurnalist Abdulla Po‘latov bilan birga bordi. Sadridin aka (Sirojiddinning otasi), buvisi bilan ro‘para kelishdi. Necha yillardan so‘ng ham ularning yuzida “tuganmas anduh chirqirab yotardi”. Buvining nolayu faryodini shoir shunday tasvir etadi. “Bolam shu yerginada yotardi. Har sahar o‘zim uyg‘otardim chinnikosani to‘ldirib shu qaymoqlardan ichardi olinglar silaga nasib qilgan ekan man Xudodan emas bandasidan ko‘raman bolam, bolam ... tirik ketgan bolamni bo‘yi ikki metrlik bolamni tobutga solib qaytarishditobut ham kichkina xontaxta keladi tobuini ochirgan qo‘yishmadi bu maning bolam emas deb yoqalariga yopishdim... keyin o‘rden berishdi qizil yulduz degan besh yil bo‘ldi eshik tiq etsa bolam deyman bolam...” [3, 154]. Buvining alamga, g‘amga, ayriliqqa to‘la iztiroblari qatida o‘sha davr minglab onalari va buvilarining anduhlari aks etgan. Ular qalbida “bolam tirik, qaytib keladi” degan umid yashaydi:

Do‘stlari kelsa-yu kelmasa bolam,
 Do‘stlari kulsa-yu kulmasa bolam.
 Bir vaqtlar sochini to‘zg‘itgan shamol
 Hovlida yelsa-yu yelmasa bolam.
 Yaxshi ko‘rgan qizi kelib yig‘lasa
 So‘ngra to‘y bo‘lsa-yu bilmasa bolam
 Suratdan chiqolmay, mo‘ltirab zor-zor
 “To‘ylar muborak”ni tinglasa bolam...
 Sahar kosalariga qaymoq to‘lsa-yu
 Keksaygan bu ko‘nglim to‘lmasa, bolam.
 Kecha topshirishdi “Qizil yulduz”ing
 Ordenni “bolam” deb bo‘lmasa bolam [3, 155].

Buvi iztiroblariga otaning amlari qo‘shiladi. Ota o‘g‘li haqida yonib-kuyib so‘zlab beradi. Ayniqsa, bolasining kelajakdagi orzulari, rassom bo‘lish istagi haqida gapirganda, yanayam dili o‘rtanadi. Uning umid bilan yozgan xatlaridan so‘zlaydi.

Ota, men haqimda gapirib bering
 Meni so‘rab kelganlarga, yo‘qlaganlarga.
 Yillar yenggaydirlar Sizni ham oxir,
 Dilda sog‘inchingiz bog‘laydi yiring.
 Meni izlab kelgan yoz-u qishlarga
 Ota, men haqimda gapirib bering...
 O‘zim chizib ketgan o‘z suratimga
 Ota, men haqida gapirib bering.
 Kechiring, to‘ylarga buyurmadim men.
 Farzandlar singari – Siz haqingizda
 Gapirib berishga ulgurmadim men [3, 156].

Ota qalbini o'rtaguvchi armonlar, ko'ngilni vayron qiluvchi dardlar yuqoridagi satrlarda o'z ifodasini topgan.

Asardagi yana bir ta'sirchan epizod Sirojiddinning mo'jazgina, buvisi tomonida changlari artiladigan xonasi bilan bog'liq. Bu joyda xotiralar jonlanadi, suratlar tilga kiradi go'yo: "Endi hech qachon ko'klamda surat chizgani Baxmalning baxmal qirlariga borolmaydi. Ro'zi Choriyev hech qachon Boysunga olib bormaydi uni. Sherali Jo'rayevning yangi qo'shiqlarini eshitolmaydi. Hech qachon! Shu sababli uning "Kuz" suratidagi ko'klam chinqirig'i kishini adoyi tamom qiladi. 1981-yilda chizilgan "Avtoportret"dagi ko'zlar esa yana biroz tikilsangiz ymhiq'lab yuboradigan darajada zorlanib boqadilar:

Tunlar derazamda mo'yqalamlaring
Dumli yulduzlarday yuzaveradi.
Oynaning muzlagan varaqlariga
Sening suratingni chizaveradi.
Oyna dosh bermaydi.
Ingraydi oyna,
Raxna-raxna bo'lib yig'layveradi
Terak mo'yqalamin yurgizib shamol
Ko'kka suratingni chizaveradi" [3, 160].

Endi ular Sirojiddin dafn etilgan qabristonga yo'l oladilar. Bu sukut maskani alamlarini yana ham olovlantiradi.

Ma'lumki, taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasida bahor qabristondan boshlanishini yozadi. Xuddi shunga yaqin tasvir asarda ham mavjud: "Qabristonga ko'klam erta keladi. Tashqarida, shaharda qor uyumlari hali erib ulgurmagani esa-da, bu go'shada tuproq ko'pchib, ilk maysalar nish urgan, tepachalar nafas olayotganday, ular ko'tarilib tushayotgan ko'kraklar bo'lib tuyuladi. Ko'klamlari bevaqt xazon bo'lganlar yotgani uchun shundaydir balki?" Qabristonda tilovat qilishadi, cheksiz dard va hasrat bilan ortga qaytadilar. Biroq ularga marmar lavhalardan hayotga to'yagan mas'um ko'zlar tikilib turganday bo'ladi: "Ular suratlarda shu qadar mas'um, shu qadar beozor! Ular – tabassum bo'lib ulgurmagani lablar, sevinchga chog'lanib, shu taxlit mangu surat bo'lib qolgan yuzlar, devorlardagi kemtik nonlar – ular, olinmagan suyunchilar, nasib etmagan to'ylaru buyurmagan kuyovlik sarpolari – ular, onalarining dilida xanjarday zanglagan sog'inch – ular, ular shu qadar mas'um, shu qadar yosh!" [3, 165]. Ular – maqsadsiz, ma'nisiz urushning begunoh, o'n gulidan bir guli ham ochilmagan qurbonlari. Shundan qalblar o'rtanadi. Shoir tuyg'ulari junbushga keladi.

Asardagi eng so'nggi epizod yanada ta'sirchan: "General yig'ladi. 1989-yilning 15-fevralida, "Termiz – Hayraton" ko'prigi ustida kuppakunduzi, butun insoniyat ko'z oldida general yig'ladi! Salkam 15 ming askarning o'limini ko'rib yig'isini ichiga yutgan, 37 mingga yaqin mayib o'g'lonning ko'ziga boqib ko'zyoshini ko'rsatmagan general yig'ladi. "Termiz – Hayraton" ko'prigi ustida kuppakunduzi, insoniyat ko'zi oldida bronemashinadan tushdi-yu peshvoz olgani chiqqan o'n to'rt yashar o'g'lini quchib yig'ladi..." [3, 166]. General yig'isida insoniyatning dardi yashiringan. Maqsadsiz urushdagi intilishlari, harakatlari zoye ketgani uchun, yosh o'g'lonlarning umri bevaqt xazon bo'lgani uchun, qalbi ozorlangani, vijdoni uyg'oqligi uchun yig'ladi.

Xulosa. Shunday qilib, S.Sayyidning tarixiy shaxslar obrazlari yaratilgan she'rlari va yaqin tarixga munosabat yo'sinidagi "Nom" liro-publitsistik asari ham shakl, ham mazmun jihatdan o'ziga xos mukammallik kasb etadi. Ularda tarix chizgilari namoyon, xalq diliga, qalbiga yaqin insonlarni eslash ruhi hukmron. "Nom" asari esa maqsadsiz afg'on urushining xalq boshiga solgan adoqsiz kulfatlaridan so'zlaydi. Shoir mash'um afg'on urushi fojialarini o'zi bilgan, o'ziga tengdosh Sirojiddin To'raxo'jayevning hayoti misolida xotiralar orqali kitobxonga jonlantirib beradi. Zero, Sirojiddin To'raxo'jayev o'sha maqsadsiz urush yillarida umri xazon bo'lgan yigitlar obrazini o'zida ifoda etadi. Bu asar O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani mazmuniga uyg'un asar sifatida shu mavzudagi badiiyat namunalari qatorini to'ldiradi. Umuman olganda, Sirojiddin Sayyid o'zbek xalqining uzoq va yaqin tarixini teran ang'laydi, shu yurtda yetishgan va tarixda munosib nom qoldirgan mashhur siymolarga yuksak ehtirom bilan qaraydi.

ADABIYOTLAR:

1. Сирожиддин, Сайид. Дил фасли. Шеърлар. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 240 б.
2. Сирожиддин, Сайид. Севги мамлақати. Шеърлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 76 б.
3. Сайид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни. – Т.: Шарқ, 2005. – 208 б.
4. Мусурмон Р. Сўзнинг порлоқ манзили//Ўзбекистон Адабиёти ва санъати, 2005. –25 январь.

*Ro'ziyeva Dilyayra Nurmurodovna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Ichki Ishlar Vazirligi Buxoro akademik litseyi
Tillarni o'rganish kafedrasini ingliz tili fani o'qituvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: ruziyevadilyayra300@gmail.com*

“SHAYTANAT” ASARIDA OTA VA QIZ MUNOSABATLARI TASVIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tohir Malikning Shaytanat asaridagi ota obrazi, xususan, Asadbek va uning qizi o'rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilinadi. Asadbek obrazining qattiqqo'lligi, jinoyat dunyosidagi ta'siri va oilaviy hayotidagi o'ziga xosligi orqali ota-bola munosabatlari, insoniy qadriyatlar va hissiy masofalikning asar rivojiga ta'siri yoritilgan. Maqola ota va qiz o'rtasidagi tushunmovchiliklar, nazoratga intilish va mustaqillik istagining ziddiyatlari orqali ota obrazini chuqurroq o'rganadi. Ota va qiz o'rtasidagi bu ziddiyatli aloqalar, ayniqsa, qizning o'zligini topishga bo'lgan intilishi va uning mustaqil fikrlashiga qarshi kurashni ko'rsatadi. Asadbekning o'z o'rnini saqlashga bo'lgan harakatlari esa, oiladagi muvozanatni saqlash bilan birga, tashqi dunyo bilan bo'lgan bog'liqligini ham aks ettiradi. Bu munosabatlar orqali asarda insonning ichki kurashi va o'z-o'zini anglash jarayoni keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: ruhiy iztiroblar, axloqiy masalalar, o'zbek adabiyoti, qasos, baxt izlash, ota-ona sevgisi, insoniy qadriyatlar, yetimlik, ruhiy azoblar, xarakter tahlili, oila va jamiyat, otalik vazifasi, ichki konflikt, vijdon azobi.

Аннотация. В этой статье анализируется образ отца в романе Тохира Малика “Шайтанат”, в частности, сложные отношения между Асадбеком и его дочерью. Через строгость Асадбека, его влияние в преступном мире и особенности его семейной жизни рассматриваются отношения отца и дочери, человеческие ценности и эмоциональная дистанция, влияющая на развитие сюжета. В статье более глубоко исследован образ отца, анализируя недоразумения, стремление к контролю и противоречия между желанием независимости и борьбой за власть. Конфликты между отцом и дочерью, особенно желание дочери найти свою идентичность и сопротивление контролю со стороны отца, занимают центральное место. Попытки Асадбека сохранить своё положение отражают не только стремление сохранить баланс в семье, но и его связь с внешним миром. Через эти отношения в романе раскрывается внутренний конфликт и процесс самопознания.

Ключевые слова: психологические страдания, моральные вопросы, узбекская литература, месть, поиск счастья, родительская любовь, человеческие ценности, сиротство, душевные муки, анализ характера, семья и общество, обязанности отца, внутренний конфликт, угрызения совести.

Abstract. In this article, the father figure in Tohir Malik's novel *Shaytanat* is analyzed, particularly the complex relationship between Asadbek and his daughter. Through Asadbek's strictness, his influence in the criminal world, and the peculiarities of his family life, the article explores the father-daughter relationship, human values, and the emotional distance that impacts the development of the story. The article delves deeper into the father figure by examining misunderstandings, the desire for control, and the contradictions between the wish for independence and the struggle for authority. The conflicts between father and daughter, especially the daughter's desire to find her own identity and her struggle against her father's control, are highlighted. Asadbek's attempts to maintain his position reflect not only the efforts to preserve family balance but also his connection with the outside world. Through these relationships, the novel reveals the inner struggle and the process of self-discovery.

Keywords: psychological struggles, moral issues, Uzbek literature, revenge, pursuit of happiness, parental love, human values, orphanhood, mental anguish, character analysis, family and society, fatherhood duties, internal conflict, pangs of conscience.

Kirish. Tohir Malikning “Shaytanat” romani o‘zbek adabiyotining eng mashhur va keng o‘qiladigan asarlaridan biridir. Bu asar jinoyatchilik olami, insoniy ziddiyatlar va jamiyatdagi axloqiy masalalarni chuqur yoritgan epik roman hisoblanadi. Asar jamiyatning ichki muammolari va jinoyatchilik dunyosidagi hayot tasviriga bag‘ishlangan. Uning markazida Asadbek obrazi turadi. U jinoyat olamining yirik vakili bo‘lib, o‘z kuchi va aqli bilan shu darajaga yetgan. Asarda uning o‘tgan hayoti, muvaffaqiyatlari va qilmishlarining oqibatlari yoritiladi. Shu bilan birga, romanda insoniy munosabatlar, ota-bola, do‘stlik va dushmanlik, sevgi va nafrat kabi mavzular ham yuksak darajada aks ettirilgan.

Asosiy qism. “Shaytanat” asarida ota obrazi, ayniqsa, Asadbekning shaxsiyati orqali chuqur va ko‘p qirralikda tasvirlanadi. Bu obraz orqali yozuvchi ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni, insoniy qadriyatlar va axloqiy ziddiyatlarni o‘rganishga harakat qiladi.

Asadbek romandagi asosiy obrazlardan biri bo‘lib, u ota sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. U qizini juda yaxshi ko‘radi va uning baxtli hayot kechirishini istaydi, lekin bu sevgisini ifoda etishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Asadbekning xarakteridagi sovuqqonlik va qat‘iyatlilik uning o‘z oilasiga ham ta‘sir qiladi.

Ota sifatidagi asosiy xususiyatlari:

1. **Himoya va nazoratga intilish:** Asadbekning qizi Zaynab uchun qilgan harakatlarida uni tashqi dunyoning zararidan himoya qilish istagi yaqqol ko‘rinadi. U qizining hayotini o‘zi belgilab bermoqchi bo‘ladi va bu, ko‘pincha, qizining shaxsiy mustaqilligini cheklaydi.

2. **Hissiy masofalik:** Asadbek o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etmaydi. U shafqatsizlik va qat‘iyatlilikni ko‘proq namoyon qiladi, natijada, qizi bilan hissiy yaqinlikni yo‘qotadi. Ammo uning ichki kechinmalari va sevgisi asar davomida sezilib turadi.

3. **Jinoyat olamining ta‘siri:** Asadbekning jinoyat olamida yashashi va bu dunyoning qoidalariga rioya qilishi uning otalik vazifasiga ham ta‘sir qiladi. U qizi uchun yaxshi hayot yaratmoqchi bo‘lsa-da, o‘zi tanlagan yo‘l bu maqsadga ziddiyatli tus beradi.

4. **Qattiqqo‘llik:** Asadbekning tarbiya usuli qattiqqo‘llik va o‘z qoidalariga ko‘r-ko‘rona bo‘ysundirishga asoslangan. Bu uning ota sifatidagi zaif tomonlaridan biri bo‘lib, qizi bilan o‘rtasidagi tushunmovchiliklarga olib keladi.

Asadbekning yuragida ham boshqa insonlarga xos fazilatlar mavjud. U o‘z o‘rnida jonkuyar farzand, mehribon ota, g‘amxo‘r do‘st, samimiy aka hamdir. Uning mana shu burchlarini bajarish holatida esa ruhan ezilib, iztiroblar iskanjasida qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Adabiyotshunos H. Umurov shunday yozadi: “Xarakterni uni psixikasisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili – xarakterning yaxlitligi va to‘laqonlilikini ta‘minlaydi, uni reallashtiradi, ta‘sirchanligini oshiradi. Shu sabab, agar analogik fikrlaydigan bo‘lsak, xarakter va uning psixikasi o‘rtasidagi munosabatni mazmun va forma o‘rtasidagi murakkab dialektik aloqaga o‘xshatmoq to‘g‘ridir” [1, 23]. Haqiqatan ham roman sujetidan o‘rin olingan rang-barang his-tuyg‘ular, kechinmalar olami tahlili natijasida asar qahramonlarining o‘ziga xos xarakterlari oydinlashadi. Bu xususiyatlar asarning deyarli har bir nuqtasida namoyon bo‘ladi. Zero, Asadbek har qancha ashaddiy jinoyatchi bo‘lmasin, avvalo, u ham inson, o‘jiz banda. Adabiyotshunos Abdug‘ofur Rasulov qayd qilganidek: “Inson o‘sadi, o‘zgaradi, shakllanadi, ruhan-ma‘nan boyib boradi. Lekin inson tamoman o‘zgarib, ikkinchi “men” kasb etmaydi, o‘zligini yo‘qotmaydi, ya‘ni ijtimoiy munosabatlar majmui inson mohiyati, fitrati mehvarida ro‘y beradi. Aniqroq aytsek, fitrat mavjudki, inson o‘zgaradi, moslashadi, tuslanadi, turlanadi” [2, 9].

Muhokama va natijalar. Darhaqiqat, asarda talqin etilganidek Asadbek bironing taqdirini hal qilish onlarida, umriga nuqta qo‘yishga farmon berayotgan chog‘ida, bir tuki ham qilt etmaydi, zarracha shafqatni bilmaydi. Asadbekning ruhiy iztiroblari, ruhiy azoblanishi, otalik, farzandlik burchlarini bo‘yniga olgan holatidagina juda asosli talqin etilganini ko‘rishimiz mumkin. U topshiriq berish borasida diydasi qattiq, bu bironni bolasi deb ayab o‘tirmas, lekin Asadbek g‘animlari uchun toshbag‘ir, farzandlari uchun g‘oyat mehribon inson sifatida uning xakteri shakllanib boradi. Qizining o‘g‘irlanishi esa unga juda og‘ir zarba bo‘ladi. Asadbek qimorboz, o‘g‘ri, jinoyatchi bo‘lsa-da, oila, farzand nima ekanligini teran his etardi. U shu jihati bilan ham o‘z oilasini pulga alishtiruvchi, qimorga tikuvchi “hamkasblari”dan farqlanardi. Asadbek qizining bu ahvolga tushishida o‘zini sababchi deb bilar, qilgan jinoyatlarim, gunoh ishlarimning kasriga qizim shunday ahvolga tushdi deb hisoblardi. Ana shunda uning qalbida ham o‘ziga nisbatan, ham nomusini poymol etganlarga nisbatan konflikt yuzaga keladi. Buni

zohiran tan olmasa-da, botinan iqror bo'lar, bir paytlar Kesakpolvonning gapi bilan katta restoran egasining uyini bosib, yosh qizlarini shotirlari uning buyrug'i bilan nomusini poymol qilishganda, uy egasi ularni qarq'aganini eslab, yuragi titrar, qizining bu ahvoriga shubhasiz o'zi aybdor ekanligini tan olar edi. Balki bu gaplar erish tuyulishi mumkin, lekin qizi haqida o'ylar ekan, Asadbekni tuni bilan vijdan azobi qiynar, pushaymonlik olovida jizg'anak bo'lar, ilonday to'lg'anib chiqishiga sabab bo'lar edi.

“ – Qizimni o'g'irlashdi, – dedi. Shu gapni aytdi-yu uyatdan yonib ketay deb ko'zini olib qochdi. Aybiga iqror bo'lgan gunohkorday boshini egdi.

Qachon? Topilmadimi?

Kecha o'zlari tashlab ketishibdi.

Kimligini bildingmi?

Aniq bilmayman. Gumonim bor.

Jalil o'yg'a toldi. Bir necha nafasdan so'ng xo'rsindi:

Xudodan qaytibdi...” [3, 120].

Qiz bola nafaqat xonadonining, balki ota-onasi, aka-ukalarining ham or-nomusi hisoblanadi. Asadbekni eng ko'proq azobga soladigan narsa ham shu gunohkorlik hissi edi. O'rtog'i Jalilning “Xudodan qaytibdi” degan ta'nasini eshitgandayoq ruhan eziladi. Jalilni gap kelganda ayab o'tirmasligini bilsa-da, dili og'riydi. Bir paytlar qilgan qilmishlari, gunohlari uchun nahotki, farzandlari javob bersa?! Bunday mudhish o'ylar unga sira tinchlik bermaydi. Shuurini turli o'ylar girdobi egallab olgan, ikki qutb kabi ikki xil fikr, ikkilanishlar sirtmog'i ruhini soniya sayin bug'ib borar, nafasini qisar edi. “Qizining o'g'irlanishi – uning nomusiga tegmagan taqdirda ham – ota-ona nomusining toptalishi bilan barobar. Shunday ekan, Asadbek bunga qanday chidasin?! Bolaligidan o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan nafrat hissini tuyib o'sgan odamning taqdirning yana bunday achchiq zarbasiga uchrashi qalbidagi nafratni yanada alangalashiga sabab bo'lmaydimi?! Chap yelkada o'tirgan uni shayton qasosga undaydi: “Qo'lingni uzatsang yettinchi osmonga ham yetadigan insonsan. Birov sening kosangga tuflabdi, oshi halolingni bulg'abdi-yu, sen ezilib yuribsanmi, kimdan gumoning bo'lsa – yanchib tashla! Bugun qasos olmasang, ertaga el oldida basharangga tupurishadi. Otangni olib ketishganda nochor eding. Ana shu nochorlik seni bir umrlik armon o'tida kuydiryapti. Endi ham nochormisan? Qon to'kmasang, erkak emassan! O'zingni ko'rsat! Nomus uchun qon lozimligini erkaklarga eslatib qo'y!” Ammo qilich yalang'ochlangan damda o'ng yelkada o'tirgan Rahmon bilagidan ushlab to'xtatadi. Qon to'kishga yo'l bermaydi. “Gumoning to'riga o'ralganlarni tig'dan o'tkazishing – o'jizliging alomati. Gunohkor osongina jon berib qutulib ketadi. Sen esa nomus azobida to'lg'onib qolaverasan. Sen hozir uning gunohlaridan o't. Ammo shunday qilginki, umri azobda o'tsin. Vaqti kelib oyog'ingga bosh ursin, tavbalar qilsin. Ana shunda o'ldirsang humordan chiqasan. O'lsang, ko'zing ochiq ketmaydi...” [3, 122]. Bunday ayanchli holatga, iztiroblarga bardosh bera olmagan, qizining baxtini poymol qilgan badbaxt ota sifatida Asadbek umrida tiliga olishni xohlamagan, “Xudo bilan shartnomamiz bor” deb ahd qilganiga qaramasdan, Xudoga yolvoradi, undan farzandlarining baxtini so'raydi. Shunday paytda Xudo borligi esiga tushib, Yaratgandan madad so'raydi. “Umr bo'yi azob chekkanim yetmasmidi?” deydi. “Nimaiki azobing bo'lsa, barchasini tatib ko'rdim-ku, endi tinchligimni olgan bo'lsang, boyliklaringni qaytarib ol, meni gado qil, ammo bolalarimning baxtini ber, men ham odam bo'lib rohat ko'ray, bir kecha tinchgina uxlay, bir kun bir piyolagina choyini bolalarim davrasida tinchgina ichay...” deydi. Asadbek ham boshqalar kabi oddiy va xotirjam hayot kechirishni istaydi. Lekin uning martabasidagi odam o'zi uchun shu baxtni ham yarata olmasdi. Zero, Tohir Malik o'zi ta'kidlaganidek “Dunyo shaytonning do'koni, undan bir narsa oldingmi, shayton haqini undirib olmaganicha tinchimaydi. Asadbek shaytonning do'konidan ko'p narsa olgan edi, yillar o'tib, qizining nomusi va bir o'g'lining joni bilan haq to'ladi. Dunyoda hech qanday zulm jazosiz qolmaydi” [4, 65]. Muallif Asadbek qalbidagi bu o'ylarini tilga chiqarmasa-da, qahramon ichki nutqida bayon etib o'tadi.

Yovuzlikni o'ziga a'mol deb bilgan bunday insonning nolalari har qanday odamning yuragini larzaga soladi. “Osmonni balo bulut qoplagan, tepasidan qayg'u yomg'iri tomchilab, hovlisida tashvish alafllari ko'kara boshlagan odam dardini kimga aytin? Asadbek keyingi haftalar ichida ana shu holga tushdi. U ba'zan o'zini qorong'u jarlik ichida his etar, bu jarlikda abadul-abad qolib ketadiganday vahima bosardi” [4, 61]. O'zi uchun baxt yarataman deb to'plagan shuncha mol-dunyosi Asadbekka eng og'ir damda bir lahzalik baxt bera olmaydi. O'ylab qolasan kishi: demak, insonning baxtli bo'lishi

uchun unchalik ko'p narsa kerak emas ekan-da, nahotki baxt deganlari shunchalar oddiy, shunchalar bizga yaqin bo'lsa?! Biz esa uni olislardan qidirib, yonimizdagi baxtni yo'qotib qo'yamiz. Jalilning uyiga borgan Asadbek bu baxtni his etganday bo'ladi va bundan qattiq o'kinadi. "...Asadbek o'zini benihoya ojiz banda ekanini his etdi. "Hatto shu g'alcha xotinning baxti ham yo'g'a menda, – deb o'yladi. – Nevara ko'rsam, ismini Samandar qo'yaman, deb yuruvdim. Jalil ilib ketibdi. Kitob ko'rib qo'rganmish... Jalil o'zini haqgo'y deydi. Men uni noshud deymen. Baxt noshudlarga kulib boqarkan-da? Shu noshud qizini kuyovga uzatib, nevara ko'rib, xursandchilik qilib o'tirsa... Men shunday ham bo'lolmasam... Na akam, na ukam bor. Faqat... pulim bor" [5, 116]. Darhaqiqat, Asadbek shuncha obro', boylik orttirgan bo'lsa-da, haqiqiy baxtga yetisha olmagan edi. Avvallari baxtni boylikda deb bilgan bo'lsa, endi shu boyligi ham ko'ziga yomon ko'rinar, osoyishta hayoti uchun ulardan-da, kechishga tayyor edi.

Asadbekni qiynaydigan faqatgina bular emas edi. U ham boshqalar qatori ota-ona mehrini his etib ulg'ayish armoni bilan yashar, hayotining, taqdirining bu holda kechishida, og'ir kunlar boshiga tushganda mana shu yetimlikni ayblardi. Agar boshqalar qatori ota-ona bag'rida o'sganimda bu yo'lni tanlamasdim deb, o'ylab qolardi. Ularning-ku yo'qligiga ko'nikish mumkin edi, lekin otasining qabrini-da yo'qligi uni yuragini bosib turgan og'ir g'am toshi edi. "Otasi o'lmagan kim bor... deganlardek, hamma ham qachondir yetim qoladi. Ammo ota diydoriga to'ymay yetim qolishning armoni bo'lakcha. Ota qabrining bo'lmasligi yana yomon..." [5, 277]. Ayniqsa, otasidan yodgor bo'ib qolgan eski uyi uning xotiralarini esga solib, ruhan azob beradi. Bunday vaqtda Asadbek har doimgi savlatli, "O'q ilon" laqabiga munosib Asadbek emas, balki, g'am o'z iskanjasiga olgan nochor odamga o'xshab qolardi. Asar syujetida Asadbek ruhiy iztiroblari, xarakteri mahorat bilan yoritilgan. Zero, bir o'rinda o'ta yovuz jinoyatchi, boshqa bir o'rinda esa har bir o'zbek farzandi kabi mehribon va jonkuyar ota qahramoni xarakterini bir shaxsda jo etish qiyin vazifa. Asadbekni murakkab xarakter egasi sifatida talqin etar ekanmiz, unda insoniy fazilatlar ham mavjudligini unutmashimiz kerak. Axir, endigina odam va olamni anglay boshlagan bir paytda, ya'ni bolalik beg'uborligini "o'g'irlagan" o'sha muhitni unuta olmasligida ham asoslar mavjud. Eng og'ir ijtimoiy muhitda uning xarakteri shakllandi, bu esa uni "Shaytanat" olamiga olib kirgan bo'lsa-da, o'zligini yo'qotmagan mag'rur shaxs sifatida anglaymiz. Uning mag'rurligi va shijoatini Zaynab o'g'irlangandan keyingi voqealar silsilasida, asosan, ruhiy qiynoqlar iskanjasida qolganida anglaymiz. Bu tasvirlarda esa Asadbek ham oddiy insonligini, fojealar girdobiga tushganda, "baxt" so'zining naqadar ulug'ligini anglaydi.

Ota va qiz o'rtasidagi munosabatlar murakkabdir. Asadbek qizining baxtini istaydi, ammo uning tanlagan hayoti va qarorlariga aralashib, bu baxtga zarar yetkazishi mumkin. U qizini himoya qilish va uni jinoyat dunyosidan uzoqlashtirishga intiladi, ammo o'zining jinoyat olamidagi faoliyati qiziga nisbatan ishonchli ota sifatida namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Asar davomida Asadbekning qiziga nisbatan munosabati ko'proq himoya qilish va nazorat qilish instinkti bilan belgilanadi. U qizini o'z irodasiga bo'sundirishga intiladi va uning hayotidagi har bir jihatni nazorat qilishni xohlaydi. Bu munosabatlar ba'zan sovuq va hissiy jihatdan uzoq bo'lib ko'rinsa-da, aslida Asadbekning o'z qizini himoya qilish istagidan kelib chiqadi. Ammo, shu bilan birga, qizining mustaqil qarorlar qabul qilishiga nisbatan munosabati murakkab: bir tomondan, u otalik sevgisi tufayli uning baxtini xohlaydi, boshqa tomondan esa, u o'zining "erkaklik g'ururi" va jamiyatdagi mavqei sabab qizini o'z yo'lidan chetlatmoqchi bo'lmaydi. Bu esa ota va qiz o'rtasida tushunmovchilik va ichki mojarolarni keltirib chiqaradi.

Ota obrazi orqali yoritilgan g'oyalar:

1. Jinoyatchilik va oilaviy munosabatlar: Asadbekning jinoyat dunyosidagi faoliyati uning ota sifatidagi mas'uliyatlariga qarama-qarshi qo'yilgan. Bu orqali yozuvchi jinoyatning nafaqat shaxsga, balki uning oila a'zolariga ham zarar yetkazishini ko'rsatadi.

2. Himoya va erkinlik o'rtasidagi ziddiyat: Asadbekning qizini himoya qilish istagi va qizining erkinlikka bo'lgan ehtiyoji ota va bola munosabatlaridagi universal muammoni tasvirlaydi.

3. Ota sevgisi va amaliyot o'rtasidagi qarama-qarshilik: Asadbekning qattiqqo'l va sovuq xarakteri uning qizi bilan samimiy munosabatlar o'rnatishiga to'sqinlik qiladi. Bu orqali ota sevgisini amaliyotda qanday namoyon etish masalasi ko'tariladi.

Xulosa. “Shaytanat” asaridagi ota obrazi, ayniqsa, Asadbek orqali, ota-bola munosabatlarining murakkabligini va jamiyatning turli ziddiyatlarining inson hayotiga qanday ta’sir ko’rsatishini ko’rsatadi. Asadbek ota sifatida sevimli va mas’uliyatli, lekin uning metodlari va hayot tarzi bu mas’uliyatni to’liq amalga oshirishga to’sqinlik qiladi. Bu obraz orqali yozuvchi ota sevgisi va uning ifodalanishidagi ziddiyatlarni mahorat bilan yoritadi.

Asadbek ota va qizining munosabatlari “Shaytanat” asarida insoniy munosabatlarning murakkabligi va ziddiyatlarini ochib beradigan muhim jihatlardan biridir. Bu munosabatlar orqali yozuvchi ota-bola o’rtasidagi o’zaro sevgi, mas’uliyat va tushunmovchiliklarni o’ta realistik tarzda ko’rsatadi. Asadbekning o’ziga xos xarakteri va qiziga nisbatan munosabatlari asarga chuqur ma’no va hissiyot bag’ishlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Umurov H. Saylanma. Birinchi jild. Risolalar. – T.: Fan, 2007. – 212 b.
2. Rasulov A. Badiiylik – bezavol mezon. Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – T.: Sharq, 2007. – 186 b.
3. Tohir Malik. Shaytanat . Roman. Birinchi kitob. – T.: Sharq, 2006. – 342 b.
4. Qurbon Sh. Tohir Malik saboqlari: Adib shaxsiyati haqida o’ylar. – T.: DAVR PRESS, 2008. – 124 b.
5. Tohir Malik. Shaytanat . Roman. Uchinchi kitob. – T.: Sharq, 2006. – 448 b.

*Usmonova Muhayyo Akramovna,
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti
(O'zbekiston)
Email: muhayyousmonova7@com*

FEMINISTIK JARAYONNING ZAMONAVIY AYOL IJODKORLAR IJODIGA TA'SIRI

Annotatsiya. XX asr o'rtalarida jahon feminizatsiyasi badiiy so'z san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi va "ayollar adabiyoti" tushunchasini yuzuga keltirdi. "Ayollar adabiyoti"ni o'rganish, o'z navbatida, "ayollar adabiyotshunosligi" terminologik konsepsiyasi paydo bo'lishiga olib keldi. Amerikalik adabiyotshunoslar "ayollar adabiyotshunosligi"da salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirishdi va aynan Amerika feministik adabiy tanqidi va adabiyotshunosligi dunyoda yetakchi mavqeyiga ega bo'ldi. XX asr o'zbek adabiyotida ham "ayollar she'riyati", "ayol nasri" degan terminlar qo'llanila boshladi. Maqolada feminizm va ayollar adabiyoti haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: feminizm, feminizatsiya, ayollar adabiyoti, ayollar adabiyotshunosligi, feministik she'riyat, avtopsihologik lirika, ayol ruhiyati

Аннотация. В середине XX века мировая феминизация не преминула сказаться на искусстве художественного выражения и создала понятие "женская литература". Изучение "женской литературы", в свою очередь, привело к появлению терминологического понятия "женское литературоведение". Американские литературные критики провели значительные исследования в области "женского литературоведения", и именно американская феминистская литературная критика и литературоведение завоевали ведущее положение в мире. Термины "женская поэзия" и "женская проза" стали использоваться в узбекской литературе XX века. В статье рассматривается феминизм и женская литература.

Ключевые слова: феминизм, феминизация, женская литература, женское литературоведение, феминистская поэзия, аутопсихологическая лирика, женская психика.

Abstract. In the middle of the 20th century, world feminization did not fail to have its influence on the art of artistic expression and created the concept of "women's literature". The study of "women's literature", in turn, led to the emergence of the terminological concept of "women's literary studies". American literary critics have carried out significant research in "women's literary studies", and it is American feminist literary criticism and literary studies that have gained a leading position in the world. The terms "women's poetry" and "women's prose" began to be used in Uzbek literature of the 20th century. The article discusses feminism and women's literature.

Keywords: feminism, feminization, women's literature, women's literary studies, feminist poetry, autopsychological lyrics, female psyche

Kirish. Feminizm – fransuzcha *feminsti*, lotincha *femina* – ayol degan ma'noni bildiradi. Ayollarni kamsitishlardan xalos etishni targ'ib etuvchi, ular mavqeyini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida o'rganuvchi oqim. Feminizm Fransiya burjua revolyutsiyasi davrida vujudga kelib, xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lishi uchun kurashi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy kurashda ishtirok etishini targ'ib etadi.

XX asrning o'rtalarida jahon feminizatsiyasi adabiyotga ham kirib keldi va ayollar adabiyotshunosligi fani faollashib, izchillik bilan intellektuallashib bordi.

Feministik adabiyot – bu ayollar uchun teng fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni belgilash, o'rnatish va himoya qilish kabi feministik maqsadlarni qo'llab-quvvatlaydigan fantastika, badiiy adabiyot, drama yoki she'riyatdir. U ko'pincha ayollarning jamiyatdagi rollariga, xususan, maqom, imtiyoz va hokimiyatga taalluqli bo'lib, ayollar, erkaklar, oilalar, jamoalar va jamiyatlar uchun istalmagan oqibatlarni tasvirlaydi. Ammo, ayol yozuvchilar va feminist yozuvchilar tushunchalari ayni bir ma'noni anglatmasligini ham unutmaslik lozim. Feministik harakat feministik fantastika, feministik noaniq adabiyot va feministik she'riyatni yaratdi, bu esa ayollar ijodiga yangi qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, u ayollarning hayoti va hissalarini ilmiy qiziqish sohasi sifatida yetarlicha ko'rsatilmagan

degan fikrga javoban ayollarning tarixiy va ilmiy hissalarini umumiy qayta baholashga turtki bo'ldi. Shuningdek, feministik adabiyot va faollik o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud bo'lib, feministik ijod odatda ma'lum bir davrda feminizmning asosiy tashvishlari yoki g'oyalarini ifodalaydi [11, 200].

Asosiy qism. Eng qadimgi davrlarda ham badiiy ijod xususan she'riyat bilan shug'ullanuvchi ayol shoirlar bo'lishgan. Antik davrda shoira Sapfoning dong'i butun olamga mashhur bo'lgan. Erkak ijodkorlar bilan baravar ijod qilib, iste'dodini ochiq namoyon qila olgan. Bu ijodkor an'anasi Uyg'onish davrida ham davom etadi. Bu an'ananing davomchilari sifatida Margaret va Luiza Labe (Fransiya), Vittoria Kolonna va Gaspara Stampa (Italiya) asarlarini aytib o'tish o'rinlidir.

Bugungi ayol ijodkorlar ijodiga nazar solar ekanmiz, asosan, ularning mavzu qamrovi ayollar hayoti bilan, ularning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi bilan chambarchas bog'liqligi ko'zga tashlanadi. XIX asr Angliya adabiyotida buyuk davrlardan biri bo'lib bisoblanadi. Bu davrda ko'plab ayol adibalar o'zlarining diqqatga sazovor asarlarini yaratdilar va ijod cho'qqisiga chiqdilar. Oldingi asrlarda Angliya adabiyotida o'z o'rniga ega yozuvchilar Jeyn Ostin, Charlotta Bront kabi ayol yozuvchilar feministik ruhda asarlari bilan ajralib turadi. Feminist yozuvchi sifatida Ostin barcha ayollar rasmiy ta'lim olishlari kerakligini ta'kidlaydi. Misol uchun, Elizabet Bennet orqali Ostin ayol aqli va o'zini o'zi anglash uchun kurashi kerakligini ko'rsatadi. Ostinning "G'urur va andisha" asarini olib qaraydigan bo'lsak, asarning bosh personaji ayollarning nafaqat xonimlar, shu bilan birga erkaklar bilan teng darajada aql-idrok egasi ekanligini asardan olingan quyidagi parchada ta'kidlab o'tganini ko'rishimiz mumkin: Asli: "Oh! certainly," cried his faithful assistant, no one can be really esteemed accomplished who does not greatly surpass what is usually met with. A woman must have a thorough knowledge of music, singing, drawing, dancing, and the modern languages, to deserve the word; and besides all this, she must possess a certain something in her air and manner of walking, the tone of her voice, her address and expressions, or the word will be but half-deserved. All this she must possess, added Darcy, and to all this she must yet add something more substantial, in the improvement of her mind by extensive reading" [4, 47-48]. Zamonaviy Angliya adabiyotshunosligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda ham turmush qurish, bolalar tarbiyasi kabi mavzular hali ham dolzarb bo'lib qolayotganligiga amin bo'lamiz. Xususan, Angliya zamonaviy adabiyotining namoyandalaridan biri Alis Osvald ijodidagi aksariyat she'rlarida aynan shu mavzu talqini kuzatiladi. Uning mashhur asarlaridan biri "Memorial" mavzu jihatdan feministik ruhda yozilgan. Adibaning "Daryo" deb nomlangan asarida esa qishloq ayollarining hayoti aks etgan. Bundan tashqari, unda "ona tabiat" atamasining ishlatilganligi ham feministik mavzuda ekanligini ko'rsatib turadi. Yozuvchi uch yil davomida daryo bo'yida yashaydigan va ishlaydigan odamlar bilan suhbatlashadi. Uning so'zlariga ko'ra, daryoda: "qo'rqituvchi ayol timsoli bor ... Men gaplashgan odamlarning suhbatlariga qaraganda, daryo ayolga o'xshardi" [1, 30-34].

Muhokama va natijalar. Amerika adabiyotida XIX asr yozuvchilariga o'z huquqlarini ta'minlashga imkon beradigan shart-sharoitlar yaratilgan edi: ko'pchilik nasroniylar va Viktoriya diniga mansub bo'lib, erkaklar va ayollarga tug'ilmaslaridanoq boshqa-boshqa "Axloq kodeksi" belgilanganligiga va hayotda ham har jinsga o'ziga loyiq mashg'ulotlar tayinlanganiga ishonishgan. Bu ilohiyot g'oyasi ularning asarlari sahifalariga ham shu tartibda ko'chirilgan va ayol qahramonlar ko'p hollarda kundalik yumushlar bilan band bo'lgan holda, o'zlarining ajdodlari tamoyillarini munosib ravishda olib borganlar. Amerika Qo'shma Shtatlarida "ayollar adabiyoti va adabiyotshunosligi"ning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan yana bir omil – ayollar mavzusini kuylaydigan kitoblarni, asarlarini faqat ayol-kitobxonga murojaat qilgan ayol-yozuvchilar yaratishi kerak degan tushuncha doimo olg'a surilganligi edi.

Amerika she'riyatida o'chmas iz qoldirgan, Nobel mukofoti sovrindori Luiza Glyuk ijodi ham feministik ruhda she'rlar yozdi. Uning bir necha asarlari aynan ayol ruhiyati, farzandlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq [2, 67]. Glyuk o'zining she'rlarida badiiy so'zni o'rinli qo'llaydi. Shoir Kreyg Morgan Teyxer uni "so'zlari naqadar noyob, qiyinchilik bilan qo'lga kiritilgan va behuda sarflanmaydigan" ijodkor sifatida ta'riflagan. Olima Laura Quinney so'zlarni ehtiyotkorlik bilan ishlatishi Glyukni Emili Dikkinsondan Yelizaveta Bishopgacha bo'lgan "o'ziga xos tasvirni qadrlaydigan amerikalik shoirlar qatoriga" kiritganini ta'kidlaydi. Glyuk she'rlari butun faoliyati davomida o'z shaklini o'zgartirib bordi, u qisqa satrlardan tashkil topgan qisqa matnlardan boshlanib, kitoblar uzunligidagi to'plamlarga jamlangan asarlar yaratish bilan davom etmoqda. U hamisha ham she'r texnikasiga e'tibor

beravermaydi. Shoir Robert Xan uning ijodiga baho berar ekan: “birdan ko‘zga tashlanmaydigan” yoki “uslubning deyarli yo‘qligi”, suhbat uslubi bilan “portativ intonatsiyalar” ni birlashtirgan ovozigga tayanish orqali yaratilgan asarlar, deya ta’riflaydi [6, 235].

L.Gluk she’riyatida ayol ruhiyati, qalb og‘riqlari tasvir etilganligi uchun ham ularni avtopsihologik lirikaga mansub deyish mumkin. Chunki u butun hayoti davomida o‘lim, yo‘qotish, azob-uqubatlar, muvaffaqiyatsizliklarga ro‘baro‘ bo‘lgan. Daniel Morrisning ta’kidlashicha, hatto Glyuk she’rlari “muallifning o‘lim, aybsizlik yo‘qolishlar to‘g‘risida xabardorligidan dalolat beradi”. Olim Joanne Feit Diehl bu his-kechinmalar “Glyuk she’rlarini retrospektiv kuch bilan to‘ldiradi” deydi. U bolaligida ruhiy xastalikka chalingan, yolg‘iz qolgan vaqtlar ko‘p bo‘lgan. Shu jihatlarda ham she’rlariga mahzunlik, tushkunlik ruhini olib kirgan va uni konfessional shoira deyishga asos bo‘lgan. Glyukning ko‘plab she’rlarida ayollarning mustaqil va o‘z-o‘zini anglagan shaxsga aylanish jarayoni o‘rganiladi. Quyidagi parchada shunga amin bo‘lish mumkin:

What is a woman’s age? A woman becomes a kind of furniture
at a certain point; a sign that has been repeated.
It’s all you are, and all you will ever be [10, 93]...

Bunda Glyuk jamiyatning ayollarni ko‘pincha ularning rollari yoki tashqi ko‘rinishlari bilan cheklashini tanqid qiladi.

XX asr o‘zbek ayollar she’riyatida Zulfiya ijodi, adabiy-estetik qarashlari, shaxsiyati alohida sahifani tashkil etadi. Ushbu ijodkor Nodiraning vafo, sadoqat tushunchalarini o‘z she’riyatiga singdiribgina qolmasdan, uni XX asr ayollari uchun etalonga aylantira oldi. Zulfiya bir umr tabiatga oshiq hassos shoira bo‘lib qoldi. Uning ijodida tabiatning jonli nafasi tegmagan, tabiatning alvon bo‘yoqlari aks tashlamagan, tabiatning ona ko‘ksidan oziqlanmagan she’r kamdan-kam uchraydi. Uning she’riyatida ayol qalbining, qiz, rafiq, ona qalbining, nozik kechinmalari, orzu-umidlari ochib beriladi. O‘zbek ayoli taqdirining yorqin badiiy tarixini chizadi. Quyoshimiz tahqir dog‘in kuydirgan,

Qullikmas, Zakovat esh bo‘lib azal,
San’ati o‘lmasga haykal qo‘ydirgan!
Sizni Zebuniso dardidan voqif,
Nodirabegimga etay oshno!
Siz nomi she’r, She’ri qalbidan oqib
Chiqqan pok dillardan o‘qing chin vafo! [11, 200]

Ayollar she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, har bir shoira o‘z asarlarida o‘ziga tengdosh yo o‘zidan oldin yashab o‘tgan shoiralar shaxsiyatiga (Zebunniso, Nodira), ijodiga murojaat qilgan, munosabat bildirgan. Ba’zan o‘z asarlarini ular ijodi bilan qiyoslagan. Zulfiyaning “Sharqning o‘zi ona bo‘lgan hamisha” dostonidan keltirilgan yuqoridagi parcha ham fikrimizni isbotlaydi [9, 947].

Ayol obrazi Halima Xudoyberdiyeva ijodini rang-barang va mukammal qilishi bilan bir qatorda, bu tasvirlar she’rdan she’rga, har safar yangi qirralar bilan namoyon bo‘ladi. Shoiraning lirik qahramoni ona, opa, do‘st kabi turli xil personajlar bo‘lib, ularning ruhiy holatlardagi ko‘rinishi va kayfiyatlari ta’sirchan ifoda etilganligi kuzatiladi. Shuning uchun ham misralarda har doim badiiy so‘z mahorat darajasida beriladi. H.Xudoyberdiyeva she’riyatida, eng avvalo, e’tibor qaratiladigan jihatlardan biri – uning ayol dardi, o‘zbek ayoli dardini ochiq-oydin, baralla kuyilganligida ko‘zga tashlanadi. Shoira bu ulkan DARDning ijtimoiy-psixologik omillarini turkum she’rlari bilan batafsil ko‘rsatishga erishdi:

Onaginam!
Dorulomon kunlar keldi, shafaqlari ol,
Qayon boqsang, shaylanishar va sozlashar tor.
Olcha gulin ko‘zlaringga surtasan behol:
Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor.

“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”, deb shukronalik bilan pichirlayotgan bu ona obrazi go‘yoki sabr-u bardoshlardan yaralgandek taassurot qoldiradi. Shoiraning “Muqaddas ayol” deb nomlangan ijod na‘munasi ham ayollarni madh etadi, ularning jamiyatdagi o‘rni, fikrlarini aniq kuyiladi. Shoira ayollarning naqadar nozik xilqat egasi bo‘lishi bilan bir qatorda, ularning kuchli xarakterga ega ekanligini ham ta’kidlaydi.

Xulosa. Zamonaviy ayol yozuvchilar ijodi mavzu xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Amerikalik shoira, Nobel mukofoti sovrindori Luiza Gluk she'rlarida ingliz ayollariga xos bo'lgan jihatlarni aks ettirdi. Alis Osvald ijodida ayol qalbi, uning ichki tuyg'ulari, jamiyatdagi haq-huquqlari, feminiyatik g'oyalar ifoda etilgan. Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva kabi o'zbek shoiralari ijodida ayol siymosi, uning qalb olami, his-kechinmalari ta'sirchan aks ettirilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Donoghue D. A criticism of one's own // *New Republic*. – Wash., 1986. – Mar. 10. – Vol. 194. – № 10. – P. 30 – 34.
2. Chiasson, Dan. The Body Artist. // *The New Yorker*. No. November 12, 2012. – P. 25-30.
3. Creative Paralysis. *The American Scholar*. // December 6, 2013. – P. 85-86.
4. Jeysn Ostin. G'urur va andisha. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. – B. 47-48
5. Miklitsch, Robert (October 1, 1982). Assembling a Landscape: The Poetry of Louise Gluck. *Hollins Critic*. 19 (4): 1. ISSN 0018-3644
6. Morris Daniel. The Poetry of Louise Glück: A Thematic Introduction. p. 4. George, E. Laurie (1990). The “Harsher Figure” of Descending Figure: Louise Gluck's Dive into the Wreck. *Women's Studies*. – P. 228.
7. MARY KINZIE, (1982). Review of *Descending Figure; Memory; Monolithos; The Southern Cross; Sure Signs: New and Selected Poems; Letters from a Father; Antarctic Traveller; Worldly Hopes*. *The American Poetry Review*. 11 (5): 37-46. ISSN 0360-3709. JSTOR 27777028. –P. 178.
8. McClatchy, J. D. (1981). “Figures in the Landscape”. *Poetry*. 138 (4): p. 231–241. ISSN 0032-2032. JSTOR 20594296 – via JSTOR.
9. Quvvatova D. (2020). Theoretical & Applied Science. *WORLD AND UZBEK POEMS: COMPARISON AND ANALYSIS*, 947-949.
10. Usmonova Muhayyo Akramovna (2023). Luiza Glyuk ijodi va uning adabiyotshunoslikdagi o'rni. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_3_4_2023. – P.93-94.
11. Zulfiya. Saylanma. – T.: Sharq, 2016. – 200 b.
12. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. –Т.: Шарқ, 2004. – 330 б.
13. <https://earlymodernscribbling.com/2021/04/16/feminism-in-early-modern-writing/>
14. <https://academic.oup.com/book/35301/chapter-abstract/299921420?redirectedFrom=fulltext>

*Latipova Saodat A'zamovna,
Buxoro davlat universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi
II kurs magistranti
E-mail: saodatlatipova43@mail.com*

“ME'ROJNOMAYI TURKIY” ASARIDA ME'ROJ TALQINI

Annotatsiya. Me'roj islom dinidagi muhim voqealardan biri bo'lib, Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamning Makkadan Quddusga va u yerdan samoga ko'tarilish voqeasidir. Mazkur maqolada Me'roj kechasi bilan bog'liq ilmiy va badiiy mushohadalar beriladi. Shuningdek, Buxoro adabiyot va san'at muzeyi fondida saqlanayotgan “Me'rojnomyi turkiy” asaridagi ayrim qismlarning joriy yozuvdagi tabdili va tahlili keltiriladi. Qolaversa, mumtoz adabiyotda yaratilgan ayrim me'rojnomalari, hadislar hamda Me'roj hodisasi keltirilgan ba'zi asarlar haqidagi ma'lumotlarga ham o'rin ajratiladi.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, hadislar, Me'roj kechasi, Me'rojnomalari, “Me'rojnomyi turkiy”, jannat va do'zax, farishtalar

Аннотация. Вознесение одно из важнейших событий в исламе, вознесение нашего Пророка Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха) из Мекки в Иерусалим, а оттуда на небеса. В статье представлены научные и художественные наблюдения, связанные с Ночью Вознесения. Также в настоящей работе представлен перевод и анализ некоторых частей произведения “Ме'роджномаи турки”, хранящегося в фондах Бухарского музея литературы и искусства. Кроме того, некоторые истории о Мирадже, хадисы и некоторые произведения, в которых упоминается событие Мирадж, также отражены в классической литературе. В то же время в нем также обсуждаются обстоятельства, при которых наш Пророк был разлучен со своими родителями в юности.

Ключевые слова: Коран, хадисы, Ночь Вознесения, Мираджнама, “Турецкая Мираджнама”, рай и ад, ангелы

Abstract. Miraj is one of the most important events in Islam, the event of the ascension of our Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him) from Mecca to Jerusalem and from there to heaven. This article provides scientific and artistic observations related to the night of Miraj. It also presents the translation and analysis of some parts of the work “Me'rajnomyi Turki” stored in the collection of the Bukhara Museum of Literature and Art in the current writing. In addition, it also reflects some expressions about some mi'rajnomyi, hadiths and some works in classical literature that mention the event of Miraj. At the same time, it also discusses the circumstances of our Prophet's separation from his parents in his youth.

Keywords: Holy Quran, hadiths, Night of Ascension, Mirajnamas, “Turkish Mirajnama”, heaven and hell, angels

Kirish. Me'roj hodisasi islom tarixidagi eng buyuk hodisalardan hisoblanadi. Bu atama lug'atda narvonga o'xshatilgan. U “ko'tarilish asbobi” ma'nosini anglatadi. Me'roj hukmi bu – g'aybiy hukmdir. Qur'onda Me'roj so'zi zikr qilinmagan bo'lsa-da, uning ko'plik shakli bo'lmish “maorij” “balandlik darajalari” ma'nosida Alloh taologa nisbat berilgan. Hadis manbalarida Isro va Me'roj haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Imom Buxoriy va Abu Muslimdagi rivoyatlarning mushtarak tomonlariga ko'ra voqea quyidagicha sodir bo'lgan: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Ka'bada bo'lganlarida bir kechada Hijr yoki Xotim degan joyda ba'zi rivoyatlarda uxlab yotganlarida yoki uyqu va hushyorlik orasidagi holatda Jabroil keldi. Ko'ksini ochib, zamzam bilan yuvib, iymon va hikmatga to'ldirib yopdi. Uni Buroq degan otga mindirib, Baytul Maqdisga olib bordi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Masjidul-Aqsoda ikki rakat namoz o'qib, tashqariga chiqqanlarida, Jabroil alayhissalom biriga sut, ikkinchisiga sharob to'ldirilgan ikkita idish keltirdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sut to'la idishni tanlaganlarida, Jabroil alayhissalom unga: “Sen tabiatni tanlading”, dedi. Keyin uni olib, dunyo osmoniga ko'tardi. Osmonlarning har birida u Odam Ato, Iso, Yusuf, Idris, Horun va Muso payg'ambarlar bilan uchrashdi.

Nihoyat Baytul Ma'mur joylashgan yettinchi osmonda Hazrati Ibrohim sallolohu alayhi vasallam bilan uchrashdi. Sidrat ul-Muntaha degan joyga yetib kelganlarida, kotib farishtalarning qalam tirnashini eshitib, Allohning huzuriga kirdi. Bu yerda Alloh taolo ellik vaqt namozni farz qildi. Qaytganlarida Hazrati Muso alayhissalom ummatiga ellik vaqt namoz ortiqcha bo'lishini aytib, Alloh taolodan uni yengil qilishini so'rashni maslahat berdilar. Namoz besh vaqt namozga kamaytirilgunga qadar Hazrati Payg'ambar alayhi vasallamning ilohiy huzurga da'vati va Muso alayhissalom bilan suhbat davom etdi [4, 58]. Bir rivoyatga ko'ra, Payg'ambarimiz sallolohu alayhi vasallamga "Baqara" surasining so'nggi oyatlari ko'tarilganlarida nozil bo'lgan va Allohga shirk keltirmaganlarning mag'firat qilinishi haqida xushxabar berilgan [5, 79]. Biroq ba'zi oyatlarning alohida nozil bo'lishi Qur'on Jabroil tomonidan nozil qilinganiga zid bo'lishi va bunday rivoyatlarni oyatlarning fazilati bilan bog'lash kerakligi ta'kidlangan.

Asosiy qism. "Turkiy me'rojnomada" Me'roj hodisasi asarning 4-sahifasidan boshlanadi. Shu sahifadan so'ng aynan Me'roj bilan bog'liq voqealar tafsiloti beriladi:

Ba'ni Isroil o'g'li erdi Dovud
 Muhammad erdilar mahbubi ma'bud
 Ani o'g'li jahon olgan Sulaymon
 Muhammad erdilarkim xos rahmon
 Masihulloh otondi ibni Maryam
 Muhammad barchadin erdi mukarram
 Muhammadga inoyat qildi Me'roj
 O'shal tunda boshig'a qo'yuldi toj
 Tushi ersin vahiy ogah edilar
 Alarga to'rt malak hamroh edilar
 Biri Jabroil va Mikoil erdi
 Biri Azroil va Isrofil erdi
 Buroq kelturdilar tun uyqusinda
 Muhammad erdi ummat qayg'usinda
 Kirib Jabroil ul dam qildi bedor
 Dedi Haq ko'rsatur bul kecha diydor

Asarda Muhammad sallolohu alayhi vasallamning Me'rojga ko'tarilish hodisalari shu tarzda boshlanadi. Me'rojga ko'tarilishlarida to'rt malak hamrohlik qilganligi aytiladi. Ular: Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil alayhissalom ul muborak zotni uyqudan uyg'otib Buroq otga mindirib, Masjid-ul Aqsoga olib boradi.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida ham Rasululloh sallolohu alayhi vasallamning Me'rojga ko'tarilish hodisalari bayoni keltirilgan. 4-bob me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan. Unda payg'ambarimizning huzurlariga "Ruhu-l-amin" (Jabroil farishta) kelib, Yaratganning xabarini yetkazgani va Rasuli akramning Buroq otini minib, Alloh huzuriga ko'tarilganliklari, oradagi yetmish qavat parda ko'tarilib, bor-yo'q to'siqlar bartaraf bo'lganligi, payg'ambarimiz Allohdan ummatlarining gunohini so'rganliklari va Alloh o'z habibining barcha istaklarini qabul qilgani haqida fikr yuritiladi [6, 4]. Ko'rinadiki, har ikkala asarda ham Buroq tasviri va ul muborak zotning osmonga ko'tarilish tasvirlari aynan bir xil keltirilgan.

Payg'ambar alayhi vasallam u yerda barcha payg'ambarlar bilan uchrashib, ular bilan birga so'rashib, namoz o'qiydilar. Falakda turli farishtalar kezib yurar edi. Muhammad alayhi vasallam ular bilan so'rashib, suhbatlashadilar. Hatto ular bilan birgalikda namoz o'qiydilar. So'ngra boshqa payg'ambarlar bilan vidolashib, falak osmoni uzra sayrni boshlaydilar. U yerda ul muborak zot turli farishtalar bilan birgalikda Jannat va Do'zax (Behisht va Saqar)ni ham ko'radilar. Payg'ambar sallolohu alayhi vasallam jannat ahlining ahvolidan xursand bo'lsalar, jahannamda azob chekuvchilarning holatidan qayg'uradilar. Ul zotning ko'kda ilk qadam qo'yishlari shunday tasvir bilan boshlanadi (Maqomi arshga maqdamini qo'ydi). U yerda muqaddas joylarga qadam qo'yadilar. Shu bilan birgalikda, "makondan makonsizlikka (lomakon)ga, ya'ni dunyoviy hayotdan chekinib, Rafrafga minib Allohning huzuriga borganliklari aytiladi:

Hamma mursal nabiyning anda yurdi
 Alar birla suroshib hol surdi

Alar birla namozining o‘qidi
 Vido aytdi qanot osimonig‘a qo‘ydi
 O‘shal damda chiqib ko‘rdi falakni
 Samo uzra to‘la turluk malakni
 Behishtu va ham Saqarni anda ko‘rdi
 Farah qildi alar munglug‘ni ko‘rdi
 Maqomi arshga maqdamin qo‘ydi
 Ki ko‘rdi anda joyi muhtaramni
 Makonidin lomakonga sayr qildi
 Yana Rafraf minib Hazratga bordi

“Turkiy Me’rojnomada”da Me’roj tasviri dastlabki sahih hadislariga monand keladi. Ya’ni unda payg‘ambar sallolohu alayhi vasallam dastlab Masjid-ul Aqsoga borib namoz o‘qiydilar. Rasuli Akram va Alloh taolo orasidagi masofa juda yaqin bo‘ladi. Asarda Allohga nisbatan “Shohi Lavlo” atamasi qo‘llanilgan.

Salom aydi anga vojib taolo
 Alik oldi o‘shal dam Shohi Lavlo.

Alloh bilan so‘zlashish jarayonida Rasuli Akram inson yaxshi ko‘rgan kishisiga tuhfa bilan borishini aytib, ul zot ham o‘z hollariga loyiq tuhfa bilan keldim deb aytadilar.

Rasul aytdi ayo Xalloqi boriy
 Keltur tuhfa bilan yorig‘a yo Rabbiy
 Keturdim man ham o‘z holima loyiq

Keyingi sahifada esa shu tuhfa rasuli Akramning Ollohga qilgan kichik arzlari ekani ko‘rilishi mumkin.

Qodir angla so‘zim tahaffum senga keltumisham,
 Anglasinki hech yo‘q bisotimda nima keltumisham,
 Xohlagay-xohlamagay deb ozg‘ina keltumisham
 Xohishing bo‘lsa borib yonib yana keltumisham
 Boshima tushgan mashaqqatdin kulluhui keltumisham.

Muhokama va natijalar. Muhammad (s.a.v.) Rabi‘ul avval oyining o‘n ikkinchi sanasida, milodiy 571-yil aprel oyida dushanba kuni dunyoga keldilar. Otalari Quraysh aslzodalaridan, xulqi go‘zal, ko‘rkam va omonatdor bo‘lgan Abdulloh ibn Abdulmuttalibdur. Onalari Omina binti Vahbdur.

| | |
|---|--|
| Payg‘ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning ismlari | Muhammad Ibn Abdulloh |
| Payg‘ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning otalarining ismlari | Abdulloh Ibn Abdulmutalib |
| Payg‘ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning onalarining ismlari | Omina binti Vahb |
| Payg‘ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning Otalarining vafotlari | Fil voqeasidan oldin onalari qornida homila ekanliklarida Otalari 25 yoshda vafot etganlar |
| Payg‘ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning Onalarining vafotlari | Onalari Payg‘ambarimiz (s.a.v) 6 yoshda Otalarini qabri va qarindoshlari ziyorati uchun Madinaga borganlarida betob bo‘lib Abvo qishlog‘ida vafot etganlar [www.sammuslim.uz]. |

Ko‘rinadiki, Rasuli Akram ham otalaridan, ham onalaridan erta yetim qoladilar. Bu yetimlik dardi og‘irligini, yetimlar har damda ota-onalarini xotirlashlarini, ular erta-yu kech kunlarini g‘am-g‘ussa bilan o‘tkazishlarini, ba’zi nobakorlar yetim molini yeb yuborishdan ham tonmasliklarini aytib o‘tdi. Me’roj tuni Rasuli Akram ana shunday Haqqa nido qildi. Haq taolo esa bandasining dardlarini eshitdi.

Ey Xudoyo, hech o‘g‘lon otasi o‘lmasin
 Ustiga mendek bo‘lub yana onasi o‘lmasin

Qayga borurni bilmay ko'chalarda yurmasin
 Hech odamni bolasini bu ko'yga solmasin
 Xizmatingga bu erur tahaffum mana kelturmisham
 Man qiyos oldim o'zimdin kim yetimlar holini
 O'tkarur g'am-g'ussa birlan muncha mohi solini
 Kimga tushsa yeb yuborurlar yetimlar molini
 Hech kimarsa o'ylamas yetimlarning ubolini

Shu tariqa Rasuli Akram Haq qoshida yetimlar ahvolidan arz qildilar. Rasuli akram bu holni bayon qilganlaridan so'ng Haq Taolo yana ul muborak zotdan savol so'radi.

Boz Tangri taolo Rasuli Akram sollallohu alayhi vasallamdin savol so'ragani turur

Yana so'rdi payg'ambardin Xudoyim
 Dedi, ey sayyidi har dur saroyim,
 Bu tuhfa bir erur ayg'in uchini
 Bu yerda sarf qilgun ko'ngil ko'chini
 Bayon ayla alarni ham biloyin
 Anga loyiq tadoriklar qiloyin
 G'ubori qolmasin ko'ngulda zarra
 Borini arz ayla sharra-sharra
 Dedi: "Yo Rab, adab saqlab turibman
 Vagar na ayg'ali sayrab turibman".
 Dedi Haq: "So'zlagil anglab turibman,
 Agarchi noravodir man beroyin.
 Ki mezbon uyida mehmon azizdur
 Amal qilsin kishi sohib tamizdur
 Bu kun nima so'z aytsang ko'tarurman
 Seni har ne deganing o'tkarurman.

Alloh taoloning Rasuli bilan bo'lgan suhbat haqida juda ko'p o'rinlarda yozilgan. "Turkiy Me'rojnoma"da ham ushbu o'rinlar ma'lum nasriy sarlavhalar bilan ajratilib berilgan. Alloh taolo ul muborak zotga ko'ngillarida ne bo'lsa so'rashliklarini, ularni barini muhayyo qilishini aytib o'tadi. Rasuli Akram esa odob saqlab turganliklari haqida to'xtaladilar. Shu o'rinda Alloh taoloning gapi o'quvchi e'tiborini tortadi:

"Ki mezbon uyida mehmon azizdir". Bundan ko'rinadiki, Tangri taolo Rasuli Akram bu kechada nima so'rasalar ham muhayyo qiladi.

Me'rojga oid ko'pgina manbalarda Muhammad sallollohu alayhi vasallam Alloh huzuriga borganlarida besh vaqt namozning farz qilingani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Alloh taolo shu Me'roj tunida, Payg'ambarimizga va ham aning ummatlariga ellik vaqt namoz farz qildi. Qaytishlarida Muso alayhissalom yo'liqib, "Ey Muhammad, buni ummatlaring ko'tarolmaydilar. Qayt, Rabbingdin so'ragil, buni yengillatsin", deb u joydin yondirdilar (qaytardilar). Payg'ambarimiz dargohga kelib, yengillik talab qilgan edilar, yigirma besh namoz tushirildi. Muso alayhissalom yana so'rog'il, tushirsin, ummating bunga ham toqat qilolmaydi, dedilar. Shundoq bo'lib, necha qaytadin borib keldilar. Eng oxirida besh namozga qaror topdi. Tangri taolo aytdi: – Ey Muhammad, bir kecha-kunduzda ummatlaringga besh vaqt namoz qildim. Har namozga o'n namoz savobini berdim, u besh vaqt namozni – ellik vaqt namoz o'rnida qabul qildim. Ey Muhammad! Ummatlaringdan har kishi bir yaxshi ish qilmoqqa qasd qilsa, agar uni qila olmasa ham, shu yaxshilik savobini berdim. Agar qasd qilmish yaxshilikni qilib, bitursa, har biriga o'n barobar savob yozdirdim. Yomonlik ishni qilishga niyat qilsalar, ammo uni qilib, yuzaga chiqarmasalar, yomon niyatlari uchun hech gunoh yozdirmadim. Agar u qilgan yomon niyatlarini amalga oshirsalar, birga-bir gunoh yozdirdim, – dedi. So'ngra Payg'ambarimiz bu ishlarga rozilik bildirib qaytdilar. Yo'lda yana Muso alayhissalom yo'liqib: "Ey Muhammad, bu besh vaqt namoz ham ummatlaringga og'irdur. Bundan ham yengilroq qilish chorasini ko'rgil", dedilar. Payg'ambarimiz yana borishga hayo qilganliklaridan bu ishga jur'at qilmadilar. Qiyomatgacha shu besh vaqt namoz ummatlariga farz bo'lib qoldi. Endi bu ulug' safarda Alloh taoloning qudrat-kamoliga hujjat bo'lgudek ne ishlarni ko'rdilarkim, barchalaridin eng ulug'rog'i – shu kechada Jabbori A'zamning jamoli pokiga musharraf bo'lishlaridir.

Bu ersa boshqa hech bir payg‘ambarga berilmagan eng ulug‘ karomat edi. Shuning uchun Rasulullohga berilgan hisobsiz mo‘jizalarning eng ulug‘rog‘i Me’roj mo‘jizasidir [7, 51].

“Turkiy Me’rojnoma”ning Me’roj qismi boshqa manbalardan farqlanadi. Unda, asosan, Rasuli akramning Alloh taolo bilan suhbat bayon etilib, unda ul muborak zot Tangri taologa munojot qiladilar.

Qodir angla so‘zim tahaffum senga keltumisham,
 Anglasinki hech yo‘q bisotimda nima keltumisham,
 Xohlagay-xohlamagay deb ozg‘ina keltumisham
 Xohishing bo‘lsa borib yonib yana keltumisham
 Boshima tushgan mashaqqatdin kulluhu keltumisham.
 Ey Karimo, aytayin tug‘qonda ul otam qani,
 Siynasiga jo qilib emchak berur onam qani,
 Qo‘llariga ko‘torib olib desa bolam qani?
 Koshki biri ketib qolsa, biri ul ham qani?
 Bu yatimlikdin yana ko‘ksim yara keltumisham.
 Bu yatimlikda yana kuykon kimarsa bormikan?
 Ham yatimliqg‘a taqobil hech nimarsa bormikan?
 Ikki dunyoni g‘ami bundog‘ nimarsa bormikan?

Yetimlik ahvolidan shikoyat bilan boshlangan suhbat shu tarzda davom etadi. Ko‘rinadiki, ul muborak zot ham bu darddan aziyat chekadilar, yuraklari qiynaladi. Otasiz va onasiz yashash ul zotga og‘ir tuyuladi.

Muhammad sollalohu alayhi vasallam ota-onalaridan yolg‘iz tug‘ilgan, to‘ng‘ich farzanddir. Chunki Rasuli Akramning otalari Abdulloh Shomga safarga ketayotgan paytlarida, Madinada vafot etganlar. Unda u kishining yoshlari o‘ttizga ham yetmagan edi. Otalaridan shu tariqa ajrab qoladilar. Payg‘ambarimiz zamonlarida shaharlik arablar yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni sahrolik badaviy arab ayollarga emizishga berar edilar. Payg‘ambarimizni Halima ismli ayol emizishga oladi. Halima bolaga mehri tushib qolib, undan keladigan barokatlarni sezib, bolani Ominadan o‘n-o‘n besh yoshgacha tarbiyalashni so‘raydi. Omina ayolga rahmi kelib bolani Halimaga beradi.

Onalari Omina bir kun farzandlariga otasining qabrini ziyorat qildirish maqsadida Madina safariga chiqadilar. Bu safarda Ummu Ayman degan Abdulloh din meros qolgan cho‘rilari hamroh edi. Bir necha kun yo‘l yurishib, salomat Madinaga yetishdilar. Makka shahri bilan Madina oralig‘i tuya yurishida o‘n-o‘n ikki kunlik yo‘ldur. Tog‘a qabilasi ichida bir necha kun mehmonlikda bo‘lishdi. Maqsad o‘talgandin so‘ngra yana Makkaga qaytdilar. Makka va Madina shaharlari orasidagi Abvo degan joyga kelganida onalari Ominada betoblik paydo bo‘ldi va shu joyda ajal yetib, endigina besh yoshga kirgan farzandlarini dodaklari (cho‘rilari) Ummu Aymanga topshirib, yosh juvonlik holda vafot etdi [7, 8-9]. Ko‘rinadiki, yosh Rasul onalaridan ham ajrab, amakilari Abu Tolib qo‘liga qoladilar. Amakilari ul zotni xuddi o‘z farzandlariday katta qiladi. Biroq ota va ona dardi Rasuli akramni bir lahza ham chetlab o‘tmaydi, yetimlik azobini tortadilar.

Men yetimin har ne taqdiriga tanbeh keltumisham
 Dunyoda ko‘rsang, yetimlar barchadin munglug‘ erur
 Xor o‘lur yetim agarchi sajralik tug‘lug‘ erur
 Hazratimg‘a hasratimni ozg‘ina keltumisham
 Ul yetim bulgan kimarsa angla Payg‘ambar erdi
 Ul dam yetimlik dardini me’roj tuni Haqqa dedi
 Bu yetimlik sharbatini ichdi odam sayyidi
 Sen bilan menga bu ishni ibrat olsun deb aytdi
 Men qazosig‘a rizo bermakka tan keltumisham
 Mundayin arzin dedi Me’roj tuni Haqqa Rasul
 Alqissa
 Rasul me’roj tuni bu arzin aytdi
 Xudo lomakon ham tahsin aytdi
 Dedi Olloh seni o‘z nurimdin yaratdim
 Vale naslingni Odamdin yaratdim

Shafi u Muznibin qo'y dum otingni
Senga o'tdim gunohi ummatingni.

“Nuri Muhammadiya”ga ko'ra, Alloh taolo barcha olamlarni yaratishdan avval bir nur yaratgan. U Muhammad nuri bo'lib, shu nur tufayli olamni yaratadi. “Turkiy Me'rojnomasi”da aynan shu jihatga to'xtalib o'tadi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida ham bu haqida ma'lumot bor. Asarning 3-bobida: Payg'ambar Rasuli akram madhi – na'ni o'z ichiga oladi. Bobda Navoiy “Nuri Muhammadiya” haqida fikr yuritarkan, bu nur olam yaratilishidan ham ilgari mavjud bo'lganligini, Odam Atodan Shis payg'ambarga va shu orqali ko'plab nasllarga o'tib, Rasuli Akramning otalari Abdullohga yetib kelganligi va nihoyat uning farzandi chehrasida payg'ambarlik nuri sifatida zohir bo'lganligini yozadi [6, 5].

Xudoyim qildi ul dam mehmonlig'
Senga aylay ziyofat mehmonlig'
Qilay ro'zi jazo sayri dori mahshar
Senga yana ham bor mahshar
Suvora sen bo'lursan, el piyoda
Jami anbiyolar o'ngu so'lda
Oni kunda jami avliyolar

Islom ta'limotida mahshar kuni, ya'ni qiyomatda dunyo tugagach insonlar hammasi bir joyda to'planadi. Alloh taolo bularni so'roq qiladi. Asarda bu voqealarga ham ishora berib ketiladi. Unda Rasuli Akram barchaga suvora (otliq, ot-ulovga mingan holda) bo'lishlari, qolgan payg'ambarlar esa u zotning o'ng va so'l tomonlarida borishlari aytib o'tiladi.

Alar keyinida jumlayi ulamolar
Xate ozodni sanchib boshiga
Yig'ilur jumlayi osiylar qoshiga
O'shal yerda tilagin, men beroyin
Arosat ichida xushnud qiloyin
Xudoyingdin bilursan rozi anda
Keling ko'pdur dili bu yerda manda
Qilurman suyi jannati ishorat
Kirursan boshlayubon osiy ummat
Yururlar ko'tarib anda lavongni?
Ko'rorsan ul zamon lutfi Xudongni
Qilursan anda jannat ichra javlon

Payg'ambarning ortidan esa barcha olim-u ulamolar yuradilar, barcha gunohkorlar uning oldiga yig'iladilar. Alloh taolo o'sha yerda nima tilasa berishini va qiyomatda Alloh taolodan rozi bo'lishini aytadi. Yana Allohning marhamati shunda ediki, U zot bandalarning gunohlaridan o'tib, jannatga ishora qilib o'tadi, osiy bandalar gunohlaridan poklanib jannatga yo'l oladilar. U yerda martabasi ko'tarilib, Allohning lutfini ko'rishini o'z rasuliga aytib o'tadi.

Muallif esa fikrlarni davom ettirib, Alloh va uning rasuli o'rtasida yana qancha kishi bilmas so'zlar borligini va bir qancha va'dalar berilganini aytib o'tadi hamda Allohning keng marhamatidan umid qilib, Undan umidsiz qilmasligini, O'zidan umidvorligini aytib “Turkiy me'rojnomasi”ning “Me'rojnomasi” qismiga yakun yasaydi.

Yana ul yerda necha so'zlar erdi
Kishi bilmas na turluk va'da qildi.
Bu kamtarni, yo karimo, qilma noumid
Sening keng rahmatingdin aylar umid
Tammam bil xayr, bil xayr.

Xulosa. Ushbu asar orqali Me'roj hodisasi, samoda payg'ambarimizning Alloh bilan uchrashganliklari, payg'ambarlar, farishtalar haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda Rasuli Akramning yoshlik yillaridagi kechmishlari haqida ham ma'lumot olishimiz mumkin. Asarning “Me'roj noma” qismida Me'roj kechasi bilan bog'liq ana shunday fikrlar bayon etilgan. Ushbu bo'lim orqali muallif

o'quvchiga me'roj kechasi bilan birgalikda, Allohdan hech vaqt umidsiz bo'lmaslik haqida ham aytib o'tadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov A. E'tiqod durdonalari. – T.: O'zbekiston, 2012. – 72b.
2. Axtam Ahmedov. "Muorijun-nubuvvat" asari tarixiy manba sifatida. "International scientific – practical online conference" jurnali, 2020. – 28-29-may. – 870 b.
3. Imom Buxoriy. Al jome as- sahih. I jild. – T.: Qomuslar, 1991. – 58 b.
4. Imomi A'zam Abu Hanifa. Musnad. – T.: Hilol, 2014. – 79 b.
6. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq. – T.: Adabiyot va san'at, 1991. – 366 b.
6. Me'rojnomyi turkiy. Buxoro adabiyot va san'at muzeyi. – T.: G'ulomiya, 1914. Inv. 23497/11.
7. Sog'uniy Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiy. – T.: Movarounnahr, 1997. – 51 b.
8. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2019. – 174 b.
9. Turdiyev Jahongir Zafariddin o'g'li. Turkiy tildagi me'rojnomalarning qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. – T., 2022. – 13 b.
10. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. – T: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti matbaa birlashmasi, 2012. – 187 b.
11. O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning qisqacha tarixlari va ahli baytlari. 11.12.2017. www.islamonline.uz

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

*Kenjayev Mirzoxid Ergashevich,
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Xorijiy tillar kafedrasi mudiri, dotsent
(O'zbekiston)
E-mail: chettillar626@gmail.com*

NEMIS TILIDAGI ILOVA KONSTRUKSIYA ELEMENTLARINING STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola nemis tilidagi ilova konstruksiya elementlarining strukturaviy va funksional xususiyatlariga bag'ishlangan. Muallif mazkur maqolada ilova konstruksiya elementlarining aniqlik, kengaytirish va qo'shimcha ma'lumot berishda tutgan o'rnini batafsil ko'rib chiqadi. Tadqiqot davomida ilova konstruksiya elementlarining grammatik, semantik va pragmatik jihatlarini tahlil qilinib, ularning matnga qo'shimcha ma'no kiritish va uni yanada tushunarli qilishdagi ahamiyati yoritiladi. Ilova konstruksiyalari vazifasi, tuzilishi, tinish belgilari va semantik xususiyatlariga qarab tasniflanadi. Shuningdek, badiiy va ilmiy matnlar hamda kundalik muloqotdagi roli, til o'rgatish, tarjima va lingvistik tadqiqotlardagi ahamiyati keng muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ilova, ilova konstruksiyalari, asosiy so'z, qo'shimcha ma'lumot, nemis tili, sintaksis, semantika.

Аннотация. Статья посвящена структурным и функциональным особенностям присоединительных элементов конструкции в немецком языке. Автор подчеркивает их роль в уточнении, расширении и добавлении дополнительной информации в предложениях. В исследовании выделяются их грамматическое, семантическое и прагматическое значения, демонстрируется, как присоединительные структурные элементы обогащают текст и делают его более понятным. Конструкции классифицируются по функциям, структуре, пунктуации и семантическим признакам. Также обсуждается их значение в художественных, научных текстах и повседневном общении, а также их важность в преподавании языка, переводе и лингвистических исследованиях.

Ключевые слова: приложение, конструкции приложений, основное слово, дополнительная информация, немецкий язык, синтаксис, семантика.

Abstract. The article explores the structural and functional features of appositional construction elements in the German language. It emphasizes their role in clarifying, expanding, and adding supplemental information within sentences. The study highlights their grammatical, semantic, and pragmatic significance, showcasing how conjunctive structural elements enhance textual richness and clarity in communication. It categorizes conjunctive structural elements based on their function, structure, punctuation, and semantic attributes. The article also discusses their relevance in artistic, scientific, and everyday communication contexts and examines their importance in language teaching, translation, and linguistic research.

Keywords: Apposition, appositional construction, main word, additional information, German language, syntax, semantics.

Kirish. Nemis tilining sintaktik tizimida ilova konstruksiyalari alohida o'rinni egallaydi. Bu konstruksiyalar, odatda, jumladagi asosiy komponentlarni aniqlashtirish, kengaytirish yoki ularga qo'shimcha ma'lumot berish uchun ishlatiladi. Ilova konstruksiyalari tildagi turli darajadagi ma'lumotlarni izohlash va tuzilish jihatidan aniq ifodalash uchun muhim vositadir. Ushbu elementlar nafaqat grammatik jihatdan, balki semantik va pragmatik nuqtayi nazardan ham tahlilga loyiq.

Ilova konstruksiyalarining strukturaviy va funksional xususiyatlari nemis tilining boshqa til tizimlaridan ajralib turadigan o'ziga xos jihatlaridan biridir. Ular matni uslubiy jihatdan boyitib, muloqotda aniq va ravshan axborot almashishga imkon beradi. Ilovalarning tuzilishi, funksiyasi va qo'llanilish holatlari, ayniqsa, badiiy va ilmiy matnlarda, hamda kundalik muloqotda o'ziga xos ifodalash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Asosiy qism. Ilova – bu jumlada biror soʻzni aniqlash yoki kengaytirish uchun ishlatiladigan qoʻshimcha ibora yoki soʻz birikmasidir. Ilova, odatda, aniqlanayotgan soʻz (asosiy soʻz) bilan bevosita bogʻlanadi va undan sintaktik jihatdan mustaqil boʻlgan holda ham maʼnoli yaxlitlikni tashkil etadi. Masalan: *Mein Bruder, ein talentierter Musiker, spielt Klavier.* Bu jumlada *ein talentierter Musiker* ilovasi *Mein Bruder* soʻzini aniqlab, uning maʼnosini kengaytiradi.

Ilovalar nemis tilida quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

1. Ular asosiy soʻz bilan grammatik jihatdan moslashadi (kelishik, rod, son).
2. Koʻpincha vergul, chiziqcha yoki qavslar orqali ajratiladi.
3. Jumlaning semantik va pragmatik yukini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Nemis tilida ilovalar turli xususiyatlariga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

I. Funksiyasi boʻyicha:

1. Aniqlovchi ilovalar (*restriktiv Appositionen*): Ushbu ilovalar asosiy soʻzning maʼnosini aniqlaydi yoki chegaralaydi. Masalan: *Der Schriftsteller Thomas Mann hat den Nobelpreis gewonnen.* Bu yerda *Thomas Mann* soʻzi *der Schriftsteller* soʻzini aniqlab, chegaralaydi.

2. Qoʻshimcha ilovalar (*nicht-restriktiv Appositionen*): Ushbu ilovalar asosiy soʻzga qoʻshimcha maʼlumot beradi, lekin uni chegaralamaydi. Masalan: *Mein Vater, ein bekannter Arzt, wohnt in Berlin.* Bu yerda *ein bekannter Arzt* asosiy soʻz haqida qoʻshimcha maʼlumot beradi.

II. Grammatik tuzilishi boʻyicha:

1. Oddiy ilovalar (*einfache Appositionen*):

Bu bir soʻz yoki qisqa iboralardan iborat boʻlib, asosiy soʻzni aniqlaydi. Masalan: *Der König Ludwig starb im Jahr 1886.* Bu yerda *Ludwig* oddiy ilova hisoblanadi.

2. Murakkab ilovalar (*komplexe Appositionen*):

Bu bir nechta soʻzdan iborat boʻlib, asosiy soʻzning maʼnosini kengaytiradi. Masalan: *Der Maler Vincent van Gogh, ein Meister des Impressionismus, wurde berühmt.* Bu yerda *ein Meister des Impressionismus* murakkab ilova hisoblanadi.

III. Tinish belgilariga koʻra:

1. Ajratilgan ilovalar: Vergul, chiziqcha yoki qavslar orqali ajratiladi. Masalan: *Der Wissenschaftler, ein berühmter Physiker, sprach auf der Konferenz.*

2. Ajratilmagan ilovalar: Xech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi. Masalan: *Die Stadt Berlin ist die Hauptstadt Deutschlands.*

IV. Semantik xususiyatlari boʻyicha:

1. Identifikatsion ilovalar: Asosiy soʻzni aniqlab, shaxs yoki obyektini aniq belgilaydi. Masalan: *Das Buch „Der Zauberberg“ ist ein Klassiker.*

2. Deskriptiv ilovalar: Qoʻshimcha izoh yoki taʼrif beradi. Masalan: *Die Alpen, eine bekannte Bergkette, ziehen viele Touristen an.*

Nemis tilida ilova konstruksiyalari lingvistik tizimning koʻp funksiyali elementi boʻlib, ular jumlaning aniqlik darajasini oshiradi va maʼnosini boyitadi. Ilovalarning grammatik, semantik va uslubiy jihatlarini chuqur oʻrganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy nemis tilini oʻqitishda ham muhim ahamiyatga ega.

Nemis tilidagi ilova konstruksiyalari nafaqat grammatik jihatdan, balki funksional va semantik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ular jumlada turli vazifalarni bajarib, maʼno aniqligini oshiradi va muloqotda qoʻshimcha maʼlumot yetkazadi. Quyida ilova konstruksiyalarining asosiy funksional xususiyatlari keltirilgan:

1. Maʼlumotni aniqlashtirish va kengaytirish. Ilovalar asosiy soʻzning maʼnosini aniqlashtiradi yoki unga qoʻshimcha maʼlumot beradi. Bu funksiyalar orqali jumla mazmuni aniq va tushunarli boʻladi. Masalan: *Mein Bruder, ein erfahrener Ingenieur, arbeitet bei Siemens.* Bu yerda *ein erfahrener Ingenieur* ilovasi *Mein Bruder* soʻzini aniqlaydi va kengaytiradi.

2. Maʼlumotni cheklash va chegaralash. Baʼzi ilovalar asosiy soʻzning maʼnosini chegaralash yoki aniq belgilash vazifasini bajaradi. Masalan: *Der Dichter Goethe schrieb „Faust“.* Bu yerda *Goethe* soʻzi *Der Dichter* soʻzini aniqlab, kim haqida gap ketayotganini belgilaydi.

3. Kontekstual muloqotda soddalik yaratish. Ilova konstruksiyalari yordamida matndagi murakkab maʼlumotlar soddalashtiriladi va izohlanadi. Bu, ayniqsa, ilmiy yoki texnik matnlarda

muhimdir. Masalan: *Die Photosynthese, ein Prozess, bei dem Pflanzen Sonnenenergie nutzen, ist lebenswichtig*. Bu jumlada ilova murakkab tushunchani izohlaydi.

4. Tilning uslubiy boyligini oshirish. Badiiy va publitsistik matnlarda ilovalar uslubiy ma'no qo'shadi va matnni ifodali qiladi. Masalan: *Die Berge, majestätische Hüter der Natur, ragen in den Himmel*. Bu yerda *majestätische Hüter der Natur* ilovasi poetik uslub yaratadi.

5. Tinglovchining e'tiborini jalb qilish. Pragmatik jihatdan ilovalar muhim ma'lumotlarga e'tibor qaratish vositasi sifatida ishlatiladi. Jumlada ilova yordamida asosiy yoki qo'shimcha ma'lumot ajratib ko'rsatiladi. Masalan: *Albert Einstein, der Begründer der Relativitätstheorie, revolutionierte die Physik*. Bu jumlada ilova *der Begründer der Relativitätstheorie* asosiy fikrni kuchaytiradi.

6. Qo'shimcha kontekst berish. Ilova yordamida asosiy so'zga aloqador ma'lumotlar kiritiladi, bu esa matnni boyitadi va kontekstni kengaytiradi. Masalan: *Das Buch „Der kleine Prinz“, ein Klassiker der Weltliteratur, wird oft zitiert*. Bu yerda *ein Klassiker der Weltliteratur* ilovasi asosiy so'z haqida qo'shimcha kontekst beradi.

7. Semantik rolni kuchaytirish. Ilovalar semantik jihatdan ma'lum bir obyekt yoki shaxsning xususiyatlarini ta'kidlaydi. Masalan: *Die Stadt Berlin, die Hauptstadt Deutschlands, ist sehr multikulturell*. Bu yerda ilova *die Hauptstadt Deutschlands* Berlin Germaniyaning poytaxti sifatida aniqlaydi.

8. Dinamiklik qo'shish. Ilovalarning mavjudligi matnni dinamika bilan to'ldirib, jumlaning monotonligini bartaraf etadi. Bu tilning jonli va o'ziga xos bo'lishiga hissa qo'shadi.

Nemis tilidagi ilova konstruksiyalari muloqotda aniqlik ma'noning boyligini va mazmunga ega bo'lishda muhim rol o'ynaydi. Ular turli kontekstlarda, xususan, ilmiy, badiiy, rasmiy va kundalik muloqotda samarali foydalaniladi. Ilovalarni tahlil qilish ularning sintaktik va semantik jihatlari bilan birga pragmatik ahamiyatini ham yoritishga imkon beradi.

Ilova konstruksiyalari tilshunoslikda o'zining ko'p funksiyali tabiati bilan ajralib turadi. Ularning qo'llanilishi turli sohalarida, jumladan, badiiy matnlar, ilmiy va rasmiy uslub, hamda og'zaki va yozma nutqda farq qiladi. Quyida har bir sohada ilova konstruksiyalarining o'ziga xos funksiyalari va qo'llanilish xususiyatlari keltirilgan.

Badiiy matnlarda ilova konstruksiyalari uslubiy bo'yoqdorlik va matnning ifodaviy kuchini oshirish uchun keng qo'llaniladi. Badiiy nutqning maqsadi – tinglovchining yoki o'quvchining his-tuyg'ularini uyg'otish, tasavvurlarini kengaytirish va ta'sir o'tkazish. Ilovalar bu jarayonda asarlarni yanada ma'noli, qiziqarli va badiiy qilishda yordam beradi.

- **Ma'lumotni ta'riflash:** Ilovalar orqali qahramonlar, joylar, obyektlar yoki voqealar haqida qo'shimcha ma'lumot beriladi. Bu tasvirlarni boyitib, o'quvchi yoki tinglovchining tasavvurlarini kengaytiradi. Masalan: *Der Wald, ein dunkler und geheimnisvoller Ort, verbirgt viele Geheimnisse*. Bu yerda *ein dunkler und geheimnisvoller Ort* ilovasi o'quvchining tasavvurida o'rmonni boyitadi.

- **Badiiy tasvir:** Ilovalar matndagi to'qimalarni yanada chuqurlashtirib, uslubni bezatadi. Ular badiiy asarlarda ko'pincha qo'shimcha obrazlar yoki qarama-qarshiliklarni yaratish uchun ishlatiladi. Masalan: *Die Sonne, ein riesiger Feuerball am Himmel, verbrannte die Erde*. Ilova *ein riesiger Feuerball am Himmel* tasvirni dramatik ravishda kuchaytiradi.

Ilmiy va rasmiy uslubda ilovalar ma'lumotning aniq va to'liq yetkazilishiga yordam beradi. Ular murakkab tushunchalarni izohlash, atamalarni aniqlash va umumlashtirishda keng qo'llaniladi. Ilovalar ilmiy matnlarda terminlarning o'zgarish va to'g'ri ishlatilishini ta'minlaydi.

- **Aniqlik va tushunarlilik:** Ilovalar ilmiy ishlarda, xususan, murakkab kontsepsiyalarni izohlashda foydalidir. Ular yordamida turli ilmiy atamalar yoki fenomenlarning ma'nosi yanada aniqlashtiriladi. Masalan: *Die Photosynthese, ein biochemischer Prozess, bei dem Pflanzen Lichtenergie in chemische Energie umwandeln, ist lebenswichtig für das Ökosystem*. Bu jumlada *ein biochemischer Prozess* ilovasi *die Photosynthese* atamasining ma'nosini aniqlashtiradi.

- **Texnik izohlar:** Ilovalar texnik va ilmiy maqolalarda, masalan, mexanik yoki biologik jarayonlarni ta'riflashda qo'llaniladi. Bu o'quvchiga murakkab texnik ma'lumotlarni soddalashtirishga yordam beradi. Masalan: *Der Motor, ein Gerät zur Umwandlung von Energie, wird in vielen modernen Maschinen verwendet*. Bu yerda ilova *ein Gerät zur Umwandlung von Energie* texnik ma'lumotni aniq izohlaydi.

Muhokama va natijalar. Kundalik muloqotda va yozma nutqda ilovalar o‘ta muhim ahamiyatga ega, chunki ular ma’lumotning to‘g‘ri yetkazilishiga va fikrning aniqligiga yordam beradi. Ilovalar og‘zaki va yozma nutqda qo‘shimcha izohlar, aniqliklar yoki tahlillar kiritish uchun ishlatiladi.

- **Kundalik muloqotda:** Og‘zaki nutqda ilovalar, asosan, qo‘shimcha tushuntirishlar yoki izohlar berishda ishlatiladi. Ilovalar yordamida suhbatda ma’lum bir mavzu haqida aniqroq fikr bildirish mumkin. Masalan: *Mein Freund, ein leidenschaftlicher Sportler, geht jeden Tag ins Fitnessstudio*. Bu jumlada *ein leidenschaftlicher Sportler* ilovasi do‘stining xarakterini aniqlab beradi.

- **Yozma nutqda:** Ilovalar yozma nutqda, xususan, maqolalar, hisobotlar yoki insholarda, ma’lumotni to‘g‘ri va ravshan yetkazishda qo‘llaniladi. Ular yordamida yozuvchi o‘z fikrlarini tushunarli va aniq qilishga harakat qiladi. Masalan: *Das Buch „1984“, ein dystopischer Roman von George Orwell, wurde 1949 veröffentlicht*. Bu jumlada *ein dystopischer Roman von George Orwell* ilovasi kitobning janrini va muallifini aniqlaydi.

Ilova konstruksiyalari turli sohalarda o‘zining funksional va semantik jihatlari bilan muhim rol o‘ynaydi. Badiiy matnlarda ular uslubiy boylik yaratishda ishlatiladi, ilmiy va rasmiy uslublarda esa ma’lumotning aniq va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Kundalik muloqotda va yozma nutqda ilovalar fikrlarni to‘g‘ri va aniq ifodalash uchun ishlatiladi. Har bir sohada ilovalar o‘z vazifasini bajarib, tilni yanada boyitadi va muloqotni samarali qiladi.

Ilova konstruksiyalarining nazariy va amaliy tavsifi nemis tilining sintaksisiga doir chuqurroq tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Ilovalar tilning eng asosiy sintaktik elementlaridan biri bo‘lib, ular asosiy so‘zga bog‘lanib, ma’no aniqligi, ma’lumotning kengayishi va izohlanishiga xizmat qiladi. Nemis tilidagi ilova konstruksiyalarini tahlil qilish va o‘zbek tilidagi ilovalar bilan qiyoslash nafaqat grammatika, balki ularning semantik va pragmatik funksiyalarini ham yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ilova konstruksiyalarining tahlili tilning sintaktik tuzilishini yanada chuqurroq o‘rganishga imkon beradi. Asosiy so‘z va ilova o‘rtasidagi sintaktik bog‘lanishlarni o‘rganish nemis tilining murakkab sintaktik tuzilmalarini yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, grammatik tuzilmalarni o‘rgatishda o‘quvchilar uchun foydalidir, chunki ilova konstruksiyalari asosiy so‘z bilan bevosita bog‘lanadi va ular to‘g‘ri qo‘llanilishi orqali tilning asosiy tuzilishi o‘rganiladi.

- **Nazariy ahamiyat:** Ilova konstruksiyalari, asosan, sintaksisda ma’lumotni aniqlash, izohlash va kengaytirishda ishlatiladi. Bularni nazariy jihatdan tahlil qilish, tilshunoslarga tilning sintaktik tizimining yanada chuqurroq va aniqroq tasvirini taqdim etadi.

- **Amaliy ahamiyat:** O‘quvchilar va til o‘rganuvchilar ilova konstruksiyalarini to‘g‘ri tushunish orqali jumalarni aniq va ravshan tuzishda qobiliyatlarini oshiradilar. Bu, ayniqsa, tarjima va til o‘qitish amaliyotida muhim ahamiyatga ega.

Ilova konstruksiyalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi til o‘qitish va tarjima jarayonida katta ahamiyatga ega. O‘quvchilar va tarjimonlar ilova konstruksiyalarining grammatik va semantik xususiyatlarini tushunib, ularni to‘g‘ri qo‘llash orqali aniq va samarali nutq qurishlari mumkin.

- **Til o‘qitishda:** Ilovalarni o‘rganish til o‘rgatishda qo‘llaniladigan ko‘plab metodikalarni boyitadi. O‘quvchilarga ilova konstruksiyalarini o‘rgatish orqali, ular to‘g‘ri va ravshan jumlar qurishni o‘rganadilar, bu esa grammatikani chuqurroq tushunishga yordam beradi.

- **Tarjima amaliyotida:** Tarjimonlar uchun ilova konstruksiyalarini to‘g‘ri tarjima qilish muhim ahamiyatga ega. Nemis tilidagi ilovalarni o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilishda, jumladagi semantik ma’no va grammatik tuzilishni saqlab qolish zarur. Shuningdek, tarjimonlar uchun ilova konstruksiyalarining ko‘plab turli tillarda qanday qo‘llanilishi va tarjimasi haqida qo‘llanma yaratish foydalidir.

Xulosa. Ilova konstruksiyalarining tahlili nemis tilshunosligi bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun poydevor yaratadi. Bu konstruksiyalarni o‘rganish tilshunoslarga nemis tilining sintaktik, semantik va pragmatik jihatlarni o‘rganishda yangi yondashuvlar yaratadi. Shu bilan birga, nemis tilidagi ilovalar boshqa tillar bilan qiyoslash, tilshunoslikda lingvistik analitik usullarning samarali qo‘llanishini ta’minlaydi.

Ilova konstruksiyalarining sinxron va diaxron tahlili, dialektal farqlarni o'rganish, hamda ilovalarni boshqa til va madaniyatlar bilan qiyoslash sohalari nemis tilshunosligi bo'yicha yangi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

Ilova konstruksiyalarining boshqa tillar bilan qiyoslanishi, xususan, german tillari oilasidagi boshqa tillar bilan, tilshunoslarga translingvistik (xalqaro) yondashuvlarni rivojlantirish imkonini beradi.

Ilova konstruksiyalarining nazariy va amaliy tavsifi nemis tilining sintaksisini chuqurroq o'rganish imkonini yaratadi. Bu, o'z navbatida, til o'qitish va tarjima jarayonida samarali qo'llanilishiga yordam beradi. Ilova konstruksiyalarini o'rganish orqali, til o'rganuvchilar va tarjimonlar tilni aniq va ravshan qo'llashni o'rganadilar. Shuningdek, bu tadqiqotlar nemis tilshunosligi bo'yicha yangi tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Begmatov M.B. Ilovali elementlarning matnda ifodalanshi. Tarjima, axborot, mulohaza – siyosiy va ijtimoiy ko'priki. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand: SamDCHTI, 2018. –B. 403-404.
2. Бегматов М.Б. Тўлдирувчилар билан ифодаланган иловали элементларнинг функциялари. Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарқанд, 1999. –145 б.
3. Begmatov, M. (2024, April). Badiiy matnda antetsedentli ilovali elementlarning ifodalanishi. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*. – B. 471-473.
4. Bushuy A.M. Ziyayeva S. Ilovali so'z birikmasi ingliz tili sintaktik sathda derivatsion hodisa sifatida. Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. – Samarqand: SamDCHTI, 2004. – №3(12). –B. 9-19.
5. Eisenberg, P. Grundriss der deutschen Grammatik: Der Satz (4th ed.). Stuttgart: Metzler, 2013. – 605 p.
6. Haider H. The Syntax of German. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 371 p.
7. Ibragimov A. Appositive Constructions in Uzbek: Syntactic and Functional Aspects. – Tashkent: Tashkent University Press, 2016. – 326 b.
8. Tursunov B.T., Safarov Sh.S. Присоединение второстепенных членов предложения. Вестник КазГУ. Серия филологическая. – №27. – Алматы, 2000. – С. 90-91.
9. Wiese, R. The Syntax of German. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 386 b.

*Rustamov Akbar Sayfulloyevich,
Buxoro viloyati hokimining davlat tili
masalalari bo'yicha maslahatchisi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(O'zbekiston)*

E-mail: akbar2683@umail.uz, akbar.rustamov.1983@mail.ru

BUXORO TARIXIY ERGONIMLARI

Annotatsiya. Buxorodagi tarixiy ergonimlar mahsulotlar, ko'rsatiladigan xizmatlar, boshqa bir obekt yoki subyekt, tarixiy-tadrijiy omillar asosida nomlanganligi ayonlashadi. Bu bilan tariximizning ajralmas qismi sanalgan ergonimlar orqali o'tmish zamon hamda makondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotning manzarasi ko'z o'ngimizda gavdalanishiga imkon yaratiladi. Ushbu maqolada Buxoro ergonimlari shakllanishining tarixiy asoslari keltirilgan. Buxoro tarixiy ergonimlari tasniflangan. Tarixdagi ergonimlarning bugungi muassasa va tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llanilishi orqali ularning leksik, leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan, ma'naviy ishoralar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ergonimlar, tarixiy ergonimlar, ergonimlarning shakllanishi, til hodisalarini diaxron va sinxron o'rganish, ergonimlarning boshqa onomastik birliklar bilan aloqalari.

Аннотация. Оказывается, исторические эргонимы в Бухаре были названы в зависимости от продукции, оказываемых услуг, другого объекта или субъекта, а также исторических и эволюционных факторов. Это позволяет нам визуализировать социально-политическую, экономическую и культурную жизнь прошлого посредством эргонимий, которые являются неотъемлемой частью нашей истории. В статье изложены исторические основы формирования бухарских эргонимов. Классифицированы исторические эргонимы Бухары. Через применение исторических эргонимов к современным учреждениям и хозяйствующим субъектам раскрываются их лексические и лексико-семантические свойства. Выявляются содержательные отсылки.

Ключевые слова: эргонимы, исторические эргонимы, образование эргонимов, диахроническое и синхроническое изучение языковых явлений, связи эргонимов с другими ономастическими единицами.

Abstract. It is revealed that historical ergonyms in Bukhara are named based on products, services provided, another object or subject, historical and developmental factors. This allows us to visualize the picture of socio-political, economic, and cultural life in the past and space through ergonyms, which are an integral part of our history. This article presents the historical foundations of the formation of Bukhara ergonyms. Bukhara historical ergonyms are classified. Through the application of historical ergonyms to today's institutions and business entities, their lexical, lexical-semantic properties are revealed. Spiritual references are revealed.

Keywords: ergonyms, historical ergonyms, the formation of ergonyms, diachronic and synchronous study of language phenomena, the relationship of ergonyms with other onomastic units.

Kirish. Ergonim va ergonimiya tushunchalari o'tgan asrning saksoninchi yillarida qo'llanila boshlandi, o'zbek tilshunosligida esa uning nazariy asoslari 2022-yilda ishlab chiqildi. Tadqiqotlar asosida respublikamizdagi ergonimlarni o'rganish, ularning diaxron va sinxron tadqiqini amalga oshirish zarurati o'rtaga chiqdi.

Asosiy qism. Qadim Sharqning markaziy shahri sifatida Buxoroda savdo-sotiq, sanoat, ishlab chiqarish, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish rivojlangan. Tabiiyki, shaharda ushbu yo'nalishga mo'ljallangan korxonalar va tashkilotlar faoliyat yuritgan. Xususan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida to'quvchilik sohasiga ixtisoslashgan "Bayt ut tiroz" nomli korxonalar mavjudligi eslatib o'tiladi [7, 13]. Buxoro tarixiy ergonimlarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1) o'tmishda qo'llangan tarixiy ergonimlar: bunday ergonimlarni o'z navbatida ikkiga ajratish mumkin:

a) muassasa, tashkilot o'tmishda mavjud bo'lgan hozirgi kunda mavjud emas, u bilan birga nom ham ishlatilmaydi.

b) muassasa yoki tashkilot hozirgi kunda ham mavjud, shuning uchun uni atovchi nom ham saqlanib qolgan; masalan, Ko'kaldosh, Abdullazizxon, Ulug'bek, Minorayi kalon, Masjidi kalon va boshqalar. Bunday tashkilot, muassasalarni ma'lum birlari hozirgi kunda ham faoliyat yuritmoqda, bino hamda nomi qo'llanilsa ham faoliyat yuritmayotganlari ham mavjud.

d) tarixiy ergonimlar ma'lum bir yangi tashkilot yoxud muassasaga nisbatan ishlatiladi.

2. Ma'lum bir yangi tashkilot yoxud muassasaga nisbatan ishlatiladigan tarixiy ergonimlar. Masalan, X asrda Buxoroda "Farjak" madrasasi tashkil etilgan, shu nom asosida hozirda Buxoroda "Farjak" o'quv markazi faoliyat yuritmoqda.

Buxoroga turli joylardan tolibi ilmlar kelib tahsil olishgan. Buxoroda tashkil etilgan "Farjak" madrasasi haqida Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida ma'lumot keltirilgan. U mazkur madrasaning shaharning "Samarqand darvoza" qismida joylashgan ekanligini, yonib vayron bo'lganligi haqida ma'lumot keltiradi. Keyinchalik ushbu madrasa ta'mirlangan, XIII asrda unda mashhur mudarris Ma'sud Imomzoda dars berganligi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Hozirgi kunda "Farjak" madrasasi saqlanib qolmagan.

XX asr boshlarida Buxoroda 400 ga yaqin madrasalar faoliyat ko'rsatganligi haqida Muhammad Ali Baljuvoni ma'umot yozib qoldirgan. Madrasalar odatda, hukmdorlar, hukumatning obro'li kishilari, xalq orasida obro' qozongan ziyolilar tomonidan tashkil etilgan, ularning nomalinishi ham aksariyat hollarda ularning ismi bilan bog'liq bo'lgan. Ulug'bek, Abdulazizxon, Nodir devonbegi, Ko'kaldosh, Mirarab, Mehtar Anbar va hokazolar. Ma'lum bir madrasalarning nomlanish u joylashgan joyga nisbatan qo'yilgan.

Muhokama va natijalar. Buxoro va Buxoro ergonimlari haqidagi qimmatli ma'lumotlarni O.A.Suxareva "Buxoro.XIX asar va XX asr boshlarida" nomli 1966-yil nashr etilgan kitobida [9, 214] jamlagan. U mazkur ma'lumotlarni bir qator boshqa xorijlik va mahalliy olimlar, sayyohlarning, diplomatik missiya vakillarining ma'lumotlari orqali jamlagan. U bunday ma'lumotlarni keltirishda dastlab N.Xanikov manbalariga tayangan Buxorodagi rus tarjimoni P.Yakovlev keltirgan dalillarga asoslanadi. P.Yakovlev Buxoroning xaritasini tuzib chiqqan, unda davlat xizmatchilaridan tortib, to xususiy sektorgacha bo'lgan joylarning xaritasini keltirib o'tadi.

Shayboniylar sulolasi davrida Buxoroda juda ko'p obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Savdo jonlandi. Ilm-fan masalasida ancha muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatgan, maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlangan. Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, Toqi Zargaron, Timi Abdullaxon kabi savdo va xizmat ko'rsatgan. Toqi Sarrofondan pul almashtirish vazifasi bajarilgan, Toqi Telpakfurushda telpak, Toqi Zargaronda zargarlik ishlanmalari bilan savdo qilingan. Timi Abdullaxonda turli ashyo, mahsulotlar sotilgan.

Mazkur obidalarni diaxron tahlil qilish jarayonida bu obyektlarni ergonim sifatida qarash mumkin, madrasalarning deyarli barchasi hozirgi kunda ergonim sifatida belgilanmaydi, bu bino va inshootlar obodonlashtirish yoki Madaniy meros obyektlarini himoya qilish boshqarmasi tasarrufiga o'tkazilgan. Mirarab, Xotin-qizlar madrasasi kabi inshootlar hozirgi kunda ham faoliyat yurgizmoqda. Toqlar va timlarda hozirda ham savdo munosabatlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, maxsus ergonim sifatida qaralmaydi.

Rus tadqiqotchisi O.A.Suxareva ma'lumotlariga tayangan holda, hozirda nekronim sifatida qaraladigan qabriston, mozar, ziyoratgoh, maqbara kabilarning tahliliga o'zgacha yondashish lozimligini taqozo qiladi. Hozirda biz ziyoratgoh sifatida qaraydigan makonlar o'z davrida ma'lum bir tashkilot vazifasini o'tagan. Bu nuqtayi nazardan qaralganda ularni o'z davri jihatidan ergonim deb qarash to'g'ri bo'ladi. Olimaning kitobida Buxoro suv ta'minotini tartibga solish uchun hovuzlar qurilganligi haqida ma'lumot keltiriladi. Shohrud arig'idan shahar tarkibidagi turli joylarida qazilgan hovuzlarga suvlar to'plangan, yomg'ir. qorli paytlarda shulardan hovuzlarga suv yig'ilgan. 1925-1926-yillarda hovuzlarga 220 joydan suv yig'ilganligi haqida yozib qoldirilgan. Suv ariqlarga Zarafshon daryosidan quyilgan. Sovet Ittifoqi tashkil topishining dastlabki yillarida Buxoro shahrida Havzi nav-Yangi hovuz nomi bilan yana bir hovuz qurilgan. Ma'lumotlarga qaralganda, har bir hovuzga 82580 kub, ya'ni 6606376 chelak suv yig'ilgan. Olim L.M.Isayevning maqolasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahrida bunday hovuzlar 100ga yaqin ekanligini ko'rsatadi [6, 83]. Feninning ro'yxatida esa 80 ta hovuz mavjud bo'lganligini qayd etgan. Rangrez, qozi Nuriddin, Xalfa Husayn, Pochoxo'ja, Bulg'or, Rashid, Shayx-

shoh, Qutlug', G'aribiya, Mirakon, Shohmalik, Toyibxo'ja, Havzi nav, Shahrinav, Qozi, Jilovxona, Mirdo'stim, Qofilon, Tursunxo'ja, Xo'ja Tuyg'un, Mirzo Botur, Shoh arab, Mirjon keldi, Boqi xon nav, Axtachi, Farmonqulbek, Molkush, Kosagaron, Garmak, So'fiyon, Saraxsiyon, G'oziyon, Gavkushon, Muhammadyor otaliq, Abob, Xo'ja Aspgardon, Mirakon, Jilavxona, Murdasha'yon, Tabibon, Shishaxona, Bodom, Nodir qurchi, Sarbono, Qulmahmad hoji, Zindafil Ahmadi Jomi, Ahmad darg'a, Oqmachit, Hazrat Ayyub, Qozi Fayzi, Shermuhammad juvozkash, Nazarcha, Bo'yrafob, Olimxo'ja, Shukurbiy, Mirzo G'afur, Qozikalon, Xo'ja Zayniddin, Lesak, Devonbegi, Cho'pboz, Chorbaqqoli, Qoshuqi, Xo'ja Nurobod, Halol, Murdor, Oybinok, Kalobod, Xo'ja Hasan, Xo'ja Tabband, Ko'chabog', Dilkushoyi darun, Jafarxo'ja, Mullo Ashur, Sharifboy, Qorakamol, Jo'yi chappa, Mir Taxuri devon, Chordara kabi hovuzlar nomini keltiradi. Ushbu hovuz nomlarini gidronim deb ataymiz, ammo bularda amalga oshirilgan faoliyat turi nuqtayi nazaridan ergonimik ahamiyat kasb etadi.

Buxoroda joylashgan bozorlar umumiy savdo maydonlari, maxsus yopiq binolar, tim va toqlar, aniq, belgilangan mahsulotlar sotilishiga mo'ljallangan maydonchalar hamda karvonsaroylardan iborat bo'lgan. Chakana savdolar, ba'zi tovarlarni sotishga ixtisoslashgan joylarda amalga oshirilgan, ammo ko'tara savdo ishlari karvonsaroylarda va u erda joylashgan hujralarda olib borilgan. Buxoroda faol xizmat ko'rtuvchi, faol savdo olib boruvchi joylar yo'llarning kesishgan joylarida joylashgan, bunday joylar ba'zi erlarda Chorsu deyilgan, Buxoro shhrida bunday maskan Toq deb atalgan. Odatda, Chorsu deb nomlanuvchi savdo majmualari chorrahalarda joylashgan. Toqi Tirgaronda turli dehqonchilik uskunalari, pichoq, o'q-yoy va boshqa shunga o'xshash mahsulotlar sotilgan. Toqi Allofida un mahsulotlari bilan savdo qilingan.

Buxoro shahrining ichki savdosi uchun muhim bozorlardan biri Registonda bo'lgan. Unga turli mahsulotlar sotilgan. U erdagi savdo maskanlari ham ayni mahsulotning nomi bilan yuritilgan, hozirgi kunda ham xuddi shunday atalib kelinadi. Bozori alaf, Bozori go'sfand, Bozori kord, Bozori non va boshqalar. Sadriddin Ayniy yozib qoldirganidek, qo'y, qo'zi (Bozori go'sfand), ot bozori (Bozori asp) shahar darvozasidan tashqariga kochirilgan. Katta masjid (Masjidi Kalon) va Mir Arab o'rtasida paxta bozori (bozori g'o'za) hamda pilla bozori (bozori pilla) ham faoliyat ko'rsatgan.

Xanikov Buxoroga sayohati davomida o'ttiz sakkizta karvonsaroy mavjud bo'lgani, ulardan yigirma to'rttasi tosh va g'ishtdan, o'n to'rttasi yog'ochdan qad rostlaganini aytadi. Kapitan Fenin bunday karvoysaroylarni XX asr boshlarida oltmishta ekanligini yozib qoldirgan bo'lsa, M.S. Yusupov yetmishdan oshganligini qayd etadi va ularning nomlarini ham keltirib o'tadi: Saroyi Jannat makoni, Saroyi domullo Sher, Saroyi Hakim oyim, Saroyi Xonayi kalon, Saroyi podshohi (Saroyi qushbegi, Saroyi qozi kalon), Saroyi shonataroshi, Saroyi Mirzoqul, Saroyi Qarshi, Saroyi sanduq, Saroyi Matatillo, Saroyi Badriddin, Saroyi chiti chatti, Saroyi G'ulomjon, Saroyi latta, Saroyi Sayfiddin, Saroyi Barri ko'hna, Saroyi Rashid, Saroyi Jo'rabek, Saroyi Xo'jayi xurd, Saroyi Hindi, Saroyi Barri nay, Saroyi qushbegi, Saroyi Sindil, Saroyi no'g'ay, Saroyi karvonboshi, Saroyi Kapkoz (oldin Saroyi Hindi deb atalgan), Saroyi Abdullojon, Saroyi Urganch, Saroyi sangin, Saroyi sanduq, Saroyi Avazbadal, Saroyi chinni, Saroyi Ulug'bek, Saroyi Ahmadi kalla, Saroyi Ayoq, Saroyi Fathullojon, Saroyi Badalbek, Saroyi pushaymon, Saroyi shakar, Saroyi qozi kalon yoki saroyi choy, Saroyi mullo Oston, Saroyi urganji, Saroyi Zohidjon, Saroyi Mirzo Fozil, Saroyi So'xta yoki Saroyi ushturxona, Saroyi Rajabbek, Saroyi buzg'unch, Saroyi Poyi oston, Saroyi meshi, Saroyi kafsh-u mahsi, Saroyi po'sti cho'bin, Saroyi xo'rjin, Saroyi abreshim, Saroyi tamaki, Saroyi qolin, Saroyi Rajabbek, Saroyi po'st; M.S. Yusupov yana o'nta karvonsaroy nomini keltiradi: Saroyi mayiz, Saroyi choy, Saroyi zig'ir, Saroyi anor, Saroyi g'o'za (turli matolar sotilgan), Saroyi sabzi, Saroyi g'o'lung, Saroyi angisht, Saroyi taroshi, Saroyi kapponi birinj kabi.

Karvonsaroylar yana turli yurtlardan kelgan mehmonlar, savdogarlar uchun boshpana, mehmonxona vazifasini ham o'tagan. Karvonsaroylarga, odatda, ma'lum bir yerdan kelgan savdogar yoki musofirlarga xizmat ko'rsatgan, masalan, urganchlik savdogar yoki mehmonlarning aniq bir qo'nim makoni bo'lgan, ular uchun doimiy xizmat ko'rsatuvchi maskan vazifasini o'tagan, ya'ni ayni bir joyning odamlari uchun muntazam qo'alg'a vazifasini o'tagan. Shundan kelib chiqib, karvonsaroylar nomlangan. Xorazmlik savdogar va musofirlarga xizmat qiluvchi karvonsaroy Saroyi Urganjiho deb yuritilgan. Toshkentlik savdogarlar tomonidan asosan Toshkentning soyaki mayizlari keltirilgan va bu joy Saroyi mayizi Toshkandiho nomini olgan. Bu borada jiddiy tadqiqotlar olib borgan M.S. Yusupov Buxoro

karvonsaroylarining qurilishi, undagi hujralar soni, qanday xizmatlar ko'rsatilganligi haqida ham ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Olimning mazkur ishidan anglash mumkinki, hujralar ham ma'lum bir vazifalarga ixtisoslashgan, shundan kelib chiqib, ma'lum nomlar bilan ham atalgan. Mashhur Ko'kaldosh madrasasiga yaqin bo'lgan hududda Saroyi Jannati makon nomli ikki qavatli karvonsaroy bo'lgan, unda o'ttiz ikkita hujra mavjud bo'lib, o'n sakkiztasi birinchi qavatda, o'n to'rtta hujra esa ikkinchi qavatda joylashgan. Birinchi qavatda choy va turli xil ziravorlar sotuvchi savdogarlar qo'nim topgan, bu savdogarlar chofurushi attor, ular savdo faoliyatini olib boruvchi joy esa do'koni attoron deb nomlangan. Yuqorida keltirilgan muassasa nomlarining qo'yilishi shaxs nomlari, sotiladigan mahsulot nomlari, qayerliklar bilan aloqalar mavjudligi asosida nomlangan. Bu nomlarning aksariyati forsiy va arabiy kalimalardan tashkil topgan. E'tibor qilinsa, saroy so'zining asl, bosh ma'nosi ham aynan shu o'rinlarda qo'llanilganligini kuzatish mumkin. O'zbek tilining etimologik lug'atida bu so'z "karvonlar to'xtab o'tadigan joy, dam oladigan keng hovli" ma'nolarini anglatgan, keyinchalik "qasr" ma'nosini ham ifodalagan [9, 208].

XVIII – XIX asrlarda Buxoro shahrida yigirmaga yaqin hammom bo'lgan. Toqi sarrofon bozori yonida sarrofon yoki Modarixon hammomi faoliyat yuritgan. Sarrofon (Modarixon), Taxti Chorbog'(mashhadi Qosim), Gavkushon, Abdulloxon, To'qumdo'zi, Amiri bozori kafi, Misgaron kabilar erkaklar hammomi sanalgan, Xo'ja Porso, Domullo Sher, G'oziyon, Hazrati Ayyub, Kunjak, Poyi ostona, Xo'ja Habibullo (Xiyobon) kabilar faqat ayollarga xizmat ko'rsatgan. Shishaxona hammomi esa ham erkak, ham ayollarga xizmat qiluvchi hammom bo'lgan. Hammom so'zi forsiy kalmina bo'lib, Buxoroda hambom, ya'ni bir tom osti degan ma'noni anglatadi. Hammomlarning nomlanishi u joylashgan mahalla, bozor yoki uni ta'sis qilgan shaxslar nomi bilan yuritilgan.

Fenin ma'lumotlariga ko'ra, quyidagi madrasa nomlari keltiriladi: Mirzabek Oxun, To'raqul, Sharifjon, Muhammad Yunusbiy, Mullo Muhammad Sharif, Chuchuk oyim, Volidayi Aziz yoki Modarixon, Muzaffarxo'ja, Miyon Ishoq, Yormuhammad yasovul, Mirzo Hamdam, Mir Badri Sohibi kor, Mirzo Turdi ellikboshi, Avazboy arab, Hoji Qosim yoki Hoji Hasan, G'oziyoni kalon, G'oziyoni xurd, Gahband, Olimjon, Abdurahmon a'lam, Pushaymon, Pashid, Ismoilxo'ja, Husaynboy, Hoji Zohid, O'tkur qushbegi, Xo'ja Nihol, Madali hoji, Ahmadjoni po'stindo'z, Dor ush-shifo, Bozori go'sfand, Sadirboy, Mullo Ro'zi Arab, Mirkamoli sarrof, Xidirboy, Badalbeki ko'hna, Ayoziy, Xoji Davlat, Eshoni afg'on, Muhammadnazar parvonachi, Rahmonqul, Tursunjon, Mir arab, Quchoq, Abdulazizxon, Abdushukurboy, Rahmatqul qorovulbegi, Elnazar, Ko'kaldosh, Nodir devonbegi, Domullo Sher, Abdunazar mufti, Saroyi tash, Qori Mullo Sulton, Xurjin, Domullo Hasan, Xo'ja Muhammad nabi, Ibrohim oxund, Mirzo Fuzayl, Muhammad Amin to'pchiboshi, Esh Uzoqbek, Saidkamolboy, Fathullo qushbegi, Xo'ja Hasan, Gavkushon, Hoji Abrorxo'ja, Badalbeki nav kabi qator madrasalar faoliyat ko'rsatgan. Bularning nomlanishida uch holat ko'zga tashlanadi:

- madrasalar shaxslar nomi asosida qo'yilgan;
- ma'lum bir bozor nomi asosida nomlangan;
- mahalla nomi bilan berilgan;
- ma'lum masjid nomi bilan bog'langan.

Buxoro chor mustamlakachilari tomonidan istilo qilinganidan so'ng yangi-yangi muassasa, tashkilot, korxonalar tashkil etila boshlandi. Shaharning gavjum savdo faoliyati yuritiladigan qismlarida banklar qurilgan. Bundan tashqari ambulatoriyalar, tug'ruqxona va dorixonalar tashkil etildi. Yurtimiz tarixiy-madaniy taraqqiyotidan ma'lumki, bizda shifo maskanlari qurilgan, u yerlarda bemorlar davolangan, turli dorivor o'simliklardan xalq tabobati va kimyoviy usullarda dori-darmonlar tayyorlangan, bu soha muassasalarining va soha kishilarining atalishi uchun ma'lum nominativ birliklar ham mavjud bo'lgan. Tibbiyot tarixiga bag'ishlangan kitoblarda "Avesto"dan tortib to hozirgacha bo'lgan tibbiyoti tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan, mazkur kitoblarda shifoxonalarning mavjud bo'lgani, ularda yuzdan ortiq kasallik turlarining davolanilganligi, bir necha dori vositalaridan foydalanilganligi haqida ma'lumotlar berilgan [1, 96]. Kasalxonalar va dorixonalar nomi umumiy nomlar bilan atalgan, hozirgi kunda ham davlatga tegishli shifo maskanlarining maxsus nomi mavjud emas, ular raqamlar, kasallik turi yoki hududiy bo'linishlar asosida nomlanadi. Masalan, Buxoro shahar markaziy shifoxonasi, Ko'z kasalliklari klinikasi va boshqalar. Xususiy meditsina xizmatlarini tashkil etgan shaxslar esa ma'lum

bir nomlar asosida ish ko'rishadi. Dorixonalarga nisbatan ham shunday fikrni aytish mumkin, muassasa peshtoqiga "Dorixona" yoki "Apteka" yozuvlari mavjud bo'ladi, xolos.

Xulosa. Demak, Buxorodagi tarixiy ergonimlar mahsulotlar, ko'rsatiladigan xizmatlar, boshqa bir obyekt yoki subyekt, tarixiy-tadrijiy omillar asosida nomlanganligi ayonlashadi. Bu bilan tariximizning ajralmas qismi sanalgan ergonimlar orqali o'tmish zamon hamda makondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotning manzarasi ko'z o'ngimizda gavdalanishiga imkon yaratiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Rustamova X., Stojarova N., Abdurashitova Sh., Nurmamatova Q. Tibbiyot tarixi. – T.: O'zkitobsavdo, 2020. – 216 b.
2. Kilichev B. Buxoro toponimlari izohli lug'ati. – Buxoro: Durdona, 2024. – 147 b.
3. To'rayev H. Buxoro toponimikasi. – Buxoro: Durdona, 2021. – 275 b.
4. Saparniyazova M., Umurzakova C. Neyming va onomastika: ergonimlarning funksional xususiyatlari // O'zMU xabarlari. – T., 2022. – №1/7. – B. 254-257.
5. Saparniyazova M. O'zbek tilida ergonimlar (struktur-semantik, pragmatik va lingvomadaniy aspekt). Monografiya. – T.: Bookmany print, 2023. – 168 b.
6. Исаев Л.М. Ришта и ее ликвидация в Узбекистане. Труды Узбекского института малярии и медицинской паразитологии, т. II, Самарканд, 1956. – С. 78-96.
7. Наршахий. Бухоро тарихи. – Т.: Kamalak, 1991. – 64 b.
8. Сухарёва О.А. Бухара – XIX- начало XX век. – Москва: Наука, 1966. – 312 с.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III жилд. – Т.: Университет, 2009. – 281 б.

*Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi,
BuxDU dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)
E-mail: u.s.ahmadova@buxdu.uz*

PERIFRAZALARNING TERMINOLOGIK APPARATI VA TASNIFI

Annotatsiya. Maqolada perifrazalarning termin sifatida paydo bo'lishi, u xususida olimlarning qarashlari, nazariyalari keltirilgan bo'lib, jahon va o'zbek tilshunosligidagi qiyosi, psixolingvistik xususiyatlari haqida so'z boradi. Perifrazalar tushunchalarni aniq, yorqin va obrazlilikka xos tarzda namoyon etish xususiyatiga ega bo'lib, perifrazalar aks ettirgan ma'no ko'p ma'noli hisoblanib, undagi qaysi ma'noni tanlab olish bevosita kontekstga bog'liq holda yuzaga kelishi, turli nutq uslublarida, asosan, so'zlashuv, publitsistik va badiiy uslublarda, qisman ilmiy uslubda ham qo'llanishi, nutqiy muloqot jarayonida perifrazalardan unumli foydalanish til boyligini oshirish bilan birgalikda undagi turli xil tushunchalarni ham ifodalash imkonini berishi, perifrazalarning tarkibiy qismi va semantik jihatdan guruhlanishiga oid masalalar mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: til, uslub, tilshunoslik, perifraza, tasviriy ifoda, nutqiy muloqot, hodisa, sotsial, semantik.

Аннотация. В статье представлены взгляды, теории ученых на возникновение перифраз как термина, его сопоставление в мировом и узбекском языкознании, психолингвистические особенности. Перифразы обладают свойством выражать понятия четко, ярко и образно, значение, отражаемое перифразами, считается многозначным, выбор в нем значения происходит в зависимости от непосредственного контекста, может применяться в различных стилях речи, главным образом в разговорном, публицистическом и художественном стилях, а также частично в научном стиле, эффективно использовать перифразы в процессе речевого общения в сочетании с увеличением языкового богатства, они также позволяют выражать в нем различные понятия, освещается сущность вопросов, касающихся структурной и семантической группировки перифраз.

Ключевые слова: язык, стиль, лингвистика, перифраз, образное выражение, речевое общение, явление, социальный, семантический.

Abstract. The article presents the emergence of peripherals as a term, the views, theories of scientists, and talks about their comparison, psycholinguistic features in world and Uzbek linguistics. Peripherals have the property of manifesting concepts in a clear, bright and figurative way, the meaning reflected by peripherals is considered ambiguous, and the choice of which meaning in it occurs directly depending on the context, can be used in various styles of speech, mainly in colloquial, journalistic and artistic styles, in part in a scientific one, and the productive use of peripherals in, the essence of the issues related to the content and semantically grouping of peripherals is covered.

Keywords: language, style, linguistics, periphrasis, figurative expression, speech communication, phenomenon, social, semantic.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, til tizimidagi barcha uslubiy vositalar uning yanada taraqqiy etishiga, tilda ifoda etilajak ma'nolarga qo'shimcha mazmun yuklashga xizmat qiladi. Ana shunday til vositalaridan biri bu perifrazalar hisoblanib, ular nutqiy muloqotimiz jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi [23].

Hozirgi tilshunoslikda perifraza hodisasi juda qadimiy, u qadim zamonlarga borib taqaladi va uzoq tarixga ega hodisadir. Ushbu lisoniy hodisaning tabiati va mohiyati hali to'liq ochib berilmagan. Perifrazaga oid mavjud ta'riflar esa tilshunoslikdagi bu stilistik hodisalarning aniq farqlanishini, mohiyatini ta'minlay olmaydi. "Perifraza" hamda "parafraza" tushunchalarini anglashdagi mavjud farq, perifraza fenomenini o'rganishga yondashuvlarning xilma-xilligi uning turli xil ta'riflari uchun sabab bo'ldi. Perifrazalarni bir so'z bilan "so'z yoki so'z birikmasi o'rnida qo'llanadigan tavsiflovchi ibora" deb ta'rif berish mumkin.

Antik davr tilshunosligi nazariyasida perifraza hodisasi tavsiflovchilik bilan uzatiladi, taqiqlangan soʻz va iboralarni almashtirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi perifrazaning shunchaki koʻrinadigan tashqi shakllari boʻlib, antik davr nazariyachilari perifraz hodisasining chuqurligiga kira olmaganlar. Ayrim tilshunoslarning fikricha, boshqa ifoda yoki alohida soʻz semantikasining umumiy yoki tavsiflovchi ifodasi vazifasini bajaradigan mustaqil iboradir [11]. Shuningdek, hodisalar va narsalarni bilvosita belgilashdan iborat boʻlgan maxsus stilistik shakl [18]. Taʼrif quyidagicha boʻlsa, yaʼni “biror narsa-hodisa yoki shaxsni obrazli tavsiflovchi ibora yoki jumla” aynan perifrazani soʻzdan ajratib turadi.

Asosiy qism. “Perifraza” termini Yevropa tillaridan oʻzlashtirish natijasidir. Buni ushbu atamaning ikkita varianti tasdiqlaydi. Perifrazaning birinchi varianti olingan atamaning grammatik jinsini saqlab qolish qobiliyatini ifodalasa, ikkinchi variant esa maʼlum bir soʻzning tovush koʻrinishini qayta yaratadi. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlarda perifraz atamasining sinonimlari ham mavjud. Jumladan:

- 1) metafraza (yunoncha metafráz “aylana nutqi”);
- 2) kenning (shotl., kenning “tan olish”);
- 3) aylanma (lotincha “aylana nutqi”) [11].

Shu bilan birga, uning rus tilidagi oʻxshash variantlari ham mavjud: tavsif, ishora, band, allegoriya va boshqalar.

Fikrimizcha, yuqoridagi terminologik tasodiflar noaniq boʻlib, oʻzlari nomlab kelayotgan hodisani toʻlaligicha aniq tavsiflab bera olishmaydi. Fransuzcha atamaga tayanadigan zamonaviy tilshunoslarning fikrlarini oʻrinli deb hisoblash mumkin. Ularning fikrlaricha, perifraza – odatda, maʼlum bir narsada namoyon boʻladigan hodisalar shakllaridan birini ochib beruvchi hodisa [16].

Turli ilmiy adabiyotlarda mavjud boʻlgan perifraza taʼriflarini batafsil tahlil qilish perifrazani tushunish va taʼriflashning keng doirasini ochib berishga yordam beradi. Mavjud taʼriflarda perifraz tushunchasining koʻlami va mazmuni sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu manbalarning ayrimlariga diqqat qaratsak, ularda perifrazaga quyidagicha taʼrif berilganligini koʻrishimiz mumkin:

- a) tasviriy koʻchirish boʻlgan tasviriy yasash; boshqa konstruktsiya yoki alohida soʻzning semantikasi boshqa ifoda yoki alohida soʻz semantikasining umumiy yoki tavsiflovchi ifodasi vazifasini bajaradigan mustaqil ibora [5, 243]. Shuningdek, hodisalar va narsalarni bilvosita belgilashdan iborat boʻlgan maxsus stilistik shakl [4, 852].
- b) maʼlum bir soʻz yoki iborani toʻyingan nutq figurasi bilan almashtirishdan iborat boʻlgan maxsus stilistik vosita [5, 341]. Bu tushunchalar guruhiga iborani nutqdagi figura sifatida tavsiflovchi taʼriflar kiradi. Shu bilan birga “perifraziya” atamasi taʼrifining doirasi ekspressivlikdan foydalanish uchun qoʻllaniladi [7, 542].
- c) nutqni ifodalash uchun qoʻllaniladigan koʻchma maʼno boʻlgan badiiy ifoda. Bu holda perifraza atamasining hajmi perifrazani stilistik vosita sifatida talqin qilishdan koʻra torroqdor. Bunday vaziyatda ekspressivlikni yaratish uchun barcha tavsiflovchi iboralar ham perifraza sifatida tan olinmaydi. Bular ichiga faqat majoziy maʼnoga ega boʻlganlarigina kiradi.
- d) semantik jihatdan boʻlinmaydigan soʻz birikmasi [6, 226]. Tavsiflovchi birikmaning asosiy vazifasi obyekt yoki hodisaning xarakterli xususiyatlarini taʼkidlashdan iboratdir [3, 246]. Kombinatsiya va iboraning lingvistik tushunchalari muqobil “ifoda” atamasi emas, balki “perifraza” atamasini mohiyatan biroz cheklashi mumkin.
- e) tavsiflovchi nominatsiya, asosan, metonimik xarakterli [8, 556]. Ushbu taʼrif perifrazani tilning nominativ birliklari qatoriga kiritadi. “Nominatsiya” tushunchasi tavsif belgisi bilan bir qatorda ikkilamchi xususiyat belgisi tufayli oʻziga xoslikni yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, perifraza ikkinchi darajali nominativ birlik vazifasini bajaradi. Masalan, *Birinchi xonim* – davlat rahbarining rafiqasi, *qizil sayyora* – Mars, *Kremlning egasi* – Rossiya rahbari va h.k.

Biroq, perifrazaning taʼriflari orasida kontsepsiya mavzusi aniq belgilanmagan yoki noaniq boʻlgan boshqalar ham mavjud. shuningdek, perifrazaning taʼrifi mavjud boʻlib, u til vositalarining kodiga tushiriladi. U mohiyatan mos keladigan hodisa yoki obyekt nomini almashtiradi [9].

Lingvistik lugʻatda perifrastik shaklning quyidagicha taʼrifi mavjud: ikki yoki undan ortiq elementlardan tashkil topgan tavsif ifodasi; birikma tavsiflovchi kompleks; oddiy soʻzni obrazli tavsiflovchi ibora va hokazo [12,207].

Shuni ta'kidlash kerakki, perifrazalar o'zlarining grammatik tuzilishi jihatdan farq qiladi. Hozirgi turkiy tillarda turkiy fe'l shakllarining boyligi va xilma-xilligi asosida tuzilgan maxsus murakkab fe'l birikmalari, ayniqsa, keng tarqalgan [17].

Umuman olganda, perifrazaga mavzuga aloqador murojaat nuqtayi nazardan tavsiflovchi ifoda, ibora, stilistik vosita kabi ta'riflar bir-biriga nisbatan turkum-turlar bo'yicha tasniflanadi [12, 207]. Shu munosabat bilan "perifraza" atamasining konseptual asosining murakkabligini tushunish mumkin. Tilshunoslik manbalarida, yuqorida aytib o'tganimizdek, perifrazaning konseptual mohiyatini belgilashda farqlar mavjud. Ammo, shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, yuqorida sanab o'tilgan ta'riflarning har biri perifraza mohiyatini teranlashtirishga, aniqlashtirishga yordam beradi. Tilning tabiati nuqtayi nazardan, perifraza obyektning nomini o'zgartirishni anglatadi va shuning uchun ularning ma'no nomlarini bevosita almashtiradigan umumiy so'z turkumlari bilan birgalikda ko'rib chiqishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Perifrazalarning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi turli tillarda xilma-xil kechgan. Xususan, perifrazalar rus tilshunosligida qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ularning har biri bu hodisaga o'ziga xos nuqtayi nazardan yondashgan. Jumladan, A.A.Potebnya o'zining tilshunoslikka oid asarlaridan biri "Русская грамматика" (1864-1865) asarida u tasviriy ifodalarning tilning ma'no boyligi va uning evolyutsiyasida muhim rol o'ynashini alohida ta'kidlab o'tgan [15, 287]. Rus tilining leksik-semantik jihatdan shakllanishida o'zining munosib hissasini qo'shgan V.V.Vinogradov "Русский язык" (1938) asarida perifrazalarni leksik-semantik variantlar, sintaktik konstruktsiyalar va semantik kategoriyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ularning ma'no xususiyatlarini ochib bergan [10, 64]. L.V.Shcherba tomonidan esa perifrazalar nutqning fonetik jihatlari, so'zlarni talaffuz etishi va fonetik o'zgarishlar hosil bo'lishida tasviriy ifodalarning o'rni haqida o'zining fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan [21, 74].

"Происхождение и развитие русского языка" (1972) asari muallifi sanalmish D.N.Shmelev perifrazalarning tilning tarixiy taraqqiyotida qanday taraqqiy etganligi borasida o'z fikrlarini berib o'tgan [20, 280]. Bugungi kunga kelib, tasviriy ifodalarga yondashuvlar ham ortib, zamonaviy rus tilshunoslari tomonidan perifrazalarning psixolingvistik xususiyatlari, ularning nutqda qo'llanilishi va ma'lumot uzatishda o'ynaydigan roli lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilmoqda. Ingliz tilshunosligida ham bu borada qator amaliy ishlar olib borilgan bo'lib, jumladan, Geoffrey Leech "Principles of Pragmatics" asarida perifrazalarning nutqdagi pragmatik funksiyalarni tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o'tgan [2, 78]. Geoffrey Leech nutqning pragmatik jihatlari, jumladan, perifrazalarning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishi haqida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. Ronald Langacker tomonidan "Cognitive Grammar" nazariyasi orqali perifrazalarning inson miyasidagi bilimlarni qayta ishlash jarayonida qanday rol o'ynashi haqida tushunchalar rivojlantirildi [22]. R.Langackerning tadqiqotlari perifrazalarning psixolingvistik xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. George Lakoff "Metaphors we live by" asarida perifrazalarning metafora bilan qanday bog'liqligini va ular odamlarning dunyo haqidagi tasavvurlarini qanday shakllantirishini izohlab ko'rsatdi [22]. Lakoffning tadqiqotlari ham perifrazalarning kognitiv va madaniy jihatlarni o'rganishga katta hissa qo'shganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. John Lyonsning "Semantics" asarida perifrazalarning ma'no tizimida qanday o'rin egallaganligi va ularning turli ma'noli so'zlarni ifodalashdagi roli ko'rsatib berildi [22]. J.Lyonsning tadqiqotlari perifrazalarning semantik xususiyatlarini tushunishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Perifrazalarni o'rganish bugungi kunda ham davom etmoqda va hozirgi kunda ko'plab tilshunoslarda bu sohaga qiziqish bildirmoqdalar. Ularning tadqiqotlari turli xil til va madaniyatlarda perifrazalarning rolini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

O'zbek tilshunosligida ham ushbu soha bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, Sh.Allayorovanning "Perifrazaning tilshunoslikdagi vazifalari va xususiyatlari" nomli maqolasida perifrazalarning ilmiy tadqiqot ishlarida tutgan roli xususida so'z yuritiladi. Muallifning fikriga ko'ra, "Matndagi izohli perifrazaning asosiy ma'nosi shundan iboratki, ular shaxsga, narsaga va hodisaga keyingi xususiyatlarni beradi (axborotli), muhim belgilarga urg'u beradi (tavsiflovchi), o'zlarida muallifning subyektiv belgilarini (obyektivlik) saqlaydi va takrorlashdan qochish uchun xizmat qiladi. Professional yozuvchilar esa qisqalikka moyil va ularning asosiy maqsadi tinglovchiga ma'lumotlarni yetkazib berish. Biroq muallif perifraza misolidan ataylab foydalanishni tanlashi mumkin bo'lgan ko'plab sabablar mavjud. Muallif uni dialogda ma'lum bir qahramonning aylanma nutq uslubiga ega ekanligini

ko‘rsatish uchun foydalanishi mumkin (odatda haddan tashqari xushmuomalalik, beadablik, ikkilanish va shunga o‘xshash belgilar). Shoirlar, shuningdek, o‘quvchilarni yangicha fikr yuritish uchun allaqachon ma‘lum bo‘lgan narsani tasvirlashning yangi usulini topish maqsadida perifriza stilistik qurilmasidan foydalanisga moyil. Bunday vaqtda perifriza stilistik qurilmasi metafora yoki o‘xshatish orqali amalga oshirilishi mumkin [1, 15]”. Demak, keltirilgan parchadan ko‘rinib turibdi, nutq jarayonida perifrizarlarning kim tomonidan qo‘llanishi ularning maqsadiga muvofiq holda shakllantiriladi hamda bu nutqiy kontekstdan anglashiladi.

O.Ikrombekovning “Arab va o‘zbek perifrizarlarining semantik-sintaktik strukturasi” [23] nomli maqolasi o‘zbek tilshunosligida qiyosiy yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tahlil namunalaridan biri bo‘ldi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Unda ta‘kidlanishicha, perifrizarlar nutqimizning go‘zal, ko‘rkam bo‘lishiga hissa qo‘shuvchi asosiy vositalardan biri sanaladi. Muloqot jarayonini obrazli aks ettirish maqsadida perifrizarlardan unumli foydalanish ularning o‘ziga xosligini ta‘minlab beruvchi muhim omil hisoblanadi.


M.Mirtojiyev o‘zbek tilshunosligida perifrizarlar xususida o‘z fikrlarini dadil ayta olgan olimlardan biridir. Muallifning ta‘kidlashicha, “Perifrizarlar ma‘lum bo‘lagi yoki bo‘laklari ko‘chma ma‘noda bo‘lib, ular ma‘nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug‘aviy birlikdir. ... Perifriza holda maqom olgan birikmada, garchi semantik qayta bo‘linish kechgan bo‘lsa ham, unda sintaktik qayta bo‘linish kuzatilmaydi [13, 42]”. Demak, perifrizarlarning boshqa sintaktik butunliklardan farqi aynan qayta bo‘linish hodisasining kuzatilmasligida namoyon bo‘ladi.

Perifrizarlar xususidagi nomzodlik dissertatsiyasi I. Umirov tomonidan “O‘zbek tili perifrizarlari” nomi ostida e‘lon qilingan. Ushbu nomzodlik ishida perifrizarlar qator guruhlarga tasniflanadi [19, 23]:

1. “Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra: leksik perifriza, frazeologik perifriza, sintaktik perifriza, logik perifriza, sof va kontekstual perifriza.

2. Semantikasiga ko‘ra: mualliflik ma‘nosini ataydigan perifriza, kasb-kordagi mahoratni anglatadigan perifriza, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini anglatadigan perifriza, ijodkor asaridagi biror g‘oya va mavzuni bildiradigan perifriza, san‘at namoyandalari yaratgan o‘lmas obrazlarni bildiradigan perifriza, muassasa va muayyan joylarni anglatadigan perifriza, suyuqlik va texnika predmetlarini anglatadigan perifriza, tabiat hodisalarini va o‘simliklarni anglatadigan perifriza, jonivor nomlarini anglatadigan perifriza, shaharlarni ifodalaydigan perifriza”.

Bir so‘zni boshqa birliklar yordamida ifodalash perifrizarlar (tasviriy ifodalalar) termini bilan yuritiladi. Perifrizarlar tarkibiy qismlarga bo‘linib, uni quyidagicha tasniflash mumkin [23] (1.1-chizmaga qarang):



1.1-chizma. Perifrizarlar tarkibiy qismlari

Perifrizarada dominant – perifrizaraning manosi ifodalaydigan asosiy so‘z hisoblanib, perifriza qaysi so‘z uchun izoh vazifasini bajarilmoqda, shuni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Perifrizarada eksplikant - perifrizaraning ma‘nosini aniqlashtiruvchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari sanalib, bir so‘z bilan aytganda, izohlovchi vazifasini bajaruvchi so‘zlar jamlanmasi hisoblanadi. Perifriza elementlari bu umumiy tushunchadir, u perifrizarani tashkil etuvchi dominant va eksplikantlarni umumlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, perifriza tushunchasi ham mavjud bo‘lib, perifrizarlarning tuzilishini ifodalaydigan chizma o‘laroq shakllantiriladi [14, 81]. Bunga misol sifatida quyidagi perifrizarani tahlil qilsak:

Alisher Navoiy – soʻz mulkinging sultoni.

Alisher Navoiy – dominant.

Soʻz mulkinging sultoni – eksplikant.

Alisher Navoiy – soʻz mulkinging sultoni – element.

Model – dominant > eksplikant.

Bundan tashqari, perifrazalar *maʼno jihatidan* ham qator guruhlariga tasniflanadi (1.1-jadvalga qarang):

1.1-jadval

Semantik jihatdan perifrazalar guruhlanishi

| <i>T/r</i> | <i>Perifrazalar turi</i> | <i>Maʼno jihatidan guruhlanishi</i> | <i>Misol</i> |
|------------|--|--|---|
| 1 | Meteorologik perifrazalar | Tabiat hodisalariga nisbatan qoʻllanadi. | Oq par - bulut |
| 2 | Anatomik perifrazalar | Inson tana aʼzolarining qismlariga nisbatan ishlatiladi. | Ikki gavhar – koʻz |
| 3 | Zoologik perifrazalar | Hayvonlarga nisbatan qoʻllanadigan perifrazalar | Oʻrmon shohi – sher |
| 4 | Botanik perifrazalar | Oʻsimliklarga nisbatan ishlatiladigan tasviriy ifodalar | Dala malikasi – makkajoʻxori |
| 5 | Obyektiv perifrazalar | Narsalarga nisbatan ishlatiladigan perifrazalar | Qora oltin – neft |
| 6 | Shaxslarga nisbatan qoʻllanadigan perifrazalar | Kishilarni tasvirlash uchun qoʻllanadigan perifrazalar | Alisher Navoiy – sheʼriyat mulkinging sultoni |

Tasviriy ifodalarni tuzilish jihatidan ham oddiy va murakkab kabi turlarga boʻlishi mumkin. Oddiy perifrazalar bir dominant va bir eksplikantdan iborat boʻladi, masalan, “oq oltin” - paxta). Ammo murakkab perifrazalar bir dominant va ikki yoki undan ortiq eksplikantdan iborat boʻladi, masalan, “kitoblar dengizi”, “kitoblar makoni” – kutubxona.

Perifrazalar ifodalanayotgan fikrga qoʻshimcha maʼno yuklash vazifasini bajaradi. Bu maʼlum bir soʻz yoki iborani almashtirish uchun qoʻllanadigan ifodalar hisoblanadi, yaʼni aytilmoqchi boʻlgan fikrni boshqacha soʻzlar bilan ifodalash perifrazalarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Perifrazalarga turli *lingvistik funksiyalar* xos boʻlib, ularni quyidagicha belgilash mumkin:

- ✓ estetik vazifa – tasviriy ifodalar nutqni bezash bilan birgalikda uning yanada jozibador va taʼsirli boʻlishini taʼminlaydi;
- ✓ maʼno farqlarini yetkazish – bir soʻzning turli maʼnolari hamda ular orasidagi farqlarni ochib berishda perifrazalar muhim ahamiyat kasb etadi;
- ✓ tushuncha berish – oʻquvchilarga noaniq boʻlgan hukmni yetkazishda tasviriy ifodalarni qoʻllash maqsadga muvofiq;
- ✓ fikrni yashirish – aytilmoqchi yoki nazarda tutilgan fikrni oʻquvchidan sir tutish yoki muloyimlashtirish maqsadida tasviriy ifodalardan foydalanish mumkin.

Perifrazalarning lingvistik xususiyatlari uning terminologik apparatini tasniflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular majoziylikni aks ettirib, toʻgʻridan toʻgʻri nomlanmagan tushunchalarni yoritishda qoʻllanadi. Bundan tashqari, perifrazalar tushunchalarni aniq, yorqin va obrazlilikka xos tarzda namoyon etadi. Perifrazalar aks ettirgan maʼno koʻp maʼnoli hisoblanib, undagi qaysi maʼnoni tanlab olish bevosita kontekstga bogʻliq holda yuzaga keladi. Tasviriy ifodalar turli nutq usullarida, asosan, soʻzlashuv, publisistik va badiiy uslublarda, qisman ilmiy uslubda ham qoʻllanadi. Nutqiy muloqot jarayonida perifrazalardan unumli foydalanish til boyligini oshirish bilan birgalikda undagi turli xil tushunchalarni ham ifodalash imkonini beradi.

Perifrazalar lingvistik jihatdan grammatik moslashuvchanlikka ega. Yaʼni u gapda qoʻllanganda turli grammatik vazifalarni bajarishi mumkin, xususan, gapning qaysi maʼnoviy sifatini ifodalashiga koʻra, asosan, ot, sifat yoki feʼl vazifalarini bajarish *perifrazalarga xos grammatik funksiya* sanaladi.

Perifrazalar bajargan funksiya tanlangan soʻzning mohiyatiga koʻra tushuntirish, ifodaviylikni aks ettirish yoki majoziylikni yuzaga keltirish maqsadida namoyon boʻladi. Perifrazalarda *tarixiy oʻzgaruvchanlik* ham mavjud boʻlib, tilning rivojlana borishi bilan oʻzgaruvchanlik xususiyati yaqqol namoyon boʻladi, yaʼni eski perifrazalar yoʻqolib, oʻrnini yangisi egallaydi. Umuman olganda, perifrazalarni tilda qoʻllash tilning ifodaviylik xususiyatini namoyon etadi.

Perifrazalar orqali tilga xos boʻlgan nafaqat leksik-semantik, balki *lingvokulturologik* xususiyatlar ham namoyon boʻladi. Ular, koʻpincha, maʼlum madaniyatdagi muayyan tushunchalarga asoslanib, qadriyatlar hamda anʼanalarga muvofiq tarzda shakllanadi. Jumladan, oʻzbek tilidagi mavjud “hayot manbayi” perifrazasi *suvs* leksikasiga nisbatan qoʻllanib, suvning oʻzbek xalqi orasida eʼzozlanishidan darak beradi. Tasviriy ifodalar til egalari milliy dunyoqarashi, fikrlash yoʻsini hamda xalqqa xos milliy madaniy fonni ifodalaydi. Bundan tashqari, perifrazalardagi ifodaviylik orqali millat vakillariga xos milliy xarakterni ham bevosita anglash mumkin. Perifrazalarning yana bir oʻziga xos xususiyatlaridan biri bu ulardagi tarixiy voqealarning namoyon boʻlishidir. Masalan, Sohibqiron Amir Temurga nisbatan qoʻllangan “Temurlang” ifodasi unga nisbatan ayrim manbalarda keltirilgan tasviriy ifoda hisoblanib, uning oyogʻidagi jarohati uning ushbu perifraza bilan atalishiga sabab boʻlgan. Tasviriy ifodalar bevosita *diniy eʼtiqod* bilan ham bogʻlanadi va unda diniy mazmun ham namoyon boʻladi. Masalan, Alloh taboraka va taologa nisbatan qoʻllanuvchi “Olamlar egasi”, paygʻambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamga nisbatan ishlatiladigan “koinot sarvari” perifrazalari shular jumlasidandir. Perifrazalarning lingvokulturologik xususiyatlarini oʻrganish til va madaniy hayotning oʻzaro bogʻliqligini anglashga yordam beradi. Ular orqali millat madaniyatiga xos dunyoqarash, milliy mentalitet, xarakter kabi sifatlar yorqin namoyon boʻladi.

Bundan tashqari, perifrazalar *psixolingvistik* xususiyatga ham ega boʻlib, ular quyidagilar orqali yaqqol koʻzga tashlanadi. Nutqiy muloqot jarayonida tasviriy ifodalardan oʻrinli foydalanish inson tafakkurida soʻzlarni qayta ishlash, uzatilayotgan maʼnoni tushunish hamda maʼlumotlarni uzatish jarayoniga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Nutqiy jarayonda perifrazalardan foydalanishda maʼlumotlarni qayta ishlash inson tafakkuri bilan oʻzaro bogʻliq boʻlib, bu kontekstga bogʻliq ravishda amalga oshiriladi. Perifrazalar, asosan, kontekstga bogʻliqdir, yaʼni ularning mazmuni aytilgan kontekstga qarab oʻzgaradi. Bundan tashqari, maʼlumotlarni uzatish va qabul qilishda perifrazalarning *psixolingvistik* xususiyatlarini tadqiq etish ularning asosiy jarayonidir. Bu bir necha bosqichdan iborat boʻlib, ular quyidagilardir:

1. *Maʼlumotlarni qabul qilish.*
2. *Perifrazalarning miyadagi tahlil jarayoni.*
3. *Qayta ishlash bosqichi.*
4. *Maʼlumotlarni anglash, ularning oʻzaro bogʻlanishi hamda umumiy maʼnosini aniqlash.*

Perifrazalarning inson nutqida qoʻllanishi soʻzlarning yangi maʼno qirralarini ochishga yordam beradi. Bundan tashqari, aytilgan soʻz birliklari inson xotirasida yaxshi saqlanib qolishi uchun ham perifrazalarning ahamiyati beqiyos. Xususan, maktab taʼlimida boshlangʻich sinflarni oʻqitish jarayonida perifrazalardan unumli foydalanish orqali oʻquvchilarning uzatilayotgan maʼlumotlarni koʻproq yodda saqlab qolishlarida qoʻl keladi. Sababi, oddiy soʻzga nisbatan perifrazalar nisbatan koʻp maʼlumot tashib, insonlarning eslash qolish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Qoʻshimcha sifatida aytish mumkinki, perifrazalarning dominant va eksplikant qismlarini birgalikda takrorlash orqali ham uning maʼnosi yana ham yaxshi xotirada saqlanishi mumkin.

Xulosa. Muloqot jarayonida perifrazalardan foydalanish nutqning aniqligini taʼminlaydi. Sababi, uzatilayotgan mazmun qoʻshimcha maʼno orqali boyitiladi. Tasviriy ifodalar orqali soʻzlar jamlanmasi yaratilib, yangi mazmun hosil qilinadi. Ularning *psixolingvistik* xususiyatlari odamlarning miyasida soʻzlarni qayta ishlash, maʼnoni tushunish va ifoda etish jarayonlariga bevosita taʼsir qiladi. Bundan tashqari, perifrazalar oʻziga xos *pragmatik* xususiyatlarga egaki, bunda ularning maʼnosi va taʼsiri foydalanuvchi hamda tinglovchilar oʻrtasidagi oʻzaro muloqot kontekstida yaqqol namoyon boʻladi. Ular asosan, oddiy birliklarga qaraganda nutqiy muloqot jarayoniga hissiy boʻyoq bagʻishlaydi. Masalan, “qoʻl mehnati” tasviriy ifodasi orqali faqatgina ishlab chiqarish jarayoni koʻrsatibgina qolmay, balki mahsulotga mehr bilan yondashuv mavjudligi emotsiyasi ham aks ettiriladi. Bozor mahsulotlari orasida ham ushbu mehnat turining qadrlanishi bejizga emas. Perifrazalardan muloqot jarayonida foydalanish yordamida tinglovchiga maʼlumotni toʻliq va batafsil yetkazish mumkin. Jumladan, birgina “aql

gimnastikasi” tasviriy ifodasi orqali matematika va shaxmat aks ettirilsa-da, ular bilan shug‘ullanish jarayonida tafakkurdan foydalanish, aqlni ishlatish kabilar ushbu ifodaning asosiy xususiyati o‘laroq namoyon bo‘ladi. Perifrazalardan nutq jarayonida foydalanishda shaxsiylashtirish ham ko‘zga tashlanadi. Bunda ulardagi muloqot uslubi hamda so‘zlovchining shaxsiy fikrlari perifrazalar orqali uzatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Allayorova Sh. Perifrazaning tilshunoslikdagi vazifalari va xususiyatlari//O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 4-jild. – №4. – 2022. – B. 1192-1195.
2. Geoffrey L. Principles of Pragmatics. Computation of Language, 1983. – 264 p.
3. Ilyina I.Z. Praphrase and stylistic features in the English fiction. – Moscow: 1954. – 246 p.
4. Ozhegov S.I. Distionary of Russian language. – Moscow: 1987. – 852 p.
5. Rosenthal D.E. Russian Practical stylistics. – Moscow: 1974. – 243 p.
6. Skrebnev Y.M. Sketch on the theory of stylistics. – Gorky: 1975. – 226 p.
7. Yartseva V.M. Linguistic Encyclopedic Distionary. – Moscow: 1990. – 542 p.
8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: КомКнига, 2007. – С. 556.
9. Бытева Т.И. Перифраз как экспрессивная единица языка: к особенностям семантики/ Семантика и прагматика текста. – Барнаул, 1999. – С. 27-32.
10. Виноградов В.В. Русский язык. – Москва: Учпедгиз, 1938. – 64 с.
11. Гаджиев Э.Н., Бекеева Р.К. Перифраза и явление повторной номинации в общем и тюркском языкознании. – М.: ДГПУ, 2016. – 146 с.
12. Грехнева Л.В. Особенности перифрастической номинации //Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского, 2009. – № 6 (2). – С. 207-210.
13. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Т.: Фан, 2000. – 242 б.
14. Орлова В.И. Субстантивные перифразы в современном русском языке // Рус. яз. в шк., 1982. – №3. – С. 81-84.
15. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – Москва: Просвещение, 1985. – 288 с.
16. Разинкина Н.М. Функциональная стилистика английского языка. - М.: Высшая школа, 1989. – 244 с.
17. Синельникова Л.Н. О взаимодействии тропов (метафора перифраз сравнений) в контексте стихотворений// Вопросы синтаксиса и лексики в современном русском языке (сборник трудов). – М.: 1973. – С. 115-129.
18. Теучеж З.Г. Парафраза и перифраза: понятийное и терминологическое разнрания “Кубанский научный медицинский вестник”. – Краснодар, 2006. – № 11. – 80 с.
19. Умиров И. Ўзбек тили перифразалари. Филол.фан. номз. дисс. автореф. –Т., 1996. – 236 б.
20. Шмелев Д.Н. Происхождение и развитие русского языка. – Москва: ФЛИНТА, 1972. – 280 с.
21. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. Изд. 3-е стер. - М.: Издательство ЛКИ, 2007. – 174 с.
22. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Category:Linguists_of_English
23. www.wikipedia.org

*Xolova Madina Boboqulovna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti
Ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi
(O'zbekiston)*

E-mail: madinaxolova1987@gmail.com

BADIIY MATNLARNING LINGVOMADANIY TAVSIFI VA TAHLILI

Annotatsiya. Badiiy matn madaniy jihatlarni tushinishda alohida o'rin tutadi, chunki u turli xil lingvistik elementlar amalga oshiriladigan murakkab lingvistik asardir. Har bir muallif o'zining fikrlari va voqelikni idrok etishini aks ettiruvchi o'ziga xos dunyosini yaratadi, bu unga hayot va inson haqidagi g'oyalarini boshqa odamlarga yetkazish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda badiiy matnning madaniy kod sifatida ahamiyati, uning milliy tafakkur va tarixiy kontekstni aks ettirishdagi roli o'rganiladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani o'z xalqining madaniyati, qadriyatlarini va tarixiy voqealarini badiiy tasvir orqali namoyon etadi, bu esa o'quvchiga millatning o'ziga xosligini, urf-odatlarini va mentalitetini tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, badiiy asar, madaniy kod

Аннотация. Художественный текст занимает особое место в понимании культурных аспектов, поскольку он является сложным лингвистическим произведением, в котором реализуются различные лингвистические элементы. Каждый автор создает уникальный мир, отражающий его взгляды и восприятие реальности, что позволяет ему передать свои идеи о жизни и человеке другим людям. В данном исследовании рассматривается значение художественного текста как культурного кода, его роль в отражении национального мышления и исторического контекста. Роман Абдуллы Кадыри "Уткан кунлар" ("Минувшие дни") через художественное изображение раскрывает культуру, ценности и исторические события своего народа, что помогает читателю понять уникальность нации, её традиции и менталитет.

Ключевые слова: художественный текст, художественное произведение, культурный код.

Abstract. The artistic text serves a crucial function in the comprehension of cultural dimensions, as it represents a complex linguistic construct wherein various linguistic elements are manifested. Each author constructs a distinct world that mirrors their thoughts and perceptions of reality, thereby enabling them to communicate their ideas concerning life and humanity to others. This study examines the significance of the artistic text as a cultural code and its role in reflecting national consciousness and historical context. Abdulla Qodiri's novel "O'tkan kunlar" exemplifies the culture, values, and historical events of his people through artistic representation, facilitating the reader's understanding of the nation's uniqueness, traditions, and mentality.

Keywords: literary text, literary work, cultural code.

Kirish. Til milliy tafakkur xususiyatlarini aks ettiruvchi madaniyatning muhim qismi va uni rivojlantirishning asosiy vositasidir. Yuriy Lotmaning fikriga ko'ra, til nafaqat madaniy xususiyatlarni ifodalaydi, balki o'zi ham madaniyat tashuvchisidir, chunki u matnlarda shakllanadi (Lotman, 1990). Edvard Sapirning ta'kidlashicha, madaniyat jamiyat nima qilayotgani va o'ylayotganini ifodalaydi, til esa bu fikrlarni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi; bundan tashqari, tilning mazmunini madaniyatdan ajratib bo'lmaydi (Sapir, 1949).

Yevgeniy Vereshchaginning ta'kidlashicha, adabiy matnlar voqelikning oddiy aksi emas, balki voqelikning ongli ravishda qurilgan modellaridir (Vereshchagin & Kostomarov, 1970). Nina Valginaning qo'shimcha qilishicha, adabiy matnlar assotsiativ va obrazli tafakkur asosida, badiiy bo'lmagan matnlar esa mantiqiy fikrlash asosida yaratilgan. Shu bilan birga, badiiy matnlar uchun subyektiv va emotsional jihatlardan, nobadiiy matnlar uchun esa obyektiv va mantiqiy jihatlardan muhim ahamiyatga ega (Valgina, 2003).

Vladimir Belyaninning ta'kidlashicha, adabiy matnda muallif o'zi tanish bo'lgan voqelik parchalarini tasvirlaydi va u uchun shaxsiy ma'noga ega bo'lgan lingvistik elementlardan foydalanadi. U badiiy matnning ham voqelik hodisasi, ham uni til elementlari orqali aks ettirish usuli ekanligini ta'kidlaydi (Belyanin, 1988). San'at asari voqelikni anglash va hayotiy materialni badiiy qayta ko'rib

chiqish natijasi bo'lgan til va ruhning yaxlitligini ifodalaydi. Demak, asardagi har bir so'zning o'z maqsadi va mazmuni bor.

Asosiy qism. Badiiy matn megamatn deb nomlanuvchi kengroq madaniy kontekstga mos keladigan muhim elementdir. Muayyan tarixiy davrda yaratilgan har bir adabiy matn o'sha davrning madaniy xususiyatlari bilan bir qatorda o'zi mansub bo'lgan xalqning o'ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Bu dunyoni idrok etish va ma'lum bir jamiyatdagi odamlarning o'zaro munosabatini shakllantiradigan asoslar, an'analar va mentalitetni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, adabiy matn nafaqat madaniy va tarixiy xususiyatlarni qayd etadi, balki muallifning shaxsiyati, shaxsiy tajribalari va hayotga bo'lgan qarashlarini ham o'z ichiga oladi.

O'quvchi badiiy matnga sho'ng'iganda uning mazmunini idrok etibgina qolmay, balki avvalgi avlodlar tomonidan to'plangan madaniy tajribani ham o'zlashtiradi. Asarni o'qish orqali inson matnga kiritilgan madaniyat me'yorlari va qadriyatlarini tushunish va o'zlashtirishni boshlaydi. Shunday qilib, o'quvchi shunchaki tashqi kuzatuvchiga aylanmaydi; u madaniy kodni yetkazish va o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi. Ushbu kod har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan va vaqt o'tishi bilan o'zligini saqlab qolishga yordam beradigan ramzlar, ma'nolar va an'analar to'plamidir.

Badiiy matnlar ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik tajribani "uzatuvchi kanal" bo'lib xizmat qiladi. Ular insoniyat madaniyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va uning xilma-xilligida sivilizatsiyani saqlashga yordam beradi. Adabiyot asarlarida turli xalqlarning tili, madaniyati va tafakkur tarzidagi farqlar qayd etilgan. Bu farqlar, ayniqsa, har bir til madaniyatining milliy o'ziga xosligini yaqqol ifodalovchi badiiy adabiyot prizmasi orqali sezilarli bo'ladi. Badiiy matnlardagi milliy-madaniy ma'lumotlarni madaniy kod sifatida tavsiflash mumkin. Bu kod har qanday xalqning mavjudligi va rivojlanishining asosidir. Xalq davom etishi va rivojlanishi uchun o'zining madaniy kodini saqlab qolishi kerak – bu uning o'ziga xosligi uchun o'ziga xos asosdir. Ushbu kodning badiiy asarlarda mustahkamlanishi uni nafaqat bir millat doirasidagi kelajak avlodlarga, balki boshqa xalqlarga ham yetkazish imkonini beradi, bu esa o'zaro tushunish va madaniy qadriyatlar almashinuviga yordam beradi.

Muhokama va natijalar. Madaniy kod ko'pincha milliy mentalitet deb ham ataladi. U nafaqat an'ana va urf-odatlarini, balki fikrlash, dunyoni idrok etish va turli hodisalarga hissiy munosabatni ham o'z ichiga oladi. Har bir xalqning o'ziga xos mentaliteti shakllanadi, bu uning tilida, san'atida, kundalik hayotida namoyon bo'ladi. Badiiy asarlar ana shu mentalitetni aks ettiruvchi o'ziga xos oynaga aylanadi va shu orqali o'quvchiga nafaqat matnning o'zi, balki u paydo bo'lgan madaniyatni ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Badiiy matnni lingvomadaniy ma'lumotlar manbayi sifatida o'rganishni o'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiyoti roman janridagi ilk asar sifatida tanilgan "O'tkan kunlar" romani misolida ko'rsatish mumkin. Asarda o'z xalqining o'tmishi, milliy madaniyati va qadriyatlariga bo'lgan sobit munosabat, millatning kelajagini uning erkida, ozodligida, ma'rifatida ko'rish, o'zbekona tafakkur, o'zbekona urf-odat, o'zbekona xarakter va obraz, o'zbekona mentalitetni betakror badiiy tasvir vositalari orqali tasvirlab berish Abdulla Qodiriyning bosh maqsadi bo'lgan. Shuning uchun ham asarni o'zbek xalqi qadriyatlarining badiiy "qomusi" deyishimiz mumkin.

Romandagi uchlik – oshiq, ma'shuqa va ag'yor, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo'r mahorat bilan ko'rsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir "durri bebaho" – ishq-muhabbat tuyg'usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi. Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiviy sahnalar kishini chuqur o'yga toldiradi. Muallif oshiqning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Ayni damda o'lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolardir, degan fikrni g'oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.

Abdulla Qodiriy so'zida o'quvchini o'ziga bog'lab turadigan, insonni o'ziga ohanrabodek tortadigan quvvat bor. Buni o'quvchi sezmasligi mumkin emas. Aynan so'zning ta'siri bois Kumush o'lgan sahnada ho'ng-ho'ng yig'laydi kitobxon. Aytmoqchi, bu epizodning o'zi yig'lab yozilgan. Demak, adibning titragan, ichikkan, o'ksigan yuragi shu sahifalarga ko'chgan. Badiiy ijoddagi bir qonuniyat

shuki, mujmal tasavvurlar mujmal ifodalanadi, yig'lab yozilgan sahifalar yig'lab o'qiladi. Chinakam adibning estetik dunyosi, ijodkor qalbi ana shunday sahifalarga muhrlanadi.

